

**Sh.N.XAYITOV, S.N.YULDASHEVA, A.Ch.BOBOYEV,
B.T.MUXSINOV**

O‘ZBEKISTONDA SOLIQ TIZIMI VA XUSUSIY TADBIRKORLIK

**BAKAVLAVRIAT NOIQTISODIY TA’LIM
YO’NALISHLARI
TALABALARI UCHUN**

O’QUV QO’LLANMA



Buxoro 2020 yil

Taqrizchilar:

Xamrayev H.R. – Bux DU dotsenti, .i.f.n.

Ochilov Sh.B. – BMTI, «Menejment» kafedrası dotsenti, .i.f.n.

Bu o'quv qo'llanmada xususiy tadbirkorlik faoliyati, xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning tashkiliy–huquqiy asoslari, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning bank, soliq va audit bilan bo'ladigan aloqalari, soliq to'lovchilardan undiriladigan soliqlar va soliqsiz to'lovlarning zarurligi, ularni hisoblash va byudjetga jalb qilish bilan bog'liq moliyaviy munosabatlarning mohiyati, shuning bilan birgalikda soliq organlari tomonidan ishlab chiqilgan me'yoriy hujjatlar asosida O'zbekistonda amal qilayotgan soliqlar va soliqsiz to'lovlar bo'yicha nazariy hamda amaliy tamoyillar keng yoritilgan.

O'quv qo'llanma oily ta'lim tizimidanoiqtisodiy ta'lim olayotgan bakalavrlar uchun mo'ljallangan.

MUNDARIJA:

Kirish	4
1-mavzu: Tadbirkorlik va soliqning mohiyati, ahamiyati.	6
2-mavzu. Xususiy tadbirkorlik va kichik biznes faoliyatini tashkil etish, rejalashtirish va boshqarish	37
3-mavzu. Xususiy tadbirkorlik va kichik biznes sub'yektlariga xizmat ko'rsatuvchi bozor infratuzilmalari.	54
4-mavzu. Xususiy tadbirkorlik va kichik biznes sub'yektlarida ishlab chiqarish xarajatlari va samaradorlik ko'rsatkichlari tahlili.	64
5-mavzu. O'zbekiston Respublikasi soliq tizimi va soliq munosabatlari sub'yektlarining huquq hamda majburiyatlari	84
6-mavzu. Soliq solishning soddalashtirilgan tartibi.	95
7-mavzu. Jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlar va yig'imlar	118
8-mavzu. Yuridik shaxslardan olinadigan soliqlar	143
9-mavzu. Qo'shilgan qiymat solig'i va aksiz solig'i. Davlat maqsadli jamg'armalarga ajratmalar.	183
Glossariy	214
Foydalanilgan adabiyotlar	226

KIRISH

Ushbu qo'llanma bugungi kunda jahon iqtisodiyotining jadal rivojlanish holatlarini inobatga olgan holda barcha tarmoq va yo'nalishlarda ro'y berayotgan ulkan o'zgarishlar tadbirkorlik faoliyati jadallashuvi va soliqlarning soddalashtirilishi O'zbekiston iqtisodiyotining ham tobora rivojlanib borishiga asoslanadi.

Tadbirkorlik jamiyat rivoji va iqtisodiyot uchun juda muhim ahamiyat kasb etadi. Tadbirkorlik faoliyati iqtisodiyotimizning asosiy tayanch nuqtasi, tadbirkorlik sub'yektlari esa jamiyatimizning obod farovonlik va mo'l-ko'lchilik bunyodkorlari hisoblanadi. Ayni paytda tadbirkorlarga keng yo'llar ochilib ular faoliyati bir necha farmonlar va qarorlar bilan soddalashtirilyapti, ayniqsa bu soliq siyosatida yaqqol namoyon bo'lyapti.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 29 iyundagi "O'zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi to'g'risida"gi farmoni imzolandi. Mavjud tizimli muammolarni bartaraf etish 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustivor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan soliq yukini kamaytirish va soliq tizimini soddalashtirish, soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish vazifalarini amalga oshirish maqsadida Soliq konsepsiyasining asosiy yo'nalishlari 2019-2020 yillarda o'z ifodasini topdi.

Iqtisodiyotni erkinlashtirish va islohotlarni chuqurlashtirish davlatnng soliq siyosatiga chambarchas bog'liqdir. Soliqlarni chuqur o'rganish va ularni to'g'ri qo'llashni o'rganish har bir kishi uchun muhimdir. Bakalavriat bosqichining noiqtisodiy ta'lim yo'nalishlarida "O'zbekistonda soliq tizimi va xususiy tadbirkorlik" fanini o'qitish jarayonida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning mohiyati, ular turlari va shakllari, soliqlarning nazariy masalalari, jumladan, soliklarning iqtisodiy mohiyati, xususiyatlari, ularning ob'yektiv zarurligi, soliq to'lovchilarning majburiyatlari va huquqlari, tadbirkorlarni, yuridik va jismoniy shaxslarni soliqqa tortish masalalari atroflicha o'rganiladi.

"O'zbekistonda soliq tizimi va xususiy tadbirkorlik" fani barcha noiqtisodiy bakalavriat ta'lim yo'nalishlarida o'qitilishga mo'ljallangan.

"O'zbekistonda soliq tizimi va xususiy tadbirkorlik" fanidan o'quv qo'llanmada xususiy tadbirkorlik faoliyati, xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning tashkiliy-huquqiy asoslari, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning bank, soliq va audit bilan bo'ladigan aloqalari, soliq to'lovchilardan undiriladigan soliqlar va soliqsiz to'lovlarning zarurligi, ularni hisoblash va byudjetga jalb qilish bilan bog'liq moliyaviy munosabatlarning mohiyati, shuning bilan birgalikda soliq organlari tomonidan ishlab chiqilgan me'yoriy hujjatlar asosida O'zbekistonda amal qilayotgan soliqlar va soliqsiz to'lovlar bo'yicha nazariy masalalar o'z o'rnini topgan.

Ushbu o'quv qo'llanma talabalarning xususiy tadbirkorlik va kichik biznes faoliyatini rivojlantirish yo'nalishlari, xususiy tadbirkorlikni soliqqa tortish, ulardan olinadigan soliq turlari va soliq imtiyozlari, soliq yukini kamaytirishga qaratilgan soliq siyosati bo'yicha ilmiy dunyoqarashlarini shakllantirishga xizmat qiladi.

1-MAVZU: TADBIRKORLIK VA SOLIQNING MOHIYATI, AHAMIYATI.

Reja:

1.1.Tadbirkorlikning nazariy rivojlanishi, faoliyatining iqtisodiy, ijtimoiy, huquqiy asoslari hamda tur va shakllari.

1.2.Xususiyl tadbirkorlikning rivojlantirishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning xorij tajribasi.

1.4. Soliqlarning iqtisodiy mohiyati va ularning ahamiyati.

1.5. Soliq elementlari va soliqqa tortish tamoyillari.

Tayanch iboralar: Tadbirkorlik, xususiyl tadbirkorlik, kichik biznes, konsalting, soliqlar, majburiyl to'lovlar, yig'im, fiskal, soliq ob'yekti va sub'yekti.

1.1.Tadbirkorlikning nazariyl rivojlanishi, faoliyatining iqtisodiy, ijtimoiyl, huquqiy asoslari hamda uning tur va shakllari.

Tadbirkorlik tarixiy ijtimoiyl - iqtisodiy kategoriya bo'lib, u tadbirkorlik va tadbirkorlik faoliyati to'g'risidagi turlicha qarashlar mavjudligi bilan tavsiflanadi. Bu faoliyatning ilmiyl, tashkiliyl, huquqiy asoslarini va uning amal qilish mexanizmlarini tadqiq etish taqozasi kuchayib borganligidadir.

Iqtisodiy adabiyotlardagi ilmiyl qarashlarda original va ziddiyatli holatlarning mavjudligi tufayli tadbirkorlikning rivojlanish bosqichlari o'ziga xos xususiyatlari bilan tavsiflanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, bu faoliyat turlicha ijtimoiyl-iqtisodiy sharoitlarda olib borilganligi sababli ham, shu soha faoliyati to'g'risidagi ilmiyl qarashlar va iqtisodchi mutaxasislarning talqinlari turlichadir.

Tadbirkorlik o'ziga xos murakkab ijtimoiyl va iqtisodiy fenomen sifatida uzoq tarixiy rivojlanish bosqichlarini bosib o'tgan hamda har bir bosqichda davrning o'zgarishlari, uning mohiyatida hamda mazmunida ifoda etib borgan.

«Tadbirkorlik» tushunchasi XVIII asrda shakllangan bo'lsada, uning evolyutsiyasi bizning zamonda ham davom etmoqda. Bu tushuncha o'sha davrdagi mashhur iqtisodchilari R.Kantil'on, A.Tyurgo, F.Kene, A.Smit, J.B.Sey va boshqalar tomonidan tadbirkorlik faoliyatini ilmiyl tadqiq qilish natijasida shakllangan.

Tadbirkorlik tushunchasi qariyb uch asr nazariya va amaliyotda qo'llanib kelinayotganiga qaramay uning universal ta'rifi shakllanmagan va ko'p ma'noligi saqlanib kelmoqda. Buning asosiy sababi tadbirkorlikning ko'p qirrali, ko'p sohali, ko'p tarmoqli, ko'p shaklli murakkab faoliyatda bo'lishidir.

Tadbirkorlik faoliyatining rivojlanishi o'zining tarixiga ega bo'lib, uning huquqiy va iqtisodiy sub'yekt sifatida shakllanishi sinfiyl tasnifga molikdir.

Birinchil marotaba iqtisodiy adabiyotlarda «tadbirkorlik» iqtisodiy kategoriyasi 1723 yilda Parijda chop etilgan «Всеобщий словарь коммерции» lug'atida berilgan. O'sha davrda tadbirkorlik faoliyatiga asos solingan bo'lib, u tadbirkorlik erkinligiga

va raqobatlariga asoslangan edi. Shuningdek, tadbirkorlik faoliyatining rivojlanishi iste'molchilarning erkinligi va ularning istagan buyumlarini tanlash va xarid qilish qobiliyatlariga ham bog'liq deb hisoblangan.

Tadbirkorlik faoliyatida qatnashuvchi tadbirkor va ishlab chiqarish sub'yekti bo'lgan tadbirkor bilan hamda uning ishlab chiqarayotgan xom ashyolarini, mahsulotlarini iste'mol qiluvchi sub'yektlar o'rtasida doimiy ravishda raqobat mavjud bo'ladi. erkin raqobat ishlab chiqarish jarayonining rivojlanishini, uning tarkibini takomillashishini, ishlab chiqarish texnologiyalarining yangilanib borishini, mahsulotlar sifat darajasining oshib borishiga va iste'molchilar tomonidan xarid qilish narxlarining arzonlashuviga olib keladi.

Tadbirkorlik faoliyatiga birinchi marotaba ilmiy tus bergan olim ingliz iqtisodchisi Richard Kantil'on hisoblanadi. Tadbirkorlik nazariyasining asoschisi Richard Kantil'on tadbirkorlik faoliyatiga baho berib, tadbirkorlar «foyda olish maqsadida o'zlarini o'tga-cho'qqa urib bo'lsa ham, bozor ayirboshlashiga intiluvchi kishilarning yangi qatlami paydo bo'ldi» degan edi. Uning fikricha, tadbirkor foyda olish maqsadida tadbirkorlik bilan bo'ladigan xarajatlar bo'yicha ma'suliyatni o'z bo'yniga olgan holda, ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan ishlab chiqarish vositalarini ma'lum narxda sotib oladi, ammo ishlab chiqargan mahsulotni qaysi narxda sota olishni o'zi bilmaydi.

Hozirgi zamon iqtisodchilari amaliyotda «tadbirkor», «kichik biznes» va «kichik tadbirkorlik» tushunchalarini bir xil ma'noga ega deb hisoblaydilar. Iqtisodiy adabiyotlarda «tadbirkor», «kichik biznes» va «kichik tadbirkorlik» tushunchalari to'g'risida olimlar tomonidan berilgan turli ta'riflar mavjud. Ayrim iqtisodiy adabiyotlarda «kapitalizmgaacha biznes bo'lmagan degani, iqtisodiyot bo'lmagan deyish bilan barobardir. Ammo biznes kategoriyasi kundalik ilmiy muomalaga kapitalizmga o'tish davrida kiritilgan»¹ deb tushuntirsalar, iqtisodchilardan S.S. Gulyamov, A.F. Dogil', B.A. Semenov - «Biznes tadbirkorlikka nisbatan keng ma'noga ega. Tadbirkorlik faoliyati biznes faoliyatining bir shakli sifatida iqtisodiyotning turli sohalarida amalga oshiriladi»² deb hisoblaydilar. Lekin tadbirkorlik iqtisodiyotning qaysi tarmoqlarida rivojlanishi zarurligi va biznesni tadbirkorlikdan nimalar bilan farqlanishi ochib berilmagan.

I.A. Arxipov esa «Biznes foyda olish uchun bo'lgan ishlab chiqarish, bandlik, tadbirkorlikdir»³ deb hisoblaydi, lekin biznes sub'yektlari kim va ularning faoliyati nimalarga asoslanishi yoritib berilmagan.

Biznes pul topishga, foyda olishga yo'naltirilgan iqtisodiy faoliyat. U xo'jalik ko'lamiga qarab yirik, kichik va xususiy turlariga bo'linadi. Shu bilan birga biznes bir qancha ma'nolarga ega: a) mutaxassislik; b) tijorat faoliyati; v) savdo korxonasi,

¹ Рыночная экономика в 2х томах. – М.: СОМИТЕК. 1992. с. 211.

² Гулямов С.С., Догиль А.Ф., Семенов Б.А. Предпринимательство и малый бизнес. - Т.; 1997. с. 33-34.

³ Архипов И.А. Экономический словарь. - М.: Проспект, 2001. с. 47.

firma; g) foydali bitim.⁴ Lekin bu ma'nolarning mazmuni, qanday tashkil topish mohiyati yoritib berilmagan. Tadbirkorlik faoliyatiga ijtimoiy-iqtisodiy nazardan qaraganda bu faoliyat ma'lum huquqiy, iqtisodiy va tashkiliy xavf-xatardan xoli bo'lmagan faoliyat bo'lib, u talab va taklif qonuni asosida harakatda bo'ladigan jarayondir.

Tarixan ilgari tadbirkorlik rivojlanishining ko'p jihatlariga oid fikrlar ham SHarqda shakllanib, tovar-pul munosabatlari dastlab shu erda rivojlangan.

Qadimiy «Avesto»da, Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Alisher Navoiy, Bobur va Ulug'beklar asarlarida milliy tadbirkorligimizning qator qirrali tomonlari tadqiq etilgan, xususan, Amir Temurning «Tuzuklari»da alohida ahamiyat kasb etadi.

Amir Temur o'zining iqtisodiyot, siyosat, ijtimoiy hayot, boshqaruv va harbiy sohalardagi barcha olamshumul g'alabalarini, eng avvalo, o'zining tadbirkorlik bilan ish yuritganidan, tadbirkorlikni o'z tafakkuri va harakatining shiori qilib olganligidan deb qaragan.

U o'zining «Temir tuzuklari» nomli asarida bir tadbirkor odamni mingta tadbirsiz odamga almashtirmasligini ta'kidlagan.

Farobiy o'zining «Fozil kishilar shahri» asarida mulkdor bo'lishni, ya'ni tadbirkor bo'lishni yaxshi odat hisoblaydi, chunki bunday odam qashshoq yashamaydi, faqat mulkning miqdoriy me'yori bo'lishi darkor, bunday me'yor bo'lganda avlodlarga zarari tegmaydi deb ko'rsatadi.

Jadidchilar harakatining namoyondalaridan Fitrat «Hind sayohining sayohati» nomli asarida Buxoroning atlas to'quvchi hunarmandiga zamonaviy dastgohlarini Evropa mamlakatlaridan keltirib, jahon andozalaridagi tovarlarni ishlab chiqarib sotishga, shu yo'l bilan o'lkamizning boy xom ashyo manbalarini o'zimizda qayta ishlab foyda olishni ko'paytirishga chaqiradi.

Mustaqillikka erishgandan keyin Respublikamizda tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish yo'nalishida juda ko'p qonuniy hujjatlar, me'yoriy ko'rsatmalar yaratildi. Bu tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishning asoslarini belgilab berdi va tadbirkor sub'yektlari o'rtasidagi munosabatlar ana shu qonunlar orqali tashkil topadi.

Iqtisodchi olimlar «tadbirkor» tushunchasini quyidagicha ta'riflaydilar. «Tadbirkor bu tashabbuskor shaxs bo'lib, boylik yaratish uchun zarur bo'lgan ishlab chiqarish omillaridan foydalanadi. Tadbirkor yakka mulk egasi, shirkat paylariga ega bo'lgan shaxslardir»⁵.

Iqtisodchi olimlar biznes, tadbirkor, tadbirkorlik kabi tushunchalarni turlicha talqin qiladilar va bu borada bir to'xtamga kelinmagan desa ham bo'ladi. Jumladan,

⁴ Одилов А., Сотиволдиев А.А, Муфтайдинов К.Х. Иқтисодиёт назарияси: таянч иборалар ва тушунчалар.- Т.: 2003. Б.16 .

⁵ Борисов Е.Ф. Основы экономической теории. - М.: Новая Волна, 1996. с. 118.

tadbirkorlik ishlab chiqarish jarayonidagi boshqaruvdir. Mehnatda tartib o‘rnatish, ma‘lum ishlab chiqarish faoliyatini boshqarish, ishchi xodimlar faoliyatini nazorat qilishda ifodalanadi⁶. erkin faoliyatli inson, usta, tashkilotchi va rahbarsiz, tadbirkorsiz, bozor iqtisodiyoti bo‘lishi mumkin emas. Tadbirkorlik faoliyati yoki tadbirkorlik – mustaqil shaxs yoki tashabbuskor korxonaning korxona faoliyatini foyda yoki shaxsiy daromad olish uchun xavf-xatarni sezgan holda o‘z mulkiy javobgarligi ostidagi faoliyatidir. Tadbirkorlik faoliyatining asosiy yo‘nalishi: ishlab chiqarish (mahsulot, xizmat ko‘rsatish), tijorat (savdo) va tijorat vositachiligidir. Demak, tadbirkorlik tovar va xizmatlar ko‘rsatish bilan bog‘liq bo‘lgan foydali ishlab chiqarishni tashkil etishdir.

Hozirgi zamon iqtisodiy adabiyotlarida tadbirkorlikka foyda olish maqsadini ko‘zlab xo‘jalik yuritish san‘ati, iqtisodiy va tashkiliy ijodkorlik, tashabbusning erkin namoyon bo‘lishi, novatorlik, xavf-xatarga nisbatan tayyor bo‘lish kabi ko‘plab qirralari bilan birga qaraladi..., Hozirgi kunda bizning iqtisodiy tafakkurimiz, aniqrog‘i, boshqarish nazariyasi ham tadbirkorlik faoliyatini shunday tushunish tomon bormoqda..., tadbirkorlik faoliyati foyda olishga qaratilgan faoliyatdir⁷. Ammo tadbirkorlik faoliyatidan ko‘zlangan maqsad har xil bo‘lishi mumkin va unga erishish tovar xizmatlariga bo‘lgan iste‘mol talabini qondirishga bog‘liq.

Tadbirkorlik faoliyati jamiyat a‘zolarining iste‘mol talablarini qondirish va tadbirkor moddiy manfaatdorligini foyda olish bilan qiziqtirish maqsadida tovarlar va xizmatlarni, ishlab chiqarish omillarini bir korxona darajasida umumlashtirishda ifodalanadi⁸.

Hozirgi vaqtda tadbirkorlik faoliyatining mohiyatini aniqlash usullari ko‘p, uni quyidagilar bilan aniqlash mumkin:

✓ Tadbirkorlik faoliyatining maqsadi foyda olishdir yoki tovarlarni sotish orqali kelgan pul tushumlarini ishlab chiqarish va sotish bilan bog‘liq xarajatlarganisbatan ortiq bo‘lishini ta‘minlashdir;

✓ Tadbirkorlik faoliyatining mazmuni, uning ixtiyoridagi pul, moddiy boylik, mehnat va boshqalardan foydalanishning shunday yig‘indilarini topish kerakki, u belgilangan maqsadga erishishni ta‘minlasin, deb ta‘rif berdilar⁹.

Shuningdek, tadbirkorlik faoliyatining mohiyatini ochishda Q.Muftaydinov tomonidan berilgan ta‘rif o‘ziga xosligi va keng qamrovligi bilan ajralib turadi: «Tadbirkorlik iqtisodiyotni harakatlantiruvchi kuch sifatida iqtisodiy maxofik bo‘lib, bozor iqtisodiyoti sharoitida tadbirkorlik faoliyatini va iste‘mol talablarini e‘tiborga olgan holda kengaytirilgan takror ishlab chiqarishning uzluksizligini ta‘minlaydi»¹⁰, - degan g‘oyani ilgari suradi.

⁶ Барисов Е.Ф. Основы экономической теории М.: Новая Волна 1996, - с. 182.

⁷ Шодмонов Ш., Жўраев Т. Иқтисодий назарияси. Т.: Молия, 2000. б. 121 .

⁸ Экономика. М.: Проспект, 2001. с. 174.

⁹ Учебник по основам экономической теории. М.: 1994. с 134.

¹⁰ Муфтайдинов Ш. Иқтисодий эркинлаштириш шароитида тadbirkorlikни ривожлантириш муаммолари. Док.диссер. 2000 й.

O'zbekiston Respublikasining «Tadbirkorlik to'g'risida» qonunida (1991, 11 fevral') tadbirkorlik – mulkchilik sub'yektlarining foyda olish maqsadida tavakkal qilib va mulkiy javobgarligi asosida amaldagi qonunlar doirasida tashabbus bilan iqtisodiy faoliyat ko'rsatishdir (46, 17 b.)¹¹ deb ta'kidlanadi.

Bugungi sharoitda «tadbirkor» tushunchasi «menejer» tushunchasiga juda yaqin turadi. Shu bilan birga, tadbirkor mulkdor bo'lsa, menejer boshqaruvchidir. Amalda esa, aksariyat mulkdorlar menejer vazifasini bajaradi, qator menejerlar esa o'zlari boshqarib turgan ishlab chiqarish korxonalariga ega bo'lib qolmoqda.

«Tadbirkorlik» tushunchasi tadbirkorning ensiklopedik lug'atida quyidagicha ta'riflanadi:

Tadbirkorlik - (ingl. enterprise) shaxsiy daromad, foyda olishga qaratilgan fuqarolarning mustaqil faoliyati. Bu faoliyat o'z nomidan, o'z mulkiy mas'uliyati va yuridik shaxsning yuridik mas'uliyati evaziga amalga oshiriladi.

Har qanday mamlakatda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanishi, eng avvalo ushbu sektorga nisbatan davlat tomonidan olib borilayotgan siyosatning samaradorlik darajasiga bog'liq.

Davlat tadbirkorlik faoliyatining shakllanishi va rivojlanishi uchun tashkiliy, huquqiy, iqtisodiy, ijtimoiy va boshqa shart-sharoitlarni yaratishda faol qatnashmog'i zarur.

Iqtisodiy sharoitlar - bu birinchi navbatda tovarlarni tavsiya qilish va ularga bo'lgan talab, tovar turlari, pul mablag'larining hajmi, ishchi joylarining taqchilligi yoki ortiqchaligi, ish haqi darajasiga ta'sir ko'rsatuvchi ishchi kuchi, ya'ni ularning tovar sotib olishga bo'lgan imkoniyatlarida namoyon bo'ladi.

Iqtisodiy holatga pul resurslarining mavjudligi va ularni ishlab topish imkoni, investirlangan kapitaldan daromad qilish darajasi, shuningdek tadbirkorlar tomonidan o'zlarining ish operatsiyalarini amalga oshirish uchun murojaat qiluvchi qarz olish manbalarining mavjudligi ta'sir ko'rsatadi.

Bularning hammasi bilan birga turli xil bozor infratuzilmalarini tashkil etuvchi sub'yektlarni tadbirkorlar bilan o'zaro munosabatlarni tashkil etish darajasiga ham bog'liq.

Tadbirkorlikning shakllanishida iqtisodiy shart-sharoitlar bilan bir qatorda ijtimoiy sharoitlarni ham yaratishi zarur. Ijtimoiy omil boshqalarga nisbatan o'zining tarkibi jihatidan anchagina murakkab hisoblanadi. SHuning uchun ham uning tarkibi ko'pgina elementlardan tarkib topgan. Agar tadbirkor ularni e'tiborga olmasa, kelgusida salbiy natijalarga olib kelishi mumkin. Quyidagilar bu omilning asosiy elementlari hisoblanadi:

- ✓ jamiyatda mafkuraning holati;
- ✓ milliy urf-odatlar;
- ✓ millatning madaniy va maishiy odatlari;

¹¹Тадбиркорлик тўғрисида Ўзбекистон Республикаси қонуни. 1991. - 11 февраль.

✓ atrofda kishilarning tadbirkor va tadbirkorlik faoliyatiga bo'lgan munosabati.

Dastavval bu xaridorlar tomonidan ularni qiziqtiradigan tovarlarni sotib olishga bo'lgan intilishlarida namoyon bo'ladi va bu talablar o'zgarib turadi. Tadbirkorlikning shakllanishida tadbirkorlarni tayyorlash, qayta tayyorlash, malakasini oshirish zamonaviy tadbirkorlik faoliyatini yuritish usullariga o'qitishni tashkil etish, xodimlarni o'qitish va qayta o'qitish, ularni rivojlangan davlatlarga ish o'rganishga yuborish, tadbirkorlarni o'qitish uchun o'qituvchi xodimlarni tayyorlash va qayta tayyorlash, konsul'tativ markazlarni tashkillashtirish muhimdir.

Har qanday tadbirkorlik faoliyati ma'lum huquqiy muhitda olib boriladi. Huquqiy omil - tadbirkorlik faoliyatini yuritish yo'lidagi barcha qonunlar (soliq, yer, mehnat munosabatlari) va yo'riqnomalar majmui bo'lib, tadbirkorlik faoliyatini tartibga soladi hamda tadbirkorning iqtisodiy jarayondagi boshqa sub'yektlar bilan munosabatini mujassamlashtiradi. Huquqiy bazaning to'liq yoki bir me'yorda yuritilmasligi tadbirkorlik faolligi darajasiga katta salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasida amaliyotida tadbiriq qilinayotgan iqtisodiy islohotlarning asosini tashkil qilayotgan bir butun huquqiy baza mavjuddir.

Shuning uchun zarur huquqiy shart - sharoitlarni yaratilishining ahamiyati kattadir. Bu borada birinchi o'rinda tadbirkorlar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi, uning rivojlanishi uchun ma'qul sharoitlarni yaratib beruvchi qonunlar turadi. Ya'ni korxonalarning ochilishini va ro'yxatdan o'tkazilishini tezlashtiruvchi va soddalashtiruvchi, soliq tizimini takomillashtiruvchi va boshqa bir qator qonunlar shular jumlasidandir.

Respublikamizda tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishning zaruriy me'yoriy-xuquqiy asosi va qo'llab-quvvatlash tizimi va bozor infratuzilmasi shakllantirilgan bo'lsa ham, ularni doimiy ravishda shakllantirib borish zarur.

Mustaqillik yillarida ushbu sohadagi ishlarni rivojlantirish hamda huquqiy bazasini takomillashtirish maqsadida amalga oshirilayotgan islohotlarni ikki bosqichga bo'lish mumkin.

Birinchi bosqich mamlakatimiz mustaqil taraqqiyotining dastlabki bosqichi, ya'ni 1991 yildan 2000 yilgacha bo'lgan davrga to'g'ri keladi. Bu davrda e'tibor islohotlarning huquqiy asoslarini, avvalombor, qonunchilik bazasini shakllantirish uchun zarur sharoit yaratishga qaratildi.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik, Yer, Soliq, Bojxona kodekslari, «Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to'g'risida»gi, «Banklar va bank faoliyati to'g'risida»gi, «Chet ellik investorlar huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish choralari to'g'risida»gi kabi bir qator qonunlar qabul qilindi. Ular davlat xususiy mulkdorlar huquqlarining himoyachisi ekanligi, tadbirkorlik o'z ishiga bexavotir investitsiya kiritishi, ishlab chiqarish faoliyatini kengaytirish, mahsulot hajmi va olayotgan daromadini ko'paytirishi, o'z mulkiga o'zi

egalik qilishi, foydalanishi, tasarruf etishi kafolatlari huquqiy jihatdan mustahkamlandi.

Bundan tashqari, shu davrda sohaga tegishli bo'lgan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Xususiy tadbirkorlik, kichik va o'rta biznesni rivojlantirishni yanada rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi, «Kichik va o'rta tadbirkorlikni rivojlantirishni rag'batlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi va «Xususiy tadbirkorlikda tashabbus ko'rsatish va uni rag'batlantirish to'g'risida»gi farmonlari qabul qilindi. Ushbu normativ hujjatlar respublika aholisini tadbirkorlik sohasiga keng ko'lamda jalb etishni ta'minlash, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohasida biznesning rolini sifat jihatidan oshirish, davlat, xo'jalik va jamoatchilik tuzilmalarining qulay tadbirkorlik muhitini yaratish kabi masalalarga yo'naltirilgan.

Ikkinchi bosqich, ya'ni 2000 yildan hozirgi kungacha bo'lgan davrda iqtisodiyotni liberallashtirish va modernizatsiya qilish jarayonlarini rivojlantirish sharoitida xususiy mulkning himoyasini yanada mustahkamlash, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlarini yanada to'liq ta'minlashga doir keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilib kelinmoqda.

Ushbu davrda O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirda Soliq kodeksi, «Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida»gi Qonuni qabul qilinib, ularda tadbirkorlik sub'yektlarining mol - mulki asosida amalga oshirilishi mumkinligi va ushbu mol-mulk, shu jumladan, mulkiy huquqlar belgilanishi, o'zgartirilishi, hamda bekor bo'lishi bilan bog'liq oldi sotdi, garov, ijara va boshqa bitimlar ob'yekti bo'lishi mumkinligi, tadbirkorlik faoliyati sub'yektlari uchun qator soliq imtiyozlari, preferensiyalari ko'zda tutildi.

Bundan tashqari, ushbu davrda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab - quvvatlash va rivojlantirish, ishlab chiqarishni modernizatsiya va diversifikatsiya qilish bilan bog'liq munosabatlarni yanada to'laroq tartibga solishga qaratilgan bir qator qonun hujjatlari qabul qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Kichik tadbirkorlik sub'yektlarini moliyaviy - quvvatlash mexanizmini takomillashtirish to'g'risida»gi, «Tadbirkorlik sub'yektlarini huquqiy himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi va «Ta'lim muassasalarining bitiruvchilarini tadbirkorlik faoliyatiga jalb etish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi farmonlari shular jumlasidandir.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasini tartibga soluvchi muhim me'yoriy - huquqiy hujjatlar jumlasiga O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Fuqarolik, Soliq va xo'jalik protsessual kodekslari, «Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonuni hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari va Vazirlar Mahkamasining qarorlari kiradi. Shuningdek, vazirliklar, mahalliy hokimiyat organlari tomonidan bir qator me'yoriy hujjatlar qabul qilingan.

Respublikamizda bozor iqtisodiyotini rivojlantirishga xizmat qiluvchi «Mulk to‘g‘risida»gi, «Korxonalar to‘g‘risida»gi, «Tadbirkorlik to‘g‘risida»gi, «Kichik va xususiy korxonalarni rivojlantirishni rag‘batlantirish to‘g‘risida»gi qonunlar tadbirkorlik faoliyatini olib borishning xuquqiy asosini tashkil etadi.

O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimovning 1994 yil 21 yanvardagi «Iqtisodiy islohotlar xaqidagi choralar, xususiy mulkchilikning himoyasini kafolatlashni ta‘minlash va tadbirkorlikni rivojlantirish to‘g‘risidagi»gi, 1996 yil 8 avgustdagi «Tekshirishlarni tartibga solish va nazorat qiluvchi organlar faoliyatini muvofiqlashtirishni takomillashtirish to‘g‘risida»gi, 1997 yil 31 yanvardagi «Kichik va o‘rta tadbirkorlikni rivojlantirishni rag‘batlantirishga oid qo‘shimcha chora va tadbirlar to‘g‘risida»gi, 1998 yil 9 apreldagi «Xususiy tadbirkorlik, kichik va o‘rta biznesni rivojlantirish chora va tadbirlari to‘g‘risida»gi, «Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida»gi farmonlari va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining «Kichik korxonalar va dehqon fermer xo‘jaliklariga bank va boshqa turdagi xizmatlarni ko‘rsatishni moddiy-texnika ta‘minoti va bojxona imtiyozlari bilan ta‘minlash qo‘shimcha chora va tadbirlari to‘g‘risida»gi qarori, 2003 yil 24 yanvardagi «O‘zbekiston iqtisodiyotida xususiy sektorning ulushi va ahamiyatini tubdan oshirish chora tadbirlari to‘g‘risida»gi, «Tadbirkorlik sub‘yektlarini xuquqiy himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi, 2005 yil 14 iyundagi «Tadbirkorlik sub‘yektlarini xo‘jalik sohasidagi huquqbuzarliklari uchun moliyaviy javobgarligini erkinlashtirish to‘g‘risida»gi, 2005 yil 24 iyundagi «Mikrofirmalar va kichik korxonalarni rivojlantirishni rag‘batlantirish borasidagi qo‘shimcha chora va tadbirlar to‘g‘risida»gi, 2012 yil 20 dekabrda «Tadbirkorlik faoliyati sohasidagi ruxsat berish tartib-taomillari to‘g‘risida»gi qonuni, 2015 yil 28 sentyabrdagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yagona darcha” tamoyili asosida tadbirkorlik sub‘yektlariga davlat xizmatlarini ko‘rsatish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2412-sonli Qarori, 2016 yil 5 oktyabrdagi “Tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishini ta‘minlashga, xususiy mulkni har tomonlama himoya qilishga va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatidan yaxshilash»ga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF - 4848 Farmoni, hamda O‘zbekiston Respublikasini 2017 yildan 2021 yilgacha yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi PF-4947 farmonlari Respublikamizda tadbirkorlikni kichik biznes shaklida tashkil etish va rivojlantirishni ta‘minlaydi, ularning huquqlari, majburiyatlari, tadbirkorlik faoliyati sub‘yektlari birlashmalari, tadbirkorlik sub‘yektlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish, faoliyatining ayrim turlarini litsenziyalash, tadbirkorlik faoliyati sub‘yektlaridan soliq olish, hisob-kitob yurgizish, ularning huquqlarini himoya qilish, xom ashyo, tovarlar va xizmatlar bozorlariga erkin kirishlarini kafolatlash, davlat va mahalliy xokimiyati organlari

tomonidan ularning faoliyatini qo'llab-quvvatlash, nochor tadbirkorlik sub'yektlarini tugatish va umuman tadbirkorlikni samarali rivojlantirish uchun asos bo'ldi.

Xususiy tadbirkorlik, kichik biznesni jadal rivojlantirish asosida mulkdorlar sinfini shakllantirish, tegishli institutlar tizimini tashkil etish, kichik va xususiy tadbirkorlik faoliyati sohasiga kredit resurslarini keng jalb qilish va xorijiy sarmoyalar olib kirish uchun maqbul sharoit yaratish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998 yil 9 aprelda «Xususiy tadbirkorlik, kichik va o'rta biznesni rivojlantirishni yanada rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmoniga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2003 yil 30 avgustda PF-3305-sonli Farmoni qabul qilindi. Mazkur Farmonga asosan «o'rta korxonalar» tushunchasi bekor qilindi va 2004 yil 1 yanvardan boshlab quyidagilar kichik biznes sub'yektlari hisoblanadi:

- ✓ yakka tartibdagi tadbirkorlar;
- ✓ ishlab chiqarish tarmoqlarida band bo'lgan xodimlarning o'rtacha yillik soni 20 kishidan, xizmat ko'rsatish sohasi va boshqa ishlab chiqarishga aloqador bo'lmagan tarmoqlarda 10 kishidan, ulgurji, chakana savdo va umumiy ovqatlanish sohasida 5 kishidan oshmagan mikrofirmalar.


Quyidagi tarmoqlarda band bo'lgan xodimlarning o'rtacha yillik soni:

- ✓ yengil va oziq-ovqat sanoati, metalga ishlov berish va asbobsozlik, yog'ochni qayta ishlash va mebel sanoati hamda qurilish materiallari sanoatida – 100 kishidan;
- ✓ mashinasozlik, metallurgiya, yoqilg'i-energetika va kimyo sanoati, qishloq ho'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish va qayta ishlash, qurilish va boshqa sanoat-ishlab chiqarish sohalarida – 50 kishidan;
- ✓ fan, ilmiy xizmat ko'rsatish, transport, aloqa, xizmat ko'rsatish sohalarida (sug'urta kompaniyalaridan tashqari), savdo va umumiy ovqatlanish hamda boshqa noishlab chiqarish sohalarida – 25 kishidan oshmagan kichik korxonalar tushuniladi.

Respublikada kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, ularni tashkiliy, iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy jihatdan qo'llab-quvvatlash institutlari shakllandi, ammo ularni bozor munosabatlaridan kelib chiqqan holda yanada takomillashtirish zarur.

Tadbirkorlik faoliyati turlari xilma-xildir. Faoliyat maqsadi, turi va yo'nalishlariga qarab tadbirkorlik faoliyatining ishlab chiqarish, tijorat, moliyaviy va konsalting turlarini ajratish mumkin.

Tadbirkorlik faoliyatini olib borish uchun zarur bo'lgan iqtisodiy holat quyidagilarga (1-rasm) bog'liq.



**1-rasm. Tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish va olib borish uchun zarur
bo'lgan iqtisodiy sharoitlar¹²**

Ishlab chiqarish sohasidagi tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish uchun zarur bo'lgan ijtimoiy shart-sharoitlar quyidagilarga:

¹²Boboev A.CH. Tadbirkorlik faoliyati rivojlanishining nazariy jihatlar va ustuvor yo'nalishlari., Iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi, Toshkent-2012y.

- ✓ mehnat qilish qobiliyatiga ega bo'lgan ishchi kuchini ish joylari bilan ta'minlash va ulardan to'liq foydalanishga;
- ✓ ularning oladigan oylik maoshlari, pensiya, nafaqa, yordam puli darajasiga;
- ✓ ijtimoiy-madaniy muhitning shakllanishi darajasiga;
- ✓ ishlab chiqarilayotgan mahsulotning turlari, sifati va iste'mol baholarining darajasiga;
- ✓ ishlab chiqarish xodimlari va oila a'zolarining sihat-salomatligini saqlash, madaniy dam olishini ta'minlash darajasiga;
- ✓ tadbirkorlik sub'yektlarining yuqori malakali mutaxassislar va kasbiy malakasiga ega bo'lgan ishchilar bilan ta'minlanganlik darajasiga bog'liq.

Demak, Respublikamiz viloyatlarida tadbirkorlik faoliyatini birinchidan, unda mavjud bo'lgan tabiiy xom ashyo resurslariga asoslangan holda rivojlantirish, ichki iste'mol bozorini to'yintirishga qaratilgan bo'lishi kerak.

Ikkinchidan, viloyatlarda mavjud bo'lgan mehnatga layoqatli ishchi kuchini ish joylari bilan to'liq ta'minlash zarur. Ishlab chiqarish sohasida tadbirkorlik faoliyatini samarali rivojlanishi aylanma mablag'lar bilan ta'minlanish darajasiga, ishlab chiqarilgan mahsulotlarni saqlashga, iste'molchilarga etkazib berishga va ularni sotishga ketadigan xarajatlarni qoplash bilan ham bog'liqdir. Bu mahsulot birligiga bo'lgan ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirishga bog'liq.

Tadbirkorlik faoliyati quyidagi turlarga bo'linadi:


1. Ishlab chiqarish
2. Tijorat
3. Moliyaviy
4. Konsal'tinglar

Qayd etilgan ushbu tadbirkorlik faoliyatining har bir turi kichik turlarga bo'linadi. Mavjud tadbirkorlik faoliyati turlarini chizma shaklida ifoda etish mumkin (2-rasm).

Ishlab chiqarish tadbirkorligi tadbirkorlik faoliyatining asosiy turi desak xato bo'lmaydi. zero, bunday tadbirkorlik faoliyati tufayli mahsulot va tovarlar ishlab chiqariladi, xizmat ko'rsatiladi, ma'lum ma'naviy qadriyatlar yuzaga keladi.

O'zbekistonda bozor iqtisodiyotiga o'tishning dastlabki yillarida tijorat tadbirkorligi yaxshi rivojlandi. Tadbirkorlik faoliyatining bu turi tovar va xizmatlarni sotib olish hamda sotish jarayonlarini amalga oshirish bilan ta'riflanadi, chunki bu sohada qisqa vaqtda daromad olish mumkin. Agar ishlab chiqarish korxona samaradorligining 10-12% ini tashkil etsa, tijorat faoliyati esa bu ko'rsatkichni yana 20-30%ga oshiradi.

Moliyaviy tadbirkorlik. Tijorat banklari va fond birjalari moliyaviy tadbirkorlik uchun faoliyat ko'rsatuvchi maqom bo'lib xizmat qiladi. Ushbu bozor institutlarining mohiyati nimada?



2-rasm. Tadbirkorlik faoliyati turlari

Tijorat banki aktsiyadorlik turidagi moliyaviy-kredit muassasasi bo'lib, asosan pul omonatlarini (depozitlarni) qabul qiluvchi va mijoz ko'rsatmasi bilan boshqa hisob-kitob operatsiyalarni amalga oshiruvchi tijorat tashkilotlariga pulli xizmat ko'rsatadi. Tijorat banklarining daromad manbai depozit (jalb etilgan) va ssuda mablag'lari o'rtasidagi farqlardan shakllanadi.

Maslahat tadbirkorligi. Ma'lum bir sohada o'z mutaxassisligi bo'yicha yo'l-yo'riq ko'rsatuvchi kishiga maslahatchi deyiladi. Chet ellarda boshqaruv bo'yicha pulli maslahat konsalting deb yuritiladi. Iqtisodiyot va boshqaruv bo'yicha Yevropa Federatsiyasi Maslahatchilar Assotsiatsiyasining ta'rificha, menejment-konsalting boshqaruv bo'yicha muammo va imkoniyatlarni aniqlash, ularga baho berish, tegishli chora-tadbirlar ishlab chiqish va ularni amalga oshirishda xolisona maslahat berish hamda yordam ko'rsatishdir.

O'zbekiston Respublikasida «Tadbirkorlik to'g'risida»gi qonuninng 5-moddasiga binoan **tadbirkorlikning quyidagi shakllari** mavjud:

- ✓ yakka tartibdagi tadbirkorlik(YATT);
- ✓ xususiy tadbirkorlik;
- ✓ jamoa tadbirkorligi;
- ✓ aralash tadbirkorlik.

Yakka tartibdagi tadbirkorlik tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishning eng oddiy shakli bo'lib, uni tashkil qilish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1995 yil 14 fevraldagi qarori bilan tasdiqlangan «O'zbekiston Respublikasida xususiy tadbirkorlik to'g'risidagi Nizom» bilan belgilanadi. Ushbu nizomga muvofiq yakka tadbirkor o'z faoliyatini yuridik shaxs tashkil qilmay amalga oshirishi mumkin. Yakka tartibdagi tadbirkorlar odatda mayda ishlab chiqarish bilan shug'ullanadilar.

2019 yil 1 yanvardan boshlab Respublikada YATT ro'yxatidan quyidagilar chiqarib tashlandi:

- ✓ alyuminiy (plastik) profildan eshik, deraza va boshqa buyumlar tayyorlash; avtotransport vositalarini yuvish, salonni tozalash va shunga o'xshash boshqa xizmatlar;
- ✓ pishloqdan mahsulotlar tayyorlash va sotish;
- ✓ vitraj ishlari (shisha, smalta va boshqa materiallardan tayyorlangan vitrajlar).

Davlat xizmatlari markazlari ro'yxatdan chiqarilayotgan faoliyat turlari bilan shug'ullanayotgan YATTga boshqa tashkiliy-huquqiy shakllarga qayta ro'yxatdan o'tishlarida (ya'ni yuridik shaxs tashkil etish) ko'maklashadi. Shuningdek ro'yxat ayrim yo'nalishlar bilan to'ldirildi. Shu tariqa, YATTda:

- ✓ salqin ichimliklar, ayron tayyorlash va quyib sotish;
- ✓ davlat-xususiy sherikchilikning oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim muassasalarini moddiy-texnik va uslubiy jihatdan ta'minlash shakli asosida tashkil etilgan oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim muassasalari faoliyati bilan shug'ullanish imkoniyati paydo bo'ladi.

O'zbekistan Respublikasida «Xususiy tadbirkorlik to'g'risidagi nizom»da xususiy tadbirkorlik faoliyatiga quyidagicha ta'rif berilgan:

Xususiy tadbirkorlik fuqarolar (alohida fuqaro) tomonidan o'z tavakkalchiliklari va mulkiy javobgarliklari ostida, shaxsiy daromad (foyda) olish maqsadida amaldagi qonunchilik asosida amalga oshiriladigan tashabbuskor xo'jalik faoliyatidir.

Xususiy tadbirkorlikning yakka tartibda faoliyat yuritayotgan tadbirkorlikdan farqi shundaki, bu yerda faoliyat yurituvchilar o'z faoliyatini yollanma ishchi kuchi yordamida olib boradilar. Ular yuridik shaxs sifatida ish ko'radilar va o'z korxonalarini davlat ro'yxatidan o'tkazishga majburdirlar.

Jamoa tadbirkorligi bir guruh fuqarolarning o'zlariga ma'qul bo'lgan mulkchilik shakllarida jamoalarga birlashib, jamoa korxonalarini tashkil etishlari va shu asosda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishlaridir.

Jamoa tadbirkorligi faoliyati firmalar faoliyatida o'z ifodasini topadi. Firma muayyan turdagi mahsulot ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishga ixtisoslashgan, bozordagi talab va taklifga qarab ish tutadigan, iqtisodiy jihatdan erkin va mustaqil korxonadir.

Qo'shma korxonalar o'zaro manfaatdorlik negizida, hukumatlararo shartnomalar asosida tashkil qilinib, ilmiy-ishlab chiqarish, ilmiy-texnik va boshqa vazifalarni yechishga qaratilgan. Ular sanoat, qishloq xo'jaligi, qurilish, transport, savdo, fan va iqtisodiyot tarmoqlarida tarkib topishi mumkin.

Qo'shma korxonalar, asosan, chet el texnikasi va texnologiyasi asosida barpo etilib, mahalliy xomashyo va ish kuchi hisobiga ishlaydi. Korxona mustaqil balansiga ega bo'ladi va xo'jalik hisobi asosida faoliyat yuritadi.

Respublikamizda AQSH, Italiya, Turkiya, Frantsiya, Germaniya, Angliya, Koreya, Yaponiya, Xitoy, Rossiya, Hindiston kabi qator davlatlar kompaniyalari bilan hamkorlikda qo'shma korxonalar qurilib, ishga tushirilgan.

1.2. Tadbirkorlikni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning xorij tajribasi va undan foydalanishning o'ziga xosligi

Bozor iqtisodiyoti sharoitida davlatning eng muhim vazifalaridan biri tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni har tomonlama qo'llab-quvvatlash asosida, haqiqiy mulkdorlarning o'rta qatlamini shakllantirishda g'oyat muhim ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy vazifa hisoblanadi.

Jahonning barcha rivojlangan mamlakatlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash davlat iqtisodiy siyosatining mustaqil tarkibiy qismi hisoblanadi. Uning rivojlanishiga iqtisodiyotni tarkibiy qayta qurish, xizmatlar ko'rsatish sohasining yuksalishi, bandlikning o'sishi, texnologik taraqqiyot va normal raqobat muhim omili sifatida qaraladi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanishini tartibga solib turish uchun ko'p mamlakatlarda maxsus organlari (xizmatlar) tashkil etilgan. Shuningdek kichik biznesning mezonlari ham belgilangan.

Bozor iqtisodiyotiga asoslangan barcha mamlakatlarda kichik korxonalarni belgilashda quyidagi mezonlardan foydalanadilar:

- ✓ miqdoriy ko'rsatkichlari: xodimlarning soni, sotish hajmi, asosiy kapitalning balans qiymati;
- ✓ sifat ko'rsatkichlari: ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning nisbatan kichik soni; cheklangan resurslar va boshqaruvning kamroq rivojlangan tizimlari va boshqalar;
- ✓ yuqoridagi ko'rsatkichlarning birinchi va ikkinchi guruhlarini birlashtiruvchi kombinatsiyasi.

Xorijiy mamlakatlarda korxonalarni kattaliklariga ko'ra u yoki bu guruhga kirituvchi mezonlar bilan belgilanadi. Yevropa Ittifoqining metodologiyasi bo'yicha kichik va o'rta korxonalar 1-jadvalda ko'rsatilgan mezonlar bilan belgilanadi.

**Yevropa Ittifoqi medologiyasi bo'yicha kichik va o'rta korxonalar o'lchamini
belgilash mezonlari.**

Aniqlanadigan korxonalar	Xodimlar soni (kishi)	Yillik oborot	Balans qiymat
Kichik	50 tagacha	4 mln.yevrogacha	2 mln.yevrogacha
O'rta	50-250 tagacha	16 mln.yevrogacha	8 mln.yevrogacha

Xorijiy mamlakatlarda 1 kishidan 20 kishigacha xodimi bo'lgan korxonalar hunarmandchilik korxonalariga, 20 tadan 100 tagacha xodimi bo'lganlari kichik, 100 tadan 500tagacha xodimi bo'lganlari o'rta korxonalarga kiritiladi.

AQSHda kichik biznes korxonalarini ikki tomonlama guruhlashdan foydalaniladi. Birinchi holda bu tushuncha ishchilar soni 500 kishigacha bo'lgan korxonalarni qamrab oladi.

Ikkinchi holda esa korxonalar sohalar bo'yicha yillik tushumlar hajmi bo'yicha bo'linadilar:

- ✓ transport sohasida yillik tushumlar hajmi 3,5 mln.dollardan 20 mln.dollargacha;
- ✓ qurilishda 9 mln.dollardan 21 mln.dollargacha;
- ✓ ulgurji savdoda 15 mln.dollardan 35 mln.dollargacha;
- ✓ chakana savdoda 3,5 mln.dollardan 13,5 mln.dollargacha;
- ✓ xizmatlar sohasida 2,5 mln.dollardan 14 mln.dollargacha bo'lgan korxonalar kichik firmalar hisoblanadi.

Germaniyada ishlovchilar soni va yillik oborot ko'rsatkichlaridan foydalaniladi. Kichik korxonalar ishlovchilar soni 10 kishigacha bo'lgan, o'rtacha korxonalarda ishlovchilar soni 50 kishigacha va yillik oboroti 100 mln.yevrogacha korxonalar kiritiladi.

Fransiyada kichik va o'rta biznes tushunchasiga ishlovchilar soni 19 kishigacha bo'lgan mikrofirmalar, xodimlarning soni 20-299 kishigacha bo'lganlari kichik korxonalarga kiradi.

Janubiy Koreyada esa sanoatda va transportda 20 tagacha xodimi bo'lgan korxonalar kichik, 21-200 kishigacha xodimi bo'lgan korxonalar o'rta korxonalar hisoblanadi. Savdo va xizmatlar sohasida 5 tagacha xodimi bo'lgan korxonalar kichik korxonalar, 6 tadan 20 tagacha xodimi bo'lgan korxonalar esa o'rta korxonalar hisoblanadi.

Rivojlangan mamlakatlarda band aholining katta qismi aynan kichik biznesda band bo'lib, ularning mamlakat YAMMni ishlab chiqarishidagi ulushi yuqoridir. Shu sababli rivojlangan mamlakatlarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikka iqtisodiy o'sish va aholi turmush darajasining oshishini ta'minlovchi asosiy richaglaridan biri

sifatida qaralishi bejiz emas. Buni 2-jadvalda keltirilgan ma'lumotlari asosida ham ko'rish mumkin.

2-jadval.

Xorijiy mamlakatlarda kichik biznesning rivojlanish darajasi.

Mamlakatlar	Kichik biznes sub'yektlar soni (ming kishi)	1000 kishiga to'g'ri keladigan kichik biznes soni	Kichik biznesda bandlarning umumiy bandlikdagi ulushi(%)	Kichik biznesning YAIMdagi ulushi (%)
Buyuk Britaniya	2930	46	49	50-43
Germaniya	2290	37	46	50-54
Italiya	3920	68	73	57-60
Fransiya	1980	35	54	55-62
AQSH	19300	74	54	50-52
Yaponiya	6450	50	78	52-55

Jadvaldan xulosa qilish mumkinki, bir qator mamlakatlarda kichik biznesning umumiy iqtisodiyotidagi ulushi katta va hatto ustuvordir. Mehnatga yaroqli aholining yarmidan ko'prog'i shu sohada ishlaydi va bu sohada butun mahsulotning 50-60 foizi ishlab chiqarilgan.

Rivojlangan davlatlar iqtisodiyotida kichik biznes faoliyatining mustahkamlashuviga sabab bo'layotgan muhim global omillardan biri innovatsion, texnik-texnologik, iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy omillar bo'lib, ular global biznes muhitida raqobatbardosh faoliyat yuritishi uchun katta rol o'ynaydi.

Ko'pgina xorijiy mamlakatlarda kichik biznesning vujudga kelishi va muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi davlat yordami vositasida ta'minlanadi. Ularda bu ishda katta ijobiy tajriba to'plangan bo'lib, undan bizning sharoitlarimiz va xususiyatlarimizni hisobga olgan holda foydalanish mumkin.

Jumladan, AQSH da tadbirkorlik faoliyatini boshqarish tizimi tashkil etilgan bo'lib, uning asosiy vazifasi fuqarolarga tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishda yordam ko'rsatish, zarur bo'lgan miqdorda kafolatlash asosida qarz berish, kredit olish masalalari bo'yicha ham ko'maklashishdir. Ularga tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish, uning ishlab chiqarish texnologiyalarini, ishlab chiqarish vositalarini takomillashtirish, maxsus konstruktorlik muassasalari tomonidan yangi ishlab chiqarilgan namunaviy mahsulotlardan foydalanish ishlari bo'yicha ham yordam ko'rsatiladi.

Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishda xususiy va davlat tashkilotlari ham ularning ishlab chiqarayotgan mahsulotlarini iste'molchilarga savdo sohasi orqali etkazib berishda yaqindan yordam beradilar. Tadbirkorlik bilan shug'ullanuvchi maxsus ma'muriyat, uning Prezidenti tomonidan boshqariladi. Prezident ixtiyorida esa maxsus ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning raqobatbardoshligi masalalari

bilan shug'ullanuvchi komissiya faoliyat olib boradi, ammo davlat tomonidan tadbirkorlik sub'yektlariga iqtisodiy yo'nalishda soliq to'lovlari, banklardan qarz va kredit olishda imtiyozlar berilmaydi, ammo ularga doimiy ravishda moliyaviy kafolatlar orqali iqtisodiy yordam beriladi.

Kichik tadbirkorlikka investitsiya mablag'larini sarflovchi investorlar yirik ishlab chiqarish korxonalarini investitsiyalashtiruvchi investorlarga nisbatan ko'proq foyda olish xususiyatiga ega. Buning asosiy sabablari:

- ✓ kichik tadbirkorlik korxonalari yirik firmalarga nisbatan bozor talablariga kam investitsiya sarflari orqali ishlab chiqarish texnologiyalarini takomillashtirish asosida yangi iste'mol tovarlarini ishlab chiqarishga moslasha olishlari;

- ✓ kichiktadbirkorlikda ishlab chiqarishni tezlik holatda tashkil qilish va foyda olishni ta'minlashning mumkinligi;

- ✓ tadbirkorlikfaoliyati bilan shug'ullanayotgan sub'yektlar tomonidan ishlab chiqarishni takomillashtirishga, innovatsiyaga intilishga bo'lgan munosabatlarning yirik korxonalardagiga nisbatan yuqori bo'lishida ifodalanadi.

Buning asosiy sababi ular o'zlari olayotgan foydani yo'qotmaslik, iqtisodiy o'sib borishni ta'minlash va inqiroz bo'lmaslik maqsadida yangiliklarga intilish orqali raqobatbardosh bo'lishga intiladilar.

Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish yo'nalishida beriladigan yordamlar AQSHda tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish tajribalaridan farq qiladi.

Yevropa Ittifoqi a'zosi bo'lgan Fransiyada tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash, xizmat qiluvchi davlat tashkilotlari ularning konferentsiyasi, savdo palatasi, maxsus hunarmandchilik, qishloq xo'jaligi palatalari, investitsiya xavf-xatarini sug'urtalash, fransuz jamiyati va biznesni boshqaruvchi markaz tashkil etilgan. Fransiyada davlat darajasida tadbirkorlik faoliyatining rivojlanishini hukumat vazirliklari orqali qo'llab-quvvatlanadi.

Ular asosan tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish va olib borishni istagan jismoniy va huquqiy sub'yektlariga hech qanday kafolat talab qilmagan holda beriladigan kreditlarga foiz olmasdan yordam beradilar. Shu bilan birga besh yilgacha olingan kreditlar uchun kichik foizlarni belgilash va imtiyozli soliq tizimini qo'llash orqali ham yordam beradilar.

Gollandiya hukumati tomonidan maxsus kichik tadbirkorlik kurslari tashkil etilgan. Bu kurslarning asosiy vazifasi ishlab chiqarishlarini qanday ochish, olib borish va biznes rejalarini tuzish bo'yicha maslahatlar berish, tadbirkorlik faoliyati uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni olishni ta'minlaydi.

Tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish va boshqarish uchun davlat tomonidan Iqtisodiyot vazirligi qoshida maxsus tashkilot ish yuritadi. Mahalliy hokimiyatlar esa tadbirkorlik faoliyatini olib borish korxonalarini tashkil etish, biznes-markazlarini tuzish litsenziyalar berish ishlarini amalga oshiradilar.

Gollandiyada tadbirkorlikni rivojlantirishni ta'minlash maqsadida ularning faoliyatini o'rganuvchi maxsus tadqiqot va konsalting instituti tashkil etilgan. Bu institut o'zining 12ta mintaqaviy bo'limlariga ega bo'lib, asosan ishchi va xizmatchilarni o'qitish va konsalting xizmatlarini tashkil etish bilan shug'ullanadi. Shaxsiy tadbirkorlik faoliyatini tashkil etgan talabalarga moddiy yordam berish uchun «kichik korxonalar fondi» tashkil etilgan. Maxsus savdo palatasi tadbirkorlik sub'yektlariga xizmat ko'rsatadi.

Rossiyada tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanayotganlarning asosiy qismini yakka tartibdagi va malakasi yo'q fuqarolar tashkil etib, ular asosan umumiy ovqatlanish va savdo shahobchalarida qo'shimcha qiymatning ma'lum qismini yaratmoqdalar. Tadbirkorlik korxonalarining xususiyatlaridan biri ularning o'z ishlab chiqarish faoliyatini asosan ijaraga olingan asosiy vositalar yordamida amalga oshirishdir. Kichik tadbirkorlik faoliyatida ishlab chiqarishni tashkil etish asosan yirik ishlab chiqarishdan chiqqan xodimlarining yollanma mehnatiga asoslanadi.

Yaponiyada tadbirkorlik faoliyatining rivojlanishini ta'minlash uchun boshqaruv muassasasi, davlat korporatsiyasi, ularning faoliyatini moliyalashtirish uchun maxsus milliy korporatsiyalar, tadbirkorlarning federatsiyasi tashkil etilgan.

Yaponiyada XX asrning 40 yillarida mamlakat hukumati qoshida «Kichik va o'rta korxonalar boshqarmasi» ham tashkil etilgan. Milliy davlat markazlari kichik biznesni rivojlantirish va qo'llab-quvvatlashni umumdavlat dasturini bajarish yo'li bilan amalga oshiradilar.

Shunday markazlardan 170 tasi tuzilgan va faoliyat yuritib kelmoqda. Bundan tashqari, kichik korxonalarning raqobatbardoshligini yuqori darajada tutib turish uchun har bir prefekturada davlat texnologik dasturni amalga oshirgan javob beradigan davlat texnologik markazlari ham mavjud.

Yaponiyada tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish bo'yicha maxsus banklar xizmat ko'rsatadi. Yaponiya davlati tomonidan tadbirkorlik faoliyatiga berilayotgan yordamlar quyidagilardan iborat: imtiyozli soliqqa tortish; imtiyozli kreditlash tizimini qo'llash; amortizatsiya fondini shakllantirishni jadallashtirish; tadbirkorlarning bankrotlik holatidan chiqish uchun yordam berish; tadbirkorlarning ishlab chiqarish faoliyatini texnik darajasini oshirish; tadbirkorlarga ishlab chiqarish jarayonini rivojlantirish uchun zarur bo'lgan yo'nalish va kasblar bo'yicha xodimlarni o'qitish va qayta tayyorlash.

Yaponiyada tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishda nafaqat tijorat banklari balki davlat va jamoa fondlari ham yaqindan yordam beradilar.

Koreya Respublikasida kichik biznesga ko'maklashish siyosatini barcha tashkilotlar tizimi amalga oshiradi. Bu masalalarning barchasini kichik biznesga doir maxsus qonun tartibga soladi. Bu qonun davlat muassalari - kichik biznesga ko'maklashish organlarini tuzishni ko'zda tutadi, lekin u yerda kichik biznesga ko'maklashish ishlari shunday tashkil etilganki, kichik korxona chetdan aniq yordam

kutmay o'zi oyoqqa turib olish «immunitetini», o'sish va rivojlanish xususiyalarini o'zi ishlab chiqadi.

Kichik tadbirkorlik korxonalari Germaniyada umumiy korxonalar sonining 95% ni, Yaponiyada esa 99,7 foizni tashkil etadi.

Xorijiy mamlakatlarda tadbirkorlik faoliyatining turlari uyda bajariladigan tadbirkorlik, pochta orqali buyurtma qabul qilish va uni bajarish tadbirkorligi, ko'chma korxonalar shaklidagi tadbirkorlik, turli bayramlar bilan bog'liq bo'lgan sayllarni tashkil etish va o'tkazish tadbirkorligi, tovarlarni namoyish qilish va sotish tadbirkorligi, tutilgan eski narsalarni xarid qilish va sotish bilan bog'liq bo'lgan tadbirkorlik faoliyatlari ham mavjud. Bu tadbirkorlik faoliyati katta mablag', bilim va kuch talab etmaydigan tadbirkorlik faoliyati bo'lganlari uchun ular keng doirada tarqalgan.

1.4.Soliqlarning iqtisodiy mohiyati va ularning ahamiyati.

Soliq tushunchasi iqtisodiy kategoriya sifatida davlatning paydo bo'lishi va uning faoliyati davomiyligi bilan bevosita bog'likdir. Shu o'rinda soliq kategoriyasi davlat iqtisodiy siyosati orqali iqtisodiy voqelik sifatida yuzaga chiqishini ta'kidlash lozim. Soliq tushunchasi tor ma'noda davlat ixtiyoriga soliq to'lovchilardan majburiy tartibda undiriladigan pul tushumlarini ifodalaydi.

Soliqlar Soliq kodeksi asosida tartibga solinadi. 2007 yil 25 dekabr kuni O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksini tasdiqlash to'g'risida"gi O'RQ-136 sonli Qonuni bilan Soliq kodeksi qabul qilindi hamda 2008 yil 1 yanvardan kuchga kirdi. 2014 yilda bu kodeksga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritildi, shuningdek O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga 2019 yilda Soliq konsepsiyasiga asosan bir necha qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritildi. 2008 yilda kuchga kirgan Soliq kodeksi 2 ta - Umumiy va maxsus qismdan 21 bo'lim 64 bob 392 moddadan iborat edi. 2020 yildagi yangi tahrirdagi Soliq kodeksi esa 2 ta- Umumiy va maxsus qismdan 21 bo'lim 71 bob 480 moddadan iborat.

Soliqlar deganda muayyan miqdorlarda undiriladigan, muntazam, qaytarib berilmaydigan va beg'araz xususiyatga ega bo'lgan, byudjetga yo'naltiriladigan majburiy pul to'lovlari tushuniladi. **Soliqlar** – davlat byudjeti yoki mahalliy byudjetlarga jismoniy yoki yuridik shaxslar tomonidan tovar va xizmatlarni ishlab chiqarganlari uchun yoki ishlab chiqarish omillaridan foydalanganliklari uchun majburiy to'lovlar.

Boshqa majburiy to'lovlar deganda Kodeksda belgilangan davlat maqsadli jamg'armalariga majburiy pul to'lovlari, bojxona to'lovlari, shuningdek, vakolatli organlar hamda mansabdor shaxslar tomonidan yuridik ahamiyatga molik harakatlarni to'lovchilarga nisbatan amalga oshirish uchun, shu jumladan, muayyan

huquqlarni yoki litsenziyalar va boshqa ruxsat beruvchi hujjatlarni berish uchun to'lanishi lozim bo'lgan yig'imlar, davlat boji tushuniladi.

2020 yil yangi tahrirdagi Soliq kodeksiga asosan **Soliq** deganda ushbu Kodeksda belgilangan, O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjetiga yoki davlat maqsadli jamg'armasiga (bundan buyon byudjet tizimi deb yuritiladi) to'lanadigan majburiy beg'araz to'lov tushuniladi.

Yig'im deganda byudjet tizimiga ushbu Kodeksda yoki boshqa qonun hujjatlarida belgilangan majburiy to'lov tushuniladi, bu yig'imning to'lanishi uni to'lovchi shaxsga nisbatan vakolatli organ yoki uning mansabdor shaxsi tomonidan yuridik ahamiyatga ega harakatlarni amalga oshirish, shu jumladan unga muayyan huquqlarni yoxud ruxsat etuvchi hujjatlarni berish shartlaridan biri bo'ladi.

Shaxsning zimmasiga sud tartibida yuklatilgan jarimalar va boshqa to'lovlar, shuningdek qonunda belgilangan hollarda mol-mulkni musodara qilish hamda boshqacha tarzda olib qo'yish soliqlar yoki yig'imlar jumlasiga kirmaydi.

Soliq imtiyozi – soliq to'lovchilarning ayrim toifalariga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda soliq to'lashdan to'liq, qisman va vaqtincha ozod qilish shakli.

Preferensiya – iqtisodiyotni maqsadga muvofiq rivojlantirish va tartibga solishda ayrim soha va tarmoqlar, korxona va ishlab chiqarish turlariga nisbatan beriluvchi imtiyoz, afzallik va ustuvorliklar.

Soliq krediti – byudjetga to'lanishi lozim bo'lgan soliq summasini ma'lum muddatga kamaytirish, kechiktirish, bo'lib-bo'lib to'lash yoki soliqni qaytarish shakli.

Ma'lumki, soliqlar bevosita davlatning paydo bo'lishi bilan bog'liqdir, ya'ni davlat o'zining vakolatiga kiruvchi vazifalarni bajarish uchun moliyaviy manba sifatida soliqlardan foydalanadi. Soliqlarning amal qilishi ob'yektiv zaruratdir, chunki jamiyatni tashkil etuvchi barcha sub'yektlar ham real sektorda, ya'ni ishlab chikarish sohasida faoliyat ko'rsatmaydi. Jamiyatda boshqalar tomonidan rad etilgan yoki faoliyati iqtisodiy samarasiz bo'lgan sohalar ham mavjudki, ular soliqlarning ob'yektiv amal qilishini talab etadi. Aniqroq qilib aytganda jamiyatning norentabel (mudofaa, tibbiyot, fan, maorif, madaniyat va boshqa) va rentabel sohaga ajralishi hamda norentabel sohani moliyalashtirishning tabiiy zarurligi soliqlar ob'yektiv amal qilishini zarur qilib qo'yadi. Vaholanki, norentabel sohaning ijtimoiy xizmatlari asosan davlat tomonidan amalga oshiriladiki, ularni moliyalashtirish usuli sifatida yuzaga chiquvchi soliqlar ham shu tufayli bevosita davlatga tegishli bo'ladi.

Soliqlarning amal qilishini bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida ikki holat bilan ifodalash mumkin: birinchidan, davlatning qator vazifalarini mablag' bilan ta'minlash zarurligi; ikkinchidan, bozor iqtisodiyoti qonun-qoidalari. Soliqlarga quyidagi **funksiyalari** xos:

1. Soliqlarning fiskal (xazina) yoki taqsimlash funksiyasi. Soliqlar xazinaga – byudjetga tushadi. Ya'ni yalpi ichki mahsulot qiymati yoki korxonadagi daromadlarni avval taqsimlamasdan turib, ularni to'g'ridan-to'g'ri byudjetga o'tkazib yuborish holati bo'lmaydi. Avvalo, ishlab chiqarishda ishlab chiqaruvchilarning

manfaatdorligini ta'minlab, so'ng daromaddan bir qismini xazinaga olish zarur. Shuning uchun fiskal funktsiyasini taqsimlash funktsiyasi deb ham yuritiladi.

2.Soliqlarning boshqaruvchi, rag'batlantiruvchi funktsiyasi.

3.Soliqlarning nazorat funktsiyasi.

4.Soliqlarning davlat xarajati to'g'risida axborot funktsiyasi.

Davlatning bajaradigan funktsiyalari va vazifalari ko'p bo'lib, bozor iqtisodiyoti rivojlana borishi bilan ba'zi ijtimoiy himoyalangan bozor munosabatlariga mos kelmaydigan vazifalar yo'qola borsa, yangi vazifalar paydo bo'la boshlaydi. Bularga bizning respublikamizda kam ta'minlanganlarga ijtimoiy yordam ko'rsatish, bozor iqtisodiyoti infratuzilmasini tashkil qilish kabilar kiradi. Davlat kuchli ijtimoiy-siyosiy tadbirlarni amalga oshirish uchun pensionerlar, talabalar, ko'p bolali onalar va boshqalarni mablag' bilan ta'minlash zarurligini anglab, ayrim cheklangan tovarlar bahosidagi farqni byudjet hisobidan qoplaydi, bundan tashqari mahallalarda ijtimoiy himoyaga muhtoj kam ta'minlanganlarga moddiy yordam ko'rsatadi. Shu bilan birga, davlat jamiyat a'zolari osoyishtaligini saqlash maqsadida o'zining mudofaa qobiliyatini saqlab va mustahkamlab turishga ham mablag' sarflaydi, qolaversa, fuqarolar xavfsizligini saqlash, mamlakatda tartib-intizom o'rnatish, uni boshqarish funktsiyalarini bajarish uchun ham ko'plab mablag' yo'naltirishga majburdir. Bunday xarajatlarni amalga oshirishning majburiyligi ular uchun manba bo'lgan soliqlarni ob'yektiv zarur qilib qo'yadi.

Qayd etish lozimki, hozirga qadar davlatning funktsiyalarini bajarish uchun lozim bo'lgan moliyaviy mablag'larni shakllantirishning soliqlardan boshqa usuli jahon amaliyotida qo'llanilgan emas. Demak hukmron kuch sifatida davlat mavjud ekan, moliyalashtirish usuli sifatida soliqlar amal qiladi. Ma'lumki, jamiyat iqtisodiy hayoti juda murakkab iqtisodiy hodisalardan iborat bo'lib, ana shu murakkablik bevosita soliqlarga xam tegishli, bu holat soliqlarning iqtisodiy mohiyatini teran anglashni taqozo etadi.

Soliqlar majburiy to'lovlarni ifoda etuvchi pullik munosabatlarni bildiradi. Bu munosabatlar soliqto'lovchilar bilan ularni o'z mulkiga aylantiruvchi davlat o'rtasida bo'ladi. Davlat uchun byudjet daromadlarining asosiy manbai hisoblangan soliqlar katta ahamiyatga ega.

Soliqlar to'g'risidagi qarashlar tarixan ob'yektiv va sub'yektiv omillarning ta'sirida shakllangan. Soliqlarga doir turli ta'riflarni tahlil qilish, ularning konkret iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyot jarayonidagi mohiyatini asoslash, soliqlarning iqtisodiy rolini va soliq qonunchiligiga asos bo'lgan soliqtamoyillarini belgilash hamda soliqtizimida, jamiyat taraqqiyotida mavjud bo'lgan soliqlarning tutgan o'rnini aniqlash zarurdir. Chunki davlat paydo bo'lishi bilan soliqlar jamiyatdagi iqtisodiy munosabatlarning zaruriy talablaridan biri bo'lib hisoblanib kelgan. Davlat tuzilishi shakllari rivojlanishi bilan bir vaqtda soliqtizimi o'zgargan va takomillashtirilgan. Soliqtizimining o'zgarishi va takomillashtirilishi soliqlarning turlari, miqdorlari va

yig'ib olish usullari xilma-xil bo'lganligi bilan asoslanib kelgan. Masalan, Sharqmamlakatlari iqtisodiyoti tarixida soliqlar aholidan shaxsiy mol-mulk yerdan olingan hosil, uy hayvonlari va boshkalar uchun «zakot» sifatida olingan.

Davlat faoliyatining barcha yo'nalishlarini mablag' bilan ta'minlashning asosiy manbalaridan biri va davlat ustuvorligini amalga oshirishning iqtisodiy vositasi soliqlardir. Soliqtizimini tartibga solish va mukammallashtirish moliyaviy tizimni rivojlantirishga yordam beradi. Iqtisodiyotni davlat tomonidan soliqlar orqali tartibga solish, davlat byudjeti daromadlarini shakllantirish soliqsolish vositasida jamiyatdagi u yoki bu jarayonlarning rivojlanishiga ta'sir etuvchi usul hisoblanadi. Davlatning mavjudligi soliqlar bilan uzviy bog'liq, chunki soliqdan tushadigan tushumlar davlat iqtisodiy mustaqilligining asosiy manbai xisoblanadi.

Insoniyat tarixida yirik davlat arboblardan biri, o'rta asrlarda buyuk saltanat barpo qilgan Amir Temur soliqlarga katta e'tibor qaratgan. U davlatni idora qilish tizimini yuzaga keltirishda asosan soliqlarga tayangan. O'sha davrning davlat moliyasi bu tizimning eng muhim unsurlaridan biri ekanligi, u davlatni boshqarishdagi barcha jihatlariga uzviy bog'langanligi bilan tubdan farq qilib turgani va ayni shu xususiyatiga ko'ra boshqaruvning barcha tarkibiy qismlari orasida markaziy o'rinni egallaganligi bugungi kunga kelib hammaga ayon bo'lmoqda.

Tarixan soliqlar, davlatni saqlab turish uchun zarur bo'lgan majburiy to'lovlar sifatida, davlat paydo bo'lishi bilan vujudga kelgan. Soliqlar davlat faoliyat ko'rsatishining moddiy asosini tashkil etadi, ularning iqtisodiy tabiati xuddi shu yerdan kelib chiqadi.

Bozor munosabatlarining shakllanishi davrida soliqlar korxonalarning iqtisodiy faoliyatini tartibga solishning ham bilvosita quroli hisoblanadi.

Soliqni to'lash xo'jalik yurituvchi sub'yektlar va fuqarolar bilan davlat o'rtasida yangidan yaratilgan qiymatni taqsimlashning asosiy vositasi hisoblanadi. Biror-bir jamiyatni soliq tizimisiz tasavvur qilish mumkin emas. Chunki soliqlar byudjet daromadlari (pul fondi)ni tashkil etishning asosiy vositasi bo'libgina qolmay, mahsulot ishlab chiqarish hajmini oshirishga, ishlab chiqarishni rag'batlantirishda investitsiyalarni ko'paytirishga, raqobatbardosh mahsulotni ko'paytirishga, kichik biznesni rivojlantirishga, xususiy korxonalar ochish bilan bog'liq bo'lgan bozor infratuzilmasini barpo qilishga, umumdavlat ehtiyojlarini qondirishga va shu kabilarga xizmat qiladi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida davlat o'zining ichki va tashqi vazifalarini, har xil ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy chora-tadbirlarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan mablag'larning asosiy qismini soliqlar orqali to'playdi. Jumladan, soliqlar respublika va mahalliy byudjetlar daromadini shakllantiradi, davlat ijtimoiy dasturlari uchun moliyaviy negiz yaratadi, soliqto'lovchi shaxslarning tadbirkorlik faoliyatini boshqaradi, ularning tabiiy resurslardan unumli foydalanishga bo'lgan intilishini rag'batlantiradi, narx belgilashga ta'sir ko'rsatadi, aholining turmush darajasini

tartibga solib turadi, imtiyozlar yordamida esa aholining kam ta'minlangan qatlamlarini ijtimoiy himoya qilishni tashkil etishga yordam beradi.

Soliq yukini iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlarni e'tiborga olgan holda kamaytirib borish o'z samarasini berdi. Milliy bozorni mahalliy tovarlar (xizmat, ish)lar bilan to'ldirayotgan, eksportga mahsulot chiqarayotgan, ichki va tashqi investitsiyalarni ishlab chiqarishga jalb qilayotgan, shuningdek, kichik biznes sub'yektlari shaklidagi soliq to'lovchilarga soliq imtiyozlarining kengaytirilishiga qaramasdan, yalpi ichki mahsulot va davlat byudjetining daromadlar hajmida yil sayin o'sish ta'minlanmoqda. Soliq yukining kamayishi nafaqat umumiy hajmda, shuningdek, uning tarkibi bo'yicha ham sezilarli ravishda ko'zga tashlanmoqda.

Soliq yuki darajasining soliq turlari bo'yicha kamayish tendensiyasini oxirgi o'n yil bo'yicha ko'radigan bo'lsak, 2000 yilda bevosita soliqlar bo'yicha 7,8 foizdan 2011 yilga kelib 5,8 foizga, bilvosita soliqlarga nisbatan soliq yuki 16 foizdan 10,6 foizga, shuningdek, resurs soliqlari bo'yicha ham kamayib 4,7 foizdan 3,9 foizgacha kamaygan. Respublikamizda soliq yukining kamayishi bu faqat ayrim soliq turlari bo'yicha soliq stavkalarining kamaytirilishi, soliq imtiyozlarining kengaytirilishi evaziga emas, balki hukumatimiz tomonidan iqtisodiyotda keng qamrovli tarkibiy o'zgartirishlarni ta'minlaydigan aniq maqsadli davlat dasturlarini izchillik bilan amalga oshirish hisobidan soliq tushumlariga nisbatan yalpi ichki mahsulotning o'sish darajasi o'rtasidagi yuqori farqning vujudga keltirilishi bilan izohlanadi.

Aksariyat rivojlangan hamda rivojlanayotgan davlatlarda, soliq yuki darajasi 29-50 foizni tashkil etayotganini ko'rish mumkin. Xususan, eng rivojlangan davlatlar hisoblangan AQSH, Italiya hamda aksariyat Yevropa ittifoqi davlatlarida soliq yukining darajasi respublikamizdagi darajadan ancha yuqori. Hozirgi kunda Italiya, Gretsiya, Islandiya davlatlarida byudjet taqchilligi bilan bog'liq muammolarni hal etish yo'li sifatida soliq yukini oshirishga oid takliflarning ushbu davlatlarning parlamentlari tomonidan ma'qullangani jahon bozori kon'yukturasiga jiddiy ta'sir etishi bashorat qilinmoqda.

1.5. Soliq elementlari va soliqqa tortish tamoyillari.

Soliqqa tortish tizimining asosiy bo'g'ini hisoblangan soliq elementlari soliq solishda ifodalanadigan tushunchalar bo'lib, ular soliq to'lovchilar va davlat byudjeti o'rtasidagi iqtisodiy-huquqiy munosabatlarda namoyon bo'ladi.

Soliq nazariyasida soliqqa oid munosabatlarni to'liq va teranroq ifoda etish uchun iqtisodiy voqealarning har bir kichik guruhlari muayyan nomdagi iboralar bilan izohlanadi. Soliq elementlari ham xuddi shunday soliqqa oid iqtisodiy hodisalarni izohlashga xizmat qiluvchi yaxlit tushuncha hisoblanadi. Soliq elementlari tushunchasi soliq solish tizimining muhim tarkibiy qismi bo'lib, uning

o‘zi ham kichik tizimni tashkil etadi, ya‘ni soliq elementlari xam bir necha iqtisodiy kategoriyalarning yaxlit holdagi harakatini bildiradi.

2020 yil yangi tahrirdagi Soliq kodeksining 69-moddasida soliqlarning elementlari belgilangan.

Soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlarida soliqning barcha elementlari aniqlab qo‘yilgan taqdirdagina ushbu soliq belgilangan deb hisoblanadi.

Bunday soliq elementlariga quyidagilar kiradi:

- 1) soliq solish ob‘yekti;
- 2) soliq bazasi;
- 3) soliq stavkasi;
- 4) soliq davri;
- 5) soliqni hisoblab chiqarish tartibi;
- 6) soliq hisobotini taqdim etish tartibi;
- 7) soliqni to‘lash tartibi.

Soliqni belgilashda soliq imtiyozlari va ularning qo‘llanilishi uchun asoslar nazarda tutilishi mumkin.

Soliq solish ob‘yekti— soliqto‘lovchining soliq hisoblanadigan va soliqsolish uchun asos bo‘lib xizmat qiladigan daromadi, oboroti va mol-mulki tushuniladi. Soliqsolish ob‘yektiga foyda yoki daromad, muayyan tovarlar qiymati, yer maydoni, jismoniy va yuridik shaxslarning mulklari, tabiiy resurslardan foydalanish miqdori va boshqalar kiradi. Soliqsolish ob‘yekti aslida jamiyatdagi mavjud moddiy va ma‘naviy boyliklarning ayrimlariga Qonun yo‘li bilan ulardan foydalanuvchi, egalik qiluvchi va tasarruf qiluvchi soliqsub‘yektlarining huquqlariga soliqsolishni ifodalaydi. Binobarin, moddiy yoki ma‘naviy boyliklarga mulkiy huquqqa ega bo‘lgandagina soliqsolish ob‘yekti yuzaga keladi. Masalan, egasiz imoratga soliqsolinmaydi, chunki egasiz imoratga nisbatan soliqsub‘yekti mavjud emas, vaholanki, bo‘lgan taqdirda ham soliqsolish ob‘yekti sifatida imorat emas, balki ushbu imoratga bo‘lgan mulkiy huquqqa soliq solinadi. Shu jihatdan aytish mumkinki, soliqsolish ob‘yekti aslida yuridik va jismoniy shaxslarning mulkiy huquqi va daromadiga qaratiladi.

Soliq solinadigan baza — soliqsolish ob‘yektining soliqstavkasi qo‘llaniladigan miqdori. Hisoblanadigan soliqmikdori nafaqat soliqstavkalarining mikdoriga, shu bilan birgalikda soliqstavkasi qo‘llaniladigan ob‘yektning miqdoriga ham bog‘liq. Soliqsolinadigan bazaning miqdori qonunchilikda soliqqa tortilishi lozim bo‘lgan soliqsolish ob‘yektidan ruxsat etiladigan chegirmalarga bog‘liq ravishda o‘zgarib turishi mumkin. Soliqsolish bazasini soliqto‘lovchilarning mazkur toifasiga taqdim etiladigan soliqimtiyozlariga muvofiq ravishda kamaytirishga ruxsat etiladi.

Soliq stavkasi - Soliq stavkasi soliq bazasining o‘lchov birligiga nisbatan hisoblanadigan soliqning foizlardagi yoki mutlaq summadagi miqdorini ifodalaydi.

Soliq stavkalari Kodeks bilan belgilanadi.

Aksiz solig‘i, yer solig‘i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va qat‘iy belgilangan summada jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i stavkalari O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risidagi Qonuni bilan belgilanadi.

Aksiz solig'ining stavkalari, mahsulot narxi dinamikasidan va realizatsiya qilish hajmidan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlari bilan yil davomida qayta ko'rib chiqilishi mumkin.

Soliq davri deganda tugagandan keyin soliq bazasi aniqlanadigan hamda to'lanishi lozim bo'lgan soliq summasi hisoblab chiqariladigan kalendar yil yoki boshqa davr tushuniladi.

Soliq davri bir necha hisobot davrlaridan iborat bo'lishi mumkin.

Kalendar yil soliq davri hisoblanadigan soliqlarga nisbatan ushbu qismning qoidalarini mazkur moddaning to'rtinchi – o'ninchi qismlarida nazarda tutilgan xususiyatlarni hisobga olgan holda qo'llaniladi.

Soliqni hisoblab chiqarish tartibi. Soliqni hisoblab chiqarish tartibi soliq davri uchun soliq solinadigan bazadan, stavkadan, shuningdek soliq imtiyozlaridan kelib chiqib, soliq summasini hisoblash qoidalarini belgilaydi.

Soliqlarni to'lash muddatlari va tartibi. Soliq qonunchiligida har bir soliq turini byudjetga to'lash muddati belgilangan. Soliqni to'lash muddatlari deganda soliq to'lovchilarning davlat byudjeti oldida soliq majburiyatlarini bajarish muddati ifodalanadi. Soliqni to'lash muddatlari o'z mohiyatiga ko'ra ikki xil ko'rinishga ega: joriy avans (bo'nak) to'lovlari va xaqiqiy daromad olingandan keyingi to'lovlar.

Soliqni to'lash tartibi esa soliqning yo'naltirilganligi (byudjetga yoki byudjetdan tashqari fondlarga), soliqni to'lash vositasi (milliy valyuta — so'mda yoki boshqa mamlakatlar milliy valyutasida. O'zbekiston Respublikasi Soliq qonunchiligiga muvofiq soliqlar faqat milliy valyuta — so'mda to'lanishi mumkin) hamda soliqni to'lash shakllarida (naqd pul yoki naqd pulsiz) ifodalanadi.

Soliq elementlari yana qo'shimcha bir nechta tushunchalardan iboratdir.

Ular quyidagilar: **Soliq sub'yekti**— soliq to'lash majburiyati yuklangan yuridik va jismoniy shaxslar yoki soliqqa oid munosabatlarni tashkil etuvchi tomonlarning o'zaro majmuasi bo'lib, unda bir tomondan soliq to'lovchilar, boshqa tomondan soliqni undirish vakolati yuklangan soliq xizmati organlari qatnashadi. **Soliq agentlari** —Kodeksga muvofiq zimmasiga soliqlarni hisoblab chiqarish, soliq to'lovchidan ushlab qolish va byudjet tizimiga o'tkazish majburiyati yuklatilgan shaxslar.

Soliq solish predmeti — soliq solinadigan daromad, oborot, mol-mulk va boshqalarga bo'lgan huquq emas, balki ularning o'zidir, ya'ni soliq solish ob'yekti bo'lib biror- bir soliq predmetiga bo'lgan huquq tushunilsa, predmet bo'lib ana shu egalik qilinadigan daromad, yer uchastkasi, imorat va boshqalarning o'zi tushuniladi. Soliq solish ob'yekti yoki soliq solish predmeti, unga kim egalik qilish huquqiga ega bo'lsa, unda soliqni to'lash majburiyati, ya'ni soliq sub'yektini namoyon qiladi. Demak aytishimiz mumkinki, soliq solish predmetiga egalik qilish huquqi soliq ob'yektini vujudga keltirsa, o'z navbatida ushbu predmetga kimning egalik qilishi soliq sub'yektini yoki soliq to'lovchini namoyon etadi.

Soliq manbai — bu soliq to'lovchi to'laydigan soliqlar manbai, ya'ni daromadi. Soliqsolish ob'yekti va soliqmanbaini bir-biridan farqlash lozimbo'ladi. Ayrim

soliq turlari, masalan, foydaga, yalpi daromadga, jismoniy shaxslarning daromadiga soliqlar bo'yicha soliqsolish ob'yekti ham, soliqmanbai ham bir xil bo'ladi, ya'ni nima ob'yekt bo'lsa, uning o'zi manba hisoblanadi.

Soliq solish birligi - bu ob'yektning o'lchov birligi, masalan, daromad yoki mol-mulk solig'ida ob'yektning o'lchov birligi sifatida uning so'mdagi bahosi ifodalansa, yer solig'ida o'lchov birligi bo'lib kv.m yoki gektar hisoblanadi.

Soliq yuki - soliq to'lovchi muayyan vaqt oralig'idagi faoliyati natijasida to'lagan soliqlarining yig'indisini ifodalaydi. Bunda soliq to'lovchilar to'laydigan barcha soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning yig'indisi ifodalanadi. Soliqyukining aniq soliqto'lovchilar zimmasiga qancha to'g'ri kelganligini aniqlash ancha murakkab jarayon hisoblanadi. Biroq to'g'ri (bevosita) soliqlarda soliqog'irligi aynan soliqni byudjetga hisoblab o'tkazuvchi soliqto'lovchilar zimmasiga tushsa, egri (bilvosita) soliqlarda esa soliqyuki soliqni to'lovchilar emas, balki tovar (ish, xizmat)larni iste'mol qiluvchilar zimmasiga tushadi. Muayyan turdagi yuridik va jismoniy shaxslar bo'yicha soliqyukini bir yilda byudjetga to'langan barcha majburiy to'lovlar yig'indisi bilan aniqlash mumkin. Soliqyukini ifodalashning bir qancha ko'rinishlari mavjud: makrodarajadagi soliqyuki, mezodarajadagi soliqyuki va mikrodarajadagi soliqyuki. Soliqyuki makrodarajada ifodalanganda butun mamlakat miqyosida ifodalanib, asosiy ko'rsatkich sifatida muayyan vaqt oralig'ida davlat byudjetiga kelib tushgan soliqlar yig'indisining ana shu vaqt oralig'ida yaratilgan yalpi ichki mahsulot (YAIM) yoki milliy daromad (MD)ga nisbati olinadi. Mezodarajada ifodalanganda alohida olingan soha, tarmoq yoki sektorga to'g'ri keladigan soliqyuki ifodalansa, mikrodarajada esa aniq bir olingan sub'yektga to'g'ri keladigan soliqyuki ifodalanadi.

Soliq imtiyozlari-soliq to'lovchilarga soliqlar bo'yicha turli xil yengilliklar bo'lib, ular vaqtinchalik va doimiy, to'liq yoki qisman va boshqa ko'rinishlarda berilishi mumkin. Soliq imtiyozlarining turlari, amal qilish mexanizmlari, mezonlari mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasidan kelib chiqqan holda belgilanadi.

Soliq solish tamoyillari yoki prinsiplari soliq munosabatlarini amaliyotda tashkil etish, soliq solish, uni undirish amaliyotining mazmunini ochib beradi. Soliq solish tamoyillarini A. Smit o'zining «Xalqlar boyligining sabablari va tabiatlari» nomli kitobida (1776) ilk bor asoslab bergan va unda:

- Davlat fuqarolari davlat xarajatlarini qoplashda o'zlari hukumat muhofazasida foydalanayotgan daromadlariga muvofiq tarzda qatnashishlari lozim.

- Har bir odam to'laydigan soliq aniq belgilab qo'yilgan bo'lishi kerak bunda o'zboshimchalik ketmaydi. Soliq miqdori, to'lanadigan vaqti va tartibi uni to'lovchiga ham, boshqa har qanday odamga ham birday aniq va ma'lum bo'lishi zarur.

- Har bir soliq to'lovchiga har jihatdan qulay bo'lgan vaqtda va tartibda undirilishi kerak.

- Har bir soliq shunday tarzda o'rnatilishi kerakki, bunda soliq to'lovchining hamyonidan ketadigan pul davlat byudjetiga kelib tushadigan mablag'ga nisbatan ortiq bo'lishiga mumkin qadar yo'l qo'yilmasin, deb ta'kidlab o'tilgan.

2020yil yangi tahrirdagi Soliq kodeksining 7-moddasida **Soliq solish prinsiplari berilgan:** Soliq solish majburiylik, aniqlik va soliq organlarining soliq to'lovchilar bilan hamkorligi, adolatlilik, soliq tizimining yagonaligi, oshkoralik va soliq to'lovchining haqligi prezumpsiyasi prinsiplariga asoslanadi.

Majburiylik prinsipi. Har bir shaxs ushbu Kodeksda belgilangan soliqlar va unda nazarda tutilgan yig'implarni to'lashi shart.

Hech kimga soliqlar va yig'implarning barcha alomatlariga ega bo'lgan, biroq ushbu Kodeksda nazarda tutilmagan yoxud uning normalari buzilgan holda belgilangan soliqlar va yig'implarni to'lash majburiyati yuklatilishi mumkin emas.

Soliq solishning aniqligi va soliq organlarining soliq to'lovchilar bilan hamkorligi prinsipi. Soliqlarni va yig'implarni belgilovchi soliq to'g'risidagi qonun hujjatlari, agar ushbu Kodeksda boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, soliq to'lovchilarni hamda ushbu soliqlarning va yig'implarning boshqa barcha elementlarini, shu jumladan ularni to'lash muddatlari va tartibini aniqlab berishi kerak.

Soliq organlari soliq munosabatlari doirasida soliq to'lovchilar bilan soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarini to'g'ri bajarish maqsadida hamkorlik qilishi shart. Bunda soliq organlari soliq to'lovchilarning qonuniy faoliyatiga asossiz to'siqlar yaratishga haqli emas, soliq to'lovchilar esa soliq organlari o'z vakolatlarini amalga oshirishi uchun shart-sharoit yaratishi kerak.

Adolatlilik prinsipi. Soliqlar va yig'implar kamsitish xususiyatiga ega bo'lishi hamda ijtimoiy, irqiy, milliy, diniy va boshqa shu kabi mezonlardan kelib chiqqan holda qo'llanilishi mumkin emas.

Mulkning shakliga, jismoniy shaxslarning fuqaroligiga yoki kapitalning kelib chiqish mamlakatiga qarab farqlangan soliq stavkalarini, soliq imtiyozlarini yoki boshqa afzalliklarni belgilashga yo'l qo'yilmaydi.

Fuqarolarning o'z konstitutsiyaviy huquqlarini amalga oshirishiga to'sqinlik qiladigan soliqlarni belgilashga yo'l qo'yilmaydi.

Soliq solishning adolatlilik tamoyiliga muvofiq, soliqlar jamiyat tomonidan oqilona va adolatli deb tan olingan umumiy ob'yektiv qoidalarga binoan belgilanishi lozim.

Soliq tizimining yagonaligi prinsipi. Soliq tizimi O'zbekiston Respublikasining butun hududida yagonadir. O'zbekiston Respublikasining yagona iqtisodiy makonini buzuvchi, xususan, O'zbekiston Respublikasining hududi doirasida tovarlarning (xizmatlarning) yoki moliyaviy mablag'larning erkin muomalada bo'lishini bevosita yoki bilvosita cheklab qo'yadigan soliqlar belgilanishiga yo'l qo'yilmaydi.

Oshkoralik prinsipi. Soliq to'g'risidagi qonun hujjatlari rasman e'lon qilinishi shart. Rasman e'lon qilinmagan soliq to'g'risidagi qonun hujjatlari kuchga kiritilmagan hujjat sifatida huquqiy oqibatlarni keltirib chiqarmaydi.

Soliq to'lovchining haqligi prezumpsiyasi prinsipi. Soliq to'g'risidagi qonun hujjatlaridagi barcha bartaraf etib bo'lmaydigan qarama-qarshiliklar va noaniqliklar soliq to'lovchining foydasiga talqin etiladi.

Hozirgi sharoitga tatbiqan olganda, soliq solish tizimining **quyidagi tamoyillarini** keltirib o'tish mumkin:

Soliq solishning yetarlilik tamoyili. Soliq solishning yetarlilik tamoyiliga muvofiq soliq solish darajasi shunday bo'lishi lozimki, u davlat intilayotgan xalq xo'jaligi samaradorligiga erishishni kafolatlay olsun. Soliqqa tortish tizimi iqtisodiyot, ijtimoiy himoya, mudofaa qobiliyati va boshqa sohalardagi davlat siyosatini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan moliya resurslari to'planishini ta'minlashi lozim. Shuni ham ta'kidlab o'tish lozimki, soliq stavkalari soliq yuki ko'rsatkichi hisoblanmaydi, chunki soliq to'lovchi soliq to'lar ekan, davlat tomonidan bepul xizmatlardan bahramand bo'lgani holda ayni chog'da o'zining ba'zi xarajatlarini qisqartiradi. Umuman olganda, yetarlilik tamoyili soliq siyosatini belgilayotganda uni davlatning qabul qilingan ijtimoiy-iqtisodiy siyosati bilan qat'iy ravishda uyg'unlashtirishni taqozo etadi.

Soliq solishning tadbirkorlik va investitsiyalarni rag'batlantirish tamoyili. Soliqtizimi xo'jalik yurituvchi sub'yektlarning ishlab chiqarishini rivojlantirish, uskunalar va zamonaviy texnologiyalar sotib olish uchun mablag' yo'naltirish, ya'ni kapital jamg'arish va shu yo'l bilan texnologiyalarni takomillashtirish, raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni rag'batlantirishi lozim.

Soliq tizimi resurslarning samarali taqsimlanishiga to'sqinlik qilmasligi hamda xo'jalikni mustaqil yuritish omillarini cheklab qo'ymasligi lozim. Soliqlar miqdori haddan tashqari katta qilib belgilansa, ishlab chiqarish hajmlari kamayib ketadi, bu jarayon zaxiralar, banklardagi pul mablag'larining barakasi uchishiga olib keladi.

Soliq solish bazasi va uning hajmlarini noto'g'ri belgilash xodimlarning malaka oshirishga, ratsionalizatorlik va ixtirochilik faoliyati bilan shug'ullanishga va boshqa sohalarga bo'lgan intilishiga salbiy ta'sir etadi.

Soliq solishning iqtisodiy omillarga ta'siri ikki xil ko'rinishda bo'ladi, ya'ni qiyosiy oqibat va daromad oqibati shaklida ifodalanadi. Qiyosiy oqibat mehnat natijalari, jamg'arish, investitsiyalash, yangi g'oyalarni joriy etish va ishlab chiqarish faoliyatining boshqa xil ko'rinishlari bilan shug'ullanish uchun nisbatan kamroq darajada rag'batlantirishda namoyon bo'ladi. Ayniqsa, progressiv (oshib boruvchi) soliq solishda bunday oqibatning rag'batlantirishga zid ta'siri yaqqol ifodalanadi.

Soliqlarning ta'siri investitsiyalar tarkibida ham yaqqol seziladi. Turli ko'rinishdagi aktivlar uchun joriy etilgan har xil soliq tartiblari investitsiya imkoniyatlari va sarmoyadorlarning portfeli tarkibida sezilib qoladi. Soliq tizimidagi kamchilik va nuqsonlar iqtisodiy o'sish sur'atlarining pasayib ketishiga olib kelishi mumkin, bu hol pirovard natijada davlat byudjeti daromadlarining o'zgarishiga ham ta'sir etmay qolmaydi.

Soliq solishning oddiylik va xolislik tamoyili.

Bu tamoyil soliq solish bazasini aniqlashda, soliqlarni hisoblab chiqishda oddiylik bo'lishini, taqdim etiladigan hisobotlarning mazmunini soddalashtirishni, shuningdek soliqlarning eng muhim turlari bo'yicha yagona stavkalar belgilashni, beriladigan imtiyozlarni iloji boricha kamaytirishni ko'zda tutadi. Bu o'rinda nazarda tutilayotgan narsa shuki, soliqlarning rag'batlantirish funktsiyasi doirasida beriladigan imtiyozlar yakka tartibdagi xususiyatga ega bo'lmasligi, balki muayyan faoliyat turlarini rag'batlantirishga, soliq to'lovchilarning mulkchilik shakli va qaysi idoraga mansubligidan qat'iy nazar, ma'lum turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarishni ko'paytirishga qaratilmog'i lozim. Soliq imtiyozlarining haddan tashqari ko'pligi qonunlarni murakkablashtirib yuboradi, tushunishni qiyinlashtiradi hamda turlicha talqin qilinishiga olib keladi, bu hol pirovard natijada soliq to'lovchilarning soliqlarga nisbatan munosabatlariga salbiy ta'sir qiladi. Shu bilan birga aniq qilib belgilangan imtiyozlar soliq yukini boshqa soliq to'lovchilar zimmasiga o'tkazib, ijtimoiy adolatsizlik ro'y berishiga olib keladi.

Soliq solishning boshqarishga qulaylik tamoyili. Samarali soliq tizimiga qo'yiladigan muhim talablardan biri boshqaruvga qulay bo'lishidir. Soliqlarni undirib olishda samaradorlikka erishish ko'p hollarda soliqlarning soliq to'lovchilarga yaxshi tushunarli bo'lishiga bog'liq.

Ayrim mamlakatlarda soliq solishning nihoyatda murakkab tartibi amal qiladi, aytaylik shkala va stavkalar turi, soliqlar tarkibi, ularni to'lash qoidalari va tartiblari haddan tashqari ko'p bo'ladi. Buning ustiga ular soliq tushumlarining ko'payishiga hech qanday yordam bermaydi hamda soliqlarning rag'batlantiruvchi funktsiyasi bajarilishida rol o'ynamaydi.

Soliq solishning soliqlarni yig'ish jarayonini imkon qadar arzonlashtirish tamoyili. Ushbu tamoyil davlat va soliq to'lovchilar tomonidan soliqlarni yig'ish uchun ketadigan xarajatlarni mumkin qadar kamaytirishni ko'zda tutadi. Buning uchun respublikamizda soliq solish tartibini takomillashtirish bilan bir qatorda soliqlarni maqbullashtirish, kompyuter texnologiyalari, soliq axbo-rotlarining to'g'riligini bevosita nazorat qilish usullarini qo'llanishi orqali soliq to'lovchilarning xarajatlarini kamaytirish maqsadida davlat hisobidan saqlanadigan servis-markazlar, soliq solish masalalari xususida soliq organlari tomonidan bepul maslahatxonalar tashkil etilgan.

Soliq solishning soliq stavkalarini qiyoslash tamoyili.

Soliqstavkalari boshqa davlatlardagi xuddi shunday soliqlarning stavkalari bilan qiyoslanishi, ya'ni mintaqaning o'ziga xos xususiyatlari hisobga olingan holda boshqa mamlakatlar bilan teng bo'lgan xo'jalik faoliyati shart-sharoitlari vujudga keltirilishi lozim. Agar qattiq shartlar belgilab qo'yilgudek bo'lsa, bu hol respublika iqtisodiyotiga investitsiyalarni jalb qilishni mushkullashtirib yuboradi, aksincha, yengil sharoit yaratilsa, mamlakat byudjetiga salbiy ta'sir qiladi.

Soliq solish tamoyillari va soliq qonunchiligi tamoyillari muayyan o'xshashlikka ega va ularni hayotga to'liq tatbiq etish iqtisodiyotni rivojlantirishning muhim vazifalaridan biridir.

Iqtisodiy islohotlarning dastlabki yillaridan boshlab mamlakatimizda mustaqil soliq siyosati ishlab chiqildi, uning taktika va strategiyasi aniqlanib, izchil takomillashtirilib borilmoqda. Yurtboshimiz tomonidan milliy soliq siyosatining ustuvor yo'nalishlari belgilab berildiki, uning asosiy maqsadi soliq to'lovchilar va davlat byudjeti manfaatlarini o'rtasida o'zaro uyg'unlikni ta'minlashga qaratilgan. Bunday uyg'unlikni ta'minlashning eng muhim vositalaridan biri soliq yukini optimal belgilash va shu tariqa davlat byudjetini kerakli miqdorda moliyaviy resurslar bilan ta'minlash bilan birga, soliq to'lovchilar zimmasidagi soliq majburiyatlari ularning moliyaviy barqarorligiga salbiy ta'sir etmasligiga erishishdan iborat. Keyingi yillardagi soliq siyosatining asosiy yo'nalishlarida soliq yukini muntazam kamaytirib borish tendentsiyasi kuzatilmoqda, ushbu holat 2011 yildan boshlab ham kuzatildi va iqtisodiyotga ijobiy ta'sir etdi.

Soliq yukini iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlarni e'tiborga olgan holda kamaytirib borish o'z samarasini berdi. Milliy bozorni mahalliy tovarlar (xizmat, ish)lar bilan to'ldirayotgan, eksportga mahsulot chiqarayotgan, ichki va tashqi investitsiyalarni ishlab chiqarishga jalb qilayotgan, shuningdek, kichik biznes sub'yektlari shaklidagi soliq to'lovchilarga soliq imtiyozlarining kengaytirilishiga qaramasdan, yalpi ichki mahsulot va davlat byudjetining daromadlar hajmida yil sayin o'sish ta'minlanmoqda. Soliq yukining kamayishi nafaqat umumiy hajmda, shuningdek, uning tarkibi bo'yicha ham sezilarli ravishda ko'zga tashlanmoqda.

Kichik biznes rivojlanishini rag'batlantirishda soliq tizimining roli.

Respublikamizda kichik biznes sub'yektlari faoliyatini rivojlantirish maqsadida turli xil moliyaviy vositalar orqali bu sohani qo'llab-quvvatlash ustuvor yo'nalish sifatida amal qilib kelmoqda. Kichik biznes sub'yektlari faoliyatini rag'batlantirishda soliq tizimidan foydalanish o'z samarasini bermoqda.

Oxirgi yillarda kichik biznes sub'yektlari uchun yagona soliq to'lovi stavkasi yil sayin kamayib borishi kuzatilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 24 dekabrda "O'zbekiston Respublikasining 2011 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to'g'risida"gi PQ-1449-sonli qaroriga muvofiq, 2011 yilda iqtisodiyotning barcha tarmoqlaridagi korxonalar, mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun yagona soliq to'lovining amaldagi 7 foizli stavkasi 1 foizga kamaytirilib, 6 foiz qilib belgilandi, buning natijasida kichik biznes sub'yektlari ixtiyoriga davlat byudjetiga to'lashi lozim bo'lgan 80 milliard 300 million so'mlik mablag' ularning moliyaviy imkoniyatlarini kuchaytirish uchun qoldirildi, provardida esa ularda ishlab chiqarish hajmi o'sgan holda, yangi ish o'rinlarini yaratishda ushbu sub'yektlarning ulushi oshishi ta'minlandi. 2012 yilda

ham kichik biznes sub'yektlari uchun soliq yuki darajasi kamaytirildi, ya'ni yagona soliq to'lovi stavkasi 6 foizdan 5 foizga tushirildi va hozir 2019 yilda bu stavka 4 foiz qilib belgilandi. 2020 yilda ham bu stavka qoldirildi.

O'tgan yillar davomida malakatimizda soliq yukini yengillashtirish, soliqqa tortish tizimini soddalashtirish va unifikatsiya qilish bo'yicha kichik biznes sub'yektlarini qo'llab-quvvatlash maqsadida bir qator qo'shimcha soliq va bojxona imtiyozlari berildi. Jumladan, mamlakatimizdagi yengil va oziq-ovqat sanoatining iste'mol tovarlari ishlab chiqarishga ixtisoslashgan korxonalari, shuningdek, ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturida ishtirok etayotgan korxonalar uchun keng ko'lamli qo'shimcha soliq va bojxona imtiyozlari berildi.

Nazorat savollari:

1. Tadbirkorlik deganda nimani tushunasiz?
2. Tadbirkorlikning qanday turlarini bilasiz?
3. Ishlab chiqarish tadbirkorligining mohiyati nimadan iborat?
4. Tijorat tadbirkorligining mohiyatini tushuntirib bering.
5. Moliyaviy tadbirkorlikning faoliyat mohiyati nimadan iborat?
6. Konsalting nima? Uning istiqboli haqida gapirib bering.
7. Tadbirkorlikning qanday shakllarini bilasiz?
8. Yakka tadbirkorlik nima? U qanday turlarga bo'linadi?
9. Xususiy tadbirkorlik yakka tadbirkorlikdan nima bilan farq qiladi.
10. Tadbirkorlik faoliyati qanday rivojlanish tarixiga ega?
11. Xorijiy mamlakatlarda tadbirkorlik faoliyatini uziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?
12. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatiga ta'sir etuvchi omillarni ta'kidlab o'ting.
13. Sizningcha, tadbirkorlik faoliyatiga yana qanday omillar ta'siri bo'lishi mumkin?
14. Hukumat tomonidan qanday qabul qilingan Qonunlar va Prezident Farmonlari asosida tadbirkorlikni, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlanishiga qanday e'tibor berilmoqda?
15. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda soliqlar qayday ahamiyat kasb etadi?
16. Soliqlarning iqtisodiy mohiyati deganda nimani tushunasiz?
17. Soliqlarning ob'yektiv zarurligi nimalarda ko'rinadi?
18. Soliqlarning boshqa iqtisodiy kategoriyalardan farqi nimada?
19. Soliq elementlari tarkibiga nimalar kiradi?
20. Soliqsolish ob'yekti nima?
21. Soliqagenti deganda kimlarni tushunasiz?
22. Soliq tamoyillarini ayting
23. Soliqsolishning adolatlilik tamoyili nima va siz uni qanday tushunasiz?

2-MAVZU. XUSUSIY TADBIRKORLIK VA KICHIK BIZNES FAOLIYATINI TASHKIL ETISH, REJALASHTIRISH VA BOSHQARISH

Reja:

- 2.1. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarini tashkil etish bosqichi.
- 2.2. Biznes reja, uning ahamiyati va asosiy bo'limlari.
- 2.3. Xususiy tadbirkorlik va kichik biznes faoliyatini boshqarishning maqsadi va vazifalari..
- 2.4. Xususiy tadbirkorlik va kichik biznes korxonalari boshqaruvining tashkiliy tuzilmalari.

Tayanch iboralar: Kichik korxonalar, “Yagona darcha” markazlari, ta'sis shartnomasi, biznes-reja, yakka boshqaruv, kollegiallik, tashkiliy tuzilma.

2.1. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarini tashkil etish bosqichi.

Tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar kichik biznesning sub'yektlari bo'ladilar, ular xodimlarning o'rtacha soni qonun tomonidan belgilangan chegaraviy darajadan oshib ketmaydi.

Tovarlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatishga shaxsiy va boshqa shaxslarning jalb qilingan mulklari asosida, shaxsiy mehnatni yollash bo'yicha mehnatni qo'llash vositasida tavakkalchilik va mulkiy javobgarlik ostida foyda (daromad) olishga qaratilgan tashabbuskorlik faoliyatini amalga oshiruvchi yuridik shaxslar xususiy tadbirkorlikning sub'yektlari bo'ladilar.

Kichik korxonalar quyidagicha tashkil qilinishi mumkin:

- ✓ fuqarolar, oila a'zolari va boshqa shaxslar tomonidan;
- ✓ davlat, ijara, jamoa, hissadorlik jamiyatlari, xo'jalik assotsiatsiyalari, qo'shma korxonalar va boshqalar tomonidan;
- ✓ jamoat tashkilotlari tomonidan;
- ✓ aytib o'tilgan idoralarning hamkorligi asosida;
- ✓ mulk egasining roziligi bilan jamoa tashabbusi bo'yicha amaldagi korxonalar tarkibidan ajralib chiqish natijasida.

Bundan tashqari, kichik korxonalar, birlashmalar va korxonalarning tashabbusi bilan (monopoliyaga qarshi idoraning qarori bo'yicha) majburan tashkil qilinishlari mumkin.

Kichik korxonalar avvalo xalq iste'moli tovarlarini ishlab chiqarish va maishiy xizmatlar ko'rsatish uchun tashkil qilinadi. Ammo ular iqtisodiyot tarmoqlarida har qanday sohalarida ham tashkil qilinishi, mulkchilikning har qanday shakllari asosida harakat qilishi mumkin. Bir yoki bir necha yuridik yoki jismoniy shaxslar kichik korxonalarning ta'sischilari bo'lishi mumkin.

Kichik biznesning faoliyati sohasi keng yoyilgan bo'lib, u xo'jalik faoliyatining barcha turlarini (agar ular qonun tomonidan man etilmagan bo'lsa) amalga oshirishi mumkin. U bitimlar tuzish, mulkni xarid qilish, tashqi bozorga chiqish, savdo vositachiligi va boshqa bitimlarni amalga oshirish huquqiga ega.

Kichik biznes bu xo'jalik yuritishning mustaqil mavjud bo'ladigan va faoliyat yuritadigan shaklidir. U ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning hajmi va turlarini mustaqil belgilashi, uni o'z ixtiyoriga ko'ra sotishi, tovarlar va xizmatlarga narxlarini belgilashi, rivojlanish fondlari, ijtimoiy soha, rezerv fondiga foyda ajratmalarining me'yorlarini belgilashi, yollanma xodimlar mehnatigahaq to'lash shakllari va miqdorlarini mustaqil belgilashi mumkin.

Barqaror faoliyat yuritish maqsadlarida kichik korxonalar, uyushmalar birlashishlari, har xil kooperativlarning tarkibiga kirishlari mumkin.

Shunday qilib, kichik korxona xo'jalik yurituvchi sub'yektning yangi shaklidan iborat emas. U boshqa korxonalardan faqat kichikroq ko'lamlari bilan farqlanadi, xolos.

Iqtisodiyotning jadal rivojlanishi va ishlab chiqarish kuchlarining o'sishi faoliyat yuritayotgan korxonalardan tashqari, yangi korxonalarni tashkil qilish va ishga tushirishga tayanadi. Bunday qadam iqtisodiy jihatdan maqbullikka, resurslar imkoniyati va korxona mahsulotlariga bo'lgan talabga asoslanadi. Biron-bir mahsulotning taqchilligi yoki umuman yo'q bo'lishi ham, yangi korxona yoki ishlab chiqarishni tashkil qilishga sabab bo'lishi mumkin.

Yangi korxonani tashkil qilish quyidagi tashkiliy tamoyillar asosida amalga oshiriladi:

- ✓ korxonani tashkil qilish fikrining paydo bo'lishi;
- ✓ korxona ta'sischilarini tanlash;
- ✓ taklif qilinayotgan mahsulotga bozordagi talabni o'rganish;
- ✓ korxona nizom jamg'armasini tuzish uchun moliya manbalarini aniqlash;
- ✓ korxonaning ta'sis hujjatlari va biznes-rejasini tayyorlash;
- ✓ davlat ro'yxatidan o'tish;
- ✓ muhr, shtamp va boshqa rekvizitlarni tayyorlash;
- ✓ soliq idoralarida ro'yxatdan o'tish.

O'zbekiston Respublikasining qonunlariga asosan, korxonalar mulk egasi (egalari) yoki u (ular) tayinlagan vakillik idorasi, mehnat jamoasi yoki ta'sischilar guruhining qarori bo'yicha belgilangan qonun-qoidalarga asosan tashkil qilinishi mumkin.

Shuningdek, korxonalar agar korxona mulki egasi yoki u tayinlagan vakillik idorasining roziligi bo'lsa, faoliyat yuritayotgan korxona tarkibidan bir yoki bir necha tarkibiy bo'linmalarni, ushbu bo'linmalarning mehnat jamoalari tashabbusiga ko'ra, ajratib chiqarish natijasida ham tashkil topishi mumkin.

Korxona joriy va hisob-kitob raqamlari ochish va ular to'g'risidagi holatlarni tasdiqlash huquqiga ega bo'lgan, mustaqil huquqiy shaxs maqomidagi sho'ba korxonalari, filiallar, vakolatxonalar, bo'lim va boshqa tashkiliy bo'linmalarni tashkil qilishi mumkin.

Korxona qonun hujjatlarida belgilab qo'yilgan tartibda maxsus davlat idoralarida ro'yxatga olingan kundan boshlab tashkil qilingan hisoblanadi va huquqiy shaxs maqomiga ega bo'ladi.

Sir emas, muqaddam tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishga bel bog'lagan kishilar bir qator byurokratik to'siqlarni oshib o'tishiga to'g'ri kelardi: ish boshlash arafasida bir necha idoralarga uchrashib, bir talay hujjatlarni to'ldirishi - imzo to'plashi shart edi. Hali u, hali bu darchaga bosh suqib, kuch-quvvatini va qimmatli vaqtini mana shu kabi ortiqcha yumushlarga sarf qilib qo'yardi.

Birinchi Prezidentimizning 2015 yil 15 maydagi "Xususiy mulk, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni ishonchli himoya qilishni ta'minlash, ularni jadal rivojlantirish yo'lidagi to'siqlarni bartaraf etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni yuqoridagi muammolarni bartaraf qilishga asos bo'ldi.

Yuqoridagi farmonda davlat xizmatlaridan foydalanishda byurokratik to'siqlarni bartaraf etish, ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash, tadbirkorlarning xizmat ko'rsatuvchi mansabdor shaxslar bilan bevosita aloqasini istisno qilish maqsadida tuman (shahar) hokimliklari huzuridagi tadbirkorlik sub'yektlarini ro'yxatga olish inspeksiyalari negizida "Yagona darcha" tamoyili asosida tadbirkorlik sub'yektlariga davlat xizmatlari ko'rsatish markazlari tashkil etilishi belgilangan bo'lib, ushbu Farmonning ijrosini ta'minlash bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 28 sentyabrda qabul qilgan Qarori dastur ijrosining amaliyotga muvaffaqiyatli tadbiriq etilishiga keng imkoniyat yaratdi.

Hozirda respublikamiz bo'yicha 194, jumladan Toshkent shahrida 11 ta va poytaxt viloyatida esa 18ta "Yagona darcha" markazlari faoliyat ko'rsatmoqda.

Xususiy mulkni himoya qilish va kichik biznesni qo'llab - quvvatlash bo'yicha choralalar bilan birgalikda mamlakat Hukumati xususiy xorijiy kapitalni jalb etish uchun qulay shart - sharoitlar yaratish masalasiga ham alohida e'tibor qaratmoqda.

Xorijiy investorlar uchun eng qulay preferensial rejim yaratish borasida qabul qilingan navbatdagi yangi chora sifatida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi yangidan tashkil etilgan ishlab chiqarish korxonalariga besh yil mobaynida ular ro'yxatdan o'tkazilgan sanada amalda bo'lgan soliq stavkalari va boshqa majburiy to'lovlarni qo'llash huquqi berilganligini aytib o'tish mumkin.

Shu o'rinda ta'kidlash kerakki, Jahon bankining «Doing Business 2017» hisobotiga ko'ra, O'zbekistondagi soliq yuki darajasi "Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilot"iga a'zo jahonning rivojlangan mamlakatlari, xususan AQSH, Germaniya, Fransiya, Italiya, Yaponiya, Xitoy va shu kabi qator mamlakatlar ko'rsatkichidan ancha pastdir.

Yana bir diqqatga sazovor jihati, so‘nggi yillarda biznesni tashkil etish tartiblarini tubdan soddalashtirish, “Yagona darcha” tamoyili asosida Internet tarmog‘i orqali davlat ro‘yxatidan o‘tish tizimining joriy etilishi natijasida «Doing Business 2017» hisobotida O‘zbekiston “Korxonani ro‘yxatdan o‘tkazish” ko‘rsatkichi bo‘yicha jahonda 25 - o‘rinni egalladi.

Qayd etish joizki, 2016 yildan tadbirkorlik sub‘yektlariga 16 turdagi davlat xizmatlari ko‘rsatishning “Yagona darcha” tamoyiliga asoslangan yangi ochiq mexanizmining joriy etilishi bois, bugungi kunda tadbirkorlar turli ruxsatnomalarni “Yagona darcha” markazlari orqali ortiqcha byurokratik to‘siqlar va ovaragarchilik rasmiylashtirish imkoniga ega bo‘ldilar.

2018 yil 1 yanvardan boshlab “Yagona darcha” markazlari orqali taqdim etiladigan litsenziya va ruxsatnomalarni qog‘oz shaklidagi maxsus blankalarda majburiy rasmiylashtirish talabi bekor qilindi. Bunda berilgan, to‘xtatib qo‘yilgan, qayta tiklangan, qayta rasmiylashtirilgan, bekor qilingan, shuningdek, amal qilish muddati tugatilgan ruxsatnoma va litsenziyalar to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni “Litsenziya” axborot tizimlari majmuasi orqali olish imkoniyati yaratildi.

Korxonani tashkil qilish 2017 yil 9 fevraldagi Vazirlar Mahkamasining 66 sonli qaroriga asosan 2 bosqichda amalga oshiriladi, 30 daqiqa (PF-2646 asosan - 28 oktyabr 2016 yil).

Hozirgi kunda respublikamizda tadbirkorlik sub‘yektlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish va hisobga qo‘yish tartibini tubdan takomillashtirish bo‘yicha chora - tadbirlar amalga oshirilmoqda. Unga asosan tadbirkorlik sub‘yektlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish va hisobga qo‘yishni avtomatlashtirilgan tizimini joriy etish, shuningdek, 2017 yil 1 apreldan boshlab tadbirkorlik sub‘yektlarini davlat ro‘yxatidan O‘zbekiston Respublikasi Davlat interaktiv xizmatlari yagona portaliga integratsiyalashgan Internet tarmog‘idagi tizim orqali kechayu - kunduz o‘tkazish va hisobga qo‘yish joriy qilindi.

2 ta xujjat: ariza, ta‘sis hujjatlari, faqat ariza - YATT uchun my.gov.uz - avtomatlashtirilgan tizim orqali o‘zi registratsiya qilishi mumkin.

Korxonani tashkil qilishdan tashqari, uning moliyaviy barqarorligi va samarali faoliyatini ta‘minlash, bozor munosabatlari va raqobatchilik sharoitlarida juda muhimdir. Amaliyotdan ko‘rinib turibdiki, bu qoidalarga rioya qilmaslik natijasida korxonani tashkil qilishga ketgan barcha say-harakatlar o‘zini oqlamaydi hamda ijtimoiy ishlab chiqarish rivojlanishining mikro va makroiqtisodiy ko‘rsatkichlariga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi. Ya‘ni moliyaviy jihatdan barqaror bo‘lmagan korxonalar endi tashkil qilingan yoki faoliyat yuritayotganligidan qat‘iy nazar, inqirozga yuz tutgan korxonalar hisoblanadi.

Yangi korxona tashkil qilishdan asosan quyidagi maqsadlar ko‘zlanadi:

✓ iste‘molchilar talab qilayotgan mahsulot ishlab chiqarishni ko‘paytirish va uni sotishdan foyda (daromad) olish;

- ✓ ishlab chiqarishga ish bilan band bo'lmagan aholini jalb qilish va shu orqali ish bilan ta'minlashdagi ijtimoiy muammolarni hal qilish;
- ✓ ishlab chiqarishga mavjud qo'shimcha resurslarni jalb qilish;
- ✓ fan - texnika yutuqlaridan foydalangan holda yangi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish;
- ✓ yakka tarzda yoki hamkorlikda faoliyat yuritish uchun kichik korxona (o'rtoqchilik kabi) tashkil qiluvchi alohida fuqarolar yoki shaxslar guruhi a'zolarining shaxsiy ehtiyojlarini qondirish;
- ✓ ishlab chiqarishni mustahkamlash va rivojlantirish hamda bozor muhitini kengaytirish.

Korxonalar faoliyatini tartibga soluvchi qonun hujjatlarida ikki xil **ta'sis hujjatlari** belgilab berilgan:

Korxona nizomi;

Ta'sis shartnomasi.

Amaliyotda korxona faqat nizom yoki faqat ta'sis shartnomasi asosida, shuningdek, bir vaqtning o'zida nizom va ta'sis shartnomasiga asosan faoliyat yuritish hollari mavjud.

Shuni qayd qilib o'tish kerakki, korxonaning (huquqiy shaxsning) ta'sis shartnomasi kelishuv asosida tuziladi, nizom esa ta'sischi (ta'sischilar) tomonidan tasdiqlanadi. Bitta ta'sischi tomonidan tuzilgan huquqiy shaxs shu ta'sischi tomonidan tasdiqlangan nizom asosida faoliyat yuritadi.

Korxona nizomi asosiy ta'sis hujjati bo'lib, unda korxonaning tashkiliy-huquqiy shakli, nomi va manzilgohi, nizom jamg'armasining miqdori, daromadlarining tarkibi va taqsimlanish tartibi hamda korxona fondlarini tashkil qilish tartibi, korxonani tugatish va qayta tashkil qilish tartibi ko'rsatilishi shart. Boshqacha qilib aytganda, korxona nizomi uning huquqiy maqomini, huquq va majburiyatlarini belgilab beradi.

Nizomda shuningdek, korxona faoliyat ko'rsatuvchi soha va tarmoq, atrof-muhit va odamlar sog'lig'ini muhofaza qilish kafolati, boshqaruv shakli, hisobga olish va hisobot tizimi ham aks ettirilishi lozim.

Korxona to'g'ri va to'liq tayyorlangan nizom asosida mahalliy hokimiyat idoralarida ro'yxatga olinadi, keyin esa o'z muhriga ega bo'lish va bankda hisob raqami ochish huquqini qo'lga kiritadi. O'z muhri va hisob raqamiga ega bo'lmagan korxona, huquqiy shaxs hisoblanmaydi va mustaqil korxonalar qatoriga kiritilmaydi.

Ta'sis hujjatlarini tayyorlash korxonani tashkil etish va keyingi faoliyat yuritish jarayonidagi muhim bosqichlaridan biri hisoblanadi. Ta'sis hujjatlari faoliyat yurituvchi korxonalarning huquq va majburiyatlarini hamda sharoitlarini ifodalaydi.

Ta'sis shartnomasi korxonaning tashkil qilinishi va yakka tarzda yoki hamkorlikdagi faoliyatning boshlanishini tavsiflovchi hujjatdir. U shuningdek, tashkil etilayotgan korxonaning Nizomini to'ldiruvchi hujjat bo'lib hisoblanadi. Ta'sis shartnomasida korxonani tashkil qilish tartibi, daromad va xarajatlarni qatnashchilar

o'rtasida taqsimlash shartlari, ishtirokchilarni (ta'sischilar) korxona tarkibidan chiqish faoliyat tartibi belgilab qo'yiladi.

Korxona mulkini shakllantirish va undan foydalanish nizom va ta'sis shartnomasining muhim qismi hisoblanadi.

“Korxonalar to'g'risida” gi qonunga asosan quyidagilar korxona mulkini shakllantirishning manbalari hisoblanadi:

- ✓ ta'sischilarning pul va moddiy ko'rinishdagi badallari;
- ✓ mahsulot (ish, xizmat) sotishdan va boshqa turdagi faoliyatdan olingan daromadlar;
- ✓ qimmatbaho qog'ozlardan olingan daromadlar;
- ✓ banklar va boshqa kreditorlardan olingan kreditlar;
- ✓ byudjetdan olinuvchi mablag'lar (dotatsiya), kapital qo'yilmalar;
- ✓ korxona, tashkilot va fuqarolarning beg'araz va xayriya badallari, shuningdek, almashish, meros va sovg'a tariqasida olinuvchi mulk;
- ✓ qonun bilan taqiqlanmagan boshqa manbalar.

Korxonalarning davlat tomonidan ro'yxatga olinishi. Yuqorida aytib o'tilganidek, korxona joylashgan manzilgohi bo'yicha davlat idoralarida ro'yxatga olingan kundan boshlab tashkil qilingan hisoblanadi. Bu vazifani asosan hokimiyatlar bajarib, ular korxonani ro'yxatga olish to'g'risidagi ma'lumotlarni 10 kun mobaynida Moliya Vazirligiga yagona davlat reestriga kiritish uchun taqdim etishlari shart.

Davlat ro'yxatidan o'tish uchun korxonani tashkil qilish to'g'risidagi qaror, korxona Nizomi (ta'sis shartnomasi) va Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilab beriluvchi ro'yxatdagi boshqa hujjatlar taqdim etiladi.

Korxonani davlat tomonidan ro'yxatga olish zarur hujjatlar ilova qilingan ariza berilgan kundan boshlab 30 kun mobaynida amalga oshirilishi lozim. Korxonalarni ro'yxatga olishdan, ularni tashkil qilish maqsadga muvofiq emas, degan sabab bilan bosh tortishga yo'l qo'yilmaydi.

Agar korxonani ro'yxatga olish o'z vaqtida amalga oshirilmasa yoki ta'sischi ro'yxatga olinmaslik sabablarini asossiz deb hisoblagan taqdirda ta'sischi sudga murojaat qilishi mumkin. Korxonani ro'yxatga olishdan asossiz ravishda bosh tortish mahalliy hokimiyat idoralarining moddiy javobgarlikka tortilishiga olib kelishi mumkin.

Korxonani ro'yxatga olish uchun quyidagi hujjatlar talab qilanadi:

- ✓ Korxonani ro'yxatga olish to'g'risidagi ariza.
- ✓ Ta'sis shartnomasi yoki korxonani tashkil qilish to'g'risidagi qaror.
- ✓ Korxona nizomi.
- ✓ Ta'sis shartnomasi yoki korxonani tashkil qilish to'g'risidagi qarorda ko'rsatilgan nizom jamg'armasining kamida 50% miqdoridagi qismi to'langanligini tasdiqlovchi hujjatlar.
- ✓ Davlat bojini to'laganlik haqida guvohnoma.

✓ Monopoliyaga qarshi muassasaning korxonani tashkil qilishga roziligini tasdiqlovchi hujjat.

✓ Davlat mulkini boshqarish va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash qo'mitasi yoki uning quyi idoralari roziligi haqidagi hujjat.

Ro'yxatga olish korxonaga kelib tushuvchi hujjatlarni qayd qilish kitobida tartib raqami berish orqali amalga oshiriladi. Ko'rsatilgan jarayonlar amalga oshirilgach, korxona joylashgan manzilgohi bo'yicha soliq idoralarida hisobda turishi va buni tasdiqlovchi hujjat olishi hamda bankda hisob raqami ochishi mumkin.

2.2. Biznes reja, uning ahamiyati va asosiy bo'limlari.

Tadbirkorlik - korxonalar xo'jalik yuritish faoliyatining uzluksiz qismi bo'lib, foyda (daromad) olish va uni ko'paytirishga qaratilgan bo'ladi. Korxonalar hayotida u, boqibeg'amlikka berilish, turg'unlik va isrofgarchilikni inkor qilishni anglatadi.

Korxona rahbari yoki mutaxassis tadbirkorlik va tashabbuskorlik "ruhiga" ega bo'lmasa, demak, u bo'sh yoki yomon xodim, xizmatda belgilangan soatlarni o'tkazib o'tiruvchi shaxs hisoblanadi. Aksincha, tadbirkorlik va tashabbuskorlik "ruhiga" ega bo'lgan mutaxassis yoki mansabdor shaxslar ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va rivojlantirish, mehnat sifatini ko'tarish va korxonaning oladigan daromadlarini ko'paytirish yo'llarini izlab topadilar.

Biznes-reja yangi korxona tashkil qilish yoki biron-bir tijorat loyihasini amalga oshirish uchun mo'ljallanayotgan asoslangan xatti-harakatlarni o'z ichiga oluvchi hujjat hisoblanadi.

Biznes rejani ishlab chiqishdan asosiy maqsad - firma faoliyatini kelgusi davr va ayrim olingan davrdagi bozor ehtiyojlari va zaruriy manbalar olish imkoniyatlaridan kelib chiqishdir.

Uning asosiy vazifasi, korxonaga o'z imkoniyatlarini baholash, bozordagi istiqbolni, zaruriy xarajatlarni aniqlash, korxona faoliyatining birinchi yillarida "suv ostidagi toshlar"ni aniqlash hamda mazkur faoliyat turining foydali yoki zararli ekanligini baholash ko'rsatkichlari yordamida hisoblashga yordam berishda deb belgilanadi.

Biznes-rejani tayyorlash natijasida «Ishni nimadan boshlash kerak?», «Samarali ishlab chiqarishni qanday tashkil qilish lozim?», «Birinchi foyda yoki daromad qachon olinadi?», «Investorlar va kreditorlar bilan qachon hisob-kitob qilish mumkin?», «Yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavf-xatarni qanday kamaytirish mumkin?», «Raqobatchilar bilan kurashda qanday choralardan foydalanish mumkin?» kabi savollarga javob olinadi.

Biznes-rejani tuzishda quyidagi shartlarga alohida e'tibor qaratish zarur:

✓ Biznes-reja professional va shu bilan bir paytda sodda, bajarish uchun tushunarli va oson bo'lishi lozim;

ХУСУСИЙ КОРХОНА



Ташкил этилади
ва бошқарилади

бир жисмоний шахс
томонидан;



Низом жамғармаси:

минимал ўлчам
мавжуд эмас;



Ташкил этиш
ҳужжатлари:

Низом;



Ҳамкорларни
жалб этиш:

мумкин эмас;



Солиққа тортиш:

солиқларни
корхона тўлайди

ОИЛАВИЙ КОРХОНА



Иштирокчилар:

бир оила аъзолари;



Низом жамғармаси:

энг кам ойлик
иш ҳақининг
10 бараваридан
кам бўлмаган;



Ташкил этиш
ҳужжатлари:

ташкил этиш
шартномаси;



Ҳамкорларни
жалб этиш:

фақат оила аъзолари
низом жамғармасига
ҳисса қўшиш билан;



Энг кам иштирокчи:

камида икки киши

МАСЪУЛИЯТИ ЧЕКЛАНГАН ЖАМИЯТ



Эгалари:

ҳар қандай жисмоний
ва юридик шахс, шу жумладан
хорижий фуқаролар.
Бир жисмоний ёки юридик
шахс томонидан ҳам
ташкил этилиши мумкин;



Низом жамғармаси:

энг кам ойлик
иш ҳақининг камида
40 баравари миқдорда;



Асос солиш
ҳужжатлари:

шартнома ва низоми;



Ҳамкорларни
жалб этиш:

jamiyatning barча
аъзолари розилиги
шарти асосида низо
жамғармасига улуш
қиритиш йўли билан;



Энг кўп
иштирокчилар сони:

50 киши

АКЦИЯДОРЛИК ЖАМИЯТИ



Асосчилар ва
иштирокчилар:

бир/бир неча.
Хорижий акциядорлар
бўлиши шарт, уларнинг
низом жамғармасидаги
улуши камида 15 фоиз
бўлиши керак;



Низом
жамғармаси:

акциялар нархи суммаси,
МБ курси бўйича камида
400 минг АҚШ доллари.
Бир дон акциянинг
номинал қиймати
кўпи билан 5 минг сўм;



Ташкилий
ҳужжатлар:

Низом;



Маблағларни
жалб этиш:

қўшимча акцияларни
чиқариш;



Солиққа тортиш:

дивидендлар ва фойзлар
қўрилишида акциядорларга
ўланадиган
даромадларга солиқ

✓ Biznes-reja investor yoki boshqa manfaatdor shaxs o'ziga kerakli ma'lumotlarni qidirib topishi uchun bo'limlarga (boblarga) bo'linishi lozim;

✓ Biznes-rejani tayyorlashda korxonaning bosh rahbari albatta qatnashishi shart, chunki investor, bank yoki boshqa moliya idorasi korxona rahbari qatnashmaganligi yoki boshqa shaxsga topshirilganligi haqida xabar topsa, biznes-rejaning ishonchliligiga shubha uyg'onishi mumkin;

✓ Biznes-rejaning ob'yektiv baholanishiga erishish kerak, ya'ni unda xatolar va noto'g'ri hisob-kitoblar bo'lmasligi lozim;

✓ Biznes-rejaning tarqatib yuborilmasligini nazorat qilish zarur, chunki unda biznes to'g'risidagi maxfiy ma'lumotlar joy olgan bo'ladi.

Rejalarning har bir turi kabi, biznes-reja ham, bo'lim va ko'rsatkichlardan iborat bo'ladi. O'ntagacha bo'limni o'z ichiga oluvchi biznes-reja mazmuni va tuzilishiga ko'ra, eng maqbul hisoblanadi.

Mavjud adabiyotlarda quyidagi bo'limlarni o'z ichiga oluvchi biznes-rejalar taklif qilinadi:

1. Tanlangan biznes konsepsiyasi.
2. Hozirgi vaqtdagi holati (maqsad, vazifa va niyatlar).
3. Tashkil qilinayotgan korxona va uning mahsulot hamda xizmatlari tavsifnomasi.
4. Boshqaruv (menejment).
5. Bozor tadqiqoti va tahlili.
6. Marketing harakatlari rejasi.
7. Ishlab chiqarish rejasi.
8. Tavakkalchilikni baholash.
9. Moliyaviy reja.
10. Biznes-loyihaning samaradorligi.

Tanlangan biznes yo'nalishining kontsepsiyasini tuzishda uning raqobatbardoshligi (sifat, narx, iste'molchiga etkazib berish shakli, tayyorlash texnologiyasi va hokazo); mablag'larga bo'lgan ehtiyojlar; o'ziga jalb qilishning asoslanganligi (taklif qilinayotgan mahsulotning boshqa mahsulotlardan afzalliklari, mahsulot ishlab chiqarishning qaysi bosqichda ekanligi va hokazo)ga katta e'tibor qaratish lozim.

Konsepsiyada tanlangan tovar bozoridagi ahvol, korxonaning tanlangan biznes sohasidagi kuchli va kuchsiz tomonlari, boshqa bozorga chiqish imkoniyatlari, bozorga ta'sir o'tkazuvchi qonunchilik, siyosat, demografik holat kabi omillar aks ettiriladi.

Bundan tashqari kontsepsiya bahoning o'zgarishi, inflyatsiyaning o'sishi, kapital olib chiqish yoki mahsulot olib kirishni cheklovchi qonun hujjatlarini qabul qilinishi kabi sharoitlarda mahsulotni sotishni ko'paytirish uchun zarur bo'lgan

chora-tadbirlarni ham o'z ichiga oladi. Ushbu bo'lim tanlangan biznes yo'nalish maqsadlarining shakllanishi bilan yakunlanadi.

Korxona, uning mahsulot va xizmatlari tavsifnomasi bo'limida korxonaning joylashgan manzili, bozorga chiqish shakli, bozordagi ulushi, asosiy raqobatchilari va ularning kuchli tomonlari, texnologiya darajasi va xarajalar tahlili aks ettiriladi.

Mulkchilik shakli, xodimlarning malakasi, tashqi muhit bilan munosabatlar "Boshqaruv" bo'limida ko'rsatiladi.

"Bozor tadqiqoti va tahlili" bo'limida tanlangan bozor asoslab beriladi, xaridorlarni korxona mahsulotlariga jalb etuvchi raqobatchilik usullari hamda bozorda bahoni shakllantirish va hokazolar ko'rib chiqiladi.

Marketing rejasining asosiy vazifasi korxonaning bozordagi imkoniyatlariga baho berishdadir. Marketing rejasining asosiy elementlari sifatida tovarlarni tarqatish tizimi, bahoni shakllantirish, reklama, savdoni rag'batlantirish usullari, sotilgandan keyingi xizmat ko'rsatishni tashkil qilish, korxona (firma) va uning mahsulotlari haqida jamoatchilik fikrini shakllantirish kabilarni ko'rsatib o'tish mumkin.

"Ishlab chiqarish rejasini" bo'limi salohiyat xaridorlarga kerakli mahsulotlar hajmini o'z vaqtida ishlab chiqarish imkoniyatining mavjudligini ko'rsatadi. Mazkur bo'limda quyidagilar o'z aksini topadi: yangi tashkil qilingan yoki faoliyat yuritayotgan korxonada tovar ishlab chiqarish joyi; buning uchun zarur bo'lgan ishlab chiqarish quvvatlari va ularning o'sish istiqbollari; xomashyo va material etkazib beruvchilar; ishlab chiqarish kooperatsiyasi; ishlab chiqarish oqimlari tizimini tuzish; sifatni nazorat qilish jarayoni; vujudga kelishi mumkin bo'lgan ishlab chiqarish xarajatlari.

"Tavakkalchilik va sug'urtalashni baholash" bo'limi ikki qismga bo'linadi. Birinchi qismda, tavakkalchilikning barcha turlari (yong'in, zilzila, soliqni boshqarishdagi o'zgarishlar va valyuta kursining tebranishi) oldindan hisoblab chiqiladi.

Ikkinchi qismda esa tavakkalchilik xavfining oldini olish, ya'ni tavakkalchilik va zararlarni qisqartirish chora-tadbirlari ko'rsatiladi, shuningdek, tavakkalchilik xavfidan sug'urtalash dasturi amalga oshiriladi.

Moliyaviy reja biznes-rejaning yakunlovchi bo'limi bo'lib, korxona faoliyatining natijalarini tavsiflaydi. U quyidagi bo'limlarni o'z ichiga oladi: savdo hajmining bashorati; pul daromadlari va xarajatlari balansi; foyda va zarar bo'yicha reja.

Mazkur rejaning ko'rsatkichlari sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin: tovarlarni sotishdan tushgan daromad; ishlab chiqarish xarajatlari; savdodan tushgan umumiy foyda; sof foyda; korxona aktiv va passivining solishtirma balansi; zararsizlikka erishish grafigi.

Shuningdek, mazkur bo'limda ishlab chiqarishni tashkil qilish yoki kengaytirish uchun mablag' jalb qilish rejalari ham ifodalanadi. Bo'limda korxonaning moliviy

barqarorligi yoki nochorligini aniqlash imkonini beruvchi maxsus ko'rsatkichlar hisob-kitobi ham keltiriladi.

2.3. Xususiy tadbirkorlik va kichik biznes faoliyatini boshqarishning maqsadi va vazifalari.

Korxonani boshqarishda samaradorlikka erishish uchun, avvalo, boshqaruvning maqsadlari, shuningdek, vositalari va unga erishish usullarini aniq belgilab olish zarur. Shu bilan bir paytda boshqaruv maqsadlari tushunarli bo'lishdan tashqari, ular barcha bajaruvchilar tomonidan amalga oshirilishiga ham e'tibor berish lozim.

To'g'ri qo'yilgan maqsad korxona rahbarining, shuningdek, butun jamoa va har bir xodimning manfaatlarini ifodalaydi. Bunday natijaga maqsad korxonaning joriy va istiqboldagi rivojlanishi bo'yicha vazifalar majmuasining bir bo'lagiga aylangan holda erishish mumkin. Bunday yondashuv, ishlab chiqarish maqsadining ishlab chiqarishni boshqarish bilan moslashuvini ta'minlovchi eng qisqa yo'lga olib keladi. Bunday moslashuv esa, boshqaruvning ham tizim sifatida, ham alohida faoliyat turi sifatida maqsadga muvofiqligidan darak beradi.

Yuqori sifatli va raqbotbardosh mahsulotlarni eng kam xarajatlar asosida ishlab chiqarish eng ko'p daromad olishni ta'minlab, inqirozga uchrashdan saqlaydi hamda har bir korxonaning asosiy vazifasi hisoblanadi. Boshqaruvning barcha vazifalari ushbu maqsad amalga oshishiga xizmat qilishi lozim. Boshqaruvning samaradorligiga ko'p jihatdan korxona oldiga qo'yilgan maqsadlar va bajariluvchi vazifalarning o'zaro munosabatlari yordamida erishiladi.

Korxonani boshqarishning maqsadlarini quyidagi turlarga bo'lib tasniflashimiz mumkin:

- ✓ amalga oshirish muddatiga ko'ra - joriy va istiqbolli;
- ✓ ahamiyat darajasiga ko'ra - asosiy (strategik) va ikkinchi darajali (taktik);
- ✓ boshqaruv ob'ektiga munosabatiga ko'ra - xususiy va umumiy;
- ✓ natijaga erishish darajasiga ko'ra - yakuniy va oraliq yoki bosqichli.

Boshqaruv jarayonida joriy maqsadlarni istiqboldagi maqsadlarga, xususiy maqsadlarni umumiy maqsadlarga, oraliq maqsadlarni yakuniy maqsadlarga mos kelishi va bo'ysunishini ta'minlash zarur.

Asosiy maqsadlarni amalga oshirishga ko'proq e'tibor qaratish kerak. Korxona yoki unga tenglashtirilgan xo'jalik sub'ektlarini boshqarish faoliyati to'laligicha shu vazifalarni bajarishga qaratilishi lozim. Asosiy maqsadni ikkinchi darajali vazifalardan ajrata olish qobiliyati, zamonaviy menejerlarning eng muhim kasbiy ko'rsatkichlaridan biridir.

Boshqaruv jarayoni asosan davriy (tsiklik) xarakterga ega bo'ladi. U maqsad va vazifalarni belgilash bilan boshlanib, ularni bajarish, ya'ni muayyan bir natijalarga erishish bilan tugallanadi.

Natijalar to'g'risida (maqsadga erishish darajasi) olingan axborotlar asosida yangi vazifalar belgilanadi va boshqaruv tsikli qaytadan boshlanadi. Bunday tsikllarning soni bir nechta bo'lib, ular birinchi o'rinda boshqaruv ob'yektlarining o'ziga xos xususiyatlari va boshqa ko'rsatkichlar bilan ifodalanadi.

Amaliyotda turli xil sabablarga ko'ra, ishlab chiqarish belgilangan o'lchamlardan chetga og'ishi, boshqaruv esa qo'yilgan maqsadga erishmasligi mumkin. Bunday hollarda operativ tartibga solish yo'li bilan chetga og'ishlar olib tashlanadi va ishlab chiqarish jarayonining me'yoriy tarzda faoliyat yuritishi ta'minlanadi.

Korxonani boshqarishning samaradorligi, maqsadlarni shakllantirish va amalga oshirishga qanchalik kam vaqt sarflansa, shunchalik yuqori bo'ladi. Bunga korxona rahbari (menejeri) va boshqaruv vazifalarini bajarishga mas'ul bo'lgan boshqa shaxslarning tajribasi va malakasidan tashqari, boshqaruv amaliyoti va ish tartibiga sarflanuvchi vaqtning qisqartirilishi, boshqaruv jarayonlarini mexanizatsiyalashtirish va avtomatlashtirish, boshqaruv qarorlarini qabul qilish va amalga oshirishni oqilona tashkil qilish bo'yicha tashkiliy-texnikaviy chora-tadbirlar majmuasini qo'llash hisobiga erishiladi.

Korxonadagi boshqaruv faoliyati shuningdek, ma'lum bir tamoyillar asosida amalga oshiriladi. Bu tamoyillar birinchidan, ishlab chiqarish qatnashchilari orasidagi kelishuvlarni o'rnatish, ikkinchidan, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xatolarning oldini oladi hamda boshqaruv mehnatining samaradorligini oshiradi.

Zamonaviy fan va menejment amaliyoti korxonalarni boshqarishning quyidagi tamoyillarini eng asosiylari sifatida qabul qiladi: ilmiylik; tizimlilik va majmuaviylik; yakka boshqaruv va kollegiallik; tartib va adolat; xodimlarni moddiy va ma'naviy rag'batlantirish; tejamkorlik va samaradorlik; tashabbuskorlik va korporativ ruhiyat; vakolat va majburiyat.

Boshqaruvning ilmiylik tamoyili o'zamlarning o'zagidir. Amalda bu tamoyil, avvalo jamiyat rivojlanishining ob'yektiv qonunlari va fan-texnika yutuqlaridan xabardor bo'lishni talab qiladi. Uning yordami bilan ishlab chiqarish va boshqaruvning zaruriy mutanosibligi ta'minlanadi, boshqaruv qarorlaridagi xatolar kamaytiriladi, og'irlik markazi eng katta sifat va miqdor yutuqlariga erishishga o'tkaziladi.

Ilmiylik tamoyili ishlab chiqarish masalalarini hal qilishda iqtisodiy-matematik usullardan keng foydalanish, boshqaruvning maqsadli-dasturiy usullarini amalga kiritish, zamonaviy elektron-hisoblash texnikasi va boshqaruvning avtomatlashtirilgan tizimlaridan foydalanishni ko'zda tutadi.

Tizimlilik va majmuaviylilik tamoyili ilmiylik tamoyilining davomi bo'lish bilan birga, o'zining mustaqil ahamiyatiga ham ega. U boshqarilayotgan tizimning vertikal va gorizontal yo'nalishlari bo'yicha barcha xususiyatlarini qamrab olishni ko'zda tutadi. Tizimlilik va majmuaviylilik tamoyili boshqaruv usullarining

tarqoqlikdagi tamoyillariga hamda bir daqiqalik foyda va ehtiros tufayli yuzaga keluvchi qarorlarga qarshi qo'yiladi. U ishlab chiqarishning bir maromda amalga oshirilishini ta'minlashga xizmat qiladi, ishlab chiqarish uchun qulay sharoit yaratadi.

Yakka boshqaruv va kollegiallik korxonani boshqarishning muhim tamoyillaridan biridir. Bu tamoyil, ayniqsa, aktsionerlik sharoitlarida faoliyat yurituvchi korxonalarda aniq ko'zga ko'rinadi.

Yakka boshqaruv har bir xo'jalik rahbari o'z vakolati doirasidagi masalalarni hal qilishda qonun tomonidan berilgan huquqlarga asosan bir o'zi (yakka tarzda) qaror qabul qilishini hamda korxona faoliyati uchun shaxsan javobgarligini anglatadi. Bundan tashqari, yakka boshqaruv xodim buyruqlarni faqat bitta bevosita (to'g'ridan-to'g'ri) boshliqdan olishi mumkin yoki shart bo'lgan hollarni ham anglatadi.

Kollegiallik korxona jamoasining ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lgan qarorlarni qabul qilishdagi faol ishtirokida ifodalanadi. Ma'lum bir ma'noda, ayniqsa, boshqaruvning iroda bilan bog'liq bo'lgan usullarida kollegiallik yakka boshqaruv qarama-qarshilikni anglatadi. Bozor iqtisodiyoti sharoitlarida ushbu tamoyilning imkoniyatlari sezilarli ravishda kengaytirilgan.

Tartib va adolat - boshqaruvning har bir qadamda o'zini eslatib turuvchi tamoyilidir. Ko'p hollarda aynan shu tamoyilga ko'ra korxona va uning rahbariga tavsifnoma beriladi. Korxona rahbari qanchalik bilimli, tajribali, uning kasb mahorati va madaniyati qanchalik yuqori bo'lsa hamda u jamoa to'g'risida qanchalik ko'p qayg'ursa, tartib, adolat ko'rsatkichlari shunchalik yuqori bo'ladi.

Boshqaruvning tartib va adolat tamoyili kadrlar tez - tez almashishining oldini olib, korxona obro'yining o'sishiga hamda bunga korxona jamoasini qiziqtirishga xizmat qiladi.

Xodimlarni moddiy va ma'naviy rag'batlantirish tamoyili mehnat unumdorligini oshirishda muhim turtki hisoblanadi va boshqaruv tizimining samaradorligini aks ettiradi. Xodimlarning sadoqati va qo'llab - quvvatlashiga erishish maqsadida ular o'z xizmatlari uchun, ishchilar esa bajarilgan ishning sifati va miqdori uchun adolatli tarzda haq olishlari zarur. Bundan tashqari, ma'naviy rag'batlantirish moddiy rag'batlantirishdan kam ahamiyatga ega emas.

Rahbarning iqtidori, xodim (xodimlar, ishchilar)ning tashabbus va yutuqlarini o'z vaqtida ilg'ab olib, munosib baholash hamda ularni ham moddiy ham ma'naviy rag'batlantirish tizimini mohirona qo'llashida ko'zga tashlanadi.

Tejamkorlik va samaradorlik tamoyili - korxona boshqaruvining barcha bo'g'inlarida amalga oshirilishi lozim bo'lgan tamoyildir. Bu tamoyilning mohiyati moddiy va mehnat resurslaridan tejamkorlik bilan foydalanish, eng kam xarajatlar bilan eng ko'p natijalarga erishish, ishlab chiqarish zaxiralaridan to'liq foydalanishda ifodalanadi. Biroq bu tamoyil istisno tariqasida qo'llanmay, faqat korxona rahbarining emas, balki butun jamoa va birinchi o'rinda xomashyo va materiallardan

tayyor mahsulot yaratuvchi ishchilarning mehnat qoidasiga aylangan taqdirdagina haqiqiy tasdig'ini topadi.

Tashabbuskorlik va korporativ ruhiyat boshqaruvning muhim tamoyili bo'lish bilan birga, korxonaning bozor tizimida muvaffaqiyatli faoliyat yuritishiga turtki hamdir.

Umuman olganda, boshqaruv tashabbuskorliksiz, istiqbolni ko'rmasdan, ijodiy yondashuvsiz muvaffaqiyatlarga erishishi amrimaholdir. Boshqaruv ijodiy negizni, tashabbuskorlikni korporativlik bilan bog'lagan holda boyitadi.

Agar korporativ ruhiyat ishlab chiqarish bilan shug'ullanuvchi jamoa uyg'unligining natijasi, ittifoqi bo'lsa, tashabbuskorlik faol harakatlarni anglatib, korxona jamoasiga va har bir xodimga ishlab chiqarishni rivojlantirishning turli xil dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirishda qo'shimcha kuch-quvvat baxsh etadi.

Vakolat va majburiyat tamoyili boshqaruvning ratsional, aniq yo'lga qo'yilgan tashkiliy tizimini yaratish, lavozimlarga oid yo'riqnoma hamda rahbar va mutaxassislarning huquq va burchlari to'g'risidagi hujjatlarni ishlab chiqish, bajarilgan ish uchun moddiy javobgarlikni belgilash, buyruq va ko'rsatmalarni o'z vaqtida tayyorlashni anglatadi.

Har bir lavozim egasi - bo'lim yoki xizmat boshlig'idan, to korxona rahbarigacha - boshqaruv faoliyatidagi o'z vakolatlarini yashirmasligi va majburiyatlarini kamaytirmasligi - boshqalarning, ya'ni unga bo'ysunuvchi shaxslarning zimmasiga yuklamasligi lozim.

Yuqorida ko'rsatilgan tamoyillar ham alohida, ham birgalikda boshqaruv tizimining ishonchligiga va korxona rahbari hamda har bir boshqaruv tuzilmasining obro'ini o'stirishga xizmat qilishi lozim. Bundan tashqari, ular doimiy ravishda mukammallashtirib borilishi hamda zamon ruhi va xo'jalik yuritish mexanizmi talablariga javob beruvchi yangi tamoyillar bilan to'ldirilishi zarur. Bu esa boshqaruv tizimi va jarayonlarining yangi shakl va usullarini rivojlantirishga imkon yaratadi.

2.4. Xususiy tadbirkorlik va kichik biznes korxonalari boshqaruvining tashkiliy tuzilmalari.

Tashkiliy tuzilma deganda korxona boshqaruvi vazifalarini bajaruvchi turli xil bo'lim, xizmat va bo'linmalar tarkibi, o'zaro munosabatlari va bir-biriga bo'ysunishini tushunish lozim. Tashkiliy tuzilma boshqaruvning tizim va alohida faoliyat turi sifatidagi bir butunligini ifodalaydi. U boshqaruv idoralarining ma'lum bir tartibi, hokimiyat va bo'ysunish aloqalari, vertikal va gorizontal mehnat taqsimotining integratsiyalashuvini tashkil etadi.

Boshqaruv tuzilmasi dinamik tarzda bo'ladi. U ishlab chiqarish kuchlari va munosabatlarining rivojlanishi, boshqaruv ob'ektlarining qarama-qarshiliklari va qonuniyatlari haqidagi bilimlarimiz darajasining o'sishiga bog'liq holda o'zgarib

boradi. Boshqaruvning tashkiliy tuzilmasiga korxonaning hajmi, uning ixtisoslashuvi va kooperatsiya aloqalari, mulkchilik shakli, qaysi tarmoqqa tegishliligi, joylashgan hududi kabi omillar katta taʼsir koʻrsatadi.

Boshqaruvning tashkiliy tuzilmasi korxonaning ishlab chiqarish tuzilmasi bilan aloqada va koʻp jihatdan unga bogʻliq boʻladi. Korxona qanchalik katta, ishlab chiqarish va unda foydalanuvchi mehnat qurollari va texnologiyalar qanchalik murakkab boʻlsa, boshqaruvning ishlab chiqarish va tashkiliy tuzilmasi, shuningdek, korxona boshqaruv apparatining vazifalari shunchalik murakkablashadi.

Boshqaruv elementlari va boʻgʻinlari oʻrtasidagi aloqalarning shakli, tuzilmaviy boʻlinmalarining moslashuvchanligi va bir-biriga boʻysunuvchanligiga koʻra, boshqaruvning quyidagi tashkiliy tuzilmalari mavjud:

- ✓ chiziqli-pogʻonali;
- ✓ funksional;
- ✓ aralash (chiziqli-funksional);
- ✓ matritsali.

Chiziqli-pogʻonali tuzilma boshqaruv tuzilmasining eng koʻp tarqalgan turi boʻlib, unga koʻra boshqaruvning har bir boʻgʻini oʻzidan yuqori turuvchi faqat bitta boshqarmaga ega boʻladi va barcha masalalar bitta aloqa kanali orqali hal etiladi. Bunday tuzilmada boshqaruv boʻgʻinlari tizimi toʻlaligicha ishlab chiqarish boʻgʻinlari tizimi bilan mos tushadi. Har bir ishlab chiqarish jamoasi tepasida rahbar turadi va korxona xodimlari unga bevosita boʻysunadilar. Barcha boshqaruv vazifalari rahbar qoʻlida mujassamlanadi.

Boshqaruvning chiziqli tuzilmasi hal qilinayotgan masalalar koʻlami unchalik katta boʻlmaganida samaraliroq boʻladi. Shu sababli bunday tuzilmadan asosan sex, ishlab chiqarish uchastkalari va kichik korxonalarni boshqarishda foydalaniladi. Bunday tuzilmaning quyidagi afzalliklari mavjud:

- ✓ boshqaruvning har bir boʻgʻini uchun rahbar tayinlashning nisbatan osonligi;
- ✓ boshqaruv qarorlarini tayyorlash va bajarishning tezkor (operativ) amalga oshirilishi;
- ✓ boshqaruv vazifalarini bajarishning nisbatan osonligi.

Biroq boshqaruvning bu tizimida bir qancha kamchiliklar ham mavjud boʻlib, ularning asosiylari gorizontal aloqalarning tarqoqligi, boshqaruvdagi haddan tashqari qattqlik va ishlab chiqarishning diversifikatsiyasi sharoitlaridagi cheklangan imkoniyatlarida namoyon boʻladi.

Boshqaruvning funktsional tuzilmasi uchun boshqaruv obʼyekti vazifalari boʻyicha boshqaruv yacheykalari yaratish tavsiflidir. Bu yacheykalar bajarilishi shart boʻlgan qarorlarni boshqaruvning quyi pogʻonasiga yoki bevosita ishlab chiqarish boʻgʻinlariga yetkazib beradi. Demak, boshqaruv vazifalar boʻyicha taqsimlanadi va funktsional boʻgʻinlar tomonidan amalga oshiriladi, ular tomonidan tayyorlanuvchi

boshqaruv qarorlari esa bajaruvchilarga kesishuvchan aloqa kanallari bo'yicha etkaziladi.

Boshqaruvning funktsional tuzilmasiga misol qilib bosh mutaxassislarining, ya'ni bosh iqtisodchi, bosh mexanik, bosh texnolog, bosh metallurg, bosh konstruktor xizmatlari (bo'limlari, guruhlari), shuningdek, korxona bosh buxgalteriyasini ko'rsatish mumkin.

Boshqaruvning funktsional tuzilmasi amalda chiziqli tuzilma bilan kesishib o'tadi. Bunday sintez chiziqli yoki funktsional tuzilmaga qaraganda boshqaruvning chiziqli-funktsional tuzilmasini samaraliroq bo'lishi va keng tarqalishiga sabab bo'ladi. Bu holda boshqaruv - ham chiziqli, ham funktsional rahbarlar tomonidan amalga oshiriladi.

Boshqaruvning ushbu tuzilmasi afzalliklari quyidagilar:

- ✓ boshqaruv faoliyatini ixtisoslashtirish darajasining yuqoriligi;
 - ✓ boshqaruv faoliyatining deyarli barcha sohalarini vakolat doirasida qamrab olish;
 - ✓ ishlab chiqarish diversifikatsiyasining turli talab va shart-sharoitlariga moslashish imkoniyatlari;
 - ✓ boshqaruv xizmatlari yoki bo'limlariga xodimlar tanlashning nisbatan osonligi.
- Uning kamchiliklari qatoriga esa quyidagilarni kiritish mumkin:
- ✓ yakkahokimlik tamoyilining buzilishi;
 - ✓ kelishilgan boshqaruv qarorlarini qabul qilish va bajarish hamda ularning majmuaviyligini ta'minlash qiyinligi;
 - ✓ boshqaruvning yuqori pog'onalari uchun rahbar tanlashning murakkabligi.

Chiziqli-shtabli tuzilma boshqaruv aralash tuzilmasining bir ko'rinishi bo'lib, unga chiziqli tuzilma asos qilib olingan. Boshqaruvning har bir bo'g'inida shtablar tuzilib, uning tarkibiga muammolarni echish uchun malakali mutaxassislar taklif etiladi. Masalan, shtabli tuzilmalar tabiiy ofat, halokat va kulfatlarning oqibatlarini bartaraf qilish, yangi mahsulot yoki texnologiyani o'zlashtirish, to'satdan yuzaga kelgan, odatiy bo'lmagan vazifalarni yechishda tuzilishi mumkin. Bunday hollarda boshqaruv shtabiga rahbarlarning vakolatlaridan kam bo'lmagan haq-huquqlar, vakolatlar beriladi.

Boshqaruvning matritsali tuzilmalari turli xil bo'lib, ularning barchasi bitta tamoyilda - ishlab chiqarishni vertikal va gorizontal boshqarishda boshqaruv vazifalarini tashkiliy tuzilmalar o'rtasida qayta taqsimlash asosida yaratilgan. Bu tuzilmalar ilmiy tadqiqot institutlari, konstruktorlik idoralari, texnologik idoralar, shuningdek, ilmiy-tadqiqot va konstruktorlik izlanishlari olib boriluvchi yirik korxonalarda keng qo'llaniladi.

Boshqaruvning matritsali tuzilmalari rahbarlardan juda yuqori boshqaruv vakolatini talab qiladi. Bunday tuzilmadan foydalanganda yuzaga keluvchi muammo

va vazifalarni yechish uchun vaqtinchalik ijodiy guruhlarini tuzish mumkin. To'g'ri, buning uchun jamoa oldida yuzaga keluvchi loyiha topshiriqlarni bajarish uchun qo'shimcha xarajatlar talab qilinishi mumkin.

Boshqaruvning istalgan tashkiliy tuzilmasini loyihalashtirishda hamda amaliyotda qo'llashda tezkorlik, optimallik, ishonchlilik va tejamkorlik kabi asosiy talablarga javob bera olishiga e'tiborqaratilish lozim. Bu talablar qanchalik to'liq va yaxshi bajarilsa, korxonani boshqarish tizimining sifat ko'rsatkichlari shunchalik yuqori bo'ladi.

Amaliyot shuni ko'rsatadiki, boshqaruv ob'yekti va boshqaruvchi tizim (boshqaruv apparati) o'rtasida, boshqaruv vazifalari yordamida tartibga solinuvchi ma'lum bir munosabatlar yuzaga keladi.

Boshqaruv vazifalari ob'yektiv jihatdan zarur va albatta qaytariluvchi xatti-harakatlar majmuasi bo'lib, mazmuni va yo'nalish maqsadlarining bir xilligi tufayli birlashib turadi. Boshqaruv vazifalari butun boshqaruv jarayoni davomida uzluksiz tarzda amalga oshiriladi hamda boshqaruv qarorlarini qabul qilish va bajarishning turli bosqichlarida turli xil salmoqqa ega bo'ladi.

Amaldagi tasnifga asosan boshqaruvning quyidagi vazifalarini ajratib ko'rsatish mumkin:

- ✓ Rejalashtirish - ishlab chiqarishni kengaytirish va korxonaning gullab-yashnashi uchun ishlab chiqarish maqsadlarini belgilash va uning natijalariga erishish.

- ✓ Istiqbolni belgilash (prognozlashtirish) - joriy faoliyatni samarali tarzda olib borish hamda istiqbolni ko'ra olish va boshqaruv tizimini istiqbolga moslashtirish. Rejalashtirishdan farqli ravishda bashorat qilish ehtimollik tavsifiga ega bo'ladi.

- ✓ Tartibga solish - ishlab chiqarishni, jamoani boshqarishda belgilangan ko'rsatkichlardan chetga og'ishlarni to'g'rilab borish.

- ✓ Tashkillashtirish - kuch-quvvat va vositalarni ishlab chiqarish dasturini minimal xarajatlar asosida va bu xarajatlarning yuqori samaradorligi orqali amalga oshirishga yo'naltirish, amaldagi tashkilotchilik tizimini yangi yutuqlarga erishish va yangi vazifalarni bajarishga yo'naltirish.

- ✓ Nazorat - joriy ko'rsatkichlarning belgilangan (dasturiy) vazifa(me'yor)larga mos kelish darajasini aniqlash.

- ✓ Hisobga olish - korxonaning ma'lum bir vaqt davomida bajargan ishlariga yakun yasash.

- ✓ Tahlil - ma'lumotlarni yig'ish, saqlash, qayta ishlash hamda ulardan boshqaruvni asoslash va boshqa vazifalari uchun foydalanish.

Shuni qayd qilib o'tish kerakki, boshqaruv vazifalari o'rtasida qat'iy chegara yo'q. Boshqaruv faoliyatining bitta turi boshqaruvning bir nechta vazifalari belgilariga ega bo'lishi va ular o'zaro chambarchas bog'lanib ketishi mumkin. Shu

bilan birga har bir vazifa o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ularni bilish rahbarning kasbiy mahorati shakllanishida muhim rol o'ynaydi.

Nazorat savollari:

1. Yangi korxona tashkil qilish qanday bosqichlardan iborat?
2. Tashkil etilmoqchi bo'lgan shaxsiy korxonalarining qanday turlarini bilasiz?
3. Tashkil etilmoqchi bo'lgan korxonaning ishlash va boshqaruv tizimi nimalardan iborat?
4. Korxonaning boshqaruv tamoyillari nimalardan iborat?
5. Boshqaruvning tashkiliy strukturasi nima?
6. Korxonada samarali boshqaruv deganda nimani tushunasiz?

3-MAVZU. XUSUSIY TADBIRKORLIK VA KICHIK BIZNES SUB'YEKTLARIGA XIZMAT KO'RSATUVCHI BOZOR INFRATUZILMALARI.

Reja:

- 3.1. Infratuzilma tushunchasining mohiyati va mazmuni.
- 3.2. Xususiy tadbirkorlik va kichik biznes sub'yektlariga xizmat ko'rsatuvchi bozor infratuzilmasi turlari.
- 3.3. Kichik biznes va tadbirkorlikda bank - moliya tizimi.

Tayanch iboralar: Infratuzilma, bozor infratuzilmasi, ijtimoiy infratuzilma, institutsional infratuzilma, biznes-inkubatorlar, texnopark, bank - moliya tizimi.

3.1. Infratuzilma tushunchasining mohiyati va mazmuni.

Respublikamizda kichik tadbirkorlik sub'yektlarining samarali faoliyat yuritishi va rivojlanib borishi ko'p jihatdan ular uchun yaratilgan shart-sharoitlarga bog'liq. Kichik tadbirkorlik rivojiga qulay imkoniyat yaratuvchi shart-sharoitlar orasida infratuzilma xizmatini alohida ajratib ko'rsatish lozim.

Kichik tadbirkorlik sub'yektlarida ishlab chiqarish kengayib borishi bilan ularning texnik ta'mirlash, moddiy-texnika ta'minoti, mahsulotlarni saqlash, qayta ishlash va sotish, kommunikatsiya va aloqa, maslahat va axborot kabi bir qator xizmat turlariga talabi ortib boraveradi.

Chunki kichik tadbirkorlik sub'yektlariga yuridik shaxs maqomini berish bilangina ish bitmaydi. Ularning to'laqonli faoliyatini faqat mukammal tashkil etilgan infratuzilma bo'linmalari orqaligina tasavvur etish mumkin.

Infratuzilma iqtisodiy tizimning bir qismini tashkil etib, u ishlab chiqarishning bir maromda faoliyat yuritishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratadi.

“Infratuzilma” so‘zi lotin tilidan tarjima qilinganda “tuzilmadan tashqarida” ma‘nosini anglatadi. Iqtisodiy nuqtai nazardan infratuzilma mohiyatiga quyidagi izoh ko‘proq mos keladi: “Inson hayoti va ijtimoiy ishlab chiqarish jarayonida faoliyatlar almashinuvi ta‘minlovchi tovar va xizmatlar yaratishda o‘ziga xos mehnat jarayonlari majmuasi”.

Keyingi yillarda infratuzilma yuqori sur‘atlar bilan rivojlanib bormoqda. Buni bir qator omillar bilan izohlash mumkin. Xususan, ishlab chiqarishning o‘sish sur‘atlari infratuzilmalar rivojidan oldinda bormoqda va bu iqtisodiyotning rivojlanishiga ham o‘z ta‘sirini o‘tkazmoqda.

Infratuzilma juda keng qarmovli tushuncha bo‘lib, bu, avvalo, ishlab chiqarish jarayoniga har tomonlama xizmat ko‘rsatadigan xizmat turlarini yaratish bilan bog‘liq. Infratuzilma bo‘linmalari rivojlanib borishidan kichik tadbirkorlik sub‘yektlari katta manfaat ko‘radi, chunki bunday bo‘linmalar ularni ishlab chiqarishga xizmat ko‘rsatish bilan bog‘liq ishlardan ozod etib, kuch-g‘ayratini asosiy faoliyatiga qaratishga imkon yaratadi.

Infratuzilma tomonidan yaratiladigan sharoitlarni o‘z navbatida quyidagicha turkumlash mumkin:

- ✓ bevosita ishlab chiqarish jarayoniga xizmat ko‘rsatuvchi - moddiy texnika ta‘minoti va tayyor mahsulotni sotish, axborotni yig‘ish va qayta ishlash, buxgalteriya xizmati;

- ✓ texnologik, boshqaruv masalalari bo‘yicha maslahat xizmati va boshqalar;

- ✓ ishchi kuchini takror ishlab chiqarish shart-sharoitlari - ishchi va xizmatchilarning sog‘lig‘ini, ta‘lim olishi va kasbiy tayyorgarligi, dam olishlarini qo‘llab-quvvatlash.

3.2.Xususiy tadbirkorlik va kichik biznes sub‘yektlariga xizmat ko‘rsatuvchi bozor infratuzilmasi turlari.

Shu paytga qadar infratuzilmani ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmalar yig‘indisidan iborat deb qarab kelingan. Bozoriqtisodiyotiga asoslangan iqtisodiy tizim kirib kelishi bilan ishlab chiqarish infratuzilmasi ko‘lami kengayib, “bozor infratuzilmasi” va “institutsional infratuzilma” so‘zlari iste‘molga kirib bormoqda.


Bozor infratuzilmasi bevosita ishlab chiqarish jarayoniga xizmat ko‘rsatuvchi tarmoqlarni o‘z ichiga oladi. Uning tarkibiga yuk transporti, elektr, gaz va suv ta‘minoti, ombor xo‘jaligi, aloqa, axborot, moddiy-texnika ta‘minoti, mahsulotni tashish, saqlash va qayta ishlash, texnik xizmat ko‘rsatish, marketing va reklama,

axborot-maslahat, auditorlik, moliya-kredit va investitsion kabi xizmat turlari kiradi (3 rasm).

Ijtimoiy infratuzilma ishlab chiqarish jarayonida ishchi va xizmatchilarga normal mehnat faoliyati yaratish va ishchi kuchini takror hosil qilish, shuningdek tadbirkorlarning turli maishiy xizmat turlariga talabini qondirish uchun xizmat qiladi.

Institutsional infratuzilma iqtisodiyot rivojlanishining optimal makroiqtisodiy nisbatlarini qo'llab-quvvatlovchi va tartibga soluvchi sohalar faoliyat turlarini o'z ichiga oladi. Unga iqtisodiyotni tartibga solib turuvchi davlat va nodavlat boshqaruv organlari va boshqalar kiradi.

Infratuzilma tarkibi.



3-rasm. Infratuzilma tarkibi.

Respublikada hozirgi vaqtda infratuzilmalarni faol shakllantirish jarayoni boshlandi. Bu jarayonning natijalari sifatida kichik tadbirkorlik sub'yektlariga xizmat ko'rsatuvchi brokerlik idoralari, kichik ulgurji va chakana savdo tuzilmalari, lizing,

konsal'ting kompaniyalari, axborot-maslahat markazlari, injiniring, auditorlik firmalari, sug'urta kompaniyalari, transport-ekspeditsiya korxonalari, axborot-reklama byurolari va boshqa turli xil infratuzilmalar tizimi faoliyat yuritadi.

Biznes maktab - tadbirkorlar, kichik korxonalarining rahbarlari, kichik korxonalar uchun mutaxassislar, ishsizlar, o'z ishini ochmoqchi bo'lgan boshqa fuqarolar, kichik tadbirkorlikning rivojlanishi uchun mas'ul xizmatchilarnitayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishni amalga oshiruvchi tuzilmadir.

O'quv-amaliy markazlar kichik tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va bozor iqtisodiyoti uchun kadrlar tayyorlashning keng miqyosli dasturini amalga oshiruvchi tuzilmadir.

Biznes-inkubatorlar maxsus tanlab olingan kichik korxonalarni o'z maydonlariga joylashtiruvchi va ularga maslahat, o'qitish va ofis xizmatlarini ko'rsatuvchi tuzilmalar hisoblanadi.

Ijtimoiy-amaliy markaz ish bilan band bo'lmagan aholi va ishsizlar o'rtasida kichik tadbirkorlikni rivojlantirish orqali yangi ish o'rinlarini yaratish bilan shug'ullanuvchi, odatda bandlik markazlari qoshida tashkil etiluvchi tuzilmadir.

Texnopark - o'z hududida kichik innovatsion korxonalarni yaratish va rivojlantirish orqali ilmiy salohiyatdan foydalanish va ishlab chiqilgan texnologiyalarni tijoratlashtirish maqsadida tashkil etiluvchi tuzilmadir.

Biznes-markaz - tadbirkor va ishbilarmonlarga servis xizmatlari ko'rsatuvchi tuzilmadir.

Konsalting - ishlab chiqarishga ish yuzasidan xizmat ko'rsatish sohasida ixtisoslashgan firmalarning o'z mijozlariga maslahat xizmati ko'rsatish va texnikaviy loyihalarni ekspertiza qilish bilan bog'liq iqtisodiy faoliyatdir.

Auditorlik kompaniya -turli yo'nalishdagi firmalarning bozor va biznes sohasidagi imkoniyatlarini aniqlab beruvchi moliya-xo'jalik faoliyatini yalpi taftishi bilan shug'ullanuvchi muassasa hisoblanadi.

Sug'urta kompaniyalar - sug'urtalovchi rolida maydonga tushuvchi, ya'ni sug'urta hodisasi ro'y bergan chog'da sug'urtalangan shaxsning zararlarini qoplash majburiyatini o'ziga oluvchi tashkilotdir.

Buning natijasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'yektlarining mamlakatimizda yangi ish o'rinlarini tashkil etish, aholining daromadlari va farovonligini oshirishning muhim omili sifatidagi natijalari salmoqli bo'lib bormoqda.

Kichik biznes sub'yektlariga xizmat ko'rsatuvchi infratuzilmalar hali ham kichik biznes sub'yektlarining o'sib borayotgan talab va ehtiyojlarini to'liq qondira olmayapti.

Birinchidan, kichik biznesni rivojlantirishga tadbirkorlarning bilim va tajribalari etishmasligi, shuningdek, ularni axborot va maslahat bilan ta'minlash tizimlari faoliyatining takomillashmaganligi to'siq bo'lmoqda.

Ko'pincha, joylarda qishloq tadbirkorlariga zarur bo'lgan tashkiliy-uslubiy yordamlar kam ko'rsatilmayapti.

Maslahat markazlarining vazifalarini takomillashtirish, tadbirkorlarga amaliy yordam ko'rsatish, ya'ni ta'sis hujjatlarini ishlab chiqish, biznes rejalar tuzish, kredit olishga arizalar berish, buxgalteriya hisobi va hisobotlarini tashkil etish, auditorlik tekshiruvlarini o'tkazish va boshqa maslahat xizmatlari ko'rsatishda ko'maklashishdir.

Ikkinchidan, kichik biznes sub'yektlarining moddiy-texnika resurslaridan, xomashyo va materiallardan, lizing, mayda ulgurji savdo va servis xizmati tarmog'idan foydalana olish imkoniyatlarini kengaytirish lozim.

Uchinchidan, tashqi bozorga chiqishida, ya'ni eksport shartnomalarini ro'yxatdan o'tkazish va bojxona organlarida hisobga olish, tovarlar va xizmatlarni chet elga sotishda yordam ko'rsatish borasidagi qator muammolarni bartaraf etish zarur.

To'rtinchidan, kichik biznes korxonalarining xomashyo va materiallardan foydalanish, tayyor mahsulotlarni sotish imkoniyatlarini kengaytirish, tashkil qilish uchun mayda ulgurji bozorlar, yarmarkalar tizimini kengaytirish, ulgurji bozorlar qoshida moddiy-texnika ta'minoti, ijara, saqlash, transport xizmati ko'rsatish bo'limlarini tashkil etish yo'llari orqali savdo mexanizmlarini takomillashtirish zarur.

3.3. Kichik biznes va tadbirkorlikda bank - moliya tizimi.

Bozor iqtisodiyoti o'tilishi tufayli mamlakatda yangi moliyaviy siyosat ishlab chiqildi va hukumat tomonidan real hayotda amalga oshirilmoqda. Jamiyatdagi har bir iqtisodiy faoliyatning boshlanishi davlatning yaqindan turib bergan moliyaviy yordami tufayli rivojlanib, takomillashib boradi. Jumladan, kichik va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashda banklarning rolini oshirib borishga alohida e'tibor beriladi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining asosiy faoliyati banklar bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ular olib borayotgan faoliyat -xomashyoni sotib olish, ishlab chiqarilgan tovarlar, ko'rsatiladigan xizmatlarga haq to'lash, ishlovchilarni ish haqi bilan ta'minlash, turli toifadagi korxonalar, firma va boshqalar yuridik shaxslar bilan bo'ladigan iqtisodiy munosabatlar, ya'ni olingan foyda va daromaddan soliq to'lash, transport, kommunal xizmatlar uchun to'lovlarning barcha turlari banklar orqali, o'z navbatida, olinadigan kreditlar va boshqa hisob-kitoblar ham banklar orqali amalga oshadi.

Alohida ta'kidlash kerakki, mamlakatimiz mustaqillikka erishgunga qadar bank va banklar bilan bo'ladigan turli iqtisodiy munosabatlar unchalik oshkora etilmas edi.

Jahon xo'jaligining muhim xo'jalik yuritish qismi bo'lgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarini barcha faoliyati banklar bilan bog'langanligi

bugungi kunda hammaga ma'lumdir. Shuning uchun ham rivojlangan mamlakatlarda, masalan, AQSHda bank tizimining faoliyati nihoyatda rivojlangan bo'lib, tadbirkorlikning aktiv iqtisodiy faoliyat yuritishida banklar barcha mulk shaklidagi korxonalarga kompleks ravishda xizmat ko'rsatadi.

Bugungi kunda mamlakatimiz 30 ta bank faoliyat yuritib, shundan 3 tasi davlat banklari, 13 tasi aktsiyadorlik tijorat banklari, 9 tasi xususiy banklar, 5 tasi xorijiy kapital ishtirokidagi banklar hisoblanadi.

Hozirgi kunda, siz bilan biz bank sifatida biladigan moliyaviy muassasalarning dastlabki ko'rinishlari XVI asrda Angliyada vujudga kelgan. E'tiborli jihati shundaki, dastlabki bankirlar oltin metallardan turli zebu - ziynatlar yasaydigan zargarlar yoki yirik savdo bilan shug'ullanadigan savdogarlar ichidan chiqqan. SHuningdek, Florentsiya va Venetsiyada XVI asrda tirobanklar vujudga keldi.

Keyinchalik banklar Amsterdam, Gamburg, Milan, Nyurenberg kabi yirik shaharlarda tashkil topa boshlagan.

Ushbu banklar asosan yirik savdogarlarning oltin tangalarini saqlash va ularning to'lov hisob- kitoblarini amalga oshirish bilan shug'ullangan.

Hozirgi paytda faoliyat yuritayotgan Markaziy bankka o'xshagan bank birinchi marta Stokgol'mda 1650 yilda, keyinchalik 1694 yilda Angliyada tashkil topgan bo'lib, bu bank pul emissiyasini amalga oshirish, mamlakatda tijorat banklari faoliyatini tartibga solish kabi ishlarni bajargan.

Banklarning mohiyatiga iqtisodiy adabiyotlarda turli yondashuvlar mavjud. "Bank" so'zi qadimgi frantsuzcha "banque" va italiyancha "bansa" so'zlaridan paydo bo'lib, "almashtirish stoli" ma'nosini anglatishining guvohi bo'lamiz.

Bank -bu moliyaviy muassasa bo'lib, jamiyatdagi vaqtinchalik bo'sh pul mablag'larini tegishli shartlar bilan jalb etib, ushbu mablag'larga ehtiyoji mavjud bo'lgan yuridik va jismoniy shaxslarga qaytarishlik, muddatlilik, to'lovlilik va ta'minlanganlik asosida beradigan tijorat tashkilotdir.

O'zbekiston Respublikasida ikki pog'onali bank tizimi mavjud bo'lib, yuqori pog'onada Markaziy Bank, quyi pog'onasida Tijorat banklari mavjud. Markaziy bank quyidagi funktsiyalarini bajaradi:

- ✓ Pul – kredit orqali tartibga solish;
- ✓ Banknotalarni monopol emissiyasi;
- ✓ Banklar banki;
- ✓ Tashqi iqtisodiy faoliyat;
- ✓ Bank faoliyati (kassir, kreditor, moliyaviy konsul'tant)

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 10 noyabrdagi 4051-sonli «Mikrokreditbank» aktsiyadorlik tijorat bankining tadbirkorlik sub'yektlarini qo'llab-quvvatlash borasidagi faoliyatini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoniga muvofiq:

- tadbirkorlik faoliyatini boshlash uchun 18 oygacha muddatga beriladigan eng kam ish haqqining 200 barobari miqdoridagi imtiyozli mikrokreditlar bo'yicha maksimal stavkani yillik 5 foizdan 3 foizga;

- kichik biznes sub'yektlari faoliyatini kengaytirish va aylanma mablag'larini to'ldirish uchun 24 oygacha muddatga beriladigan eng kam ish haqqining 500 barobari miqdoridagi mikrokreditlar bo'yicha - Markaziy bank tomonidan qayta moliyalashtirish stavkasining 100 dan 50 foiziga;

- kichik biznes sub'yektlari uchun 3 yilgacha muddatga beriladigan eng kam ish haqqining 2000 barobari miqdoridagi imtiyozli mikrolizing xizmatlari bo'yicha maksimal stavkani yillik 7 foizdan 5 foizga tushirildi.

Kreditlashda bunday ahamiyatli imtiyozlarning belgilanishi mazkur soha vakillari tomonidan kreditga talabning va ayni paytda ularga berilayotgan kredit hajmining yildan-yilga oshib borishiga olib kelmokda

Shu o'rinda tijorat banklari kreditlari to'g'risida so'z borganda ularning maqsad yo'nalishlari jihatidan tarkibi ham takomillashib borayotganligini ta'kidlash lozim.

Banklarning investitsiya maqsadlariga yo'naltirilgan kreditlarining umumiy kredit portfelidagi ulushi qariyb 70 foizni tashkil etdi, iqtisodiyotimizning real sektoriga yo'naltirilgan kreditlarining umumiy hajmi esa o'tgan yillarga nisbatan oshib bormoqda.

So'nggi yillarda mamlakatni ijtimoiy - iqtisodiy rivojlantirish, faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va bunyodkorlik salohiyatini qo'llab - quvvatlash orqali aholiga munosib hayot sharoitlarini yaratish, ishbilarmonlik muhitini yaxshilash, bandlikni ta'minlash bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirib kelinmoqda.

Shu bilan birga, olib borilgan tahlil natijalari joylarda aholini tadbirkorlikka jalb qilish va bu orqali yangi ish o'rinlarini yaratish, bandlikni ta'minlash, o'z mehnati bilan daromad topish istagida bo'lgan fuqarolarga amaliy yordam ko'rsatish, mehnat resurslaridan oqilona foydalanish ishlari talab darajasida emasligini ko'rsatmoqda. Yuqoridagilarni inobatga olib, 2017 yil 17 avgustda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasini tashkil etish to'g'risida»gi qarori qabul qilinib, jamg'arma tomonidan joriy yilda 111ta chorvachilik, 76 ta issiqxona, 30 ta baliqchilik, 28 ta parrandachilik va boshqa ko'plab loyihalar moliyaviy qo'llab-quvvatlandi. Natijada ushbu tadbirkorlik sub'yektlari tomonidan 10 475 yangi ish o'rinlari yaratilishi kutilmoqda.

Mehnatkash xalqimizning qadimiy kasb - hunar an'analari, ishbilarmonlik salohiyati oilaviy tadbirkorlik, hunarmandchilik, kasanachilik va boshqa tadbirkorlik faoliyati turlarini keng ommalashtirish, ekin maydonlaridan unumli foydalangan holda qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishni kengaytirish uchun katta tajriba zahira mavjudligidan dalolat beradi.

Har bir oilaning tadbirkorlik bilan shug'ullanishi va barqaror daromad manbaiga ega bo'lishi uchun shart-sharoitlar yaratish maqsadida mamlakatimizning har bir

tuman va shahrida, eng avvalo olis va tabiiy-iqlim sharoiti og'ir hududlarda aholining moddiy sharoitlarini tubdan yaxshilash, turmush tarzi sifati va darajasida sezilarli ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilishini ta'minlashga qaratilgan «Har bir oila - tadbirkor» dasturi (2018 yil 7 iyun' PQ-3777-son) qabul qilingan.

Nizomga muvofiq dastur doirasida imtiyozli kreditlar qarz oluvchilarga tadbirkorlikni yo'lga qo'yish yoki rivojlantirish maqsadlari uchun ajratiladi. Kreditlar: ilgari olingan kreditlarni yoki har qanday boshqa qarzlarni qaytarish; alkogol' va tamaki mahsulotlari ishlab chiqarish; savdo-vositachilikni amalga oshirish; umumiy ovqatlanish tashkilotlarining aylanma mablag'larini shakllantirish; ishlab chiqarish maqsadlari uchun ishlatilmaydigan shaxsiy mulkni sotib olish; ma'muriy xarajatlarni to'lash, jumladan xizmat avtomobillari ta'minoti; mebel, uyali telefon sotib olish, shuningdek aloqa xizmatlariga to'lov maqsadlari uchun ajratilmaydi. Tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish istagida bo'lgan jismoniy shaxslar; kichik tadbirkorlik sub'yektlari hisoblangan yakka tartibdagi tadbirkorlar, mikrofirmalar, kichik korxonalar; dehqon va fermer xo'jaliklari; oilaviy tadbirkorlar. eng kam ish haqining 150 baravaridan - 1000 baravarigacha miqdorda kreditlarning foiz stavkasi yillik 7 foiz miqdorida belgilanadi. Bunda kredit liniyasi 3 foizni, bank marjasi 4 foizni tashkil etadi. Mikrokreditlar 6 oygacha imtiyozli davr bilan 3 yildan ko'p bo'lmagan muddatga ajratiladi. Kreditlar amalga oshiriladigan loyihaning biznes-rejasiga muvofiq o'zini o'zi qoplash jihatlaridan kelib chiqib 2 yilgacha imtiyozli davr bilan 5 yil muddatgacha ajratilishi mumkin. Bunda berilayotgan imtiyozli davr va kreditni qaytarish muddati batafsil asoslantirilishi kerak. Kredit olish uchun qarz oluvchi - jismoniy shaxslar kredit olish uchun bankka quyidagi hujjatlarni taqdim etadi:

- ✓ ariza;
- ✓ pasport nusxasi;
- ✓ jismoniy shaxslarga kredit qaytarilishining ta'minoti sifatida sektorlar rahbarlari va mahalla fuqarolar yig'ini tomonidan oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun beriladigan imtiyozli kreditlash bo'yicha tavsiyanoma.

Kredit olish uchun qarz oluvchi — kichik tadbirkorlik sub'yektlari kredit olish uchun bankka quyidagi hujjatlarni taqdim etadi:

- ✓ ariza;
- ✓ biznes-reja;
- ✓ tegishli davlat soliq inspeksiyasiga oxirgi hisobot davri uchun buxgalteriya balansi (1-son shakl), 90 kundan ortiq muddatdagi qarzlarga doir solishtirish dalolatnomalari, moliyaviy natijalar to'g'risida hisobot (2-son shakl), (yangi tashkil etilgan yuridik shaxslar hamda yakka tartibdagi tadbirkorlar, yuridik shaxs tashkil etmagan holda faoliyat yuritayotgan dehqon xo'jaliklari bundan mustasno);ta'minot turlaridan biri (uchinchi shaxs kafilligi, sug'urta polisi, mol-mulk, Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasining kafilligi).

Tijorat banklari qarz oluvchi — kichik tadbirkorlik sub'yektlariga yuqorida nazarda tutilgan ta'minot turlarini talab qilmasdan eng kam ish haqining 150 baravarigacha bo'lgan miqdorda blankli (ishonchli) mikro kredit berish huquqiga ega. Qarz oluvchining arizasi kelib tushgan kundan boshlab, tijorat banki tomonidan uch ish kunidan oshmagan muddatda ushbu ariza bo'yicha asoslantirilgan qaror qabul qilinadi. Tijorat banki kredit berishni rad etgan taqdirda, bank qarz oluvchiga hamda tavsifnoma bergan tegishli sektorlar rahbarlariga va mahalla fuqarolar yig'iniga bu haqda keyingi ish kunidan kechiktirmagan holda yozma shaklda asoslantirilgan ma'lumot taqdim etadi.

Yuqoridagi fikr - mulohazalardan ko'rinadiki, mamlakatimizdagi bank - moliya sohasining tobora mustahkamlanib borishi amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar moliyaviy ta'minotining kuchayishi, iqtisodiyot real sektorining har tomonlama qo'llab - quvvatlanishiga hamda barqaror iqtisodiy o'sish sur'atlarining ta'minlanishiga zamin yaratmoqda.

Bank operatsiyalari aktiv va passiv operatsiyalardan iborat bo'lib, passiv operatsiyalar pul mablag'larini ma'lum bir yo'nalishga safarbar etishga qaratilgan. Banklar passiv operatsiyalar orqali jamg'armalar va vaqtinchalik bo'sh turgan mablag'larni ishlab chiqarishga safarbar etib, foyda oladi. Aktiv operatsiyalar turli xarakterdagi kreditlarni berish operatsiyalari bilan bog'liq bo'lib, quyidagi elementlari bo'yicha turkumlanadi:

- ✓ muddatlari bo'yicha kreditlar qisqa, o'rta va uzoq muddatga mo'ljallangan;
- ✓ kreditlar hajmi bo'yicha kichik, o'rta, yirik miqdorda har bir mijozga individual va moliyaviy imkoniyatlarini hisobga olgan holda beriladi;
- ✓ ayrim turlari bo'yicha maxsus kafolatni talab etuvchi, garov evaziga beruvchi kreditlar mavjud;
- ✓ kreditlarning turlari bo'yicha, ya'ni davlat, tijorat, xalqaro va boshqa turlari bo'yicha berish;
- ✓ qarzni turlari bo'yicha yuridik va jismoniy shaxslarga berish;
- ✓ vaqtinchalik foydalanish uchun, iste'mol uchun, qarzlarni to'lash uchun, eksport va import operatsiyalarini bajarish uchun beriladigan kreditlar.

Hozirgi bozor iqtisodiyoti sharoitida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalari o'z faoliyatida turli banklar bilan muomalada bo'ladi. Bu jarayon oldingilaridan farqli ravishda ancha murakkab hisoblanadi, chunki avvalgi jarayonlar, asosan, korxonalar orqali bank o'z faoliyatini olib borganligi bilan xarakterlanadi. Tadbirkorlik faoliyati shakllanishi tufayli banklar xususiy mulk egalari va kichik korxonalar faoliyati bilan bog'liq operatsiyalarni bajarishga o'z mablag'larini safarbar etib boradi.

Tadbirkorlarning banklar bilan bo'ladigan operatsiyalarida ko'pgina erkinliklar berilganligi shunda namoyon bo'ladiki, xususiy tadbirkor o'z jamg'armasini

O'zbekistonning turli banklaridagi o'z hisob schyotida saqlash, kredit va kassa operatsiyalarini bajarish huquqiga ega.

Banklar bilan tadbirkorlar o'rtasidagi munosabatlarda amal qilayotgan qonun va shartnomalarga asosan pul o'tkazish yo'li bilan hisob - kitoblar olib borish mumkin.

Tadbirkorlar bilan bank o'rtasida kredit berish bo'yicha operatsiyalar ikki tomon o'rtasida imzolangan shartnoma asosida amalga oshiriladi. Operatsiyalarni muvaffaqiyatli bajarish uchun har bir tadbirkor «Banklar va bank faoliyati to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonunlarini chuqur o'rganib, unga rioya etishi lozim.

Bozor iqtisodiyotida tadbirkorlik korxonalarining hayoti va iqtisodiy faoliyati valyuta operatsiyalari bilan bog'liqligi ma'lum. Tadbirkorlik korxonalari tashqi iqtisodiy faoliyatini amalga oshirishda ham milliy valyuta, ham xorij valyutasida operatsiyalarni bajarishga to'g'ri kelmoqda. Ayniqsa, tashqi savdo jarayonlari bevosita valyuta operatsiyalari bilan bog'liq.

Valyuta operatsiyalari valyuta kursi bo'yicha ikki tomon valyutasi nisbati solishtirilgan holda amalga oshiriladi. Xalqaro maydonda AQSH dollari valyuta kotirovkasida baza sifatida qabul qilingan. Boshqa mamlakatlar valyutasi, kurs bo'yicha, AQSH dollariga qiyoslab boriladi. Dollar kursi abadiy bo'lmay, u ham o'zgarib turadi. Bu o'zgarish har kuni ham bo'lishi mumkin. Shuning uchun banklar kursni bank faoliyati boshlashi yoki yopilish vaqtidagi kurslar bo'yicha hisob-kitob ishlari olib boradi.

Valyuta kursining o'zgarib borishi haqida har hafta matbuotda jadval berib boriladi. Bu axborot tadbirkorlarning iqtisodiy faoliyatida muhim ahamiyatga ega. Valyuta operatsiyalarida asosiy o'rinni kredit, qimmatli qog'ozlar, valyutani foyda olish maqsadida sotib olish va sotish kabilar egallaydi.

Xo'jalik yuritish jarayonida xususiy mulk egalari valyuta hisob-kitob schotiga ega bo'lish huquqi olib, erkin tarzda valyutani sotib olishlari ham mumkin. Tadbirkorlar ham, xorij firmalari va tadbirkorlari bilan savdo qilishi uchun valyutani erkin sotib olish xuquqiga ega.

Umuman, bozor iqtisodiyoti jahondagi rivojlangan mamlakatlarning muomaladagi valyutalarini mamlakat ichki bozorida harakatlanishi uchun huquqiy imkoniyatlar yaratib beradi. Tadbirkorlar valyuta bilan bog'liq faoliyatlaridan samarali foydalanib, xorij valyutasiga yangi texnika va zamonaviy texnologiya xarid qilib, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish korxonalarida xizmat sifatini oshirish, ishlab chiqarish sohasida sifatli tovarlar ishlab chiqarib, uni sotishdan katta foyda olish imkoniyatlariga ega bo'ladilar.

Nazorat savollari:

1. "Infratuzilma" so'zi lotin tilidan tarjima qilinganda qanday ma'noni anglatadi.

2. Infratuzilma turlarini ayting.
3. Ijtimoiy infratuzilma nima.
4. Infratuzilma tomonidan yaratiladigan sharoitlarni o'z navbatida qanday turkumlanadi.
5. Biznes-inkubatorlar faoliyatini tushuntirib bering.
6. Texnopark nima.
7. Kichik biznes va tadbirkorlikda bank - moliya tizimi haqida nimalarni bilasiz.

4-MAVZU. XUSUSIY TADBIRKORLIK VA KICHIK BIZNES SUB'YEKTLARIDA ISHLAB CHIQARISH XARAJATLARI VA SAMARADORLIK KO'RSATKICHLARI TAHLILI.

Reja:

- 4.1. Ishlab chiqarish xarajatlari mohiyati, tarkibi va elementlari hamda xarajatlarni turkumlash.
- 4.2. Xususiy tadbirkorlik va kichik biznes sub'yektlarining moliyaviy faoliyati ko'rsatkichlari va faoliyatini iqtisodiy samaradorligi.

Tayanch iboralar: mahsulot tannarxi, davr xarajatlari, moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajatlar, favqulodda zararlar, bevosita xarajatlar, bilvosita xarajatlar, foyda, umumxo'jalik faoliyatidan olinadigan foyda, soliq to'langunga qadar foyda, kredit.

4.1. Ishlab chiqarish xarajatlari mohiyati, tarkibi va elementlari hamda xarajatlarni turkumlash.

Har bir korxona mahsulot ishlab chiqarish jarayoni bilan bog'liq xarajatlarni amalga oshiradi. Mahsulot ishlab chiqarish jarayonida sarf qilingan moddiy resurslar (asosiy vositalar eskirishi, xomashyo va materiallar, yonilg'i-moylash materiallari, ehtiyot qismlar va boshqa) va jonli mehnat sarfi ishlab chiqarish xarajatlarini tashkil etadi.

Korxonaning ishlab chiqarish, sotish va boshqa faoliyati natijasida yuzaga keladigan xarajatlarini quyidagicha turkumlash mumkin:

1. Ishlab chiqarish jarayonidagi ishtirokiga ko'ra:
 - ishlab chiqarish xarajatlari;
 - noishlab chiqarish xarajatlari.
2. Ishlab chiqarishda sarf etiladigan resurslar manbaiga ko'ra:
 - ichki xarajatlar;

- tashqi xarajatlar.

3. Mahsulot ishlab chiqarish hajmining o'zgarishiga nisbatan:

- doimiy xarajatlar;

- o'zgaruvchan xarajatlar.

4. Mahsulot tannarxiga olib borilishi jihatidan:

- bevosita xarajatlar;

- bilvosita xarajatlar.

5. Korxonaning umumiy ishlab chiqarish, moliyaviy va boshqa faoliyati natijasida yuzaga keladigan:

- mahsulot tannarxiga kiritiladigan xarajatlar;

- davr xarajatlari;

- moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajatlar;

- favqulodda zararlar.

Ishlab chiqarish xarajatlari bevosita ishlab chiqarish jarayoni amalga oshirish bilan bog'liq quyidagi xarajatlardan tashkil topadi:

- bevosita moddiy material xarajatlari;

- bevosita mehnatga haq to'lash xarajatlari;

- ishlab chiqarishga taalluqli ustama xarajatlar.

Bevosita mahsulot ishlab chiqarish jarayoni bilan bog'liq bo'lmagan xarajat turlari noishlab chiqarish xarajatlari deb yuritiladi. Uning tarkibiga:

- mahsulotni sotish bilan bog'liq xarajatlar;

- boshqaruv xarajatlari;

- boshqa operatsion xarajatlar va zararlar;

- favqulodda zararlar kiradi.

Ishlab chiqarish jarayonida foydalaniladigan korxonaning o'ziga tegishli resurslar sarfi (masalan, fermer xo'jaligida asosiy vositalar eskirishi, xo'jalikning o'zida ishlab chiqarilgan yem-xashak, organik o'g'itlar, asosiy podaga o'tkazilayotgan yosh chorva mollari va boshqalar) darxonaning ichki xarajatlarini, tashqi mol yetkazib beruvchilar va boshqa sub'yektlardan sotib olingan resurslar uchun to'lovlar korxonaning tashqi xarajatlarini tashkil qiladi.

Qisqa muddatli davrda mahsulot hajmining o'sishiga nisbatan doimiy (G'S) va o'zgaruvchi (US) xarajatlar farq qiladi.

Ishlab chiqarishning dastlabki bosqichida, moddiy resurslar va asosiy vositalar to'la bandlik darajasiga erishmagan davrda, o'rtacha doimiy xarajatlar qiymati yuqori bo'ladi va ishlab chiqarish hajmining oshib borishi bilan u kamayib borish xususiyatiga ega.

O'rtacha o'zgaruvchi xarajatlar ishlab chiqarish hajmi optimal chegaraga yetguncha kamayib boradi, ammo undan keyin ishlab chiqarishga jalb etilgan

ortiqcha resurslar samarasiz bo'lishi tufayli, o'rtacha o'zgaruvchi xarajatlar ortib boradi.

Keyingi har bir qo'shimcha mahsulot birligini ishlab chiqarishga sarflanadigan xarajatlar chegaraviy xarajatlar deb yuritiladi. Uni umumiy xarajatlar summasining o'sgan qismini mahsulot hajmining o'sgan qismiga bo'lish orqali topish mumkin.

Chegaraviy xarajatlar ishlab chiqarilayotgan har bir qo'shimcha mahsulot birligi korxonaga qanchaga tushishini ko'rsatadi. Bir birlik mahsulot ishlab chiqarishga ketadigan moddiy, mehnat va boshqa xarajatlar sarfi optimallashtirib borgan sari chegaraviy xarajatlar kamayib boradi. Ammo, korxonaning ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish imkoniyatlari to'liq bandlikka erishgach, keyingi birlik mahsulotni ishlab chiqarish xarajatlari borgan sari qimmatlashib boradi.

Natijada yuzaga keladigan xarajatlar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 5 fevraldagi 54-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Mahsulotlar (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risidagi Nizom"ga muvofiq quyidagicha turkumlanadi:

1. Mahsulot ishlab chiqarish tannarxini hosil qiluvchi xarajatlar:

- ishlab chiqarishning moddiy xarajatlari;
- ishlab chiqarishga tegishli asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarning amortizatsiyasi;
- ishlab chiqarish ahamiyatiga ega boshqa xarajatlar.

2. Ishlab chiqarish tannarxiga kiritilmaydigan, biroq asosiy faoliyatidan olingan foydani aniqlashda hisobga olinadigan davr xarajatlari:

- mahsulotni sotish xarajatlari;
- boshqaruv xarajatlari;
- boshqa operatsion xarajatlar.

3. Korxonaning umumxo'jalik faoliyatidan olingan foydasini aniqlashda hisobga olinadigan moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajatlar:

- foizlar bo'yicha to'lovlar;
- mol-mulkni uzoq muddatli ijaraga (lizingga) olish to'lovlari;
- xorijiy valyuta bilan operatsiya bo'yicha salbiy kurs tafovutlari;
- qimmatli qog'ozlarga qo'yilgan mablag'larni qayta baholash;
- moliyaviy faoliyatga oid boshqa xarajatlar.

4. Korxonaning odatdagi faoliyatiga mos kelmaydigan, bir necha yillar davomida takrorlanib turmaydigan va kichik tadbirkorlik korxonasi boshlig'ining (mulkgasining) qabul qilgan boshqaruv qarorlariga bog'liq bo'lmagan holda vujudga keladigan voqea va hodisalar (suv toshqini, yong'in, jala, do'l kabi tabiiy ofatlar va mamlakat qonunchiligida o'zgarish) natijasida ko'rilgan favqulodda zararlar.

Mahsulot tannarxi va uni hisoblash usullari. Tannarxda korxona ishlab chiqarish faoliyatining sifat ko'rsatkichlari - ishlab chiqarish resurslaridan

foydalanish samaradorligi, ishlab chiqarish texnologiyasi va mehnatni tashkil etish darajasi, korxonani tejamkorlik bilan va oqilona yuritish omillari, mahsulot ishlab chiqarishni yuksaltirish sharoitlari o'z aksini topadi.

Mahsulot tannarxini hisoblashdan ko'zda tutilgan asosiy maqsad - uni ishlab chiqarishga sarflangan haqiqiy xarajatlarni tegishli hujjatlarda o'z vaqtida, to'liq va ishonchli aks ettirish hamda moddiy, mehnat va moliyaviy resurslardan tejamkorlik asosida, oqilona foydalanish ustidan nazorat o'rnatishdir.

Mahsulot tannarxi korxona xarajatlari tushunchasidan farq qiladi. Korxonaning mahsulot ishlab chiqarish, sotish va boshqa moliyaviy-xo'jalik faoliyati natijasida yuzaga keladigan barcha xarajatlari mahsulot tannarxiga kiritilmaydi. Mahsulotning (ishning, xizmatning) ishlab chiqarish tannarxiga uni bevosita ishlab chiqarish bilan bog'liq xarajatlar kiritiladi. Ularga quyidagilar tegishli:

- bevosita moddiy xarajatlar;
- bevosita mehnat xarajatlari;
- ishlab chiqarish xususiyatiga ega bilvosita ustama xarajatlar.

Buxarajatlarning ko'pchiligini naturada, ya'ni dona, kg, metr va boshqako'rinishlarda hisobga olib borish va rejalashtirish mumkin. Ammo mahsulot ishlab chiqarishga sarflangan barcha xarajatlarni birgalikda hisobga olish uchun ularni yagona o'lchov birligiga - qiymat-pul ko'rinishiga keltirish talab etiladi.

Ayrim turdagi ishlab chiqarish xarajatlarini yaratilayotgan mahsulot tannarxiga to'g'ridan-to'g'ri kiritish mumkin. Unga ishlab chiqarishdagi ishchilarning ish haqi va iste'mol qilingan moddiy resurslar sarfini kiritish mumkin. Bunday xarajat turlari bevosita ishlab chiqarish xarajatlari deb yuritiladi.

Ikkinchi bir xarajat turlari bir necha xil mahsulot yetishtirish jarayonida ishtirok etishi tufayli (masalan, bir necha xil ekinlarga o'g'it tashigan traktor amortizatsiyasi) ularga ketgan xarajatlarni, shu mahsulotlarni ishlab chiqarishdagi ishtirokiga mutanosib taqsimlashga to'g'ri keladi. Bunday xarajatlar bilvosita ishlab chiqarish xarajatlari yoki ishlab chiqarishga tegishli ustama xarajatlar deb yuritiladi.

Mahsulot tannarxining bevosita va bilvosita xarajatlari tarkibi

Mahsulot tannarxi bir turdagi mahsulotni bevosita va bilvosita ishlab chiqarish xarajatlarini shu mahsulot miqdoriga bo'lish orqali topiladi:

$$MT = MX + IX + ST + A + BIX / M$$

Bu yerda:

MT - mahsulot tannarxi, so'm / dona, so'm / kg va boshqa;

MX - ishlab chiqarishning moddiy xarajatlari, so'm;

IX - ishlab chiqarish xususiyatidagi mehnatga haq to'lash xarajatlari, so'm;

ST - ishlab chiqarishga tegishli bo'lgan ijtimoiy sug'urta to'lovlari, so'm;

A - asosiy vositalar amortizatsiyasi, so'm;

BIX - boshqa ishlab chiqarish xarajatlari, so'm;

M - mahsulot miqdori, sentner, dona, kg, tonna va hakoza.

Korxonada rejadagi (biznes-rejada belgilangan) va haqiqiy (hisobot bo'yicha haqiqatda erishilgan) tannarx hisoblab borilishi mumkin. Bu rejalashtirilgan ishlab chiqarish xarajatlarini haqiqatda erishilgan daraja bilan solishtirish, ortiqcha moddiy va mehnat resurslari sarflariga yo'l qo'yilgan yoki tejamga erishilganini aniqlash va kelgusida tegishli xulosalar chiqarishga imkon beradi.

Rejadagi tannarx korxonaning mavjud texnik, texnologik va kadrlar salohiyati doirasida mahsulot ishlab chiqarishga sarflanishi ehtimoli bo'lgan xarajatlarning kutilayotgan maksimal darajasini aks ettiradi. Rejadagi tannarx moddiy resurslarni sarflash me'yorlari asosida hisoblanadi.

Haqiqiy tannarx korxonaning mahsulot ishlab chiqarish jarayonini haqiqatda sarflangan bevosita ishlab chiqarish xarajatlarini tashkil etadi. Haqiqiy tannarx rejadagi tannarxdan farq qilishi mumkin. Agar u rejadagi tannarxdan yuqori bo'lsa, ishlab chiqarish samardorligining pasayishidan past bo'lsa, kapital, mehnat va moddiy resurslardan oqilona foydalanish natijalarini aks ettiradi.

Mahsulot tannarxini hisoblashda faqat shu mahsulotni ishlab chiqarish bilan bog'liq xarajatlari hisobga olinadi. Mahsulotni sotish va ishlab chiqarishni boshqarish bilan bog'liq umumkorxona xarajatlari mahsulot tannarxiga kiritilmay davr xarajatlariga hisobiga kiritiladi.

Mahsulot tannarxini aniqlashda hisoblash ob'yektlarini bilish muhimdir. Unga qilingan xarajatlarni alohida hisobga olish mumkin bo'lmaganligidan, umumiy ishlab chiqarish xarajatlarini hisoblash ob'yektlari bo'yicha to'g'ri taqsimlash muhimdir.

Mahsulot tannarxiga kiritiladigan ishlab chiqarish xarajatlari xarajat elementlari va moddalari bo'yicha guruhlariga ajratiladi. Bunday guruhlash:

- ✓ rejalashtirilgan mahsulot ishlab chiqarishning moddiy va mehnat sarflariga ehtiyojni aniqlash;
- ✓ xarajatlarni iqtisodiy mazmuniga ko'ra taqsimlash;
- ✓ umumiy ishlab chiqarish xarajatlari miqdorida u yoki bu xarajat elementlarining ulushini aniqlash imkonin beradi.

Masalan, buxgalteriya hisobida mahsulot ishlab chiqarish tannarxini hosil qiluvchi xarajatlari iqtisodiy mazmuni va umumiylik xususiyatlariga ko'ra quyidagi elementlarga ajratiladi:

- ✓ ishlab chiqarishning moddiy xarajatlari;
- ✓ ishlab chiqarishga tegishli mehnatga haq to'lash xarajatlari;
- ✓ ishlab chiqarishga tegishli ijtimoiy sug'urtaga ajratmalar;
- ✓ asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar amortizatsiyasi;
- ✓ ishlab chiqarishga oid boshqa xarajatlari.

Iqtisodiy hisob-kitoblarda mahsulot tannarxini rejalashtirish va hisoblashda xarajatlarni hisoblash moddalari bo'yicha guruhlash qabul qilingan.

Sanoat korxonalaridan mahsulot tannarxini hisoblash moddalari quyidagilardan tashkil topadi.

Mahsulotning ishlab chiqarish tannarxini hosil qiluvchi xarajat elementlari va hisoblash moddalarini orasida o'zaro bog'liqlik mavjud.

“Xom ashyo va asosiy materiallar” moddasida mahsulotning asosini tashkil etib, uning tarkibiga kiradigan yoki mahsulot tayyorlashda (ishlarni bajarish va xizmatlar ko'rsatishda) zarur tarkibiy qism hisoblangan chetdan sotib olinadigan xomashyo va materiallar, shuningdek bir maromdagi texnologiya jarayonini ta'minlash, mahsulotlarni o'rash yoki boshqa ishlab chiqarish ehtiyojlariga sarflanadigan (asbob-uskunalar, binolar, inshootlar va boshqa asosiy vositalar sinovini o'tkazish, nazorat qilish, saqlash, tuzatish va ulardan foydalanish uchun ishlab chiqarish jarayonida foydalaniladigan), xarid qilinadigan materiallar o'z aksini topadi.

Mahsulot tannarxiga kiritiladigan xom ashyo va materiallar xarajatlaridan qaytariladigan chiqitlar qiymati va idish, o'rash-joylash materiallari qiymati ularning amalda sotilishi, foydalanilishi yoki omborga kirim qilinishi narxi bo'yicha chiqarib tashlanadi.

“Sotib olingan butlovchi qismlar esa yarim tayyor mahsulotlar” moddasida kelgusida korxonada montaj qilinadigan yoki qo'shimcha ishlov beriladigan butlovchi buyumlar va yarim tayyor mahsulotlar hisobga olinadi.

“Ishlab chiqarish xarakteridagi ish va xizmatlar” moddasiga tashqi yuridik va jismoniy shaxslar, shuningdek korxonaning ichki bo'linmalari tomonidan bajariladigan faoliyatning asosiy turiga tegishli bo'lmagan ishlab chiqarish xususiyatiga ega ishlar va xizmatlar kiradi.

Unga mahsulot tayyorlash bo'yicha ayrim operatsiyalarni bajarish, xom ashyo materiallarga ishlov berish, iste'mol qilinayotgan xomashyo va materiallar sifatini aniqlash uchun sinovlar o'tkazish, belgilangan texnologik jarayonlarga rioya etilishi ustidan nazorat qilish, asosiy ishlab chiqarish fondlarini tuzatish va boshqalar tegishli bo'ladi.

Korxona ichida tashqi sub'yektlarning transport xizmatlari (xom ashyo, materiallar, instrumentlar, detallar, yuklarning boshqa turlarini ombordan sexga keltirish va tayyor mahsulotni saqlash uchun omborga tashish) ham ishlab chiqarish xususiyatiga ega xizmatlarga tegishli bo'ladi.

Korxonaning transporti va xodimlari tomonidan moddiy resurslarni yetkazish bilan bog'liq xarajatlar (yuklash va tushirish ishlari ham shu jumlagi kiradi) ishlab chiqarish xarajatlarining tegishli elementlariga kirishi kerak (mehnatga haq to'lash xarajatlari, asosiy fondlari amortizatsiyasi, moddiy xarajatlar va boshqalar).

“Texnologik maqsadlar uchun ishlatilgan yoqilg'i va energiya” moddasida texnologik maqsadlar, energiya barcha turlarini ishlab chiqarish, binolarni isitishga sarflanadigan yonilg'ining chetdan sotib olinadigan barcha turlari, korxonaning texnologik, transport va boshqa ishlab chiqarish va xo'jalik ehtiyojlariga sarflanadigan barcha turdagi xarid qilinadigan energiya aks ettiriladi.

“Ishlab chiqarishga tegishli mehnatga haq to‘lash xarajatlari”ga korxonada qabul qilingan mehnatga haq to‘lash shakl va usullariga muvofiq qo‘llaniladigan tarif stavkalari va lavozim maoshlaridan kelib chiqib quyidagicha hisoblangan:

✓ ishlab chiqarish xususiyatidagi amalda bajarilgan ish uchun hisoblangan ish haqi, shu jumladan, bajarilgan ishni hisobga olish bo‘yicha dastlabki hujjatlarda nazarda tutilgan rag‘batlantiruvchi tUSDagi to‘lovlar;

✓ kasb mahorati va murabbiylik uchun tarif stavkalari va okladlarga ustamalar;

✓ ish tartibi va mehnat sharoitlari bilan bog‘liq kompensatsiya tusidagito‘lovlar, shu jumladan, tungi smenada, ishdan tashqari vaqtda, dam olish va bayram (ishlanmaydigan) kunlarda ishlaganlik uchun tarif stavkalari vaokladlarga ustamalar va qo‘shimcha haq;

✓ ko‘p smenali tartibda ishlaganlik, kasblarni birga qo‘shib olib borganlik va xizmat ko‘rsatish zonalarini kengaytirganlik uchun ustamalar;

✓ hukumat tomonidan tasdiqlangan kasblar va ishlar ro‘yxati bo‘yichaog‘ir,zararli, alohida zararli mehnat va tabiiy-iqlim sharoitlaridaishlaganlik uchun ustamalar, shu jumladan, ushbu sharoitlardagi uzluksiz ish staji uchun ustamalar;

✓ rekonstruktsiya qilish va mukammal ta‘mirlashda bevosita band bo‘lgan, shuningdek qonun xujjatlarida nazarda tutilgan hollarda vaxta usuli bilan ishlarni bajarishgan xodimlar uchun ishning ko‘chma va qatnovxususiyati uchun ustama;•

✓ mehnatga haq to‘lashning rayon bo‘yicha tartibga solinishi, shu jumladan, rayon koeffitsientlari va amaldagi qonun xujjatlariga muvofiq cho‘l, suvsiz va yuqori tog‘ joylarida ishlaganlik uchun koeffitsientlar bilan belgilagan to‘lovlar;

✓ amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq navbatdagi (yillik) vaqo‘shimcha ta‘tillar, navbatdagi (har yilgi) foydalanilmagan va qo‘shimchata‘tillar uchun kompensatsiyalar, o‘smirlarning imtiyozli soatlari, bolaniovqatlantirish uchun onalar ishidagi tanaffuslar, shuningdek tibbiyko‘riklardan o‘tish bilan bog‘liq vaqt uchun haq to‘lash;

✓ majburiy ta‘tildagi xodimlarga, asosiy ish haqini qisman saqlab qolgan holda haq to‘lash;

✓ davlat vazifalarini bajarganlik uchun (harbiy yig‘inlar, favqulodda vaziyatlar bo‘yicha yig‘inlar va boshqalar) mehnat haqi to‘lash;

✓ korxona shtatida turmaydigan xodimlar mehnatiga ular tomonidan fuqarolik-huquqiy tUSDagi tuzilgan shartnomalar bo‘yicha ishlar bajarilganligi uchun haq to‘lash, agar bajarilgan ish uchun xodimlar bilan hisob-kitob korxonaning o‘zi tomonidan amalga oshirilsa, pudrat shartnomasi ham shu jumlagaga kiradi;

✓ belgilangan tartibga muvofiq ishlab chiqarish jarayonida qatnashuvchixodimlar mehnatiga haq to‘lash fondiga kiritiladigan to‘lovlarning boshqa turlari.

“Ishlab chiqarishga tegishli ijtimoiy sug’urtaga ajratmalari” moddasida qonun xujjatlari bilan belgilangan me‘yorlar bo‘yicha mehnatga haq to‘lash fondiga ijtimoiy tushadigan majburiy ajratmalar, nodavlat pensiya jamg‘armalariga, ixtiyoriy tibbiy sug’urta va ixtiyoriy sug’urtaning boshqa turlariga ajratmalar aks ettiriladi.

“Asosiy vositalar amortizatsiyasi”ga asosiy ishlab chiqarish fondlari va nomoddiy aktivlarning belgilangan tartibda tasdiqlangan me‘yorlar bo‘yicha dastlabki (tiklash) qiymatidan kelib chiqib hisoblangan amortizatsiya ajratmalar summasi (lizing bo‘yicha va qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan jadallashtirilgan amortizatsiya ham) kiradi.

“Ishlab chiqarishga oid boshqa xarajatlar” moddasida quyidagilardan tashkil topadi:

- ✓ ishlab chiqarishni xom ashyo, materiallari, yonilg‘i, energiya, instrument, moslamalar va boshqa mehnat vositalari va buyumlari bilan ta‘minlash xarajatlari;

- ✓ chetdan jalb etilgan korxonalar tomonidan amalga oshirilgan korxonaning asosiy ishlab chiqarish fondlarini ish holatida saqlash xarajatlari (texnik ko‘rik va qarov, o‘rtacha, joriy va mukammal tuzatish xarajatlari);

- ✓ ishlab chiqarish faoliyatiga tegishli asosiy vositalarni joriyijaraga olish bilan bog‘liq xarajatlar;

- ✓ ifloslantiruvchi moddalarni yo‘l qo‘yiladigan me‘yorlar doirasida va undan ortiqcha atrof-muhitga chiqarganlik uchun to‘lovlar;

- ✓ ishlab chiqarish xususiyatlari bilan bog‘liq mehnatning normal sharoitlari va texnika xavfsizligini ta‘minlash xarajatlari;

- ✓ xodimlarga tekin ko‘rsatiladigan kommunal xizmatlar, oziq-ovqat, tekin beriladigan joy haqini to‘lash xarajatlari (yoki uy-joy, kommunal xizmatlar va boshqalar uchun pul kompensatsiyasi summasi);

- ✓ amaldagi qonun xujjatlariga muvofiq tekin beriladigan va shaxsiy (yo‘nalishda qoladigan buyumlar qiymati (shu jumladan, formal kiyim-bosh, maxsus ovqatlar) yoki ular pasaytirilgan narxlar bo‘yicha sotilishi munosabati bilan imtiyozli summasi;

- ✓ ishlab chiqarish xodimlarini belgilangan ishlab chiqarish jarayoniga tegishli xizmat safarlariga yuborish bo‘yicha me‘yorlar doirasida va ulardan ortiqcha xarajatlar;

- ✓ ishlab chiqarishdagi ishchilari va ishlab chiqarish aktivlarini majburiy sug’urta qilish xarajatlari;

- ✓ kafolatli xizmat muddati belgilangan buyumlarni kafolatli tuzatish, ularga kafolatli xizmat ko‘rsatish xarajatlari;

- ✓ xodimlarni ish joyiga olib borish va olib kelish bilan bog‘liq xarajatlar;

- ✓ ishlab chiqarish xarakteridagi boshqa xarajatlar.

Korxonaning qaysi tarmoqqa mansubligidan kelib chiqib, mahsulot tannarxini hisoblash moddalari farq qiladi.

Mahsulot tannarxini pasaytirish yo'llari quyidagilardan iborat bo'lishi mumkin:

✓ ishlab chiqarishga yuqori unumli, ishonchli va arzon ishlab chiqarish vositalarini joriy etish;

✓ asosiy aylanma fondlardan oqilona va samarali foydalanish;

✓ ishlab chiqarishning material sig'imini kamaytirish va tejamkorlikka erishish;

✓ mashina va texnikalarning kunlik va yillik ish unumini ko'tarish;

✓ resurslarni tejovchi va chiqitsiz texnologiyalardan keng foydalanish;

✓ ishlab chiqarish va mehnatni tashkil etishning ilg'or shakllaridan foydalanish;

✓ mehnat unumdorligini oshirish;

✓ mahsulotlar sifatini oshirish va nobudgarchilik, yo'qotishlarga yo'lqo'ymaslik;

4.2. Xususiy tadbirkorlik va kichik biznes sub'yektlarining moliyaviy faoliyati ko'rsatkichlari va faoliyatini iqtisodiy samaradorligi.

Kichik biznes korxonalarining moliyaviy faoliyati ularning davlat, boshqa korxonalar, tashkilotlar va shaxslar bilan o'zaro munosabatini tartibga solish bilan bog'liq bo'lgan pul hisob-kitoblarini ifodalaydi.

Kichik biznes korxonalarining ish faoliyati uning moliyaviy holati bilan chambarchas bog'langanidir. Moliyaviy holat korxonaning har tomonlama faoliyatining natijalarini aks ettiradi va rejada belgilangan ishlarning bajarilishiga ta'sir ko'rsatadi. Har bir kichik korxonaning moliyaviy xo'jalik faoliyatini to'g'ri olib borilishi juda muhim ahamiyat kasb etadi.

Mahsulotning sotilishidan tushgan tushum - korxona tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar, bajarilgan ishlar, ko'rsatilgan xizmatlar uchun olinadigan pul mablag'larining hajmidir. Bu korxona xarajatlarini qoplash va daromadlarni shakllantirish mablag'larining asosiy manbaidir.

Asosiy mahsulotni sotishdan tushgan tushumdan tashqari, korxona boshqa sotishlardan hamda sotishdan tashqari operatsiyalardan tushumlar olishi mumkin.

Tadbirkorlik faoliyati jarayonida moddiy ishlab chiqarish sohasida yaratilgan sof daromadni aks ettiruvchi foyda korxona faoliyatining eng muhim umumlashtirilgan ko'rsatkichi hisoblanadi.

Tadbirkor hamma vaqt foyda olishni maqsad qilib qo'yadi, ammo hamma vaqt ham foyda ololmaydi. Agar tushum tannarxga teng bo'lsa, unda faqat mahsulot ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining o'rnini qoplashga erishiladi. Tushumdan oshib ketuvchi xarajatlarda korxona salbiy moliyaviy natija ko'radi, bu uni murakkab moliyaviy ahvolga solib qo'yadi, inqiroz bo'lishi ham istisno emas.

Mahsulotlarni sotishdan olingan foyda (zarar) qo'shimcha qiymat solig'i va aktsizsiz mahsulot sotishdan tushgan tushum va mahsulotlarning tannarxiga kiritilgan ishlab chiqarish va sotish xarajatlari o'rtasidagi farq sifatida aniqlanadi.

Keltirilgan ta'rifdan foyda korxonaning o'z mahsulotlari (ishlari, xizmatlari)ni talab va taklif asosida vujudga kelgan narxlar bo'yicha sotishdan hosil bo'lgan yalpi daromad hajmiga bog'liqligi ma'lum bo'ladi.

Korxonaning yalpi daromadi - mahsulotlar (ishlar, xizmatlar)ni sotishdan tushgan tushumdan moddiy xarajatlarni chiqarib tashlagandan keyin ish haqi va foydani o'z ichiga oluvchi korxona sof mahsulotlaridan iboratdir.

Bozor munosabatlari sharoitida korxona eng katta foyda olishga erisha olmasa, tovarlarni sotish va xizmatlar ko'rsatish bozorida o'z mavqeini mustahkam ushlab turish, raqobat sharoitida o'zining ishlab chiqarishini dinamik rivojlanishini ta'minlashga imkon beruvchi foyda hajmini olishga harakat qilishi kerak.

Umumxo'jalik faoliyatidan olinadigan foyda (zarar) quyidagi algebraik summa tarzida hisoblanadi: asosiy faoliyatdan foyda plyus dividendlar va foizlar bo'yicha daromadlar plyus yoki minus investitsiyalar va qimmatbaho qog'ozlarni qayta baholashdan keladigan daromadlar (zararlar) va minus foizlar bo'yicha xarajatlar plyus yoki minus boshqa moliyaviy faoliyatdan daromadlar (zararlar).

Soliq to'langunga qadar foyda umumxo'jalik faoliyatidan foyda va favqulodda foydalar va zararlar saldosing algebraik summasi sifatida aniqlanadi.

Soliq to'langandan keyin korxona ixtiyorida qoladigan sof foyda daromad soliqlarini chiqarib tashlash bilan soliqlar to'langunga qadar foyda va minus hali hech qayerda hisobga olinmagan boshqa soliqlar va to'lovlardan iborat bo'ladi. Mahsulotni ishlab chiqarish va sotish korxona faoliyatining oxirgi natijasi hisoblanadi. Kichik korxonalar uchun sotilgan (xaridorlarga ortib jo'natilgan va ular tomonidan haq to'langan) mahsulot hajmi pul tushumini ta'minlashga, ishlab chiqarish xarajatlari va boshqa zaruriy sarflarning o'rnini qoplashga imkon beradi. Bundan tashqari, pul tushumining tarkibida foyda ham mavjud bo'ladi. Undan korxona tomonidan ishlab chiqarishni kengaytirish, moddiy rag'batlantirish fondlarini yaratish, davlat byudjeti oldidagi majburiyatlarni bajarish uchun foydalaniladi. Iste'molchi mahsulot sotilishi natijasida ishlab chiqarish vositalari yoki iste'mol mollari ko'rinishidagi zaruriy mahsulotni oladi.

Korxonalar faoliyatining moliyaviy natijalarini ifodalovchi ko'rsatkichlardan asosiysi foydadir.

Korxonalar foydasining turlari quyidagilardan iborat:

a) mahsulotlar sotishdan tushgan yalpi foyda (YAF). Bu sotishdan tushgan sof tushum (ST) va sotilgan mahsulotning tannarxi (MT) o'rtasidagi farqdan iborat, ya'ni $YAF = ST - MT$;

b) asosiy ishlab chiqarish faoliyatidan tushgan foyda (ICHF). Bu ma'lum davr ichida mahsulotlar sotishdan tushgan yalpi foyda (YAF) va xarajatlar (Aharaj.)

o'rtasidagi farq va plyus boshqa asosiy faoliyat sohalari daromadlari (Bdar.) yoki kamomadlari (Bkam.) ayirmasidan iborat, ya'ni:

$$ICHF = YAF - Aharaj. + Bdar. - Bkam.;$$

v) umumiy xo'jalik faoliyatidagi foyda (UXF). Bu algebraik ifodalar yig'indisi tarzida ifodalanadi: asosiy faoliyatidagi foyda (AFF) plyus dividendlar (DD) va foizlar bo'yicha daromadlar (FD) plyus (yoki minus) chet el valyutalari bo'yicha operatsiyalaridan olingan daromadlar (yoki kamomadlar) (CHEV) plyus (yoki minus) qimmatbaho qog'ozlarni qayta baholashdagi daromadlar (yoki kamomadlar) (KKKB) minus foizlar bo'yicha xarajatlardan (FX) iborat, ya'ni:

$$UXF = AFF + DD + FD \pm CHEV \pm KKKB - FX;$$

g) soliq to'lovlarigacha bo'lgan foyda (SF). Bu ko'rsatkich ham algebraik ifodalar yig'indisi tarzida ifodalanib, umumiy xo'jalik faoliyatidagi foyda (UXF) va tasodifiy (ko'zda tutilmagan) foyda yoki kamomadlar (TFK) saldosi iborat, ya'ni:

$$SF = UXF \pm TFK;$$

d) yillik sof foyda (YSF). Bu barcha soliqlarni to'lab bo'lgandan so'ng korxona hisobiga qoladigan daromad, ya'ni soliq to'lovlarigacha bo'lgan foydadan (SF), daromad yoki foyda solig'ini (FS) hamda boshqa soliqlar yoki to'lovlarni (BS) olib tashlangandan keyin qolgan qismidir, ya'ni:

$$YSF = SF - FS - BS;$$

Korxonalarining xo'jalik faoliyatini yuritishi davomida kelib chiqadigan xarajatlar o'z xususiyatlariga ko'ra quyidagicha tasniflanadi:

Mahsulotlarning ishlab chiqarish tannarxi:

- a) to'g'ri va egri moddiy xarajatlar;
- b) to'g'ri va egri mehnat xarajatlari;
- v) boshqa to'g'ri va egri xarajatlar.

Ma'lum davrdagi xarajatlar:

- a) sotish bilan bog'liq xarajatlar;
- b) boshqarish bilan bog'liq xarajatlar (ma'muriy xarajatlar);
- v) boshqa jarayonlar bilan bog'liq xarajatlar.

Moliyaviy faoliyat bilan bog'liq xarajatlar:

- a) foizlar bo'yicha xarajatlar;
- b) xorijiy valyutalar bilan bog'liq operatsiyalarda kurslarning salbiy farqi;
- v) qimmatbaho qog'ozlarni qayta baholash;
- g) moliviy faoliyat bilan bog'liq boshqa xarajatlar.

Tasodifiy xarajatlar (tabiiy ofatlar natijasida kelib chiqadigan xarajatlar).

Korxonalarining xo'jalik faoliyatining yuritishi davomida kelib tushadigan daromadlari o'z xususiyatlariga ko'ra quyidagicha guruhlanadi va u hisobotlarda quyidagi asosiy bo'limlar bo'yicha aks etadi:

- sotishdan tushgan sof tushumlar;
- asosiy faoliyat sohasidagi boshqa daromadlar (operatsion daromadlar);

- moliyaviy faoliyat sohalaridagi daromadlar;
- tasodifiy daromadlar.

Sotishdan tushgan sof tushumlar - mahsulotlar (ishlar, xizmatlar)ni sotishdan tushgan tushumlardan, qo'shimcha qiymat solig'i, aktsiz solig'i, eksport solig'i (sotib oluvchi tomonidan beriladigan ayrim skidkalar) va boshqa to'lov hamda ajratmalarni olib tashlagandan keyin qolgan qismi sifatida hisoblanadi.

Korxonalarining eksport faoliyati bilan bog'liq operatsiyalardan tushgan foyda va daromadlarni hisoblash, mahsulotlar (ishlar, xizmatlar)ni sotishdan tushgan tushumlar hajmini aniqlash kabi belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Asosiy faoliyat sohalaridagi boshqa daromadlar (operatsion daromadlar) hisobot bo'limining «Boshqa daromadlar va tushumlar» moddasida ko'rsatiladi.

Ushbu daromadlarga:

- ✓ xo'jalik shartnomalari shartlarini buzganlik uchun turli xildagi sanksiyalar, jarimalar, penyalar, shuningdek, keltirilgan zarar va kamomadlarni qoplash;
- ✓ hisobot yilida, o'tgan yildagi daromadlar va foydalarni hisoblash natijasida topilgan summa;
- ✓ mahsulotlar (ishlar, xizmatlar)ni sotish yoki ishlab chiqarish jarayonlari bilan bog'liq bo'lmagan boshqa daromadlar, ya'ni renta daromadlari, xizmat ko'rsatish tarmoqlaridan tushgan daromadlar, korxona tizimidagi oshxonalar va kafelar hisobidan kelib tushadigan tushumlar;
- ✓ asosiy fondlar va korxonaning boshqa mol-mulkklarining faoliyatidan kelib tushadigan moliyaviy daromadlar kiradi.

Xo'jalik faoliyatini yuritish davomida korxonalar o'z mablag'lari darajasini aniqlashi va nazorat qilishi muhim o'rin tutadi. Chunki mulkiy javobgarlik, tuzilgan shartnomalar asosida kelib chiqadigan o'zaro kelishmovchiliklar yoki muammolar mana shu mulkka bo'lgan egalik huquqlari bo'yicha kafolatlanadi.

Mulkiy javobgarlik, mulk shaklidan qat'iy nazar, faqat korxonaning o'z mablag'lariga quyilishi mumkin. O'z mablag'larning miqdori buxgalteriya balansi ma'lumotlariga asosan aniqlanadi.

Mulk formalaridan qat'iy nazar, xo'jalik yurituvchi sub'yektlar hisobida bo'lgan o'z mablag'lari summasi quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$O'mab. = BV - (M + Mmaj.o's. - Mmaj.so'n.) - Ddeb.qarz. - Z;$$

Bunda:

BV – balans valyutasi summasi;

M - uzoq muddatli va qisqa muddatli majburiyatlar passivini ikkinchi va uchinchi bo'limlari;

Mmaj.o's. - majburiyatlarning o'sishi - oxirgi hisobot davri uchun balans ma'lumotlari bilan taqqoslaganda shartnoma imzolagan kunga qarz olingan va jalb qilingan mablag'lar;

Mmaj.so‘n. -shartnomani imzolash sanasi va oxirgi hisobot davri uchun balansni tuzish sanasi o‘rtasidagi davrda majburiyatlarning so‘nishi;

Ddeb.qarz. - da‘vo qilish muddati tugagan debitorlik qarzlari;

Z – zararlar summasi.

Kichik biznes va tadbirkorlikni kredit bilan ta‘minlashshakllari

Kichik biznesni kredit bilan ta‘minlash deganda, bu ularga pul yoki tovar shaklidagi vositalarni ma‘lum muddatga haq to‘lash sharti bilan qarzga olish va qaytarib berish yuzasidan kelib chiqadigan munosabatlar tushuniladi.

Kredit munosabati ikki sub‘yekt biri - pul egasi, ya‘ni qarz beruvchi; ikkinchisi - pulga muhtoj, ya‘ni qarz oluvchi o‘rtasida yuzaga keladi. Kredit, tovar va pul ko‘rinishidagi mablag‘larni qaytarib berish, muddatlilik va foiz to‘lash shartlari asosida berish natijasida yuzaga keladi.

Kredit berilish muddatiga ko‘ra, uch turga bo‘linadi:

- 1.Qisqa muddatli kreditlar (muddati bir yilgacha bo‘lgan kreditlar).
- 2.O‘rta muddatli kreditlar (muddati bir yildan uch yilgacha bo‘lgan kreditlar).
- 3.Uzoq muddatli kreditlar (muddati uch yildan ortiq bo‘lgan kreditlar).

Xalqaro kreditlar berilish muddatiga ko‘ra birmuncha farq qiladi. Bunda bir yildan besh yilgacha muddatga berilgan kreditlar o‘rta muddatli, besh yil va undan ortiq muddatga berilgan kreditlar uzoq muddatli kreditlar deb hisoblanadi.

Kredit va moliya tushunchalari o‘rtasida bir tomondan, umumiylik bo‘lsa, ikkinchi tomondan, farqli jihatlar mavjud.

Agar moliya barcha xo‘jalik sub‘yektlarining o‘ziga tegishli pul mablag‘lari xususidagi aloqalarni anglasa, kredit, bundan farqliroq, o‘zga mulki bo‘lgan pulni qarzga olib ishlatish borasidagi munosabatlarni bildiradi va bozor munosabatlarining bir elementi hisoblanadi.

Moliya bilan kreditning umumiyligi shuki, ularning har ikkalasi ham pul mablag‘lari yuzasidan bo‘lgan munosabatlarni jamlash va ishlatish usulining har xil bo‘lishidan kelib chiqadi.

Moliyada o‘z mulki bo‘lgan pul resurslarini xohlagan vaqtda, hech bir xarajatsiz ishlatishi mumkin. Kredit esa o‘zgalar pul mablag‘ini haq to‘lagan holda vaqtincha ishlatib turish va muddati kelganda qaytarib berishni anglatadi. Kredit tovar-pul munosabatlariga xos bo‘lgan va pul harakatini bildiruvchi kategoriyadir.

Kredit sub‘yektlari har xil bo‘lishi mumkin. Bularga korxona, firma, tashkilot, davlat va turli toifadagi aholi kiradi.

Kredit ob‘yekti - bu har qanday pul emas, balki faqat vaqtincha bo‘sh turgan, berilishi mumkin bo‘lgan pullar va tovarlardir.

Bo‘sh pul uch xil bo‘ladi:

- ✓ tadbirkorlar yoki katta puldorlar qo‘lidagi pul, ya‘ni kapital;
- ✓ aholi qo‘lidagi pul – ertami -kech ehtiyojni qondirish uchun to‘plangan pul, egasi qo‘lida kapital emas, balki iste‘molni qondirish vositasi;

✓ davlat ixtiyoridagi pul. Bu pul ham kapital (davlat korxonasi uchun), ham umumiy iste'mol pulidir.

Qayd qilingan bo'sh pullar ssuda fondini (qarz fondini) tashkil etadi. Bo'sh pullar quyidagi manbalardan kelib chiqadi:

-amortizatsiya pulining muddati tugagunga qadar to'planib borishi. Ammortizatsiya puli har yili ajratiladi va u bir necha yildan keyin ishlatilishi sababli ma'lum davr bo'sh turadi;

-ishlab chiqarishni o'stirish uchun foydadan investitsiya puli muhim ajratib boriladi, lekin bu pulni ma'lum miqdorda yig'ilgandan so'ng investitsiya qilish mumkin;

-xom ashyo, yoqilg'i va materiallar uchun oldin sarflangan pul tovar sotilishi bilan egasiga qaytib beriladi, lekin ularni yangidan sotib olish shu vaqtning o'zida yuz bermaydi. Ammo bu mablag'lar dastlab joriy schyotga kelib tushadi. Bu resurslar depozit qilib rasmiylashtirilganidan keyingina kredit resurslari sifatida hisobga olinadi;

-foydadan ajratilgan ijtimoiy fondlar pulining kelib tushish vaqti bilan ishlatish vaqti ham to'g'ri kelmaydi, natijada pul bo'sh qoladi;

-ish haqi pulining kelib tushishi va sarflanishi bir vaqtda yuz bermaydi. Ma'lumki, tovar sotilgach, pul tushib turaveradi, ish haqi har kuni emas, har 15 kundan so'ng beriladi. Natijada, ish haqi fondining puli ham bo'sh turishi mumkin;

-fuqarolarning iste'molchi sifatida qarilikni ta'minlash, qimmatbaho tovar olish, sayohat qilish yoki katta marosim o'tkazish uchun jamlangan puli bo'ladi, u etarli miqdorga borguncha, yoki ishlatish fursati kelguncha bo'sh turadi;

-davlat byudjetiga pul daromadlarining kelib tushishi va ularning sarflanishi ham bir vaqtda yuz bermaydi;

-turli-tuman xayriya va ehsonlar va sug'urta pullarining hosil bo'lishi hamda ishlatilishi ham turli vaqtda yuz berganidan, uning bir qismi sarflanmay, bo'sh turib qoladi.

Xullas, jamiyatdagi pul resurslari harakatining notekis bo'lishi, bir qism pulning bo'sh qolib, qarz fondiga aylanishi uchun imkon beradi.

Kredit to'rt xil vazifani bajaradi:

Birinchidan, pulga tenglashtirilgan to'lov vositalari (masalan, veksel, chek, sertifikat va hokazolar)ni yuzaga chiqarib, ularni xo'jalik oborotiga jalb qiladi.

Ikkinchidan, bo'sh pul mablag'larini harakatdagi, ishdagi kapitalga aylantirib, pulni pul topadi, degan qoidani amalga oshiradi.

Uchinchidan, qarz berish orqali pul mablag'larini turli tarmoqlar o'rtasida qayta taqsimlash bilan ishlab chiqarish resurslarining ko'chib turishini ta'minlaydi.

To'rtinchidan, qarz berish, qarzni undirish vositalari orqali iqtisodiy o'sishni rag'batlantiriladi.

Kredit va undan foydalanishda turli natijalarga erishiladi. Bu natijalar ijobiy yoki salbiy bo'lishi mumkin. Ijobiy natijalar deganda, kreditdan samarali foydalanish natijasida qo'lga kiritilgan yutuqlar tushuniladi.

Kredit aloqalari pul egasi bilan qarz oluvchi o'rtasida bevosita va bilvosita bo'lishi mumkin. Birinchi holda ular to'g'ridan-to'g'ri muomalaga kirishadi. Ikkinchi holda ular aloqachi vositachilar orqali yuz beradi. Shunga qarab, kreditning quyidagi asosiy shakllari kelib chiqadi:

- ✓ Tijorat krediti;
- ✓ Bank krediti;
- ✓ Iste'molchi krediti;
- ✓ Davlat krediti;
- ✓ Xalqaro kredit

Tijorat krediti – bu sotuvchilarning xaridorlarga tovar shaklida beriladigan kreditidir. Bunda tovarlar ma'lum muddatda pulini to'lash sharti bilan nasiyaga beriladi. Tijorat kreditini nasiyaga oluvchi uning egasiga veksel (qarzning majburiyatnomasi)ni beradi.

Nasiyaga olish orqali berilgan qarz yig'indisi tovarning o'z narxi va miqdoriga bog'liq bo'ladi. Masalan, 1000 metr duxoba nasiyaga har bir metri 2 dollardan beriladi. Bunda duxoba egasining xaridorga bergan qarzi 2000 dollarni (1000×2) tashkil etadi.

Tijorat kreditida foiz nasiyaga sotilgan duxoba narxiga ustama shaklini oladi, shu sababli, duxoba nasiyaga o'z narxidan yuqori narxda beriladi. Masalan, duxoba naqd pulga har metri 2 dollardan sotilsa, nasiyaga 2,5 dollar ustama foiz bo'ladi. Bizning misolimizda 1000 metr duxobaga ustama 500 dollarni tashkil etadi ($1000 \times 2,5 = 2500$; $2500 - 2000 = 500$).

Tijorat krediti berishning, asosan, beshta usuli mavjud:

- ✓ veksel usuli;
- ✓ ochiq schyot orqali berish, chegirma berish usuli;
- ✓ mavsumiy kredit;
- ✓ konsignatsiya.

Veksel usulida tovar etkazib berilganda sotuvchi xaridorga trattani taqdim etadi. Xaridor o'z navbatida, uni aktseptlaydi, ya'ni trattada ko'rsatilgan summani o'z vaqtida to'lashga rozilik beradi.

Ochiq schyot orqali tijorat kreditini berishning mazmuni shundaki, xaridor tovarga buyurtma berishi bilanoq u yuklab jo'natiladi, to'lov esa o'rnatilgan muddatlarga vaqt-vaqti bilan amalga oshirib boriladi. Bunda xaridor har gal tovar olishda kreditni rasmiylashtirib o'tirmaydi, ya'ni kreditga murojaat qilmaydi.

Chegirma berish usulida xaridor to'lov hujjatlarini yozilgandan so'ng, shartnomada kelishilgan ma'lum davr ichida to'lovni amalga oshirsa, to'lov

yig'indisidan chegirma beriladi. Agar ushbu davr ichida to'lay olmasa, unda to'lovni belgilangan muddatda to'liq amalga oshiradi.

Mavsumiy kredit, odatda, o'yinchoqlar, suvenirlar va boshqa keng iste'mol mollarini sotishda keng qo'llaniladi. Masalan, chakana savdo tashkilotlari yil davomida archa o'yinchoqlarini sotib oladilar va shu yil bilan o'yinchoqlar uchun katta zaxira to'playdilar. O'yinchoqlar haqini esa yangi yil bayrami o'tgandan so'ng yanvar-fevral oylarida to'laydilar. Ishlab chiqaruvchilar uchun bunday usulning qulayligi shundaki, ular o'yinchoqlarni omborlarda saqlash xarajatlaridan xolos bo'ladilar.

Bank krediti. Bank va boshqa kredit tashkilotlari pulni uning sohiblariga foiz to'lash sharti bilan o'z qo'lida jamlaydilar va o'z nomidan qarzga berib, foiz oladilar. Bunda uch sub'yekt:

- ✓ *pul egasi;*
- ✓ *kredit tashkiloti;*
- ✓ *qarz oluvchining kredit aloqasi paydo bo'ladi.*

Banklar qarzni ishonchli, pulni samarali ishlatishga qodir xo'jalik sub'yektlariga qarz beradilar. Ular, o'z navbatida, bu pulni investitsiya uchun sarflab, iqtisodiyotni o'stirishga erishadilar. Bank ishonchli mijozlarni tanlagan holda, qarzni ularning mol-mulki yoxud boshqa boyligi garovga qo'yilgan sharoitda beradi. Masalan, bank fermerga 15000 dollar qarz bersa, uning garovga qo'yilgan mulki qiymati shu summadan kam bo'lmasligi kerak.

Iste'molchi krediti. Tijorat banklari tadbirkorlik uchun firmalarga, iste'molchilarga tovar sotib olish uchun qarz beradi. Buning natijasida iste'molchi krediti paydo bo'ladi. Masalan, AQSHda banklar iste'molchilarga kredit kartochkalarini beradi, ularga narxi 2500 dollarga qadar tovarlar xarid etiladi, xarid puli banklar va magazinlar bergan schyotga qarab to'lanadi. Bunday kredit g'oyat imtiyozli bo'ladi, uning foizi boshqacha qarz foizidan kam bo'ladi, xatto foizsiz ham bo'lishi mumkin.

Iste'molchi krediti aholining iste'mol ehtiyojlarini qondirishga mo'ljallangan. U tovar va pul shaklida bo'lishi mumkin. Xususan, yakka tartibda uy-joy qurish maqsadlariga beriladigan uzoq muddatli kreditlar - pul shaklidagi iste'molchi kreditlaridir.

Davlat krediti. Banklar davlatga ham qarz beradi. Shu bilan birga undan qarz ham oladi. Bunda davlat krediti paydo bo'ladi. Qarz va uning foizi byudjet hisobidan qaytariladi. Davlat krediti sharoitida qarz beruvchilar kamdan - kam hollarda banklar bo'ladi. Ko'pincha bu vazifani aholi, firma, korxona va tashkilotlar bajaradi.

Davlat qarzni turli shaklda, avvalo, davlat zayomlari shaklida oladi. Zayom davlatning qarzдорlik guvohnomasi bo'lib, u qarzni vaqti kelganda qaytarib olish va foiz to'lashni kafolatlaydi. Zayomlarni markaziy va mahalliy xokimiyatlar chiqaradi.

Zayomlar qarz haqi to'lash jihatdan foiz to'lanadigan, yutuq chiqadigan, ham yutuq, ham foiz beriladigan va ba'zan, foizsiz ham bo'ladi.

Kredit munosabatlarida davlat faqat qarzdor vazifasini o'tamay, qarz beruvchi rolini ham bajaradi. Davlat o'z mablag'lari hisobiga bankda qarz fondini tashkil etadi, xazinadan qarz ham beradi. Xazina qarzi davlat byudjetidan korxona, firma va tashkilotlarga ularning moliyaviy sanksiyasi uchun sarflanadi. Mazkur qarz ham ma'lum muddatga, qaytarib berish va foiz to'lash sharti bilan beriladi. Ammo foiz g'oyat imtiyozli bo'ladi va daromad olishni ko'zlamaydi. Davlat o'z qarzidan voz kechishi ham mumkin.

Xalqaro kredit - bu ssuda kapitalining xalqaro miqyosdagi harakati bo'lib, bu harakat tovar va valyuta ko'rinishidagi mablag'larni qaytarib berishlik, muddatlilik va haq to'lashlik asosida berish bilan bog'liqdir.

Xalqaro kredit munosabatlarida qatnashuvchi sub'yektlar bo'lib, tijorat banklari, markaziy banklar, davlat organlari, hukumat, yirik korporatsiyalar hamda xalqaro va regional moliya-kredit tashkilotlari hisoblanadi.

Xalqaro kreditning asosiy shakllari sifatida firmaviy kredit, aktseptli kredit, aktseptli-rambursli kreditlarni ko'rsatish mumkin.

Firmaviy kredit – bu bir mamalakat firmasi tomonidan ikkinchi mamlakatdagi firmaga berilgan kreditdir. Uning eng keng tarqalgan turi - bu eksportyorning importyorga tovarlarni to'lov muddatini kechiktirish asosida sotishga asoslangan kreditdir.

Akseptli kredit - bu yirik banklar tomonidan tratalarni aktseptlash shaklida beriladigan kreditlar. Agar eksport qiluvchi import qiluvchining to'lovga qobilligiga shubha qilsa yoki to'lov yig'indisini tezda olishni xohlasa, ushbu kreditdan foydalaniladi.

Akseptli - rambursli kreditning ma'nosi shundaki, eksport qiluvchining vekseli uchinchi mamlakat banki tomonidan aktseptlanadi va importyor vekselda ko'rsatilgan yig'indini aktseptlangan bankiga o'tkazadi.

Ma'lumki, xususi banklar ham xalqaro tashkilotlar (Xalqaro valyuta fondi, evropa tiklanish va taraqqiyot banki, Osiyo rivojlanish banki va boshqalar) kabi xalqaro kreditlar beradilar. Ammo ularning kreditlarning berish shartlari bir-biridan jiddiy farq qiladi.

Bu farqlar quyidagilardan iborat:

- ✓ xalqaro tashkilotlar, odatda, uzoq muddatli kreditlar beradi. Xususi banklar esa, asosan qisqa muddatli kreditlar berish bilan shug'ullanadi;

- ✓ xalqaro tashkilotlar beradigan kreditlarning foiz stavkasi kichik. Odatda, yiliga 7-9%ni tashkil qiladi. Xususi banklarniki esa nisbata yuqori, ko'pchilik hollarda 18-20%dan iborat bo'ladi;

- ✓ xalqaro tashkilotlar iqtisodiyotni barqarorlashtirish dasturlari asosida kredit beradi. Bunda aniq dasturlar ularning ekspertlari tomonidan ko'rib chiqiladi. Bundan

tashqari xalqaro tashkilotlar kredit oluvchi mamlakatlardan ma'lum ko'rsatkichlarga - byudjet defitsitini yalpi milliy mahsulotga nisbatan ma'lum nisbatini, inflyatsiyaning oylik darajasi va hokazolarga rioya etilishini talab qiladi; xususi banklar esa, bu taxlitdagi dasturlarga, ko'rsatkichlarga rioya qilishni talab etmaydi;

✓ xususi banklar beradigan xalqaro kreditlar hajmida ta'minlangan kreditlarning salmog'i katta bo'ladi. Xalqaro tashkilotlarning kreditida esa aksincha, ularning salmog'i, odatda, kichik bo'ladi.

Kredit jamiyatdagi vaqtinchalik bo'sh pul mablag'larini pullarga ehtiyojmand bo'lgan sub'yektlar o'rtasida taqsimlaydi. Bu taqsimlash jarayoni qayta taqsimlash deyiladi, chunki bu mablag'lar moliya kategoriyasi yordamida birlamchi taqsimlash jarayonidan o'tgan mablag'lardir. Bizga ma'lumki, moliya kategoriyasi yordamida milliy daromad dastlabki taqsimlanganda to'rt yirik qismga bo'linib ketadi:

- moddiy ishlab chiqarish sohasida band bo'lgan xodimlarning ish haqi;
- moddiy ishlab chiqarish sohasidagi korxonalarning foydasi;
- banklar bergan kredit uchun foiz stavkasi;
- yer egalarining yer rentasi.

Bu pul mablag'lari banklarning kredit resurslari uchun manba hisoblanadi. Masalan, ish haqini olaylik, korxonalarda ish haqi, odatda, oyiga 2 marta to'lanadi. Ish haqiga mo'ljallangan mablag'lar ishlatilgunga qadar kredit berish maqsadlariga ishlatilishi mumkin, yoki korxonalar foydasi hisobidan tashkil etiladigan fondlarni olaylik. Ular ham kredit resursi sifatida ishlatiladi.

Kreditning asosiy sharti - bu qarz uchun haq to'lash. Bu haq qarz qilingan summaga nisbatan foiz hisobida olinganidan uni qarz foizi yoki kreditning foiz stavkasi deb yuritiladi. Qarz foizi pul bozorida amal qiladi. Bozorga chiqarilgan pulning narxi foiz bo'ladi. Boshqa tovarlardan farqliroq, qarz pulining narxi - bu uning ma'lum to'lov ehtiyojini qondirish xossasidagi foydalanganlik uchun beriladigan haq bo'ladi. Qarz puli kapital sifatida yoki odatdagi to'lov yoki xarid vositasida ishlatiladi.

Mana shuning uchun ham qarzdor shaxs pul egasiga foiz stavkasini to'laydi. Foiz stavkasi oldindan belgilanadi.

Kreditning foiz stavkasi quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$KFS = KF / KM * 100;$$

Bu yerda, KFS – kreditning foiz stavkasi, %;

KF – qarz foizi, so'm;

KM – qarz miqdori, so'm.

Kreditlarning foiz stavkasi mamlakatning ssuda kapitallari bozorida aniqlanadi. Xalqaro kreditlarning foiz stavkasi esa jahon ssuda kapitallari bozorida aniqlanib, bu bozorlarning asosiy qismi London, Tokio, N'yuyork, Frankfurt, Parij va Bryussel shaharlarida joylashgan.

Kreditlarning foiz stavkasi turli omillar ta'sirida o'zgarib turadi. Bu omillarning asosiylari quyidagilardir:

✓ pul bozoridagi talab va taklifning nisbati, ya'ni bozorda qanday miqdorda qarz puliga talab bor va unga nisbatan qanday miqdorda qarzga beriladigan pul chiqarilgan. Talab oshsa, foiz ortadi, taklif tushsa, u kamayadi.

✓ qarzga olinadigan pulni ishlatishdan kutiladigan naf darajasi, aniqrog'i shu pulning iste'mol qiymati. Qarz puli tadbirkor uchun ko'p foyda keltirsa yoki iste'molchi ehtiyojini to'laroq qondirsa, foiz yuqori bo'ladi, aks holda u pasayib ketadi. Bunda pulni hozir ishlatishdan tegadigan naf taqqoslanadi.

✓ Qarzni to'lash muddati va sharti. Agar qarz uzoq muddatga berilib, uni sekin-asta, kichik-kichik qismlarga bo'lib, bemaolol qaytarish mumkin bo'lsa, qarzdor yuqori foizga rozi bo'ladi. Agar qarz qisqa vaqtga berilsa va uni bir yo'la to'lash shart bo'lsa, qarzdor past foizni ma'qul ko'radi. Gap shundaki, qarz qanchalik uzoq muddatga berilsa, shunchalik uni ishlatib daromad ko'rish mumkin va shu hisobdan foiz to'lash yengil bo'ladi.

✓ Qarzning qanday pul bilan berilishi. Agar qarz erkin kon'vertirlangan valyuta berilsa, foiz yuqori belgilanadi, agar u oddiy valyutada berilsa, foiz nisbatan past o'rnatiladi. Konvertirlangan pul obro'y e'tiborli bo'lganidan uni ishlatish oson, undan tezda daromad ko'rish mumkin.

✓ Inflyatsiya darajasi. Inflyatsiya yuz bersa, qarzga berilgan pul egasiga qaytib kelgunicha o'z qadrini qisman yo'qotadi. Bunda pul egasi yutqazadi. Shu sababli foiz inflyatsiyani hisobga olib o'rnatiladi. Foiz inflyatsiya shiddatiga nisbatan to'g'ri mutanosiblikda o'zgaradi.

✓ Pulni qarz berishdan ko'ra boshqa yo'sinda ishlatishdan tushadigan daromad. Bunda pul egasining afzal ko'rish printsiipi amal qiladi. Agar aktsiya dividendi yuqori bo'lsa, foiz pasayadi va aksincha. Agar aktsiyaga 15% dividend berilsa, foiz undan yuqori bo'lishi shart. Aks holda pul egasi uni qarzga bermay, aktsiya sotib olishni afzal ko'radi.

✓ Qarz berishning xatar darajasi. Agar qarzning qaytib kelishi kafolatlansa, foiz past, agar bu xatarli bo'lib, qarz qaytishi shubhali bo'lsa, foiz yuqori bo'ladi. Odatda, moliyaviy baquvvat va nufuzli firmalar uchun foiz tayinlanadi. Yuqori va past foiz o'rtasidagi farq pul egalari uchun ma'lum darajada qarz xatarini kamaytiradi, chunki bir yerda foizning kamligi, boshqa yerda uning ortiq bo'lishi bilan qoplanadi.

Nazorat savollari:

1. Korxona ishlab chiqarish xarajatlarining qanday turlarini bilasiz?
2. Xarajatlarni mazmuni, tarkibi va turlari bo'yicha tasniflaganda qaysi mezonlarni ajratib ko'rsatish mumkin?

3. Tijorat xarajatlari nima, ularni qoplashning manbalari va turlari nimalardan iborat?
4. Qisqa muddatli va uzoq muddatli ishlab chiqarish xarajatlari nimalarda farq qiladi?
5. Iqtisodiy va buxgalteriya xarajatlarining farqi nimada?
6. Firmaning ichki va tashqi sarf-xarajatlari nima?
7. Umumiy, o'rtacha va eng yuksak xarajatlarni qanday tushunasiz?
8. Kichik biznes va tadbirkorlikning moliyaviy faoliyati natijalarini ifodaluvchi qanday ko'rsatkichlarni bilasiz?
9. Korxona foydasini nechta turi mavjud?
10. Korxona foydasi qanday aniqlanadi?
11. Korxonalarining moliyaviy xarajatlari qanday tasniflanadi?
12. Korxonaning o'z mablag'lari deganda nima tushuniladi?
13. Sotishdan sof tushum deganda nima tushuniladi?
14. Kichik biznes va tadbirkorlikni kredit bilan ta'minlashda qanday shakllari mavjud?
15. Kichik biznes va tadbirkorlik korxonalarida xavf-xatarlarni turlarini bilasiz?

5-MAVZU.O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOLIQ TIZIMI VA SOLIQ MUNOSABATLARI SUB'YEKTLARINING HUQUQ HAMDA MAJBURIYATLARI

Reja:

5.1. O'zbekiston Respublikasining soliq tizimi haqida tushuncha. Soliq siyosati.

5.2. Soliqlar va ularning guruhlanishi. Soliq to'lovchilarning huquq va majburiyatlari.

Tayanch iboralar: soliq tizimi, maxsus soliq rejimlari, ijtimoiy soliq, soddalashtirilgan tartibida to'lanadigan soliqlar, mahalliy soliqlar, bevosita(to'g'ri) va bilvosita (egri)soliqlar.

5.1. O'zbekiston Respublikasining soliq tizimi haqida tushuncha.

Soliqlarning paydo bo'lishi davlatning paydo bo'lishi bilan bog'liq bo'lganligi uchun hamda hozirgi O'zbekistonda ijtimoiy himoyalangan bozor iqtisodiyoti sharoitida davlat uning tashkilotchisi ekanligidan bu fan davlatning o'ta zarur bo'lgan xilma - xil vazifalari bilan chambarchas bog'liq va ularga asoslanadi. Davlat mamlakatda yaratilgan ijtimoiy mahsulot ishlab chiqarish uni taqsimlashning qonun -

qoidalarini ishlab chiqadi. Bu taqsimlashdagi munosabat bozor iqtisodiyoti sharoitida pul orqali amalga oshirilganligidan davlat uni taqsimlashni ham pul munosabatlari orqali, ya'ni soliq, pul va kredit orqali amalga oshiradi.

Bozor iqtisodiyoti talab va taklif, raqobat, qiymat va boshqa qonunlar orqali amalga oshiriladi. Bozor iqtisodiyoti - erkin iqtisodiyot, pulli munosabatlar iqtisodiyotidir. Soliqlar ham pul munosabatlarini ifoda etganligi uchun bozor iqtisodiyoti tarkibiga kiradi, uning ajralmas qismidir. Bozor iqtisodiyoti qonunlari - soliqlar va soliqqa tortish fanining asosini tashkil etadi. U qonunlarni chuqur anglamasdan turib soliqlar va soliqqa tortish mexanizmini tushunib bo'lmaydi.

Bozor iqtisodiyoti qonunlarini o'rganib chiqib, davlat yalpi ichki mahsulot qiymatini soliqlar orqali taqsimlash vazifasini o'z zimmasiga oladi. Shunday ekan, davlat to'g'risidagi ta'limot - davlat iqtisodiyotni boshqarishda bosh rol o'ynashi soliqlar va soliqqa tortishning asosi bo'lib xizmat qiladi. Davlat bozor iqtisodiyotini boshqarishda yetakchilik, boshqaruvchilik rolini o'ynaydi. Davlat soliqlarni iqtisodiy mohiyati va vazifalarini o'rganib chiqib, uni amaliyotga tadbqiq qilishni o'z zimmasiga oladi.

Soliqlar majburiy to'lovlarni ifoda etuvchi pullik munosabatlarni bildiradi. Bu munosabatlar soliq to'lovchilar bilan ularni o'z mulkiga aylantiruvchi davlat o'rtasida bo'ladi.

Yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning yig'indisi ***soliqlar tizimi*** deb tushuniladi. Soliq kodeksiga ko'ra O'zbekiston Respublikasi hududida soliqlar va yig'imglar, boshqa majburiy to'lovlar amal qiladi hamda ular O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan joriy etiladi va bekor qilinadi.

Prezidentimizning 2018 yil 29 iyundagi «O'zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi to'qrisida»gi PF-5468 farmoni soliq siyosatida yangi sahifa ochdi. Yangi soliq konsepsiyasi bu safar tor doirada, sokin kabinetlarda qabul qilinmadi. Aksincha, 3 oy davomida jamoatchilik muhokamasiga qo'yildi. Ommaviy axborot vositalari, televideniya, radio va ijtimoiy tarmoqlarda juda ko'p bahslar bo'ldi. Minglab taklif va munozaralar bildirildi.

O'zbekiston Respublikasi soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasida soliqqa tortish tizimini tubdan isloh etish, shu jumladan, soliqlar va majburiy to'lovlarni qisqartirish, samarasiz soliq imtiyozlarini bekor qilish ko'zda tutilgan. Qulay raqobatli muhit yaratish, soliqqonunchiligi barqarorligi va soddalashtirilishini ta'minlash, soliq yuklamasini kamaytirish, respublikamizning investitsion jozibadorligini oshirish hamda soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish konsepsiyaning asosiy maqsadlari hisoblanadi.

Muhokamalar davomida ishtirokchilar, soliq siyosatini takomillashtirish yo'lida ushbu konsepsiyada ko'zda tutilgan yechimlarni ko'rib chiqib, farmonda belgilab berilgan tizimli muammolarga batafsil to'xtalib o'tdilar va bir necha soliqlar stavkalarini pasaytirishtirishni asoslab berdilar. Bu esa O'zbekiston Respublikasi

Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasining 2019 yildagi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to‘g‘risida”gi 2018 yil 24 dekabrda PQ-4086-sonli qarorida, 2019 yil 9 dekabrda O‘RQ-589-sonli 2020 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risidagi q‘onunida va 2019 yil 30 dekabrda O‘zbekiston Respublikasining «2020 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida»gi q‘onuni ijrosini ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida PQ-4555-qarorlarida o‘z aksini topdi. Soliq kodeksiga bir necha qo‘shimchalar va o‘zgartirishlar kiritildi.

Soliqlar va yigimlar tarkibi 2018, 2019, 2020 yillar uchun taqdim etiladi.

Oldingi tahrirdagi Soliq kodeksining 23-moddasiga ko‘ra 2018 yilda 2019 yilgacha:

I. Soliqlar tarkibiga quyidagilar kirar edi:

- 1) Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i;
- 2) jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i;
- 3) qo‘shilgan qiymat solig‘i;
- 4) aksiz solig‘i;
- 5) yer qa‘ridan foydalanuvchilar uchun soliqlar va maxsus to‘lovlar;
- 6) suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq.
- 7) mol-mulk solig‘i;
- 8) yer solig‘i;
- 9) obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig‘i;
- 10) transport vositalariga benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq

II. Majburiy to‘lovlarga quyidagilar kirar edi:

- 1) ijtimoiy jamg‘armalarga majburiy to‘lovlar:
 - yagona ijtimoiy to‘lov;
 - fuqarolarning byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasiga sug‘urta badallari;
 - byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasiga majburiy ajratmalar;
- 2) Respublika yo‘l jamg‘armasiga majburiy to‘lovlar:
 - Respublika yo‘l jamg‘armasiga majburiy ajratmalar;
 - Respublika yo‘l jamg‘armasiga yig‘imlar;
 - Byudjetdan tashqari Umumta‘lim maktablari, kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar va tibbiyot muassasalarini rekonstruktsiya qilish, mukammal ta‘mirlash va jihozlash jamg‘armasiga majburiy ajratmalar;
- 3) davlat boji;
- 4) bojxona to‘lovlari;
- 5) ayrim turdagi tovarlar bilan chakana savdo qilish va ayrim turdagi xizmatlarni ko‘rsatish huquqi uchun yig‘im.

III. Soliq solishning soddalashtirilgan tartibida to‘lanadigan soliqlar:

- 1) yagona soliq to‘lovi;
- 2) yagona yer solig‘i;
- 3) tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari bo‘yicha qat‘iy belgilangan soliq.

Oldingi tahrirdagi Soliq kodeksining 23-moddasiga ko‘ra 2019 yilda:

I. Soliqlar tarkibiga quyidagilar kiritildi:

- 1) Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i;
- 2) jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i;
- 3) qo‘shilgan qiymat solig‘i;
- 4) aksiz solig‘i;
- 5) yer qa‘ridan foydalanuvchilar uchun soliqlar va maxsus to‘lovlar;
- 6) suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq.
- 7) mol-mulk solig‘i;
- 8) yer solig‘i;

(9 band -obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig‘i- *Bu soliq 2018 yildan boshlab Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i tarkibiga qo‘shildi,O‘zbekiston Respublikasining 2017 yil 29 dekabrda O‘RQ-454-sonli Qonuniga asosan chiqarilgan— Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 01.01.2018 y., 03/18/454/0493-son ;*

(10 band-benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq- *Bu soliq O‘zbekiston Respublikasining 2018 yil 24 dekabrda 508-sonli Qonuniga asosan chiqarilgan;*

II. Majburiy to‘lovlarga quyidagilar kiritildi:

Boshqa majburiy to‘lovlar jumlasiga quyidagilar kiradi:

- 1) davlat maqsadli jamg‘armalariga majburiy to‘lovlar:
 - a) yagona ijtimoiy to‘lov;

(byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasiga fuqarolarning sug‘urta badallari- *Bu to‘lov O‘zbekiston Respublikasining 2018 yil 24 dekabrda O‘RQ-508-sonli Qonuniga asosan chiqarilgan;*)

b) Avtotransport yig‘imlari (Respublika yo‘l jamg‘armasiga yig‘imlar o‘rniga);

- 2) davlat boji;
- 3) bojxona to‘lovlari;

4) ayrim turdagi tovarlar bilan chakana savdo qilish va ayrim turdagi xizmatlarni ko‘rsatish huquqi uchun yig‘im.

III. Soliq solishning soddalashtirilgan tartibida to‘lanadigan soliqlar:

- 1) yagona soliq to‘lovi;
- 2) yagona yer solig‘i;
- 3) tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari bo‘yicha qat‘iy belgilangan soliq.

2020 yilda yangi tahrirdagi Soliq kodeksining 17-moddasida O‘zbekiston Respublikasi hududida soliqlar va yig‘imlarning quyidagi turlari belgilandi:

I. Soliqlar tarkibiga quyidagilar kiritildi:

- 1) qo‘shilgan qiymat solig‘i;
- 2) aksiz solig‘i;
- 3) foyda solig‘i;

- 4) jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i;
- 5) yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq;
- 6) suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;
- 7) mol-mulk solig'i;
- 8) yer solig'i;
- 9) ijtimoiy soliq.

II. Yig'implarga quyidagilar kiritildi:

1) **Avtotransport yig'imini** hisoblab chiqarish va to'lash tartibi ushbu Kodeks bilan tartibga solinadi.

Davlat bojini hisoblab chiqarish va undirish tartibi davlat boji to'g'risidagi qonun hujjatlarida belgilanadi.

III. Maxsus soliq rejimlari belgilandi(18-modda):

1) aylanmadan olinadigan soliq;

2) mahsulot taqsimotiga oid bitimlar ishtirokchilariga soliq solishning alohida tartibi;

3) maxsus iqtisodiy zonalar ishtirokchilariga va ayrim toifadagi soliq to'lovchilarga soliq solishning alohida tartibi.

Maxsus iqtisodiy zonalar ishtirokchilariga va ayrim toifadagi soliq to'lovchilarga soliq solishning alohida tartibi qonun hujjatlarida yoki investitsiya bitimlarida nazarda tutilgan investitsiyalarni amalga oshirish hamda boshqa shartlarni bajarish bilan bog'liq holda muayyan muddat uchun belgilanadi.

Maxsus soliq rejimlari ayrim soliqlarni to'lashdan ozod etishni, pasaytirilgan soliq stavkalarini va boshqa soliq imtiyozlarini qo'llashni nazarda tutishi mumkin.

Soliqlarning mamlakat rivojida o'rni katta. Shuning uchun Respublikamizda soliq siyosatini takomillashtirish, soliq yukini kamaytirish borasida bir qancha ishlar amalga oshirilyapti.

3-jadval.

O'zbekistonda soliq stavkalarining pasaytirilishi (%)

Soliq va boshqa majburiy to'lovlar turi	2000 yil	2016 yil	2017 yil	2018 yil	2019 yil	2020yil
Yuridikshaxslardan olinadigan anfovdasolig'i	31	7,5	7,5	14	12	15
Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i	15%, 25%, 36%, 40%	0%,7,5%,17%, 23%	0%,7,5%,17%, 23%	0%,7,5%,16,5%, 22,5%	12	12
yagona soliq to'lovi-2020yildan aylanmadan olinadigan soliq	15	5	5	5	4	4
Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	4,0	5,0	5	5	2	2
Yagona ijtimoiy to'lov-2020yildan ijtimoiy soliq:						
a) Davlat va byudjet korxonalari	40	25	25	25	25	25
b) Boshqa to'lovchilar		15	15	15	12	12

2018 yil 22 yanvarda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5308-sonli farmoniga asosan 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha harakatlar strategiyasini **«Faol tadbirkorlik, innovatsion g‘oyalar va texnologiyalarni qo‘llab-quvvatlash yili»da amalga oshirishga oid Davlat dasturi** qabul qilindi.

Dasturda

- iqtisodiy sohada keng ko‘lamli o‘zgarishlar amalga oshirilganligi, eng avvalo, O‘zbekistonning o‘z majburiyatlarini bajarish va chet el hamkorlarining daromadlarini repatriatsiya qilish, mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish uchun shart-sharoitlarni ta‘minlovchi milliy valyuta erkin konvertatsiyasining joriy etilganligi bu borada muhim qadam bo‘lganligi;

- davlat byudjetini shakllantirishning tamomila yangi printsiplari va mexanizmlari joriy etilganligi, uning daromad va xarajatlari shaffofligini ta‘minlash bo‘yicha chora-tadbirlar amalga oshirilganligi;

- davlat aktivlarini boshqarishning samaradorligini oshirish va byudjetning daromad qismini ko‘paytirishga qaratilgan ishga solinmagan zaxiralardan foydalanish choralari ko‘rilganligi;

- birinchi bosqichda — uzoq muddatli (10-15 yilga mo‘ljallangan) tarmoq, hududiy va maqsadli rivojlanish kontseptsiyalarini ishlab chiqish hamda tasdiqlash, ikkinchi bosqichda — tarmoq, hududiy va maqsadli loyihalar portfellarini tuzish, uchinchi bosqichda — rivojlanish davlat dasturlarini shakllantirishni nazarda tutuvchi O‘zbekiston Respublikasining rivojlanish davlat dasturlarini shakllantirishning mutlaqo yangi tartibi tasdiqlanganligi ta‘kidlandi.

Dasturda ta‘kidlandi: Belgilab qo‘yilsinki:

- a) quyidagilar 2023 yil 1 yanvarga qadar muddatga yagona ijtimoiy to‘lovdan tashqari, barcha turdagi soliq va majburiy to‘lovlar to‘lashdan ozod qilinadi:

- yuqori texnologiyali tadbirkorlik loyihalari-startaplarni birgalikda moliyalashtirish uchun tashkil qilinadigan venchur fondlar;

- venchur fondlardan birgalikda moliyalashtiriladigan yuqori texnologiyali loyihalar-startaplar;

- ilmiy-tadqiqot muassasalari, innovatsion markazlar, loyiha-konstruktorlik byurolari o‘zlarining yangi texnologiyalarini tadbirkorlarga sotishdan (foydalanishga berishdan) olingan daromadlar bo‘yicha;

- yangi texnologiyalarni mahalliy tadbirkorlikka transfer qiluvchi tashkilotlar bu faoliyatdan olingan daromatlari bo‘yicha

Dasturda Iqtisodiyotni rivojlantirish va faol tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlashning ustuvor yo‘nalishlari quyidagicha belgilandi:

- Ilg‘or g‘oya, nou-xaular yaratish va «aqli» texnologiyalarni ishlab chiqarishga ixtisoslashgan iqtisodiyotning yangi modeliga bosqichma-bosqich o‘tish

- Mahalliy mahsulotlar eksport hajmini oshirish, xorijiy investitsiyalarni keng jalb qilish, mamlakatning investitsion va turistik jozibadorligini oshirish bo'yicha Tashqi Ishlar Vazirligi faoliyatini kuchaytirish.

- mamlakat ichki bozorida iste'mol tovarlari va xizmatlar bo'yicha narxlarning keskin oshishini oldini olish

- Innovatsion texnologiyalarni keng qo'llagan holda yetakchi xorijiy to'lov tizimlari bilan integratsiyalashgan zamonaviy chakana to'lov tizimlarini rivojlantirish

- Kichik korxonalarni tez sur'atlarda rivojlanib, ishchilar sonini ko'paytirishi hamda yirik korxonalar toifasiga o'tishini rag'batlantiruvchi tizim joriy etish.

- Soliq yukini kamaytirish va soddalashtirish, shu asosda ishlab chiqarishni va soliqqa tortiladigan bazani kengaytirish

- Erkin raqobat muhitini yaratish, narxlarning barqarorligi va imtiyozlarning manzilliligini ta'minlash maqsadida imtiyozlarni individual tartibda berish amaliyotidan voz kechish, ularni ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishning alohida turlari uchun joriy etish.

- Soliq ma'muriyatchiligi va nazoratini tashkil etish tartibi va metodologiyasini tubdan takomillashtirish, ushbu tizimni ilg'or xalqaro standartlar talablariga muvofiqlashtirish

- Bojxona nazoratida xavfni boshqarish tizimini joriy qilish.

5.2.Soliqlar va ularning guruhlanishi. Soliq to'lovchilarning huquq va majburiyatlari

O'zbekiston soliq tizimida soliqlarni ob'yekti va iqtisodiy mohiyati bo'yicha guruhlariga ajratib o'rganish mumkin. Soliqlar **soliq solish ob'yektiga** qarab to'rt guruhga bo'linadi:

- 1.Oborotdan-aylanmadan olinadigan soliqlar;
- 2.Daromaddan olinadigan soliqlar;
- 3.Mol-mulk qiymatidan olinadigan soliqlar;
- 4.Yer maydoniga qarab olinadigan soliqlar.

Oborotdan olinadigan soliqlarga QQS, aksiz solig'i, bojxona boji va yer qa'ridan foydalanganlik uchun olinadigan soliqlar kiradi. Lekin oborot (aylanma) tushunchasi bizning qonunchiligimiz bo'yicha ilgarigidek mahsulot realizatsiyasi oborotidan emas, balki yuklab yuborilgan mahsulotlar qiymati bilan o'lchanadi. Yalpi tushumdan olinadigan aylanmadan olinadigan soliqto'lovi ham oborotdan olinadigan soliqlarga kiradi.

Daromaddan olinadigan soliqlarga yuridik shaxslarning foydasiga solinadigan soliq, jismoniy shaxslarning daromadiga solinadigan soliq, ixtisoslashtirilgan ulgurji savdo korxonalarining yalpi daromadidan olinadigan soliq kiradi.

Mol-mulk qiymatidan olinadigan soliqlarga yuridik va jismoniy shaxslarning mol-mulk solig'i kiradi.

Yer maydonlaridan olinadigan soliqlarga qishloq xo‘jalik tovar ishlab chiqaruvchilarining yer solig‘i va yuridik (noqishloq xo‘jalik) va jismoniy shaxslarning yer soliqlarini kiritish mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi hududida umumdavlat soliqlari va boshqa majburiy to‘lovlar hamda mahalliy soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar amal qiladi. Soliqlar **umumdavlat va mahalliy soliqlarga** bo‘linadi. Mahalliy soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarga quyidagilar kiradi:

1) mol-mulk solig‘i;

2) yer solig‘i;

3) *(obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig‘i- yuridik shaxlardan olinadigan foyda tarkibiga qo‘shildi) ;*

4) *(jismoniy shaxslardan transport vositalariga benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq- bekor qilindi);*

5) ayrim turdagi tovarlar bilan chakana savdo qilish va ayrim turdagi xizmatlarni ko‘rsatish huquqi uchun yig‘im;

Mahalliy soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar to‘lovchisi bo‘lib O‘zbekiston Respublikasi soliq qonunchiligi hujjatlariga muvofiq, mulkchilik shaklidan qat‘iy nazar yuridik va jismoniy shaxslar hisoblanadi.

Mol-mulk solig‘i va yer solig‘i O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga binoan joriy etiladi va uning butun hududida undiriladi.

Ushbu soliqlar stavkalarining miqdori O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori asosida belgilanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi O‘zbekiston Respublikasining butun hududida ayrim mahalliy soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni umumiy, qat‘iy stavkalarda belgilashi mumkin.

Mahalliy soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar stavkalari soliq to‘lovchilarga Moliya vazirligi, Davlat soliq qo‘mitasi va uning quyi organlari tomonidan belgilangan tartibda yetkaziladi.

Ayrim turdagi tovarlar bilan chakana savdo qilish va ayrim turdagi xizmatlarni ko‘rsatish huquqi uchun yig‘imlarning miqdorlari, ularni undirish tartibi, ular bo‘yicha qo‘shimcha imtiyozlar taqdim etish Qoraqalpog‘iston Respublikasi davlat hokimiyati organlari va viloyatlar hamda Toshkent shahar xalq deputatlari kengashlari tomonidan amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq belgilanadi.

Yuridik shaxslar tomonidan byudjet bilan hisob-kitoblar hisobi byudjetga to‘lovlar bo‘yicha qarzar hisobi hisobvaraqlarida mahalliy soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar har bir turi bo‘yicha yuritiladi.

Mahalliy soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning o‘z vaqtida to‘lanishi, mahalliy soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya qilinishi uchun javobgarlik soliq va boshqa majburiy to‘lovlarni to‘lovchilar zimmasiga yuklanadi.

Mahalliy soliq va boshqa majburiy to'lovlarni to'lanishining tasdig'i bo'lib amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq bank muassasasi yoki vakolatli organ bergan hujjat hisoblanadi.

Soliqlarning umumdavlat va mahalliy soliqlarga bo'linishi hukumat idoralarining respublika hukumati va mahalliy hukumatlarga bo'linishi asosida kelib chiqadi. Har bir hokimiyat idoralari o'zlarining bajaradigan muhim vazifalaridan kelib chiqib, o'z byudjetiga va uni ta'minlaydigan soliqlarga va boshqa majburiy to'lovlarga ega bo'lishi kerak. Respublika hukumati umumdavlat miqyosida katta vazifalarni, jumladan, sog'liqni saqlash, maorif, fan, mudofaa, xavfsizlikni saqlash, aholini ijtimoiy himoyasini tashkil etish va boshqa bir qator shu kabi strategik vazifalarni bajaradi. Shuning uchun uning byudjeti ham soliqlari ham salmoqli bo'lishni talab etadi. Qo'shilgan qiymat solig'i, aksiz solig'i, yuridik shaxslarning foydasidan olinadigan soliq, yer qa'ridan foydalanuvchilar uchun soliqlar va maxsus to'lovlar, jismoniy shaxslar daromadidan olingan soliqlar respublika byudjetiga tushadi. Umumdavlat soliqlarining muhim xususiyati shundaki, respublika byudjetiga tushadigan soliqlardan mahalliy byudjetlarni boshqarib borish uchun ajratma sifatida tushushi mumkin. Bordi-yu, ajratma yetmasa subvensiya yoki subsidiya beriladi. Umumdavlat va mahalliy soliqlar yagona mohiyatga ega bo'lib, ular byudjetga to'lanishi lozim bo'lgan to'lovlar hisoblanadi.

Mahalliy soliqlar hukumatlar bajaradigan vazifalariga qarab belgilanib, ularga doimiy va to'liq biriktirib beriladi. Mahalliy xokimiyat organlari asosan fuqarolarga yaqin bo'lganligidan ularga ijtimoiy masalalarni, jumladan, maktab, sog'liqni saqlash, madaniyat, maorif, shahar va qishloqlar obodonchiligi kabi vazifalarni bajaradi. Lekin bu soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar ularning byudjet xarajatlarining 30-40 foizini qoplaydi, xolos.

Shuning uchun ham mahalliy byudjetlar daromadlarini ko'paytirish eng dolzarb masalalardan hisoblanadi. Mahalliy soliqlarning muhim xususiyati shundaki ular faqat shu hududning byudjetiga tushadi va ulardan boshqa byudjetlarga ajratmalar berilmaydi.

Mahalliy byudjetlarning soliq va boshqa majburiy to'lovlari kam bo'lganligidan bu byudjetlarning daromadlar va xarajatlarini barqarorlashtirish (balanslashtirish) ancha murakkabdir. Bu masalani yechishda umumdavlat soliqlaridan ajratmalar beriladi (masalan, qo'shilgan qiymat solig'idan, aksiz solig'idan va boshqalar).

Iqtisodiy mohiyatiga **qarab soliqlar bevosita(to'g'ri) va bilvosita(egri)soliqlarga** bo'linadi. Bevosita soliqlarni to'g'ridan-to'g'ri soliq to'lovchilarning o'zi to'laydi, ya'ni soliqni huquqiy to'lovchisi ham, haqiqiy to'lovchisi ham bitta shaxs bo'ladi. To'g'ri soliq yukini boshqalar zimmasiga yuklatish holati bu yerda bo'lmaydi. Bu soliqlar tarkibiga barcha daromaddan to'lanadigan soliqlar va mol-mulk (resurs) soliqlari kiradi.

Bevosita soliqlardan to'g'ridan - to'g'ri daromaddan soliq to'langanligi uchun soliqlar stavkasining kamaytirilishi korxonalar daromadining ko'p qismini ularga qoldirib, investitsiya faoliyatini kengaytirish imkonini yaratib, bozor iqtisodiyotini

rivojlantiradi. Bu soliqlarning stavkalari oshirilsa, korxonalarning moliyaviy imkoniyatlari kamaya boradi va oxir-oqibatda mamlakat iqtisodiy rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Demak, bu guruh tarkibiga kiruvchi soliqlarning stavkalari to'g'ridan-to'g'ri iqtisodiy rivojlanish bilan bevosita bog'liqdir.

Bilvosita soliqlarni huquqiy to'lovchilari mahsulot (ish, xizmatni) yuklab yuboruvchilar hisoblanadi. Lekin, soliq og'irligini haqiqatdan ham byudjetga to'lovchilari tovar (ish, xizmat)ni iste'mol qiluvchilardir, ya'ni bilvosita soliqlarning barchasi bevosita iste'molchilar zimmasiga tushadi. Bu soliqlar tovar (ish, xizmat) qiymati ustiga qo'shimcha ravishda qo'yiladi.

Bilvosita soliqlarning ijobiy tomoni shundaki, ular respublikada ishlab chiqarilgan tovarlarni respublikadan tashqariga chiqib ketishini chegaralaydi, mamlakat ichida tovarlarning serob bo'lishiga yordam beradi hamda inflyatsiya darajasini (muomaladagi ortiqcha pul massasini) birmuncha jilovlab turadi. Bilvosita soliqlar stavkasining asosli ravishda oshirilishi korxonalar faoliyatining moliyaviy yakuniga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir etmaydi, ya'ni investitsion faoliyatini qisqartirmaydi. Ammo soliq stavkasi ilmiy asoslanmasdan oshirib yuborilsa bunday holatda korxonalar o'z tovarlarini sotish qiyinchiligiga duch kelishlari mumkin.

Jahon soliq amaliyotida Davlat byudjeti daromadlari tarkibida to'g'ri va bilvosita soliqlarning nisbatiga qarab u yoki bu mamlakat iqtisodiyotining rivojlanganlik darajasiga baho berish mumkin. Masalan, AQSHda byudjet daromadlari tarkibida to'g'ri soliqlar salmog'ining 90 foizga yaqin bo'lishi bu mamlakat iqtisodiyotining yuqori darajada rivojlanganligidan darak beradi.

Soliq tizimining huquqiy asoslari, soliq to'lovchilarning huquq va majburiyatlari

O'zbekiston Respublikasida soliq tizimining huquqiy asoslari, soliq to'lovchilarning huquqlari hamda majburiyatlari, soliq ishlarini yuritish tartiboti va soliq haqidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlik Soliq kodeksi, O'zbekiston Respublikasining "Davlat soliq xizmati to'g'risida"gi qonuni va shu kabi bevosita soliqqa oid qonun hujjatlari orqali tartibga solib turiladi.

Soliq haqidagi qonun hujjatlarining boshqa qonunlar va qonun hujjatlaridan o'rin olgan normalari soliq kodeksiga muvofiq bo'lishi lozim. Agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida Soliq kodeksidan boshqacha qoidalar belgilangan yoki nazarda tutilgan bo'lsa, unda xalqaro shartnoma qoidalarida belgilangan shartlar amalda qo'llaniladi.

Soliq solish – yuridik shaxslarga nisbatan mulkchilik shaklidan qat'iy nazar, qonun oldida tenglik, jismoniy shaxslarga nisbatan esa jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan qat'iy nazar, qonun oldida tenglik asosida amalga oshiriladi.

Belgilanayotgan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar tovarlarning (ishlar, xizmatlarning) yoki pul mablag'larining O'zbekiston Respublikasi hududi doirasida erkin muomalada bo'lishini bevosita yoki bilvosita cheklab qo'yishi yoxud soliq to'lovchining iqtisodiy faoliyatini boshqacha tarzda cheklab qo'yishi yoki unga g'ov bo'lishi mumkin emas. Olingan manbalaridan qat'iy nazar, barcha daromadlarga soliq solinishi lozim, soliq imtiyozlarini belgilashda esa albatta ijtimoiy adolat printsiplariga rioya etilishi kerak.

O'zbekiston Respublikasi hududida soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar O'zbekiston Respublikasining pul birligi-so'mda hisoblab chiqariladi.

Amaldagi soliq kodeksiga ko'ra soliq to'lovchilar qu'yidagi huquqlarga egadirlar:

- soliq organlaridan va boshqa vakolatli organlardan (ularning vakolatlari doirasida) amaldagi soliqlar to'g'risida, soliq to'g'risidagi qonun hujjatlaridagi o'zgarishlar haqida, soliqlarni hisoblab chiqarish va to'lash tartibi to'g'risida axborotni, soliq hisobotining va arizalarning shakllarini, shuningdek ularni to'ldirish tartibi haqida tushuntirishlarni bepul olish;
- o'z soliq majburiyatlarini bajarish yuzasidan soliq organlarida va boshqa vakolatli organlarda mavjud bo'lgan ma'lumotlarni olish;
- ushbu Kodeksda belgilangan asoslar mavjud bo'lganda va tartibda soliq imtiyozlaridan foydalanish yoxud ulardan foydalanishni rad etish;
- soliqlar, penyalari va jarimalarning ortiqcha to'langan yoki ortiqcha undirilgan summalarini o'z vaqtida hisobga o'tkazish yoki qaytarish;
- ushbu Kodeksda belgilangan tartibda va shartlarda soliqlarni to'lashni kechiktirish yoki bo'lib-bo'lib to'lash;
- soliq solish ob'ektlarini hisobga olishda, soliqlarni hisoblab chiqarish va to'lashda o'zlari yo'l qo'ygan xatolarni mustaqil ravishda tuzatish;
- ushbu Kodeksga muvofiq o'z hududida o'tkaziladigan sayyor soliq tekshiruvini va soliq auditini o'tkazish chog'ida hozir bo'lish;
- sayyor soliq tekshiruvi va soliq audit materiallari bilan tanishish, shuningdek ushbu tekshiruvlarning dalolatnomalarini olish;
- soliq tekshiruvini amalga oshiruvchi soliq organlariga soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarining ijrosiga taalluqli masalalar bo'yicha tushuntirishlar berish;
- soliq organlari va boshqa vakolatli organlarning hamda ular mansabdor shaxslarining ushbu Kodeksga va (yoki) soliq to'g'risidagi boshqa qonun hujjatlariga muvofiq bo'lmagan talablarini bajarmaslik;
- soliq organlari va boshqa vakolatli organlarning normativ tusga ega bo'lmagan hujjatlari hamda qarorlari, ular mansabdor shaxslarining harakatlari (harakatsizligi) ustidan belgilangan tartibda shikoyat qilish;
- soliq organlari va boshqa vakolatli organlarning qonunga xilof qarorlari yoki ular mansabdor shaxslarining noqonuniy harakatlari (harakatsizligi) tufayli yetkazilgan zararlarning o'rni qoplanishini belgilangan tartibda talab qilish;
- ushbu Kodeksda nazarda tutilgan hollarda, soliq tekshiruvi materiallarini yoki soliq organlarining boshqa hujjatlarini ko'rib chiqish jarayonida ishtirok etish;

- soliq munosabatlari masalalariga oid o'z manfaatlarini shaxsan yoxud soliq maslahatchilari tashkiloti yoki boshqa o'z vakillari orqali ifodalash;
- soliq siriga rioya etish va uni saqlash.

Soliq to'lovchilar ushbu Kodeksda va soliq to'g'risidagi boshqa qonun hujjatlarida belgilangan o'zga huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

Soliq to'lovchining soliq munosabatlarida shaxsan ishtirok etishi uni vakilga ega bo'lish huquqidan mahrum etmaydi, xuddi shuningdek vakilning ishtirok etishi soliq to'lovchini bunday munosabatlarda shaxsan ishtirok etish huquqidan mahrum etmaydi.

Soliq to'lovchilarning huquqlari soliq organlari va boshqa vakolatli organlar mansabdor shaxslarining tegishli majburiyatlari bilan ta'minlanadi.

Soliq to'lovchilarning huquqlarini ta'minlashga oid majburiyatlarni bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlarida nazarda tutilgan javobgarlikka sabab bo'ladi.

Soliq to'lovchilarning majburiyatlari

Soliq to'lovchilar:

- belgilangan soliqlar va yig'implarni o'z vaqtida hamda to'liq hajmda hisoblab chiqarishi va to'lashi;
- hujjatlarni ko'rib chiqish yoki tushuntirishlar berish zaruriyati to'g'risida chaqiruv xatini olganida soliq organiga kelishi;
- tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishda xaridorga hisobvaraqq-fakturalarni, cheklarni yoki ularga tenglashtirilgan boshqa hujjatlarni berishi;
- soliq tekshiruvini o'tkazayotgan soliq organlarining mansabdor shaxslariga soliqlarni hisoblab chiqarish va to'lash uchun asos bo'lib xizmat qiladigan hujjatlar, shuningdek elektron manbalarda saqlanadigan tegishli axborot bilan tanishish imkoniyatini ta'minlashi;
- soliq organlari va boshqa vakolatli organlarning qonuniy talablarini bajarishi, ko'rsatilgan organlarning va ular mansabdor shaxslarining qonuniy faoliyatiga to'sqinlik qilmasligi;
- agar ushbu Kodeksda boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, soliq hisobotlarining va soliqlarni hisoblab chiqarish hamda to'lash uchun zarur bo'lgan boshqa hujjatlarning tegishli soliqlarni to'lash uchun belgilangan kalendar yildan keyingi besh yil mobaynida but saqlanishini ta'minlashi;
- o'zi soliq bo'yicha hisobga olingan joydagi soliq organlarini O'zbekiston Respublikasi yuridik shaxslaridagi va chet el yuridik shaxslaridagi ishtiroki to'g'risida, agar ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) ulushi 10 foizdan ortiq bo'lsa, xabardor etishi shart.

Yuridik shaxs bo'lgan soliq to'lovchilar ushbu moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan majburiyatlardan tashqari, o'zlari hisobga olingan joydagi soliq organlariga o'zlarining barcha alohida bo'linmalari to'g'risida va alohida bo'linmalarga oid ilgari xabar qilingan ma'lumotlaridagi o'zgarishlar to'g'risida alohida bo'linma tashkil etilgan yoki mazkur ma'lumotlar o'zgartirilgan kundan e'tiboran bir oy ichida xabar qilishi shart.

Ushbu Kodeks bilan zimmasiga soliq hisobotini elektron shaklda taqdim etish majburiyati yuklatilgan shaxslar soliq organlari tomonidan soliq to'g'risidagi qonun hujjatlari bilan tartibga solinadigan munosabatlardagi o'z vakolatlarini amalga

oshirish chog'ida foydalaniladigan hujjatlarning soliq organidan telekommunikatsiya aloqa tarmoqlari orqali elektron shaklda olinishini ta'minlashi kerak.

Nazorat savollari:

1. Soliqqa tortish ob'yektiga qarab soliqlar qanday guruhlanadi?
2. Soliq tizimi deganda nimani tushunasiz.
3. Oborotdan olinadigan soliqlarga qaysi soliqlar kiradi?
4. Daromaddan olinadigan soliqlarga qaysi soliqlar kiradi?
5. Mol-mulk va yer maydonlaridan olinadigan soliqlarga qaysi soliqlarni kiritish mumkin?
6. Soliqlar iqtisodiy mohiyatiga qarab qanday guruhlanadi?
7. To'g'ri soliqlar tarkibiga qanday soliqlar kiradi va u nima uchun to'g'ri soliq deb ataladi?
8. Bilvosita soliqlar tarkibiga qanday soliqlar kiradi?
9. Bilvosita soliqlarning ijobiy va salbiy tomonlarini ko'rsating?
10. Yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlarning farqi nimadan iborat?
11. Jismoniy shaxslar to'laydigan soliqlarning o'ziga xos xususiyatlari nima?
12. Soliq to'lovchilar qanday huquqlarga ega?
13. Soliq to'lovchilar qanday majburiyatlarga ega?

6-MAVZU.SOLIQ SOLISHNING SODDALASHTIRILGAN TARTIBI.

Reja:

- 6.1.** Yagona soliq to'lovi.
- 6.2.** Qat'iy belgilangan soliq.
- 6.3.** Qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari uchun yagona yer solig'i.

Tayanch iboralar: Yagona soliq to'lovi, aylanmadan soliq, qat'iy belgilangan soliq, yagona yer solig'i, YATT lar uchun jismoniy shaxslardan olinadigan qat'iy belgilangan daromad solig'i.

6.1. Yagona soliq to'lovi .

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 15 apreldagi 159-son "Kichik korxonalar uchun ixchamlashgan soliqqa tortish tizimiga o'tishni qo'llash to'g'risida" gi qaroriga asosan mikrofirma va kichik korxonalar soliqqa tortishning umumbelgilangan tartibidan soddalashtirilgan, ya'ni ixchamlashtirilgan soliq rejimiga o'tkazildi. Bunda kichik korxonalar uchun yagona soliq to'lash yoki umumbelgilangan tartibda soliq majburiyatlarini bajarish ixtiyoriy ekanligi qat'iy belgilandi. Kichik korxonalar uchun yagona soliqning o'rnatilishi soliq hisob-kitobini tuzishni osonlashtiradi hamda ular bir nechta soliq turi o'rniga faqatgina bitta yagona

soliq bo'yicha soliq idoralariga soliq hisob-kitobini topshirish imkoniyatiga ega bo'ldilar.

Yagona soliq to'lovi, uning to'lovchilari va to'lovchilar tarkibiga kiritish mezonlari. Mamlakatimizda kichik biznesni soliqlar vositasida qo'llab-quvvatlash borasida 2005-2007 yillar mobaynida muayyan ishlar amalga oshirildi. Shu o'rinda Respublika Prezidentining 2005 yil 20 iyundagi PF-3620 «Mikrofimalar va kichik korxonalarni rivojlantirishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Farmonini alohida ta'kidlab o'tish lozim. Unga asosan 2005 yilning 1 iyulidan boshlab mikrofirma va kichik korxonalar uchun ilgari to'lab kelingan 4 ta to'lov - yagona soliq hamda byudjetdan tashkari Pensiya jamg'armasi, Yo'l va Maktab ta'limi jamg'armalariga majburiy ajratmalar o'rniga yagona soliq to'lovi joriy etilishi kichik biznes zimmasidagi soliq yukining sezilarli darajada pasayishiga olib keldi.

Yagona soliq to'lovi, yagona yer solig'i hamda tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari bo'yicha qat'iy belgilangan soliqlar Kodeksda nazarda tutilgan jami umumbelgilangan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning o'rniga to'lanadi, soliq Kodeksning 349-moddasida sanab o'tilganlar bundan mustasno ya'ni: foyda solig'i, qo'shilgan qiymat solig'i, aksiz to'lanadigan mahsulot ishlab chiqarishda solinadigan aksiz solig'i, bojxona to'lovlari; yagona ijtimoiy to'lov, davlat bojlari, tovarlarning ayrim turlari bilan chakana savdo qilish va ayrim turdagi xizmatlar ko'rsatish huquqi uchun yig'im, davlat maqsadli jamg'armalariga majburiy ajratmalar (yagona soliq to'lovi to'lovchilar bundan mustasno), avtotransport vositalarini olganlik va (yoki) vaqtinchalik olib kirganlik uchun Respublika yo'l fondiga yig'im.

Soddalashtirilgan soliq tizimi 3-ta yo'nalish bo'yicha o'rganildi .

- 1.Yagona soliq to'lovi.
- 2.Qat'iy belgilangan soliq.
- 3.Qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari uchun yagona yer solig'i.

Yagona soliq to'lovining ob'yekti yalpi tushum, yagona yer solig'ini ob'yekti yerning normativ qiymati hamda yuridik va yakka tartibdagi tadbirkorlarga qat'iy belgilangan soliq uchun ob'ekti fizik ko'rsatkich birligiga har oyda qat'iy belgilangan soliq stavkasi (eng kam ish haqiga birlik uchun karrali miqdorlarda) hisoblanadi.

Yagona soliq to'lovi 2020 yildan boshlab aylanmadan olinadigan soliq deb o'zgartirildi.

Aylanmadan olinadigan soliq to'lovchilari va soliq solish ob'ektlari.

Aylanmadan olinadigan soliqni to'lovchilar deb quyidagilar e'tirof etiladi:

- 1) soliq davrida tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan jami daromadi bir milliard so'mdan oshmagan O'zbekiston Respublikasi yuridik shaxslari (bundan buyon ushbu bo'limda yuridik shaxslar deb yuritiladi);

2) soliq davrida tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan daromadi yuz million soʻmdan oshgan, lekin bir milliard soʻmgacha boʻlgan yakka tartibdagi tadbirkorlar.

Aylanmadan olinadigan soliq quyidagilarga nisbatan tatbiq etilmaydi:

1) Oʻzbekiston Respublikasining bojxona chegarasi orqali tovarlarni olib kirishni (importni) amalga oshiruvchi yuridik shaxslarva yakka tartibdagi tadbirkorlarga;

2) aksiz soligʻi toʻlanadigan tovarlarni (xizmatlarni) ishlab chiqaruvchi va foydali qazilmalarni kavlab olishni amalga oshiruvchi yuridik shaxslarga;

3) yuridik shaxslar – qishloq xoʻjaligi tovar ishlab chiqaruvchilariga, basharti ularda ellik gektar va undan ortiq sugʻoriladigan qishloq xoʻjaligi ekin maydoni mavjud boʻlsa;

4) benzin, dizel yoqilgʻisi va gazni realizatsiya qilishni amalga oshiruvchi yuridik shaxslarga;

5) lotoreyalarni tashkil etish boʻyicha faoliyatni amalga oshiruvchi yuridik shaxslarga;

6) oddiy shirkat ishlarini yuritish oʻz zimmasiga yuklatilgan ishonchli shaxsga – oddiy shirkat shartnomasi doirasida amalga oshirilayotgan faoliyat boʻyicha;

7) boʻsh turgan binolar, yashash uchun moʻljallanmagan inshootlar va qurilishi tugallanmagan obʼektlar, shuningdek foydalanilmayotgan ishlab chiqarish maydonlarining mulkdori boʻlgan yuridik shaxslarga, ulardan samarasiz foydalanilayotganligi boʻyicha qonunda belgilangan tartibda xulosa kiritilganda;

8) markazlashtirilgan moliyalashtirish manbalari hisobidan obʼektlarni (joriy va kapital taʼmirlash bundan mustasno) qurishni bajaruvchi yuridik shaxslarga.

Aylanmadan olinadigan soliqni qoʻllashning oʻziga xos xususiyatlari

Yangi tahrirdagi Kodeksning 461-moddasi birinchi qismi 1-bandida koʻrsatilgan soliq toʻlovchilar qoʻshilgan qiymat soligʻi va foyda soligʻini toʻlash oʻrniga aylanmadan olinadigan soliq toʻlashni nazarda tutadigan maxsus soliq rejimini tanlashga haqli.

Ushbu Kodeksning 461-moddasi birinchi qismi 1-bandida koʻrsatilgan soliq toʻlovchilar aylanmadan olinadigan soliq toʻlashga navbatdagi soliq davridan boshlab oʻtishga haqli. Aylanmadan olinadigan soliqni toʻlashga oʻtish uchun soliq toʻlovchilar aylanmadan olinadigan soliqni toʻlashga oʻtishi toʻgʻrisida soliq hisobida turgan joyidagi soliq organini Oʻzbekiston Respublikasi Davlat soliq qoʻmitasi tomonidan belgilangan shaklda, biroq aylanmadan olinadigan soliqni toʻlashga oʻtilayotgan navbatdagi soliq davri boshlanishiga qadar oʻn kundan kechiktirmay xabardor qiladi.

Ushbu Kodeksning 461-moddasi birinchi qismi 2-bandida koʻrsatilgan soliq toʻlovchilarning soliq davrida tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan daromadi yuz million soʻmdan oshganda, agar ushbu moddaning toʻrtinchi qismida boshqacha qoida nazarda tutilgan boʻlmasa, soliqning oshib ketgan summasidan aylanmadan olinadigan soliqni toʻlashga oʻtadi.

Ushbu Kodeksning 461-moddasi birinchi qismi 2-bandida koʻrsatilgan yakka tartibdagi tadbirkorlar aylanmadan olinadigan soliqni toʻlash oʻrniga qoʻshilgan

qiymat solig'ini va foyda solig'ini to'lashga o'tishga haqli. Soliq solish tartibini tanlash uchun yakka tartibdagi tadbirkorlar soliq hisobida turgan joyidagi soliq organiga tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olgan daromadlari yuz million so'mdan oshgan sanadan besh kundan kechiktirmay, O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi tomonidan belgilangan shaklda bildirishnoma yuboradi.

Bildirishnoma ushbu moddaning to'rtinchi qismida ko'rsatilgan muddatlarda taqdim etilmaganda yakka tartibdagi tadbirkor aylanmadan olinadigan soliq to'laydi.

Yangi tashkil etilgan yuridik shaxslar davlat ro'yxatidan o'tkazilgan kundan e'tiboran tadbirkorlik faoliyati sub'ektini davlat ro'yxatidan o'tkazish chog'ida tanlangan soliq solish tartibini ko'rsatish orqali aylanmadan olinadigan soliqni to'lash tartibini tanlash huquqiga ega.

Yuridik shaxslar aylanmadan olinadigan soliqni qo'llashni ushbu Kodeksning 237-moddasiga muvofiq qo'shilgan qiymat solig'ini to'lovchi sifatida ro'yxatdan o'tish uchun va bir vaqtning o'zida aylanmadan olinadigan soliqni to'lashni rad etishga doir ariza berilgan oydan keyingi oyning 1-sanasi boshlab ixtiyoriy ravishda rad etishga haqli.

Qo'shilgan qiymat solig'ini va foyda solig'ini to'lashga ixtiyoriy ravishda o'tgan soliq to'lovchilar, basharti joriy soliq davri yakunlari bo'yicha tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olgan jami daromadlari bir milliard so'mdan oshmagan bo'lsa, aylanmadan olinadigan soliqni to'lashga kamida o'n ikki oydan keyin qayta o'tishga haqli.

Soliq davri davomida tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olgan jami daromadi bir milliard so'mdan oshgan soliq to'lovchilar, shu jumladan yangi tashkil etilgan yuridik shaxslar va yangi ro'yxatdan o'tgan yakka tartibdagi tadbirkorlar bunday oshish ro'y bergan oydan keyingi oyning birinchi sanasidan boshlab qo'shilgan qiymat solig'i va foyda solig'ini to'lashga o'tadi.

Agar yangi tashkil etilgan yuridik shaxsda yoki yangi ro'yxatdan o'tgan yakka tartibdagi tadbirkorda tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan daromad summasi ro'yxatdan o'tilgan sanadan to kalendar yil tugaguniga qadar, 365 ga bo'lingan va ro'yxatdan o'tilgan sanadan to kalendar yil tugaguniga qadar bo'lgan kunlar soniga ko'paytirilganda bir milliard so'mga teng summadan oshsa, u holda bunday shaxslar ro'yxatdan o'tilgan yildan keyingi yildan e'tiboran qo'shilgan qiymat solig'i va foyda solig'ini to'lashga o'tadi.

Vositachilik, topshiriq shartnomasi va vositachilik xizmatlari ko'rsatishga oid boshqa shartnomalar bo'yicha vositachilik xizmatlari ko'rsatuvchi soliq to'lovchilar, shu jumladan telekommunikatsiyalar operatorlari va (yoki) provayderlariga vositachilik xizmatlarini ko'rsatuvchi yakka tartibdagi tadbirkorlar tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan daromadni realizatsiya qilish bo'yicha umumiy aylanmadan (bitim summalaridan) kelib chiqqan holda aniqlaydi.

Bo'sh turgan binolar, yashash uchun mo'ljallanmagan inshootlar va qurilishi tugallanmagan ob'ektlar, shuningdek foydalanilmayotgan ishlab chiqarish maydonlarining mulkdori bo'lgan yuridik shaxslar, ularni samarasiz foydalanayotganligi bo'yicha xulosa kiritilgan oydan keyingi oyning birinchi sanasidan boshlab qo'shilgan qiymat solig'ini va foyda solig'ini to'lashga o'tadi.

Qurilishi tugallanmagan ob'yektlar va foydalanilmayotgan ishlab chiqarish maydonlarining mulkdorlari bo'lgan yuridik shaxslar, investitsion loyihaning amalga

oshirilmaganligi to'g'risida xulosa berishga vakolati bo'lgan vakolatli organning xulosasi chiqarilgan oydan keyingi oyning birinchi sanasidan e'tiboran qo'shilgan qiymat solig'ini va foyda solig'ini to'lashga o'tadi.

Moliyalashtirishning markazlashtirilgan manbalari hisobidan ob'yektlar qurilishini (bundan joriy va kapital ta'mirlash mustasno) bajaruvchi yuridik shaxslar bunday qurilishga doir shartnoma rasmiylashtirilgan oydan keyingi oyning birinchi sanasidan e'tiboran qo'shilgan qiymat solig'i va foyda solig'ini to'lashga o'tadi.

Soliq solish ob'yekti

Aniqlanadigan jami daromad soliq solish ob'ektidir, bundan soliq solish chog'ida inobatga olinmaydigan daromadlar mustasno.

Soliq solish maqsadida tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan daromad deganda quyidagilar tushuniladi:

qurilish, qurilish-montaj, ta'mirlash-qurilish, ishga tushirish-sozlash, loyiha-qidiruv va ilmiy-tadqiqot tashkilotlari uchun – o'z kuchlari bilan bajarilgan, tegishincha qurilish, qurilish-montaj, ta'mirlash-qurilish, ishga tushirish-sozlash, loyiha-qidiruv va ilmiy-tadqiqot ishlarini realizatsiya qilishdan olingan daromadlar. Bunda, agar yuqorida qayd etilgan xizmatlarni materiallar bilan ta'minlash majburiyati shartnomaga binoan buyurtmachining zimmasida bo'lsa, ushbu materiallarga bo'lgan mulk huquqi buyurtmachining o'zida saqlanib qolgan taqdirda, o'z kuchlari bilan bajarilgan xizmatlarni realizatsiya qilishdan olinadigan daromadlar bajarilgan hamda tasdiqlangan xizmatlarning buyurtmachi materiallarining qiymati kiritilmagan holdagi daromadi sifatida belgilanadi;

mol-mulkni moliyaviy ijaraga (lizingga) beruvchi yuridik shaxslar uchun – moliyaviy ijara (lizing) bo'yicha foizli daromad summasi;

vositachilik va topshiriq shartnomalari hamda vositachilik xizmatlari ko'rsatishga oid boshqa shartnomalar bo'yicha vositachilik xizmatlari ko'rsatadigan yuridik shaxslar uchun – ko'rsatilgan xizmatlar uchun haq summasi;

tovarlarni (xizmatlarni) tekin beruvchi yuridik shaxslar uchun – agar ushbu moddada boshqacha qoida nazarda tutilgan bo'lmasa, tovarlarning (xizmatlarning) tannarxi yoki ularni olish bahosi (tovarni olish bilan bog'liq xarajatlarni hisobga olgan holda). Mazkur norma ekologiya, sog'lomlashtirish hamda xayriya jamg'armalariga, madaniyat, sog'liqni saqlash, mehnat, aholini ijtimoiy muhofaza qilish, jismoniy tarbiya va sport, ta'lim muassasalariga bepul beriladigan tovarlarga (xizmatlarga) nisbatan tatbiq etilmaydi;

notijorat tashkilotlarining ushbu Kodeks 318-moddasining birinchi qismida ko'rsatilmagan daromadlari.

Soliq solish ob'yekti bo'lib quyidagilar ham hisoblanadi:

1) tovarlarni (xizmatlarni) quyidagilarga:

a) ishtirokchilar tarkibidan ishtirokchi chiqqan (chiqib ketgan) taqdirda yoxud uning yuridik shaxsdagi ulushi kamaytirilganda yoki yuridik shaxs tomonidan ishtirokchidan uning ushbu yuridik shaxsda ishtirok etish ulushi (ulushning qismi) qaytarib sotib olinganda ushbu ishtirokchiga berish;

b) yuridik shaxs bo'lgan emitent tomonidan aksiyadordan ushbu emitent chiqargan aksiyalar qaytarib sotib olinganda aksiyadorga berish;

v) yuridik shaxs tugatilganda aksiyadorga yoki ishtirokchiga berish;

2) tovarlarni (xizmatlarni) jismoniy shaxs mehnatiga haq to'lash hisobidan yoki dividend to'lash hisobidan berish;

3) tovarlarni yoki boshqa mol-mulkni qayta ishlab berish uchun berish, agar tovarlar va (yoki) mulk qayta ishlash mahsuloti sifatida shartnomada belgilangan muddatda qaytarilmagan bo'lsa;

4) ko'p marta aylanadigan, sotuvchiga qaytarilishi shart bo'lgan idishlarni, agar idish mahsulotni shunday idishda etkazib berish shartnomasida belgilangan muddatda qaytarilmagan bo'lsa, berish.

Tovarlar (xizmatlar) olish huquqini taqdim etuvchi vaucherlarni realizatsiya qilish yoki bepul berish mazkur tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilish deb e'tirof etiladi.

Uzoq muddatli shartnomalar bo'yicha daromadlar ushbu Kodeksning 303-moddasida nazarda tutilgan tartibda jami daromad tarkibiga kiritiladi.

Balansning valyuta hisobvaraqlarini qayta baholash chog'ida kursdagi ijobiy va salbiy farqlar o'rtasidagi saldo soliq solish ob'ekti deb e'tirof etiladi. Kursdagi salbiy farqning summasi kursdagi ijobiy farq summasidan ortiq bo'lgan taqdirda oshib ketgan summa aylanmadan olinadigan soliqni hisoblab chiqarishda soliq bazasini kamaytirmaydi.

Soliq to'lovchilar tomonidan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i yoxud qo'shilgan qiymat solig'i va foyda solig'i to'lash davrida aylanmadan olinadigan soliqni to'lashga o'tguniga qadar olingan daromadlar jami daromadga kiritilmaydi.

Soliq bazasi

2020 yildagi yangi tahrirdagi Soliq Kodeksining 463-moddasiga muvofiq hisoblab chiqarilgan jami daromad soliq bazasi deb e'tirof etiladi, bundan quyidagilar mustasno:

1) O'zbekiston Respublikasining davlat obligatsiyalari va boshqa davlat qimmatli qog'ozlari bo'yicha daromadlar, shuningdek O'zbekiston Respublikasi rezidentlari bo'lgan yuridik shaxslarning xalqaro obligatsiyalari bo'yicha daromadlar;

2) soliq agentida soliq solinishi lozim bo'lgan dividendlar;

3) qaytariladigan ko'p marta aylanadigan tara qiymati, agar uning qiymati ilgari tovarlarni (xizmatlarni) sotishdan olinadigan daromadga kiritilgan bo'lsa;

4) amortizatsiya qilinadigan aktivlarni tugatishda ularni qo'shimcha baholashda olingan, oldingi narxni tushirishlardagi summadan ortiqcha summa hisobidan olingan daromadlar;

5) hisobot yilida aniqlangan o'tgan yillardagi daromadlar. Mazkur daromatlarga ular shakllangan davrdagi qonun hujjatlariga muvofiq soliqlar bo'yicha qayta hisob-kitob o'tkazilganligi inobatga olingan holda soliq solinadi;

6) tovarlarni (xizmatlarni) eksport qilishdan olingan daromadlar, agar tovarlarni (xizmatlarni) eksport qilishdan olingan daromadlar umumiy daromadning 15 foizidan ko'prog'ini tashkil etsa.

Soliq solinadigan baza ushbu moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan chegirmalardan tashqari quyidagilar uchun kamaytiriladi:

1) brokerlik tashkilotlari uchun – bitim summasidan birjaga o'tkaziladigan vositachilik yig'imi summasiga;

2) komissiya shartnomasi bo'yicha vositachilik xizmatlarini ko'rsatuvchi yuridik shaxslar uchun – tovarlarni import qilishda to'langan bojxona to'lovlari summasiga realizatsiya qilingan tovar ulushida;

3) turizm faoliyati sub'ektlari uchun – turistik xizmatlarni onlayn bronlashtirish va sotish uchun yaratilgan dasturiy mahsulotlarni hamda axborot tizimlarini joriy etishga yo'naltirilgan mablag'lar summasiga.

Yagona soliq to'lovi yoki aylanmadan olinadigan soliq stavkalari va imtiyozlar.

Yagona soliq to'lovi stavkalari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Qaroriga asosan belgilangan va soliq to'lovchilarga O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Davlat soliq qo'mitasi tomonidan belgilangan tartibda yetkazllilgan. Yagona soliq to'lovi Iqtisodiyotning barcha tarmoqlari korxonalari uchun 2010 yilda 7 foiz, 2011 yilda 6 foiz, 2012 yilda 5 foiz, 2019 yilda esa 4 foiz qilib belgilangan.

Quyidagi jadval ma'lumotlarida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining 2018 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to'g'risida"gi 2017 yil 29 dekabrda PQ-3454-sonli qaroriga asosan 2018 yilda va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining 2019 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to'g'risida"gi 2018 yil 26 dekabrda PQ-4086-sonli qaroriga asosan 2019 yil uchun yagona soliq to'lovi stavkalari hamda 2020 yil uchun aylanmadan olinadigan soliq stavkalarikeltirilgan.

4-jadval

2018-2019 yillarda mikrofirmalar va kichik korxonalar, savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari uchun yagona soliq to'lovi va 2020 yilda aylanmadan olinadigan soliq STAVKALARI

	To'lovchilar	Soliq stavkalari, soliq solinadigan bazaga nisbatan (%)		
		2018 yil	2019 yil	2020 yil
1	Iqtisodiyotning barcha tarmoqlari korxonalari, 2-14-bandlarda ko'rsatib o'tilganlaridan tashqari	5	4	4
2	Bojxona rasmiylashtiruv bo'yicha xizmatlarni ko'rsatadigan yuridik shaxslar (bojxona brokerlari)	5	5	5
3	Lombardlar	30	30	25
4	Konsert- tomosha faoliyati bilan shug'ullanish uchun litsenziyaga ega bo'lgan yuridik va jismoniy shaxslarni (shu jumladan, norezidentlarni) jalb etish yo'li bilan ommaviy tomosha tadbirlarini tashkil etishdan daromad oladigan yuridik shaxslar	30	5	5
5	Brokerlik idoralari (6-bandda ko'rsatilganlar bundan mustasno), shuningdek vositachilik, topshiriq shartnomasi va vositachilik xizmatlari ko'rsatishga doir boshqa shartnomalar bo'yicha vositachilik xizmatlari ko'rsatadigan yuridik shaxslar, shu jumladan telekommunikatsiya operatorlari va (yoki)	4	4	25

	provayderlariga vositachilik xizmatlarini ko'rsatuvchi yakka tartibdagi tadbirkorlar			
6	Sug'urta agentlari, shuningdek sug'urta, qimmatli qog'ozlar bozori va tovar-xom ashyo birjalarida brokerlik faoliyatini amalga oshiradigan yuridik shaxslar	13	13	13
7	Oziq-ovqat va nooziq-ovqat tovarlarini realizatsiya qilish uchun turg'un savdo shoxobchalarini ijaraga berishga ixtisoslashgan (ijaraga berishdan olinadigan daromad 60 foizdan yuqori bo'lgan) yuridik shaxslar	30	30	-
8	Lotereya o'yinlarini tashkil qilish faoliyatini amalga oshiruvchi korxonalar	33	30	
9	Asosiy faoliyati mol-mulkni ijaraga berish hisoblangan yuridik shaxslar (lizing kompaniyalari bundan mustasno)			8
10	Umumiy ovqatlanish korxonalari			
	joylashgan joyiga qarab::			
	aholisi soni yuz ming nafar va undan ko'p kishidan iborat shaharlarda	10	8	8
	boshqa aholi punktlarida	10	6	6
	borish qiyin bo'lgan va tog'li yerlarda	10	4	4
	umumta'lim maktablari, maktab-internatlar, o'rtamaksus, kasb-hunarvaoliyo'quv yurtlariga xizmat ko'rsatuvchi ixtisoslashgan umumiy ovqatlanish korxonalari	8	Joylashgan joyiga qarab, belgilangan stavka ning 75 foizi	Joylashgan joyiga qarab, belgilangan stavka ning 75 foizi
11	Chakana savdo sohasidagi soliq to'lovchilar			
	joylashgan joyiga qarab:			
	aholisi soni yuz ming nafar va undan ko'p kishidan iborat shaharlarda	4	4	4
	boshqa aholi punktlarida	2	2	2
	borish qiyin bo'lgan va tog'li yerlarda	1	1	1
	Joylashgan joyidan qat'iy nazar:			
	alkogolli mahsulotlar, tamaki mahsulotlari, benzin, dizel yoqilg'isi va suyultirilgan gazni realizatsiya qilishdan tovar aylanmasi bo'yicha	4	4	4
12	Ulgurji, shuningdek ulgurji-chakana savdoni amalga oshiradigan savdo korxonalari (11-bandda ko'rsatilganlaridan tashqari)	5	5	4
13	Quyidagi joylarda joylashgan ulgurji va chakana dorixona tashkilotlari:			
	aholisi soni yuz ming nafar va undan ko'p kishidan iborat shaharlarda	3	3	3
	boshqa aholi punktlarida	2	2	2
	borish qiyin bo'lgan va tog'li yerlarda	1	1	1
14	Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotib olish, navlarga ajratish, saqlash, qadoqlash bilan shugullanuvchi tayyorlov tashkiloti	4	4	tovar aylanmasining 4%i yoki yalpi daromadning 25%i
15	Elektron tijorat sub'yektlarining Milliy reestriga kiritilgan soliq to'lovchilar			2

16	Yagona ishtirokchisi nogironligi bo'lgan shaxslarning jamoat birlashmalari, «Nuroni» jamg'armasi va «O'zbekiston Chernobilchilari» assotsiatsiyasi bo'lgan va umumiy sonida nogironlar, urush va 1941–1945 yillar mehnat fronti veteranlari 50 foizdan kam bo'lmagan va nogironlar, urush va 1941–1945 yillar mehnat fronti veteranlarining mehnatiga haq to'lash fondi umumiy mehnatga haq to'lash fondining 50 foizidan kam bo'lmagan soliq to'lovchilar			0

Ma'lumki, 2007 yil 1 yanvardan boshlab O'zbekiston Respublikasi Prezidentining №-532 Qaroriga asosan savdo va umumiy ovqatlanish korxonalarini soliqqa tortish tizimi birmuncha soddalashtirilgan edi. Ya'ni, avvalgi soliqqa tortish tartibida savdo va umumiy ovqatlanish faoliyati bilan shug'ullanadigan korxonalar uchun belgilangan yalpi daromad solig'i, byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga, Respublika yo'l jamg'armasiga, Maktab ta'limini rivojlantirish jamg'armasiga ajratiladigan majburiy to'lovlar o'rniga yalpi tushumdan to'lanadigan yagona soliq to'lovi joriy etilgan edi.

Chakana savdo korxonalari mustaqil yuridik shaxs hisoblanmaydigan va turli aholi punktlarida joylashgan, ular bo'yicha yagona soliq to'lovining turli stavkalari belgilangan bir nechta savdo shoxobchalariga ega bo'lsa, ular tomonidan har bir savdo shoxobchasi bo'yicha tovar aylanmasining alohida-alohida hisobini yuritish hamda mazkur aholi punktlari uchun belgilangan stavkalar bo'yicha yagona soliq to'lovini to'lash tartibi saqlanib qolindi.

4.2. Qat'iy belgilangan soliq.

Jismoniy shaxslarning tadbirkorlik faoliyatining huquqiy asoslari O'zbekiston Respublikasining 2000 yil 25 mayda qabul qilingan “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida”gi qonuni hamda boshqa qonun va qonun osti me'yoriy hujjatlari asosida tartibga solinadi. Bu qonun fuqarolarning tadbirkorlik faoliyatida erkin ishtirok etishi va manfaatdorligi uchun kafolatli sharoitlar yaratish, ularning ishchanlik faolligini oshirish, shuningdek tadbirkorlik faoliyati sub'yektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishni ko'zda tutadi.

Tadbirkorlik – xo'jalik sub'yektlari va jismoniy shaxslar tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tib, tavakkalchilik va o'z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olish maqsadida amalga oshiriladigan tashabbuskorlik faoliyatidir.

Yakka tartibdagi tadbirkor - tadbirkorlik faoliyatini yuridik shaxs tashkil etmagan holda, mustaqil ravishda o'ziga mulk huquqi asosida tegishli bo'lgan mol-mulk negizida, shuningdek, mol-mulkka egalik qilish va (yoki) undan foydalanishga yo'l qo'yadigan o'zga ashyoviy huquq asosida amalga oshiruvchi jismoniy shahsdir.

Yakka tartibdagi tadbirkor O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda xodimlarni yollashga haqli.

Yakka tartibdagi tadbirkor amaldagi qonunchilikka asosan chakana savdo, maishiy xizmat ko'rsatish va boshqa turdagi 84 ta faoliyat turi bilan shug'ullanishlari hamda: chakana savdo faoliyatida 1 nafargacha; maishiy xizmat ko'rsatish faoliyatlarida 3 nafargacha; faoliyatning boshqa turlarida 2 nafargacha xodimni yollab ishlatish huquqiga ega.

Yakka tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar tushumidan olinadigan soliqni undirish mexanizmi O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining har yili qabul qilinadigan "O'zbekiston Respublikasining asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari va Davlat byudjeti prognozi to'g'risida"gi qarorlariga muvofiq belgilangan, 2020 yil uchun esa O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti to'g'risidagi 589-sonli Qonunida belgilandi.

Yakka tartibdagi tadbirkor jismoniy shaxslar 2019 yil dekabrigacha qat'iy belgilangan soliqning to'lovchilari hisoblanar edilar. **2020 yilda bu soliq Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun jismoniy shaxslardan olinadigan qat'iy belgilangan daromad solig'i deb o'zgartirildi.**

Bir kalendar yilida tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan tushumi belgilangan miqdordan oshmaydigan yakka tartibdagi tadbirkorlar **qat'iy belgilangan daromad solig'ining** to'lovchilari hisoblanadi (tushumi 100 mln.so'mgacha bo'lsa).

Bir kalendar yili davomida tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan tushumi belgilangan miqdordan oshgan yakka tartibdagi tadbirkorlar qonun hujjatlarida belgilangan miqdor oshgan oyning keyingi oyidan boshlab (tushumi 100 mln.so'mdan 1 mlrd so'mgacha bo'lsa 4 foizli)**aylanmadan olinadigan soliq to'lovini** to'lashga o'tadi.

Yuridik shaxs tashkil etmagan holda oilaviy tadbirkorlik shaklida faoliyatni amalga oshirishda oilaviy tadbirkorlik sub'yekti nomidan ish ko'radigan yakka tartibdagi tadbirkor sifatida ro'yxatdan o'tgan oila a'zosigina qat'iy belgilangan daromadsolig'ning to'lovchisi bo'ladi.

Quyidagi yakka tartibdagi tadbirkorlar qat'iy belgilangan **daromad** solig'ining to'lovchilari hisoblanmaydi:

- 1) meva-sabzavot mahsulotlari eksportini amalga oshiruvchilar;
- 2) elektron tijorat ishtirokchilarining milliy reestriga kiritilganlar

Soliq Kodeksining 370-moddasida ko'rsatilgan yakka tartibdagi tadbirkorlar yakka tartibdagi tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish doirasida qat'iy belgilangan soliq to'lash bilan bir qatorda quyidagilarni to'laydilar:

- 1) bojxona to'lovlari;
- 2) yer qa'ridan foydalanuvchilar uchun soliqlar va maxsus to'lovlar;
- 3) suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq - suv resurslaridan tadbirkorlik faoliyati uchun foydalanilganda;

- 4) aksiz solig'i - aksiz to'lanadigan mahsulot ishlab chiqarilganda;
- 5) yagona ijtimoiy to'lov;
- 6) davlat boji;
- 7) avtotransport vositalarini olganlik va (yoki) vaqtinchalik olib kirganlik uchun yig'im.

Agar yakka tartibdagi tadbirkorlar soliq solinadigan mol-mulkka va (yoki) yer uchastkasiga ega bo'lsalar, jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni va (yoki) jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'ini to'lash majburiyati ularning zimmasida saqlanib qoladi.

Soliq stavkasi.

Qat'iy belgilangan soliq to'lovchilarning barcha toifalari uchun qat'iy belgilangan soliq stavkasi yil boshiga – har yil 1 yanvar holatiga belgilangan eng kam ish haqi miqdoridanya'ni hozirgi bazaviy hisoblash miqdoridan kelib chiqib aniqlanadi va yil davomida eng kam ish haqi miqdori o'zgargan taqdirda ham qayta ko'rib chiqilmaslik tartibi saqlanib qolinadi.

Quyidagi jadval ma'lumotlarida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining 2018 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to'g'risida"gi 2017 yil 29 dekabrda PQ-3454-sonli qaroriga asosan 2018 yilda Yuridik shaxsni tashkil etmasdan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanadigan jismoniy shaxslardan olinadigan qat'iy belgilangan soliq stavkalari keltirilgan.

5-jadval

Yuridik shaxsni tashkil etmasdan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanadigan jismoniy shaxslardan olinadigan qat'iy belgilangan soliq stavkalari 2018 yil uchun

N	Faoliyat turi	Qat'iy belgilangan soliqning bir oydagi stavkasi (eng kam ish haqiga karrali miqdorlarda)			
		Toshkent shahri	Nukus shahri va Viloyatdagi markaziy shaharlar	Boshqa shaharlar	Tumanlar, shu jumladan qishloq joylari
1.	Chakana savdo:				
	oziq-ovqat va no oziq – ovqat tovarlari bilan	7,0	5,0	3,0	2,5
	dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlari bilan*	3,5	2,5	2,0	1,5
	Gazeta, jurnallar va kitob mahsulotlari bilan	3,5	2,0	1,5	0,5
2.	Maishiy xizmatlar, 3-bandda ko'rsatilganlaridan tashqari	2,5	1,5	1,0	0,5

3.	O'z mahsulotini ishlab chiqarish va sotish, shu jumladan milliy shirinliklar va non-bulka mahsulotlari tayyorlash va sotish, shuningdek uy sharoitlarida yoki davlat hokimiyati organlarining qarori bilan maxsus ajratilgan joylarda o'tirish joylari tashkil qilmasdan donalab sotiladigan ovqatlarning ayrim turlarini tayyorlash va sotish	2,0	1,5	1,0	0,5
4.	Boshqa faoliyat turlari, mol-mulkni ijaraga berishdan tashqari	2,0	1,5	1,0	0,5
6.	Avtomobil' transportida yuk tashishga oid xizmatlar:				
	3 tonnagacha yuk ko'tarish quvvatiga ega yuk avtomobillari uchun				
	8 tonnagacha yuk ko'tarish quvvatiga ega yuk avtomobillari uchun				
	12 tonnagacha yuk ko'tarish quvvatiga ega yuk avtomobillari uchun				
	12 tonnadan ortiq yuk ko'tarish quvvatiga ega yuk avtomobillari uchun				

Agar jismoniy shaxs:

- bir necha faoliyat turi bilan shug'ullansa, har bir faoliyat turi uchun alohida soliq to'laydi;

- tadbirkorlik faoliyatini ijaraga olingan uskunalar va binoda amalga oshirsa, yashash joyidagi davlat soliq xizmati organiga ijaraga beruvchi to'g'risida ma'lumotnoma (axborot) taqdim etishi shart;

- davlat ro'yxatidan o'tkazilmagan joyda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirsa, soliqni ro'yxatdan o'tkazilgan joyda va faoliyatni haqiqatda amalga oshirayotgan joyda belgilangan stavkalar orasida eng yuqori stavka bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan joyda to'laydi.

- Jismoniy shaxslarning mol-mulkni ijaraga berishdan olgan daromadlariga amaldagi belgilangan stavkalar bo'yicha jismoniy shaxslar daromadlariga soliq solinadi.

6-jadval

O'zbekiston Respublikasining 2019 yil 9 dekabrda O'RQ-589-sonli Qonuniga asosan yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining qat'iy belgilangan soliq summolari 2019-2020 yil uchun

	Faoliyat turi	Qat'iy belgilangan soliqning bir oydagi stavkasi (bazaviy hisoblashning karrali miqdorlarda) so'mda hisoblangan							
		Toshkent shahri		Nukus shahri va viloyatdagi markaziy shaharlar		Boshqa shaharlar		Tumanlar, shu jumladan qishloq joylari	
		2019 yil	2020 yil	2019 yil	2020 yil	2019 yil	2020 yil	2019 yil	2020 yil
1	Chakana savdo:								

	oziq-ovqat va nooziq – ovqat tovarlari bilan	1 000 000	750 000	750 000	600 000	400 000	300 000	300 000	200 000
	dehqon bozorlarida qishloq xo‘jaligi mahsulotlari bilan	400 000	250 000	200 000	150 000	100 000	100 000	50 000	50 000
	Gazeta, jurnallar va kitob mahsulotlari bilan	500 000	250 000	250 000	150 000	200 000	100 000	50 000	50 000
2	Maishiy xizmatlar, 3-bandda ko‘rsatilganlaridan tashqari	350 000	205 000	200 000	150 000	100 000	100 000	50 000	50 000
3	Qadoqlash uskunalaridan foydalanmagan holda uy sharoitida milliy shirinliklar, qandolat mahsulotlarini tayyorlash va sotish hamda milliy non, patir, popkorn, frezerda muzqaymoq, salqin ichimliklar, ayron, go‘ja, salatlar, tuzlamalar tayyorlash va sotish, shuningdek uy sharoitida donalab sotiladigan taomlarning ayrim turlarini tayyorlash va o‘tirish joylari tashkil qilmasdan yoki mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarori bilan ajratilgan maxsus joylarda sotish	300000	225 000	200000	150 000	100 000	75 000	50 000	50 000
4	Bolalar o‘yin avtomatlari	300 000	225 000	200 000	150 000	100 000	100 000	50 000	50 000
5	Boshqa faoliyat turlari	300 000	225 000	200 000	150 000	100 000	100 000	50 000	50 000

	Avtomobil' transportida yuk tashish xizmatlari:	
6	3 tonnagacha yuk ko'tarish quvvatiga ega yuk avtomobillari uchun	200 000- 2019 yil
		150 000- 2020 yil
	3 tonnadan ortiq yuk ko'tarish quvvatiga ega yuk avtomobillari uchun	300 000 -2019 yil
		225 000- 2020 yil

Savdo faoliyatini amalga oshiruvchi yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan qat'iy belgilangan soliqniqo'llashning o'ziga xos xususiyatlari

Savdo faoliyatini amalga oshiruvchi yakka tartibdagi tadbirkorlar daromadlarni va tovar operatsiyalarini hisobga olish registrlarida daromadlarning hamda amalga oshirilgan tovar operatsiyalarining hisobini yuritishlari shart.

Daromadlarni va tovar operatsiyalarini hisobga olish registrlari quyidagilardir:

chakana savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi yakka tartibdagi tadbirkorning daromadlarni va tovar operatsiyalarini hisobga olish daftari;

Tovar cheklari daftari.

Daromadlarni va tovar operatsiyalarini hisobga olish registrlarining shakli O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi tomonidan tasdiqlanadi.

Daromadlarni va tovar operatsiyalarini hisobga olish registrlari yakka tartibdagi tadbirkorni soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlari tomonidan yakka tartibdagi tadbirkorning arizasi asosida ro'yxatdan o'tkaziladi.

Daromadlarni va tovar operatsiyalarini hisobga olish registrlari oxirgi yozuv kiritilgan paytdan e'tiboran besh yil mobaynida yakka tartibdagi tadbirkorda saqlanadi va ular raqamlangan, ip o'tkazib bog'langan hamda tegishli davlat soliq xizmati organining muhri bilan tasdiqlangan bo'lishi kerak.

Yakka tartibdagi tadbirkor faoliyati to'g'risidagi hisobotlar soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga:

savdo faoliyatini amalga oshiruvchi yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan, bundan tijorat faoliyati uchun mo'ljallangan tovarlar olib kiradigan yakka tartibdagi tadbirkorlar mustasno, - yilning har bir choragi yakunlari bo'yicha hisobot choragidan keyingi oyning 10-kunidan kechiktirmay;

tijorat faoliyati uchun mo'ljallangan tovarlarni olib kiradigan yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan - har oyning yakunlari bo'yicha hisobot oyidan keyingi oyning 10-kunidan kechiktirmay taqdim etiladi.

Xodimlarni yollagan holda faoliyatni amalga oshiruvchi yakka tartibdagi tadbirkorlar qat'iy belgilangan soliqni yoki 2020 yildan boshlab yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining qat'iy belgilangan soliq summaları belgilangan tartibga muvofiq to'laydi.

Yakka tartibdagi tadbirkor zimmasiga belgilangan tartibda yagona ijtimoiy to'lov yoki 2020 yildan boshlab ijtimoiy soliq to'lash majburiyati yuklatiladi.

Davlat soliqxizmati organlari tomonidan olingan yakka tartibdagi tadbirkorning har bir yollangan xodimi uchun hisobga olish kartochkalari yakka tartibdagi tadbirkor o'z faoliyatini amalga oshirmaydigan davr uchun har bir yollangan xodimga yagona ijtimoiy to'lovni hisoblashni to'xtatib turishga asos bo'ladi.

Agar o'z faoliyatini to'xtatgan yakka tartibdagi tadbirkor davlat soliqxizmati organiga yakka tartibdagi tadbirkorning har bir xodimi uchun hisobga olish kartochkalarini belgilangan muddatlarda taqdim etmasa, yakka tartibdagi tadbirkorning majburiyatlari bo'yicha qat'iy belgilangan soliqni va yagona ijtimoiy to'lovni hisoblash to'xtatilmaydi.

2019 yilda Yagona ijtimoiy to'lovni to'lash tartibi:

1) YATT lar uchun - oyiga eng kam ish haqining(EKIH) bir baravari miqdorida

2) YATT ishchisi uchun – oyiga EKIHning 50 %

3) Yuridik shaxs tashkil etmagan oilaviy tadbirkor - oyiga EKIHning bir baravari miqdorida.

4) Oila a'zosi uchun - oyiga EKIHning 50 %

5) Hunarmand uyushmasi a'zosi sifatidagi faoliyati - oyiga EKIHning 50 %

6) Dehqon xo'jaliklari – yiliga EKIHning 4,5 baravari miqdorida

2020 yilda ijtimoiy soliq soliq to'lovchining kalendar oyda ishlagan kunlari sonidan qat'iy nazar:

1) yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan – oyiga bazaviy hisoblash miqdorining bir baravaridan kam bo'lmagan miqdorda;

2) yakka tartibdagi tadbirkor bilan mehnat munosabatlarida bo'lgan jismoniy shaxslar tomonidan (bundan buyon matnda yakka tartibdagi tadbirkorning xodimlari deb yuritiladi) – oyiga bazaviy hisoblash miqdorining 50 foizi miqdorida;

3) faoliyatni yuridik shaxs tashkil etmagan holda, oilaviy tadbirkorlik shaklida amalga oshiruvchi oila a'zolari tomonidan:

yakka tartibdagi tadbirkor sifatida ro'yxatdan o'tgan oila a'zosi tomonidan – oyiga bazaviy hisoblash miqdorining bir baravaridan kam bo'lmagan miqdorda;

oilaning boshqa a'zolari tomonidan (bundan o'n sakkiz yoshga to'lmaganlar mustasno) – oyiga bazaviy hisoblash miqdorining 50 foizi miqdorida;

4) «Hunarmand» uyushmasining hunarmandchilik faoliyati sub'yektlari bo'lgan, qishloq tumanlarida ro'yxatdan o'tgan va faoliyatini amalga oshirayotgan a'zolari tomonidan o'z faoliyatining dastlabki ikki yilida – oyiga bazaviy hisoblash miqdorining 50 foizi miqdorida;

5) «Usta-shogird» maktablari o'quvchilari tomonidan ular yigirma besh yoshga to'lguniga qadar ishlagan davrida – yiliga bazaviy hisoblash miqdorining 2,5 baravaridan kam bo'lmagan miqdorda majburiy tartibda to'lanadi. Belgilangan

miqdordagi soliqning to'lanishi mehnat stajini hisoblab chiqarishda bir yil deb hisobga olinadi.

Yuridik shaxs tashkil etgan holda va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo'jaliklarining a'zolari, shuningdek maydoni to'rt sotixdan kam bo'lmagan dehqon xo'jaligida, tomorqa yer uchastkasida band bo'lgan yoki ushbu maydonda qoramol yoxud ellik boshdan kam bo'lmagan xonaki parranda parvarishlayotgan jismoniy shaxslar yiliga bazaviy hisoblash miqdorining kamida bir baravari miqdorida soliq to'laydi. Bunda dehqon xo'jaligi rahbari soliqni majburiy tartibda to'laydi, boshqa a'zolari va ko'rsatilgan jismoniy shaxslar esa ixtiyoriy asosda to'laydi. Belgilangan miqdordagi soliqning to'lanishi dehqon xo'jaligi a'zosining va jismoniy shaxsning mehnat stajini hisoblab chiqarishda bir yil deb hisobga olinadi.

Yoshga doir pensiya va nafaqa oluvchi hunarmandchilik faoliyati sub'ektlari bo'lgan «Hunarmand» uyushmasining a'zolari soliq to'lashdan ozod etiladi, ushbu moddaning birinchi va ikkinchi qismlarida ko'rsatilgan, yoshga doir pensiya olish huquqiga ega bo'lgan qolgan shaxslar, shuningdek I va II guruh nogironligi bo'lgan shaxslar uchun esa soliq miqdori uning belgilangan eng kam miqdorining kamida 50 foizini tashkil etishi kerak. Mazkur imtiyozlar pensiya guvohnomasi yoki tibbiy-mehnat ekspert komissiyasining ma'lumotnomasi asosida beriladi. Imtiyozlarga bo'lgan huquq kalendar yil davomida vujudga kelgan yoki tugatilgan taqdirda, soliqni qayta hisob-kitob qilish ushbu huquq yuzaga kelgan yoki tugatilgan oydan e'tiboran amalga oshiriladi.

Qat'iy belgilangan miqdorda yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan soliq to'lashning xususiyatlari

Soliq to'lovchining kalendar oyida ishlagan kunlari sonidan qat'iy nazar, qat'iy belgilangan miqdorda soliq tadbirkorlik faoliyatining turi va soliq to'lovchining faoliyatni amalga oshirish joyiga qarab belgilangan stavkalar bo'yicha to'lanadi.

Yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan qat'iy belgilangan miqdorda soliq to'lash xohishini bildirgan soliq to'lovchi soliqni har oyda, tadbirkorlik faoliyati amalga oshirilgan oyning o'n beshinchi sanasidan kechiktirmay, qonun hujjatlarida belgilangan miqdorlarda to'laydi.

Soliq to'lovchi qat'iy belgilangan miqdorda soliq to'lashni u tadbirkorlik sub'yekti sifatida davlat ro'yxatidan o'tkazilgan oydan yoki yakka tartibdagi tadbirkor yoxud oilaviy tadbirkorlik sub'yekti bilan mehnat shartnomasi tuzilgan oydan keyingi oydan e'tiboran amalga oshiradi.

Bir nechta faoliyat turi bilan shug'ullanayotgan soliq to'lovchilar har bir faoliyat turi bo'yicha qat'iy belgilangan miqdorda soliqni alohida, shu faoliyat turi uchun belgilangan miqdorda to'laydi.

Qat'iy belgilangan miqdorda soliq to'lash qo'llaniladigan faoliyatdan olinadigan daromadlar bilan birga boshqa daromadlar oluvchi soliq to'lovchilar bu

daromad turlari bo'yicha alohida hisob yuritishi shart va bu daromadlar bo'yicha jami yillik daromadlar to'g'risidagi deklaratsiya asosida, 2020 yildagi yangi tahrirdagi Kodeksning 397-moddasida nazarda tutilgan tartibda, ushbu Kodeksning 381-moddasida belgilangan stavkalar bo'yicha soliq to'laydi.

Agar yakka tartibdagi tadbirkor (oilaviy tadbirkorlik sub'yekti) o'z faoliyatini muayyan muddatga to'xtatsa, u o'z faoliyatini to'xtatguniga qadar tadbirkorlik sub'yektini ro'yxatdan o'tkazuvchi organga faoliyatni vaqtinchalik to'xtatish to'g'risida ariza berish bilan bir vaqtning o'zida davlat ro'yxatidan o'tganlik haqidagi guvohnomani topshiradi. Bunda xodimlarni yollagan holda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi yakka tartibdagi tadbirkor (oilaviy tadbirkorlik sub'yekti) har bir yollangan xodimga belgilangan tartibda berilgan hisobga olish kartochkalarini ham belgilangan muddatlarda soliq hisobida turgan joyidagi soliq organiga topshiradi.

Yakka tartibdagi tadbirkorning (oilaviy tadbirkorlik sub'yektining) faoliyati vaqtincha to'xtatilganligi yoki qayta tiklanganligi to'g'risidagi arizani olgan tadbirkorlik sub'yektini davlat ro'yxatidan o'tkazishni amalga oshiruvchi organ navbatdagi ish kuni tugaguniga qadar soliq hisobida turgan joyidagi soliq organlariga yakka tartibdagi tadbirkorning (oilaviy tadbirkorlik sub'yektining) faoliyati vaqtincha to'xtatilganligi yoki qayta tiklanganligi to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi va O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan tasdiqlanadigan shaklda axborot taqdim etadi.

Qat'iy belgilangan miqdorda soliq to'lashni to'xtatib turish uchun quyidagilar asos bo'ladi:

- 1) soliq organlari tomonidan olingan tadbirkorlik sub'yektini davlat ro'yxatidan o'tkazishni amalga oshiruvchi organning yakka tartibdagi tadbirkorning (oilaviy tadbirkorlik sub'yektining) faoliyati vaqtinchalik to'xtatilganligi to'g'risidagi axborot;

- 2) soliq organlari tomonidan olingan yakka tartibdagi tadbirkorning har bir yollangan xodimga berilgan hisobga olish kartochkalari.

Qat'iy belgilangan miqdorda soliq to'lash xohishini bildirgan soliq to'lovchilar daromadlarni va xarajatlarni hisobga olish registrlarida daromadlarni olish bilan bog'liq bo'lgan daromadlar va xarajatlarni hisobini yuritishi shart.

Daromadlarni va xarajatlarni hisobga olish registrlari quyidagilardir:

- 1) Yakka tartibdagi tadbirkorning (oilaviy tadbirkorlik sub'yektining) daromadlarini va xarajatlarini hisobga olish kitobi;

- 2) Tovar cheklari kitobi.

Daromadlarni va xarajatlarni hisobga olish registrlarining shakli O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi tomonidan tasdiqlanadi.

Daromadlarni va xarajatlarni hisobga olish registrlari yakka tartibdagi tadbirkorni (oilaviy tadbirkorlik sub'yektini) soliq hisobida turgan joyidagi soliq

organlari tomonidan yakka tartibdagi tadbirkorning (oilaviy tadbirkorlik sub'ekting) arizasi asosida ro'yxatdan o'tkaziladi.

Yakka tartibdagi tadbirkorning (oilaviy tadbirkorlik sub'ekting) faoliyati to'g'risidagi hisobotlar soliq hisobida turgan joyidagi soliq organlariga yilning har bir choragi yakunlari bo'yicha, hisobot choragidan keyingi oyning o'ninchi kunidan kechiktirmay taqdim etiladi

. Yangi ro'yxatdan o'tgan yakka tartibdagi tadbirkor, shu jumladan oilaviy tadbirkorlik subyekti qat'iy belgilangan soliqni yakka tartibdagi tadbirkor sifatida davlat ro'yxatidan o'tkazilgan oydan keyingi oydan boshlab to'laydi.

Kasb-hunar kollejlari bitiruvchilari kollejni tamomlagandan keyin o'n ikki oy ichida yakka tartibdagi tadbirkor sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan taqdirda, yakka tartibdagi tadbirkor sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan sanadan e'tiboran qat'iy belgilangan soliqni to'lashdan olti oy muddatga ozod etiladi. Yakka tartibdagi tadbirkor sifatida davlat ro'yxatidan o'tilgan paytdan boshlab o'n ikki oy ichida faoliyat tugatilgan taqdirda, qat'iy belgilangan soliq faoliyat amalga oshirilgan butun davr uchun to'lanadi.

IMTIYOZ: 1. Qishloq tumanlarida aholi soni 5 ming kishidan ko'p bo'lmagan aholi punktlarida sataroshxona xizmatlarini, yakka tartibdagi buyurtmalar bo'yicha kiyim tikish xizmatlarini, poyabzal ta'mirlash xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha faoliyatni tashkil etgan, shuningdek jamoat hammomlarini tashkil etgan yakka tartibdagi tadbirkorlar 2023 yil 1 iyulgacha barcha turdagi soliqlarni to'lashdan ozod etiladi.

2. Yillik baliq yetishtirish quvvati kamida 50 tonna bo'lgan barcha tadbirkorlik sub'yektlari 2019 yil 1 yanvardan boshlab uch yil davomida barcha soliq va majburiy to'lovlardan ozod etiladi.

6.3. Qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari uchun yagona yer solig'i.

O'zbekiston Respublikasida fermer xo'jaliklari O'zbekiston Respublikasining 1998 yil 30 apreldagi "Fermer xo'jaligi to'g'risida"gi Qonuniga asosan tashkil qilinadi va yuritiladi.

"Fermer xo'jaliklari to'g'risida"gi Qonunga asosan - Fermer xo'jaligi ijaraga berilgan yer uchastkalaridan foydalangan holda qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqarishi bilan shug'ullanuvchi, mustaqil xo'jalik yurituvchi sub'yektdir.

Fermer xo'jaligining boshlig'i shu xo'jalikning muassisi - fermerdir. O'n sakkiz yoshga to'lgan, qishloq xo'jaligida tegishli malaka yoki ish tajribasiga ega bo'lgan shaxs fermer bo'lishi mumkin.

Boshqa yuridik va jismoniy shaxslar bilan munosabatlarda fermer xo'jaligi nomidan ana shu xo'jalik boshlig'i ish ko'radi.

Fermer xo‘jaligi aksariyat hollarda ortiqcha mehnat resurslari bo‘lmagan yerlarda va hududlarda tashkil etiladi.

Chorvachilik mahsuloti yetishtirishga ixtisoslashtirilgan fermer xo‘jaligi kamida 30 shartli bosh chorva moli bo‘lgan taqdirda tashkil etiladi. Fermer xo‘jaligiga ijaraga beriladigan yer uchastkalarining eng kam o‘lchami bir shartli bosh chorva molga hisoblaganda Andijon, Namangan, Samarqand, Toshkent, Farg‘ona va Xorazm viloyatlaridagi sug‘oriladigan yerlarda kamida 0,3 gektarni, boshqa viloyatlar va Qoraqalpog‘iston Respublikasidagi sug‘oriladigan yerlarda kamida 0,45 gektarni, sug‘orilmaydigan (lalmikor) yerlarda esa kamida 2 gektarni tashkil etadi.

Dehqonchilik mahsuloti yetishtirishga ixtisoslashtirilgan fermer xo‘jaliklariga ijaraga beriladigan yer uchastkalarining eng kam o‘lchami paxtachilik va g‘allachilik uchun kamida 10 gektarni, bog‘dorchilik, uzumchilik, sabzavotchilik va boshqa ekinlarni etishtirish uchun kamida 1 gektarni tashkil etadi.

Yer uchastkalari berilganda fermer xo‘jaligi o‘z zimmasiga qishloq xo‘jalik ekinlarining hosildorligi (uch yil uchun o‘rtacha yillik hosil hisobida) yerning kadastr bahosidan kam bo‘lmasligini ta‘minlash majburiyatini oladi. Bu majburiyat yer uchastkasini ijaraga olish shartnomasida mustahkamlab qo‘yiladi.

Fermer xo‘jaligi shu xo‘jalik boshlig‘i tomonidan tashkil etiladi, u fermer xo‘jaligiga tegishli alohida mol-mulk ajratib beradi va ustavini tasdiqlaydi.

Fermer xo‘jaligi tashkil etish uchun uning boshlig‘i belgilangan tartibda yer uchastkasi olishi kerak.

Fermer xo‘jaligi belgilangan tartibda davlat ro‘yxatiga olingan paytdan e‘tiboran tashkil etilgan deb hisoblanadi. Fermer xo‘jaligi vakolatli organ tomonidan davlat ro‘yxatiga olinganidan keyin yuridik shaxs maqomini oladi, bank muassasasida hisob-kitob varag‘i va boshqa xil hisobvaraqlar ochishga, o‘z nomi yozilgan muhrga ega bo‘lishga haqli.

Fermer xo‘jaligi tashkil etishning Qonunda belgilangan tartibi buzilgan yoki xo‘jalikning ustavi qonunga muvofiq bo‘lmagan taqdirda fermer xo‘jaligini davlat ro‘yxatiga olish rad etilishi mumkin.

Davlat ro‘yxatiga olish rad etilganligi, shuningdek ro‘yxatga olish muddatlarining buzilganligi ustidan sudga shikoyat qilinishi mumkin.

Fermer xo‘jaligi ustav asosida faoliyat ko‘rsatadi.

Fermer xo‘jaliklari yuritish uchun yer uchastkalari:

- zaxira yerlardan;
- yuridik va jismoniy shaxslarga berilmagan, qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlardan;
- qayta tashkil etilayotgan va tugatilayotgan qishloq xo‘jaligi kooperativlarining (shirkat xo‘jaliklarining) hamda boshqa qishloq xo‘jaligi korxonalari, muassasalari va tashkilotlarining yer uchastkalaridan;

➤ qishloq xo‘jaligi kooperativlarining (shirkat xo‘jaliklarining) hamda boshqa qishloq xo‘jaligi korxonalari, muassasalari va tashkilotlarining yer uchastkalaridan beriladi.

O‘zbekistonda yer solig‘i Respublika Oliy Kengashi tomonidan 1993 yil 6 mayda qabul qilingan «Yer solig‘i to‘g‘risida»gi hamda «Yer kodeksi to‘g‘risida»gi qonunlarga va qonun osti me‘yoriy hujjatlarga asosan belgilanadi va davlat byudjetiga undiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998 yil 10 oktyabrdagi «Qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqaruvchilar uchun yagona yer solig‘i joriy qilish to‘g‘risida»gi №2086-sonli Farmoniga hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 26 dekabrdagi «Qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqaruvchilar uchun yagona yer solig‘i to‘g‘risida»gi №539-sonli qaroriga muvofiq 1999 yil 1 yanvardan boshlab qishloq xo‘jalik tovar ishlab chiqaruvchilarining byudjetga to‘lovlarini soddalashtirish, ixchamlashtirish maqsadida yagona yer solig‘i joriy etilgan.**2020 yildan boshlab yagona yer solig‘i yer solig‘i tarkibiga kiritildi.**

Yagona yer solig‘i amaldagi barcha umumdavlat soliqlari (alkogolli mahsulotga aksiz solig‘idan tashqari) hamda qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari uchun belgilangan quyidagi mahalliy soliqlar va yig‘imlarni to‘lash o‘rniga joriy etiladi:

- ✓ foyda solig‘i;
- ✓ qo‘shilgan qiymat solig‘i;
- ✓ suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;
- ✓ yer qa‘ridan foydalanganlik uchun soliq;
- ✓ mol-mulk solig‘i;
- ✓ yer solig‘i;
- ✓ boshqa mahalliy soliqlar va yig‘imlar.

Yagona yer solig‘i to‘lovchilari bo‘lmish qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari uchun boj to‘lovi, davlat boji, litsenziya yig‘imlari, byudjetdan tashqari jamg‘armalarga ajratmalar to‘lashning amaldagi tartibi saqlab qolindi. Yagona yer solig‘ini joriy qilishdan maqsad qishloq xo‘jalik yerlaridan foydalanish samaradorligini oshirish, qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqaruvchilarining mehnatning pirovard natijalaridan iqtisodiy manfaatdorligini kuchaytirish, ularning soliq tizimini soddalashtirishdir.

Yagona yer solig‘i to‘lovchilari quyidagilardir edi:

qishloq xo‘jaligi tovarlari ishlab chiqaruvchilar;

qishloq xo‘jaligi yo‘nalishidagi ilmiy-tadqiqot tashkilotlarining tajriba-eksperimental xo‘jaliklari va ta‘lim muassasalarining o‘quv-tajriba xo‘jaliklari.

Bir vaqtning o‘zida quyidagi shartlarga javob beradigan yuridik shaxslar soliq solish maqsadida qishloq xo‘jaligi tovarlari ishlab chiqaruvchilar jumlasiga kiradi:

yer uchastkalaridan foydalangan holda qishloq xo‘jaligi mahsulotini yetishtirish va o‘zi yetishtirgan mazkur mahsulotni qayta ishlash yohud yer uchastkalaridan

foydalangan holda faqat qishloq xo'jaligi mahsulotini yetishtirish asosiy faoliyat turi bo'lgan yuridik shaxslar;

qishloq xo'jaligini yuritish uchun mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan o'zlariga belgilangan tartibda berilgan yer uchastkalariga ega bo'lgan yuridik shaxslar;

qishloq xo'jaligi mahsulotini yetishtirish va mazkur o'zi yetishtirgan mahsulotni qayta ishlash ulushi realizatsiya qilish yoki qayta ishlash uchun olingan qishloq xo'jaligi mahsulotini o'z ichiga oluvchi qishloq xo'jaligi mahsulotini yetishtirish va qayta ishlash umumiy hajmida kamida 50 foizni tashkil etadigan yuridik shaxslar.

Ushbu moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan shartlarga javob beradigan yangi tashkil etilgan qishloq xo'jaligi tovarlari ishlab chiqaruvchilar davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan e'tiboran yagona yer solig'i to'lovchilar bo'ladilar.

Quyidagilarga yagona yer solig'i to'lovchilari sifatida qaralmaydi:

o'rmon va ovchilik xo'jaliklari;

yuridik shaxs tashkil etgan holda va tashkil etmasdan tuzilgan dehqon xo'jaliklari.

Yagona yer solig'ining stavkalari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining har yili qabul qilinadigan "O'zbekiston Respublikasining 2018 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to'g'risida"gi 2017 yil 29 dekabrda PQ-3454-sonli qaroriga muvofiq 2018 yil uchun va "O'zbekiston Respublikasining 2019 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari va Davlat byudjeti prognozi to'g'risida" gi 2018 yil 26 dekabrda № 4086 sonli qaroriga muvofiq 2019 yil uchun quyidagicha belgilandi:

7-jadval

Yagona yer solig'istavkalari

To'lovchilar	Normativ qiymatga nisbatan stavka, foizlarda	
	2018 yil	2019 yil
Qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari	0,95	0,95

Bunda har bir xo'jalik bo'yicha qishloq xo'jaligi yerlarining normativ qiymati O'zbekiston Respublikasi Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastri davlat qo'mitasining «O'zdavero'yiha» O'zbekiston davlat ilmiy-loyiha instituti tomonidan belgilanadi.

Yagona yer solig'ini to'lash tartibini qo'llashning o'ziga xos xususiyatari.

Yagona yer solig'ini to'lash tartibini qo'llash uchun soliq to'lovchi har yili joriy soliq davrining 1 fevralga qadar soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga o'tgan soliq davrida qishloq xo'jaligi mahsulotini yetishtirish va qayta ishlashning umumiy hajmida qishloq xo'jaligi mahsulotining o'zi yetishtirgan va qayta ishlagan ulushi ko'rsatilgan ma'lumotnomani taqdim etadi.

Mikrofirmalar va kichik korxonalar toifasiga kiradigan soliq to'lovchi 2020 yilgacha soliq Kodeks 362-moddasining ikkinchi qismida belgilangan shartlarga javob bermay qo'ygan soliq davridan keyingi yilning 1 fevralidan kechiktirmay davlat soliq xizmati organiga soliq solish tartibini tanlash to'g'risida yozma bildirish taqdim etadi. Soliq to'lovchining yozma bildirishni belgilangan muddatda taqdim etmaganligi uning umumbelgilangan soliqlarni to'lashga roziligi deb hisoblanadi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotini yetishtirish va qayta ishlash bilan bog'liq bo'lmagan faoliyat turlarini amalga oshirishda yagona yer solig'i to'lovchi mazkur faoliyat turlari bo'yicha alohida-alohida hisob yuritishi shart.

Yer uchastkalari ijaraga (shu jumladan ichki xo'jalik pudratiga) berilganida yagona yer solig'ini to'lash majburiyati ijaraga beruvchining zimmasida saqlanib qoladi.

Soliq solish ob'yekti

Qonun hujjatlariga muvofiq qishloq xo'jaligini yuritish uchun egalik qilishga, foydalanishga yoki ijaraga berilgan yer uchastkasi soliq solish ob'yektidir.

Soliq solinadigan baza

Soliq solinadigan yer uchastkalarining qonun hujjatlariga muvofiq belgilangan normativ qiymati soliq solinadigan bazadir.

Yer uchastkalarining normativ qiymati belgilanmagan qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari uchun soliq solinadigan yer uchastkalari maydoni soliq solinadigan bazadir.

Egalik qilish huquqi, foydalanish huquqi yoki ijara huquqi yil mobaynida vujudga kelgan yer uchastkalari uchun soliq solinadigan baza yer uchastkalariga bo'lgan huquq vujudga kelgan oydan keyingi oydan boshlab hisoblab chiqariladi. Yer uchastkasi maydoni kamaytirilgan taqdirda, soliq solinadigan baza yer uchastkasi maydoni kamaytirilgan oydan boshlab kamaytiriladi.

Yuridik shaxslarda yagona yer solig'i bo'yicha imtiyozga bo'lgan huquqlar vujudga kelganda soliq solinadigan baza bu huquq vujudga kelgan oydan boshlab kamaytiriladi. Yagona yer solig'i bo'yicha imtiyozga bo'lgan huquq tugatilgan taqdirda, soliq solinadigan baza bu huquq tugatilgan oydan keyingi oydan boshlab ko'paytiriladi.

Yagona yer solig'ini to'lashdan quyidagilar ozod qilinadi:

Imtiyoz.

1) Ixtiyoriy tugatilayotgan tadbirkorlik sub'yektlari - yuridik shaxslar davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organ ixtiyoriy tugatish to'g'risida qabul qilingan qaror haqida xabardor qilingan kundan e'tiboran. Ixtiyoriy tugatish qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda tugallanmagan yoki tugatish tartib-taomili tugatilgan va faoliyat qayta tiklangan taqdirda ushbu imtiyoz qo'llanilmaydi hamda soliq summasi imtiyoz qo'llanilgan butun davr uchun to'liq miqdorda undiriladi.

2) Yuridik shaxslar, yer uchastkasining qaysi qismida tomchilatib sug'orishdan foydalanilayotgan bo'lsa, o'sha qismida tomchilatib sug'orish tizimi joriy qilingan oydan boshlab besh yil muddatga.

3) Qishloq xo'jaligi tovarlari ishlab chiqaruvchilar - yagona yer solig'i to'lovchilarga yangi tahrirdagi soliq Kodeksining 428-moddasining ikkinchi qismida nazarda tutilgan yer solig'i bo'yicha imtiyozlar ham tatbiq etiladi.

Kalendar yil soliq davridir.

Soliqni hisoblab chiqarish, soliq hisob-kitoblarini taqdim etishva soliqni to'lash tartibi

Yagona yer solig'i summasi yer uchastkalarining normativ qiymati va yagona yer solig'ining belgilangan stavkasidan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi. Yagona yer solig'ining hisob-kitobi yer uchastkasi joylashgan yerdagi davlat soliq xizmati organiga joriy soliq davrining 1 mayigacha taqdim etiladi.

Yil davomida berilgan yer uchastkalari uchun yagona yer solig'i yer uchastkasi berilganidan keyingi oydan boshlab to'lanadi. Yer uchastkasi olib qo'yilgan (kamaytirilgan) taqdirda, yagona yer solig'ini to'lash yer uchastkasi olib qo'yilgan (kamaytirilgan) oydan boshlab to'xtatiladi (kamaytiriladi).

Yer uchastkasining tarkibi va maydoni yil davomida o'zgargan, shuningdek yagona yer solig'i bo'yicha imtiyozlarga bo'lgan huquq vujudga kelgan (tugatilgan) taqdirda, soliq to'lovchilar davlat soliq xizmati organlariga hisobot yilining 1 dekabrighacha yagona yer solig'ining aniqlik kiritilgan hisob-kitobini taqdim etishlari shart.

Nazorat savollari:

1. Soddashtirilgan soliqqa tortish tizimining iqtisodiy moxiyati va ahamiyati nimalardan iborat?

2. Soliq solishning soddashtirilgan tartibini qo'llanishi tartibi qanday ?

3. Yagona soliq to'lovining xuquqiy asoslari qanday ?

4. Yagona soliq to'lovining bazasi qanday belgilanadi?

4. Yagona soliq to'lovining to'lovchilari kimlar va mezonlari?

5. Yagona soliq to'lovi soliq kodeksining qaysi bobi va moddalarida o'z aksini topgan?

6. Yagona soliq to'lovining stavkalari qanday belgilangan?

7. Yagona soliq to'lovi bo'yicha qanday soliq imtiyozlar belgilangan?

8. Yagona soliq to'lovini hisoblashda yalpi tushumga qanday aniqlanadi?

9. Yagona soliq to'lovining hisob - kitob muddatlari qanday belgilangan?

10. Savdo va umumiy ovqatlanish korxonalarini soliqqa tortishda 2007 yildan qanday tartib qo'llanila boshlandi?

11. Yagona yer solig'i to'lovchilari va stavkalari qanday belgilangan?

12. Yagona yer solig'i bo'yicha imtiyozlar?
13. Tadbirkorlik faoliyatining xuquqiy asoslari nimalardan iborat?
14. Yakka tartibdagi tadbirkor qanday soliqlarni to'laydi?
15. Qat'iy belgilangan soliqni stavkalari kim tomonidan belgilanadi?

7-MAVZU. JISMONIY SHAXSLARDAN OLINADIGAN SOLIQLAR VA YIG'IMLAR

Reja:

1. Jismoniy shaxslarning daromadlaridan olinadigan soliq, ob'yekti va stavkasi. Jismoniy shaxslarning jami yillik daromadlari.
2. Jismoniy shaxslar to'laydigan mol-mulk solig'i va uning ahamiyati. Jismoniy shaxslar olinadigan mol-mulk solig'i stavkasi va to'lash muddatlari.
3. Jismoniy shaxslardan undiriladigan yer solig'i, ob'yekti va stavkasi
4. Mahalliy yig'imlar va ularning amal qilish xususiyatlari. Mahalliy yig'imlarni hisoblash va to'lash tartibi.

Tayanch iboralar: daromad, deklaratsiya, rezidentlar, norezident, mulkiy daromadlar, moddiy naf tarzidagi daromadlar, dividendlar, mol-mulk solig'I, yer solig'i.

7.1. Jismoniy shaxslarning daromadlaridan olinadigan soliq, ob'yekti va stavkasi. Jismoniy shaxslarning jami yillik daromadlari.

Ma'lumki, soliq qonunchiligida soliqqa tortish maqsadida soliq to'lovchilar ikkiga bo'lingan, ya'ni yuridik va jismoniy shaxslarga.

Jismoniy shaxslarga – yuridik shaxs maqomini olmagan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, ajnabiy fuqarolar va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar kiradi.

Jismoniy shaxslar to'layotgan soliqlar ichida byudjet tushumlaridan salmoqli o'rinni egallaydigan soliq bu – jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'idir.

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i – davlat byudjeti daromad manbalaridan biri bo'lib, u umumdavlat soliqlari tarkibiga kiradi. Uning o'ziga xos xususiyati shundaki, soliq jismoniy shaxslarning bevosita daromadlaridan olinadi.

Soliq kodeksiga muvofiq soliq solinadigan daromadga ega bo'lgan jismoniy shaxslar jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i to'lovchilardir.

Soliq to'lovchilar

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining soliq to'lovchilari deb quyidagilar e'tirof etiladi:

1) O'zbekiston Respublikasining rezidentlari bo'lgan jismoniy shaxslar;

O'zbekiston Respublikasidagi manbalardan daromad oluvchi O'zbekiston Respublikasining norezidenti bo'lgan jismoniy shaxslar.

Soliq solish maqsadida jismoniy shaxslar rezidentlar va norezidentlarga bo'linadi.

O'zbekiston Respublikasida doimiy yashab turgan yoki joriy soliq davrida yakunlanayotgan har qanday ketma - ketlikdagi o'n ikki oylik davr ichida jami bir yuz sakson uch kun va undan ortiq muddat O'zbekiston Respublikasida turgan jismoniy shaxs. Ushbu belgilangan mezonlarga javob bermaydigan shaxs O'zbekiston Respublikasining norezidenti bo'lib hisoblanadi.

Soliq solish ob'yekti

Soliq to'lovchining jami daromadi jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining soliq solish ob'yekti deb hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining rezidenti bo'lgan jismoniy shaxslarga ularning O'zbekiston Respublikasidagi, shuningdek undan tashqaridagi faoliyati manbalaridan olingan daromadlari bo'yicha soliq solinadi.

O'zbekiston Respublikasining rezidenti bo'lmagan jismoniy shaxslarga O'zbekiston Respublikasi hududidagi manbalardan olingan daromadlar bo'yicha soliq solinadi.

Soliq bazasi

Soliq bazasi quyidagilar hisoblanadi:

O'zbekiston Respublikasining rezidentlari bo'lgan jismoniy shaxslar uchun – nazarda tutilgan soliq imtiyozlarini hisobga olgan holdagi jami daromadlari;

O'zbekiston Respublikasining norezidentlari bo'lgan jismoniy shaxslar uchun – nazarda tutilgan soliq imtiyozlari qo'llanmagan holdagi jami daromadlari.

Soliq bazasini aniqlashda soliq to'lovchining ham pul shaklida, ham natura shaklida olgan daromadlari yoki daromadlarni tasarruf etish uchun yuzaga kelgan huquqlari, shuningdek moddiy naf tarzidagi daromadlari hisobga olinadi. Bunda soliq to'lovchining alohida turdagi daromadlari ushbu bo'limda belgilangan shartlarda va tartibda jami daromad tarkibida hisobga olinishi yoki hisobga olinmasligi mumkin.

Jismoniy shaxslarning jami yillik daromadlari tarkibi

Jismoniy shaxslarning **jami daromadiga** quyidagilar kiradi:

mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar;

mulkiy daromadlar;

oddiy naf tarzidagi daromadlar;

boshqa daromadlar.

1).Mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar

Ish beruvchi bilan mehnatga oid munosabatlarda bo'lgan va tuzilgan mehnat shartnomasiga (kontraktiga) muvofiq ishlarni bajarayotgan xodimlarga

hisoblanadigan hamda to'lanadigan quyidagi barcha to'lovlar mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar deb e'tirof etiladi:

Mehnatga haq to'lashning qabul qilingan shakllari va tizimlariga muvofiq ishbay narxlardan, tarif stavkalaridan va mansab maoshlaridan kelib chiqqan holda hisoblab chiqarilgan, haqiqatda bajarilgan ish uchun hisoblangan ish haqi; ilmiy daraja va faxriy unvon uchun ustamalar;

O'zbekiston Respublikasining Mudofaa, Ichki ishlar va Favqulodda vaziyatlar vazirliklarining, O'zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati, O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Davlat xavfsizlik xizmatining, harbiy xizmatchilariga, ichki ishlar organlarining oddiy askarlar, serjantlar va ofitserlar tarkibiga hamda O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasining va boshqa harbiy xizmat nazarda tutilgan idoralar xodimlariga xizmatni o'tashi (xizmat majburiyatlarini bajarishi) munosabati bilan to'lanadigan pul ta'minoti, pul mukofotlari va boshqa to'lovlar.

Bundan tashqari mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlarga **rag'batlantirish xususiyatiga ega bo'lgan to'lovlar** kiradi: 1) yillik ish yakunlari bo'yicha pul mukofoti; 2) yuridik shaxsning mukofotlash to'g'risidagi nizomida nazarda tutilgan rag'batlantirish xususiyatiga ega to'lovlar; 3) kasb mahorati, murabbiylik uchun tarif stavkalariga va maoshlarga ustamalar; 4) ta'tilga qo'shimcha haqlar; 5) ko'p yil ishlaganlik uchun pul mukofoti va to'lovlar; 6) ratsionalizatorlik taklifi uchun to'lov; 7) mehnat natijalari bilan bog'liq bo'lmagan bir yo'la beriladigan mukofotlar.

Mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadga kiritiladigan **kompensatsiya to'lovlari** (kompensatsiyalar) jumlasiga quyidagilar kiradi:

1) tabiiy-iqlim sharoitlari noqulay bo'lgan joylardagi ishlar bilan bog'liq qo'shimcha to'lovlar (ish staji uchun ustamalar, baland tog'li, cho'l va suvsiz hududlarda ishlaganlik uchun belgilangan koeffitsientlar bo'yicha to'lovlar).

Bunda yuridik shaxslar xodimlarining cho'l va suvsiz joylarda, baland tog'li va tabiiy-iqlim sharoiti noqulay hududlarda ishlaganlik uchun ish haqiga koeffitsientlar hisoblashning eng yuqori summasini aniqlash hisoblash sanasida belgilangan mehnatga haq to'lash eng kam miqdorining 1,41 baravari miqdorida belgilanadi;

2) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan kasblar va ishlar ro'yxati bo'yicha og'ir, zararli, o'ta zararli mehnat sharoitlarida ishlaganlik uchun ustamalar, shu jumladan shunday sharoitlardagi uzluksiz ish staji uchun ish haqiga ustamalar;

3) texnologik jarayon jadvalida nazarda tutilgan tungi vaqtda, ish vaqtidan tashqari, dam olish kunlarida va bayram (ishlanmaydigan) kunlarida ishlaganlik uchun tarif stavkalariga hamda maoshlarga ustamalar va qo'shimcha to'lovlar;

4) ko'p smenali rejimda ishlaganlik, shuningdek bir necha kasbda, lavozimda ishlaganlik, xizmat ko'rsatish doirasi kengayganligi, bajariladigan ishlar hajmi

ortganligi, o'zining asosiy ishi bilan bir qatorda ishda vaqtincha bo'lmagan xodimlarning vazifalarini bajarganlik uchun ustamalar;

5) doimiy ishi yo'lda kechadigan, harakatlanish va (yoki) qatnov tusiga ega bo'lgan xodimlarning, shuningdek doimiy ishi ishlarning vaxta usulida bajarilishini nazarda tutadigan xodimlarning ish haqiga qonun hujjatlarida belgilangan normalardan ortiqcha to'lanadigan ustamalar;

6) ish beruvchi joylashgan yerdan (yig'ilish punktidan) ishlash joyigacha borish va u yerdan qaytish uchun vaxtada ishlash jadvalida nazarda tutilgan ishlar vaxta usulida bajarilgan holda yo'lga ketadigan kunlar, shuningdek xodimlar meteorologik sharoitlar sababli va transport tashkilotlarining aybi bilan yo'lda ushlanib qolgan kunlar uchun tarif stavkasi yoki maosh miqdorida to'lanadigan summalar;

7) yer osti ishlarida doimiy band bo'lgan xodimlarga ularning stvoldan ishlash joyiga borish va u erdan qaytish uchun shaxtada (konda) harakatlanishining me'yoriy vaqti uchun to'lanadigan qo'shimcha haqlar;

8) qonun hujjatlarida belgilangan normalardan ortiqcha dala ta'minoti;

9) xizmat safarlari vaqtida qonun hujjatlarida belgilangan normalardan ortiqcha kundalik xarajatlar uchun haq (sutkalik pullar);

10) ishlar vaxta usulida tashkil etilganda, ish vaqti umumlashtirilgan holda hisobga olinayotganda va qonun hujjatlarida belgilangan boshqa hollarda xodimlarga ish vaqtining belgilangan davomiyligidan ortiq ishlaganligi munosabati bilan beriladigan dam olish kunlari (otgullar) uchun to'lovlar;

11) xizmat safarlari uchun xodimning shaxsiy avtomobilidan yoki xizmat maqsadlari uchun uning boshqa mol-mulkidan qonun hujjatlarida belgilangan normalardan ortiqcha foydalanganlik uchun to'lovlar;

12) mehnatda mayib bo'lganlik yoki sog'liqqa boshqacha tarzda shikast yetganlik bilan bog'liq zararning o'rnini qoplash uchun ushbu Kodeks 369-moddasi ikkinchi qismining 10-bandida ko'rsatilgan miqdorlardan ortiqcha olingan summalar;

13) oziq-ovqat va yo'l chiptalarining qiymati yoki oziq-ovqat va yo'l chiptalarining qiymatini qoplash.

Mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadga kiritiladigan **ishlanmagan vaqt uchun haq to'lash** jumlasiga quyidagilar kiradi:

1) qonun hujjatlariga muvofiq: a) yillik asosiy (uzaytirilgan asosiy) ta'til uchun to'lov, shu jumladan xodim bilan mehnat shartnomasi bekor qilinganda pullik kompensatsiya to'lovi; b) noqulay va o'ziga xos mehnat sharoitlarida ishlaganligi uchun xodimlariga beriladigan qo'shimcha ta'til uchun to'lov; v) o'qish bilan bog'liq ta'til va ijodiy ta'tillar uchun to'lov; g) o'n ikki yoshga to'lmagan ikki va undan ortiq bolasi yoki o'n olti yoshga to'lmagan nogironligi bo'lgan bolasi bor ayollarga berilgan qo'shimcha ta'til uchun to'lov; 2) asosiy ish haqi qisman saqlab qolinganda holda majburiy ta'tilda bo'lgan xodimlarga beriladigan to'lovlar; 3) donor xodimlarga ko'rikdan o'tish, qon topshirish va qon topshirilgan har bir kundan keyin

beriladigan dam olish kunlari uchun to'lov; 4) O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksiga muvofiq davlat yoki jamoat vazifalarini bajarganlik uchun mehnatga to'lov; 5) qishloq xo'jaligi va boshqa ishlarga jalb qilinadigan xodimlarning asosiy ish joyi bo'yicha saqlab qolinadigan ish haqi; 6) ma'lum muddatga avvalgi ish joyi bo'yicha lavozim maoshi miqdori saqlab qolinganda boshqa yuridik shaxslardan ishga joylashtirilgan, shuningdek vaqtinchalik vazifani bajarib turgan xodimlarga maoshdagi farq to'lovi; 7) xodimlarga kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimida ishdan ajralgan holda o'qishlari vaqtida asosiy ish joyi bo'yicha ularga to'lanadigan ish haqi; 8) xodimning aybisiz bekor turib qolinganda vaqt uchun to'lov; 9) mehnat layoqatini vaqtincha yo'qotgan xodimlarga qo'shimcha to'lov; 10) qonun hujjatlariga muvofiq yoki ish beruvchining qarori bilan majburiy progul vaqti uchun yoki kam haq to'lanadigan ishni bajarganlik uchun to'lov; 11) o'n sakkiz yoshga to'lmagan shaxslarning imtiyozli soatlariga, onalarga bolani ovqatlantirishi uchun ishda beriladigan tanaffuslarga, shuningdek tibbiy ko'rikdan o'tish bilan bog'liq vaqt uchun to'lov; 12) asosiy ishidan ozod qilingan va ozod qilinmagan holda xodimlar tayyorlash, ularni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish uchun hamda o'quvchilar va talabalarning ishlab chiqarish amaliyotiga rahbarlik qilish uchun jalb qilinadigan yuqori malakali xodimlari mehnatiga to'lov; 13) ish beruvchining mablag'lari hisobidan to'lanadigan pensiyalar va nafaqalarga qo'shimchalar, stipendiyalar; 14) oliy o'quv yurtini tamomlaganidan keyin yosh mutaxassislariga ta'til vaqti uchun ish beruvchi hisobidan to'lanadigan nafaqalar.

2). Jismoniy shaxslarning mulkiy daromadlariga foizlar, dividendlar, mol-mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlar, jismoniy shaxslarga tegishli bo'lgan mol-mulkni sotishdan olingan daromadlar, royalty, sanoat mulki ob'ektlariga, seleksiya yutug'iga berilgan patent (litsenziya) egasi bo'lgan jismoniy shaxsning patentdan boshqa shaxs foydasiga voz kechganda yoki litsenziya shartnomasi tuzganda olgan daromadi, ishonchli boshqaruvga berilgan mol-mulk bo'yicha ishonchli boshqaruvchidan olingan daromad; aniqlanadigan REPO operatsiyalari bo'yicha daromad, aniqlanadigan qimmatli qog'ozlar va (yoki) muddatli bitimlarning hosila moliyaviy vositalari bilan operatsiyalar bo'yicha daromad; ko'rsatilmagan mulkiy xususiyatga ega boshqa daromadlar kiradi.

3).Moddiy naf tarzidagi daromadlar jumlasiga quyidagilar kiradi:

1) soliq agenti tomonidan soliq to'lovchi manfaatlarini ko'zlab, tovarlar (xizmatlar), mulkiy huquqlar haqini to'lash, shu jumladan:

soliq to'lovchining bolalarini maktabgacha ta'lim muassasalarida (tashkilotlarida) o'qitish, tarbiyalash haqini to'lash;

soliq to'lovchilarga berilgan uy-joyning kommunal xizmatlar haqini, uy-joydan foydalanish xarajatlarini, yotoqxonadagi joylar haqini yoki ularning o'rnini qoplash qiymatini to'lash; sanatoriy-kurortlarda davolanish yo'llanmalari qiymatini, dam olish, statsionar va ambulator davolanish haqini yoki ularning o'rnini qoplash

qiymatini to'lash; soliq agentining soliq to'lovchi daromadi bo'lgan boshqa xarajatlarini to'lash;

2) soliq to'lovchining manfaatlarini ko'zlab tekin, shu jumladan hadya shartnomasi bo'yicha berilgan mol-mulkning va ko'rsatilgan xizmatlarning qiymati;

3) tovarlarni (xizmatlarni) soliq to'lovchilarga realizatsiya qilish narxi hamda shu tovarlarning (xizmatlarning) ushbu moddaning ikkinchi va uchinchi qismlariga muvofiq hisoblab chiqarilgan qiymati o'rtasidagi salbiy farq;

4) qonun hujjatlariga muvofiq xodimlarga temir yo'l, aviatsiya, daryo, avtomobil transporti va shahar elektr transportida yurish bo'yicha beriladigan imtiyozlar summasi;

5) jismoniy shaxsning soliq agenti oldidagi qarzining yuridik shaxs qarori bilan hisobdan chiqarilgan summalari.

4). Jismoniy shaxslarning boshqa daromadlari jumlasiga 1) fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, xayriya va ekologiya jamg'armalari tomonidan soliq to'lovchilarga beriladigan nafaqalar hamda boshqa turlardagi yordam; 2) hayvonlarni (qoramollarni, parrandalarni, mo'ynali va boshqa hayvonlarni, baliqlarni va boshqalarni) tirik holda hamda ularni so'yib, mahsulotlarini xom yoki qayta ishlangan holda sotishdan, ipak qurtini, chorvachilik, asalarichilik va dehqonchilik mahsulotlarini tabiiy va qayta ishlangan holda sotishdan olingan daromadlar; 3) jismoniy shaxslardan tekin (shu jumladan hadya shartnomalari bo'yicha) olingan mol-mulkning, mulkiy huquqlarning qiymati; 4) musobaqalarda, ko'riklarda, tanlovlarda sovrinli o'rinlar uchun beriladigan sovrinlar, pul mukofotlari; 5) yutuqlar; 6) grant beruvchidan olingan grantlarning, shu jumladan chet davlatlar grantlarining summalari; 7) soliq to'lovchilarning yaratilgan ilm-fan, adabiyot va san'at asarlari (predmetlari) uchun olgan daromadlari; 8) xalqaro sport musobaqalaridagi sovrinli o'rinlarni egallaganligi uchun sportchilar olgan bir yo'la beriladigan pul mukofoti; 9) xodim bilan tuzilgan mehnat shartnomasi (kontrakti) bekor qilinganda mehnat to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq beriladigan ishdan bo'shatish nafaqasi va boshqa to'lovlar; ko'rsatiladigan moddiy yordam; 11) ishlamaydigan pensionerlarga soliq agenti tomonidan to'lanadigan to'lovlar kiradi.

Jami daromadga kiritilmaydigan daromadlar

Quyidagilar jami daromad tarkibiga kiritilmaydi:

1) O'zbekiston Respublikasining davlat mukofotlariga va davlat pul mukofotlariga sazovor bo'lgan soliq to'lovchi olgan bir yo'la beriladigan davlat pul mukofoti yoki shunga teng bahodagi esdalik sovg'alarining qiymati, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoki O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori asosida bir yo'la beriladigan pul mukofoti va sovg'alar;

2) donorlik uchun pul mukofotlari, shuningdek tibbiyot muassasalarining xodimlari tomonidan qon olganlik uchun olinadigan summalar;

3) olingan alimentlar;

4) fuqarolar tomonidan olinadigan sug'urta to'lovni summolari;

5) qonun hujjatlarida belgilangan miqdorlarda va tartibda to'lanadigan stipendiyalar;

6) qonun hujjatlariga muvofiq uy-joy-kommunal xizmatlar haqini to'lash bo'yicha har oylik kompensatsiya pul to'lovlari;

7) davlat pensiyalari, ijtimoiy sug'urta (homiladorlik va bola tug'ilganda beriladigan tug'ish nafaqalari, qo'shimcha dam olish kuni, dafn etish) bo'yicha nafaqalar;

8) majburiy jamg'arib boriladigan pensiya badallari, ular bo'yicha foizli daromadlar, shuningdek jamg'arib boriladigan pensiya to'lovlari.

9) qonun hujjatlarida belgilanadigan tartibda o'zini o'zi band qilgan shaxslarning mehnat faoliyati natijasida olingan daromadlar;

10) O'zbekiston Respublikasi va O'zbekiston Respublikasi rezidentlari bo'lgan yuridik shaxslar tomonidan chiqarilgan xalqaro obligatsiyalar bo'yicha daromadlar.

Soliq agentlarining jismoniy shaxs foydasiga amalga oshiradigan quyidagi xarajatlarga soliq to'lovchining daromadi sifatida qaralmaydi:

1) mehnat sharoitlari noqulay bo'lgan ishlarda band bo'lgan xodimlarni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda sut, davolash-profilaktika oziq-ovqati, gazlangan sho'r suv, shaxsiy himoya va gigiena vositalari bilan ta'minlash bo'yicha xarajatlari;

2) kasaba uyushmasi qo'mitasi tomonidan amalga oshiriladigan to'lovlar, shu jumladan a'zolik badallari hisobidan kasaba uyushmasi a'zolariga beriladigan moddiy yordam, bundan kasaba uyushmasi qo'mitasining xodimlariga mehnat vazifalarini bajarish uchun beriladigan pul mukofotlari va boshqa to'lovlar mustasno;

3) favqulodda holatlar munosabati bilan yetkazilgan zararlar summasi doirasida beriladigan moddiy yordam summolari;

4) xodimlarni ish joyiga olib borish va olib qaytish bo'yicha xarajatlari;

5) diniy rasm-rusumlar va marosimlarni, bayram tantanalarini o'tkazish, shahar yo'lovchilar transportida xodimlarning xizmat qatnovlari uchun foydalaniladigan yo'l kartochkalarini olish, shuningdek yuridik shaxsning xodimlarning mehnat va dam olish sharoitlarini ta'minlash bilan bog'liq hamda muayyan jismoniy shaxslarning daromadi hisoblanmaydigan boshqa xarajatlari;

6) xodimga xizmat vazifalarini bajarish uchun zarur bo'lgan maxsus kiyim-bosh, maxsus poyabzal, formal kiyim-bosh berish xarajatlari yoki ularni pasaytirilgan baholarda sotish munosabati bilan qilingan xarajatlar, shuningdek qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda ayrim toifadagi xodimlarni o'z xizmat vazifalarini bajarishi chog'ida oziq-ovqat bilan ta'minlash bo'yicha xarajatlar;

7) xodim boshqa joyga ishga o'tkazilganda yoxud ko'chib borganda ko'chish, mol-mulkini ko'chirib borish, joy ijarasi (yo'l xarajatlari uchun beriladigan pul) bilan bog'liq xarajatlarni to'lash yoki bu xarajatlarning o'rnini qoplash xarajatlari;

8) xizmat safarlariga oid kompensatsiya to'lovlari (sutkalik pullar);

9) qonun hujjatlarida nazarda tutilgan normalar doirasida xodimga to'lanadigan kompensatsiya to'lovlari (kompensatsiyalar):

doimiy ishi yo'lda kechadigan, harakatlanish va (yoki) qatnov tusiga ega bo'lgan, shuningdek vaxta usulida ishlarni bajarishda xodimga kompensatsiya to'lovlari (kompensatsiyalar);

xizmat ishlarida shaxsiy avtomobildan foydalanganlik uchun kompensatsiya to'lovlari (kompensatsiyalar), bundan xizmat safarlari mustasno;

10) mehnatda mayib bo'lganlik yoki sog'liqqa boshqacha tarzda shikast yetganlik bilan bog'liq zararning o'rnini qoplash bo'yicha quyidagi miqdordagi to'lovlar:

jabrlanuvchi mehnatda mayib bo'lguniga qadar olgan o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan foiz hisobidagi, uning kasbga oid mehnat qobiliyatini yo'qotganlik darajasiga muvofiq belgilanadigan har oylik to'lovlar (voyaga etmagan shaxs mehnatda mayib bo'lib qolgan taqdirda, zararning o'rnini uning ish haqi (daromadi) miqdoridan kelib chiqqan holda, lekin qonun hujjatlarida belgilangan mehnatga haq to'lashning eng kam miqdorining 1,76 baravaridan kam bo'lmagan miqdorda qoplanadi);

maxsus tibbiy parvarishga muhtoj jabrlanuvchilarga qo'shimcha xarajatlar uchun oyiga mehnatga haq to'lashning eng kam miqdorining 70,3 foizi miqdoridagi to'lovlar;

jabrlanuvchining maishiy parvarishi uchun qo'shimcha xarajatlar tariqasida har oyda mehnatga haq to'lashning eng kam miqdorining 17,6 foizi miqdoridagi to'lovlar;

xodimning sog'lig'iga shikast yetkazilganligi munosabati bilan ish beruvchi tomonidan bir yo'la to'lanadigan nafaqa tariqasida jabrlanuvchining yillik o'rtacha ish haqi miqdoridagi to'lovlar;

11) boquvchisi vafot etganligi munosabati bilan quyidagi miqdordagi to'lovlar:

marhumning o'rtacha ish haqining vafot etgan boquvchining qaramog'ida bo'lgan va uning vafoti munosabati bilan zararni undirishga haqli bo'lgan mehnatga qobiliyatsiz shaxslarga to'g'ri keladigan ulushi miqdoridagi to'lovlar;

boquvchisi vafot etganligi munosabati bilan zararni undirishga haqli bo'lgan shaxslarga bir yo'la to'lanadigan nafaqa tariqasida marhumning o'rtacha yillik ish haqining olti baravari miqdoridagi to'lovlar;

12) talabalarning ta'lim olishi uchun O'zbekiston Respublikasining oliy o'quv yurti bilan to'g'ridan-to'g'ri shartnomalar bo'yicha pulli-kontrakt asosida o'tkaziladigan to'lovlar;

13) xodimlarning malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash xarajatlari.

14) soliq to'lovchining mijozlarning tovarlar va xizmatlarni sotib olish faolligini oshirishga qaratilgan va bonuslar (ballar, mijozni ushbu tashkilotlardan tovarlar

(xizmatlar) sotib olish faolligini belgilovchi boshqa birliklar) hisoblanishini nazarda tutuvchi dasturlarda ishtiroki natijasida ushbu dasturda belgilangan asoslar bo'yicha olingan pul va natura shaklidagi daromadlari.

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i stavkalari

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i ko'pgina mamlakatlardagi singari O'zbekistonda ham progressiv soliq hisoblanadi. Ushbu soliq stavkalari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan belgilanadi va o'rnatilgan tartibda davlat soliq idoralari xodimlari tomonidan jismoniy shaxslarga bildiriladi. Har yili belgilangan stavkalar Vazirlar Mahkamasi tomonidan yoki O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan qaytadan ko'rib chiqilishi mumkin.

Soliq qonunchiligiga binoan 1998 yildan respublikamizda jismoniy shaxslarning ish haqlari, mukofot pullari va boshqa daromadlaridan soliq stavkasi 15, 25, 35, 40, 45 foiz, ya'ni 5 pog'onali qilib belgilangan edi. 2000 yildan boshlab 4 pog'onali, ya'ni 15, 25, 36, 40 foiz, 2001 yildan esa 3 pog'analiga o'tib, 2009 yildan Eng kam ish haqi(EKIH)ning 10-barobarigacha qilib belgilandi uning stavkasi 12, 18, 25 foizni, 2012 yilda 9, 16, 22 foiz qilib belgilandi.

Soliq solish maqsadlari uchun eng kam ish haqining miqdori yil boshidan e'tiboran ortib (o'sib) boruvchi yakun tarzida hisoblanadi. 2016 yilda jismoniy shaxslardan olinadigan daromadlaridan soliq stavkasi 0, 7,5, 17, 23 foiz, ya'ni 4 pog'onali qilib belgilangan edi.

Quyidagi jadval ma'lumotlarida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining 2018 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to'g'risida"gi 2017 yil 29 dekabrda PQ-3454-sonli qaroriga asosan 2018 yilda va "O'zbekiston Respublikasining 2019 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to'g'risida"gi 2018 yil 26 dekabrda PQ-4086-sonli qaroriga asosan 2019 yilda va 2020 yilda Soliq kodeksiga asosan Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i STAVKALARI keltirilgan

8-jadval

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i STAVKALARI

Jami daromad miqdori	Soliq summasi		
	2018 yil	2019 yil	2020 yil
eng kam ish haqi(EKIH)ning bir baravari miqdorigacha	daromad summasining 0 foizi	12 foiz	12 foiz
eng kam ish haqi(EKIH)ning besh baravari miqdorigacha	daromad summasining 7,5 foizi		
eng kam ish haqining besh baravari miqdoridan (+1 so'm) o'n baravari miqdorigacha	eng kam ish haqining besh baravari miqdoridan olinadigan soliq + besh baravardan oshadigan summaning 16,5		

	foizi		
eng kam ish haqining o‘n baravari miqdoridan (+1 so‘m) va undan yuqori summadan	eng kam ish haqining o‘n baravari miqdoridan olinadigan soliq + o‘n baravardan oshadigan summaning 22,5 foizi		
O‘zbekiston Respublikasi rezidentlariga dividendlar va foizlar tarzida to‘lanadigan daromadlarga soliq	10 foiz	5 foiz	5 foiz
Shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga o‘tkaziladigan majburiy badal	2 foiz	0,1 foiz	0,1 foiz

2019 yilgacha, soliq solinadigan daromadlar guruhlar bo'yicha soliq solish shkalasi yil boshiga –belgilangan eng kam ish haqi miqdoridan kelib chiqib aniqlanardi va yil davomida eng kam ish haqi miqdori o'zgargan taqdirda ham qayta ko'rib chiqilmasdi.

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i summasini hisoblab chiqarish maqsadida, eng kam ish haqi miqdori yil boshidan ortib boruvchi yakun bilan hisobga olinardi (yil boshidan boshlab tegishli davrning har bir oyi uchun eng kam ish haqining jami summasi).

**O‘zbekiston Respublikasining norezidentlari
bo‘lgan jismoniy shaxslar uchun soliq stavkalari**

O‘zbekiston Respublikasining norezidenti bo‘lgan jismoniy shaxsning O‘zbekiston Respublikasidagi manbalardan olingan daromadlariga quyidagi soliq stavkalar bo'yicha soliq solinadi:

9-jadval

№	Soliq ob'ekti	Soliq stavkalari, Foizlarda
1	Dividendlar va foizlar	10
2	Ushbu Kodeksga muvofiq aniqlanadigan, xalqaro tashishlarda transport xizmatlari taqdim etishdan olinadigan daromadlar (fraxtdan olinadigan daromadlar).	6
3	Mehnat shartnomalari (kontraktlari) va fuqarolik-huquqiy xususiyatdagi shartnomalar bo'yicha olingan daromadlar, 1 va 2-bandlarda ko'rsatilmagan boshqa daromadlar	20

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i bo'yicha imtiyozlar va soliqni to'lash tartibi .

Jismoniy shaxslarning soliq solinmaydigan daromadlari

Jismoniy shaxslarning quyidagi daromadlariga soliq solinmaydi:

1) moddiy yordam summolari: vafot etgan xodimning oila 'zolariga yoki oila a'zosi vafot etganligi munosabati bilan xodimga beriladigan moddiy yordam summolari – mehnatga haq to'lashning eng kam miqdorining 4,22 baravarigacha miqdorda; boshqa hollarda, – soliq davri uchun mehnatga haq to'lashning eng kam miqdorining 4,22 baravarigacha miqdorda;

2)yo'llanmalar qiymatini soliq agenti tomonidan to'liq yoki qisman qoplash summolari, turistik yo'llanmalar bundan mustasno;

3)o'z xodimlariga va ularning bolalariga ambulatoriya va (yoki) statsionar tibbiy xizmat ko'rsatilganligi uchun ish beruvchi tomonidan to'langan summalar;

4)O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining O'zbekiston Respublikasidan tashqariga ishlash uchun yuborilishi munosabati bilan byudjet tashkilotlaridan chet el valyutasida olingan ish haqi summolari va boshqa summalar;

5)vaqtinchalik bir martalik ishlarni bajarishdan olingan daromadlar, agar bunday ishlarga yollash vaqtinchalik bir martalik ish bilan ta'minlash markazlari ko'magida amalga oshirilayotgan bo'lsa;

6) xalqaro sport musobaqalarida sovrinli o'rinlarni egallaganligi uchun sportchilar olgan bir yo'la beriladigan pul mukofoti;

7) soliq to'lovchilarga xususiy mulk huquqi asosida tegishli bo'lgan mol-mulkni sotishdan olinadigan daromadlar, bundan quyidagilarni sotishdan olingan daromadlar mustasno:

qimmatli qog'ozlarni (bundan fond birjasida realizatsiya qilinadigan emissiyaviy qimmatli qog'ozlar mustasno), yuridik shaxslarning ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) ulushlarini (paylarini);

noturar joylarni;

o'ttiz olti kalendar oydan kam muddatda soliq to'lovchining mulkida bo'lgan turar joylarni;

8) uy xo'jaligida, shu jumladan dehqon xo'jaligida etishtirilgan hayvonlarni (qoramollarni, parrandalarni, mo'ynali va boshqa hayvonlarni, baliqlar va hokazolarni) tirik holda hamda ularni so'yib mahsulotlarini xom yoki qayta ishlangan holda sotishdan (bundan sanoatda qayta ishlash mustasno) chorvachilik, asalarichilik va dehqonchilik mahsulotlarini tabiiy va qayta ishlangan holda sotishdan olinadigan daromadlar, bundan manzarali bog'dorchilik (gulchilik) mahsulotlari mustasno

9) xalqaro hamda respublika tanlovlari va musobaqalarida olingan buyum tarzidagi sovrinlarning qiymati;

10) ish beruvchidan soliq davri mobaynida mehnatga haq to'lashning eng kam miqdorining 2,11 baravarigacha bo'lgan qiymatdagi: xodimlar natura shaklida olgan sovg'alar;

11) jismoniy shaxslardan meros yoki hadya tartibida, shuningdek tekinga olingan pul va natura shaklidagi daromadlar, bundan quyidagilar mustasno:

ilm-fan, adabiyot va san'at asarlarining, adabiyot hamda san'at asarlari ijrochilarining, shuningdek kashfiyotlar, ixtirolar va sanoat namunalari mualliflarining merosxo'rlariga (huquqiy vorislariga) to'lanadigan pul mukofotlari;

12) davlat zayomining obligatsiyalari bo'yicha yutuqlar, shuningdek O'zbekiston Respublikasining davlat qimmatli qog'ozlari bo'yicha foizlar;

13) jamg'arma sertifikatlari, davlat qimmatli qog'ozlari bo'yicha daromadlar, shuningdek banklardagi omonatlar bo'yicha foizlar va yutuqlar;

14) nodavlat notijorat tashkilotlaridan, xalqaro hamda chet el tashkilotlari va fondlaridan, shuningdek vakolatli organning xulosasi mavjud bo'lsa, O'zbekiston Respublikasining ilmiy-texnika hamkorligi sohasidagi xalqaro shartnomalari doirasida soliq to'lovchi grant beruvchidan bevosita olgan grantning summasi;

15) soliq to'lovchilarning ish haqi va boshqa daromadlarining hayotni uzoq muddatli sug'urtalash (hayot sug'urtasi sohasining barcha toifalarida) bo'yicha sug'urta mukofotlarini to'lash uchun O'zbekiston Respublikasida sug'urta faoliyatini amalga oshirishga litsenziyasi bo'lgan yuridik shaxslarga yo'naltiriladigan qismi,

16) soliq to'lovchining quyidagilarga yo'naltiriladigan, soliq solinishi lozim bo'lgan ish haqi va boshqa daromadlari:

O'zbekiston Respublikasining oliy o'quv yurtlarida ta'lim olish (o'zining, yigirma olti yoshga to'lmagan farzandlarining yoki erining (xotinining) ta'lim olishi) uchun to'lov;

17) jismoniy shaxslardan tekin (shu jumladan hadya shartnomalari bo'yicha) olingan ulushlar, paylar va aksiyalar tarzidagi daromadlar18) paxta yig'im-terimi bo'yicha qishloq xo'jaligi ishlariga jalb qilinadigan soliq to'lovchilarning bu ishlarni bajarganlik uchun olgan daromadlari;

19) soliq to'lovchi bo'lgan qimmatbaho metallar qidiruvchilarning qonun hujjatlarida belgilangan tartibda qazib olish yo'li bilan ega bo'lgan qimmatbaho metallarni realizatsiya qilishdan olgan daromadlari.

Jismoniy shaxslarni daromad solig'i solishdan ozod qilish

Soliq solishdan quyidagi jismoniy shaxslar to'liq ozod qilinadi:

1) chet davlatlar diplomatik vakolatxonalarining boshliqlari va xodimlari, konsullik muassasalarining mansabdor shaxslari, ularning o'zlari bilan birga yashaydigan oila a'zolari, agar ular O'zbekiston Respublikasining fuqarosi bo'lmasa – O'zbekiston Respublikasidagi manbalardan olinadigan, diplomatlik va konsullik xizmati bilan bog'liq bo'lmagan daromadlaridan tashqari barcha daromadlari bo'yicha;

2) chet davlatlar diplomatik vakolatxonalari va konsullik muassasalarining ma'muriy-texnik xodimlari hamda ularning o'zlari bilan birga yashaydigan oila a'zolari, agar ular O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lmasa yoki O'zbekiston Respublikasida doimiy yashamasa, – O'zbekiston Respublikasidagi manbalardan

olinadigan, diplomatlik va konsullik xizmati bilan bog‘liq bo‘lmagan daromadlaridan tashqari barcha daromadlari bo‘yicha;

3) chet davlatlarning diplomatik vakolatxonalariga, konsullik muassasalariga xizmat ko‘rsatadigan xodimlar tarkibiga kirgan shaxslar, agar ular O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi bo‘lmasa yoki O‘zbekiston Respublikasida doimiy yashamasa – o‘z xizmati yuzasidan oladigan barcha daromadlari bo‘yicha;

4) chet davlatlar diplomatik vakolatxonalari va konsullik muassasalari xodimlarining uylarida ishlovchilar, agar ular O‘zbekiston Respublikasining fuqarosi bo‘lmasa yoki O‘zbekiston Respublikasida doimiy yashamasa – o‘z xizmati yuzasidan oladigan barcha daromadlari bo‘yicha;

5) xalqaro nohukumat tashkilotlarining mansabdor shaxslari – agar ular O‘zbekiston Respublikasining fuqarosi bo‘lmasa, ularning ushbu tashkilotlarda olgan daromadlari bo‘yicha.

Ayrim toifadagi soliq to‘lovchilarni qisman soliq solishdan ozod etish.

Quyidagi soliq to‘lovchilar qisman (daromadlar qaysi oyda olingan bo‘lsa, o‘sha oyda har bir oy uchun mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdorining 1,41 baravari miqdoridagi daromadlar bo‘yicha) soliq solishdan ozod etiladi:

1) «O‘zbekiston Qahramoni», Sovet Ittifoqi Qahramoni, Mehnat Qahramoni unvonlariga sazovor bo‘lgan shaxslar, uchala darajadagi Shuhrat ordeni bilan taqdirlangan shaxslar;

2) urush nogironlari va ishtirokchilari, shuningdek ularga tenglashtirilgan va doirasi qonun hujjatlarida belgilanadigan shaxslar;

3) bolalikdan nogironligi bo‘lgan shaxslar, shuningdek I va II guruh nogironligi bo‘lgan shaxslar;

4) sobiq SSSRni, O‘zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumini himoya qilish yoki harbiy xizmatning yoxud ichki ishlar organlaridagi xizmatning boshqa majburiyatlarini bajarish chog‘ida yaralanganligi, kontuziya bo‘lganligi yoki shikastlanganligi oqibatida yoxud frontda bo‘lish bilan bog‘liq kasallik tufayli halok bo‘lgan harbiy xizmatchilarning hamda ichki ishlar organlari xodimlarining otionalari va beva xotinlari (beva erlari).

5) ikki va undan ortiq o‘n olti yoshga to‘lmagan bolalari bor yolg‘iz onalar;

6) ikki va undan ortiq o‘n olti yoshga to‘lmagan bolalari bor hamda boquvchisini yo‘qotganlik uchun pensiya olmaydigan beva ayol va beva erkaklar;

7) bolaligidan nogironligi bo‘lgan shaxs, doimiy parvarishni talab etadigan farzandi bilan birga yashab, uni tarbiyalayotgan ota yoki ona.

Jismoniy shaxslarning daromadlarini deklaratsiya usulida soliqqa tortish tartibi.

Deklaratsiya – soliq idoralariga soliq to‘lovchi jismoniy shaxslar tomonidan topshiriladigan va o‘z ichiga olingan daromadlar va ushbu daromadlar bilan bog‘liq xarajatlar haqidagi ma‘lumotlarni aks ettiradigan hamda soliq to‘lovchining

hisoblangan soliqlarni ixtiyoriy ravishda va belgilangan vaqtda davlat byudjetiga to'lashga majbur etadigan xujjat hisoblanadi.

Jami yillik daromad to'g'risidagi deklaratsiya asosida soliq solinadigan daromadlar

Deklaratsiya asosida soliq solinadigan daromadlarga O'zbekiston Respublikasi rezidentlari bo'lgan jismoniy shaxslarning quyidagi daromadlari kiradi:

mulkiy daromadlar, agar ushbu bo'limga muvofiq bu daromadlarga soliq agentida soliq solinmasa;

ilm-fan, adabiyot va san'at asarlarini yaratganlik hamda ulardan foydalanganlik uchun mualliflik haqi tariqasida olingan daromadlar;

moddiy naf tarzidagi daromadlar, agar bu daromadlarga soliq agentida soliq solinmagan bo'lsa;

O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqaridagi manbalardan olingan daromadlar;

soliq agentlari bo'lmagan manbalardan olingan daromadlar;

ushbu Kodeks 385-moddasining uchinchi qismida ko'rsatilgan jismoniy shaxslar tomonidan olingan daromadlar, ular tomonidan jami yillik daromad to'g'risidagi deklaratsiya asosida soliq to'lash tartibi tanlanganda;

soliq agenti tomonidan soliq ushlab qolinmagan soliq solinadigan boshqa daromadlar.

Jami yillik daromad to'g'risidagi deklaratsiya, agar soliq to'lovchining asosiy bo'lmagan ish joyidan olingan daromadlaridan soliq uning arizasi bo'yicha ushlab qolingani bo'lsa taqdim qilinmaydi, bundan ushbu modda birinchi qismining beshinchi xatboshisida ko'rsatilgan daromadlar mustasno.

O'zbekiston Respublikasining rezidenti bo'lgan yoki joriy yilning 1 apreligacha rezidentga aylangan chet el jismoniy shaxsi, ushbu modda birinchi va ikkinchi qismlarining qoidalaridan qat'i nazar, ushbu Kodeksning 397-moddasida nazarda tutilgan tartibda va muddatlarda jami yillik daromadi to'g'risida deklaratsiya taqdim etadi.

7.2.Jismoniy shaxslar to'laydigan mol-mulk solig'i ob'yekti va stavkasi .

Soliq to'lovchilar.

soliq solish ob'yekti deb tan olinadigan mol-mulki bo'lgan jismoniy shaxslar, shu jumladan chet el fuqarolari, agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, shuningdek yuridik shaxs tashkil etgan holdagi yoki etmagan holdagi dehqon xo'jaliklari jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'ining soliq to'lovchilari deb e'tirof etiladi.

Soliq solish ob'yekti

O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan quyidagi mol-mulk jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'ining soliq solish ob'yekti hisoblanadi.

1) uy-joylar, kvartiralar, dala hovli imoratlari;

2) tadbirkorlik faoliyati va (yoki) daromad olish uchun mo'ljallangan yashash uchun mo'ljallanmagan ko'chmas mulk ob'yektlari;

3) qurilishi tugallanmagan yashash uchun mo'ljallanmagan ob'yektlar. Qurilishi tugallanmagan yashash uchun mo'ljallanmagan ob'ektlarga ushbu ob'ektni qurishga doir loyiha-smeta hujjatlarida belgilangan normativ muddatda qurilishi tugallanmagan ob'ektlar, agar qurilishning normativ muddati belgilanmagan bo'lsa, ushbu ob'ektning qurilishiga vakolatli bo'lgan organning ruxsatnomasi olingan oydan e'tiboran yigirma to'rt oy ichida qurilishi tugallanmagan ob'ektlar kiradi;

4) boshqa imoratlar, binolar va inshootlar.

Soliq bazasi

Ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organ tomonidan belgilanadigan soliq solish ob'ektlarining kadastr qiymati soliq bazasi hisoblanadi.

Soliqni hisoblab chiqarish maqsadida soliq bazasi qirq ikki million so'mdan kam bo'lishi mumkin emas.

Jismoniy shaxslarning mol-mulkini baholash bo'yicha vakolatli organ tomonidan aniqlangan soliq solish ob'ektining bahosi mavjud bo'lmagan taqdirda, mol-mulkning shartli qiymati Toshkent va Nukus shaharlarida, shuningdek viloyat markazlarida – ushbu moddaning ikkinchi qismida ko'rsatilgan summaning besh baravari miqdorida, boshqa shaharlarda va qishloq joylarda esa – ikki baravari miqdorida soliq bazasi hisoblanadi.

Bitta jismoniy shaxs bir nechta soliq solish ob'ekti bo'yicha soliq to'lovchi bo'lgan taqdirda, soliq bazasi har bir ob'ekt bo'yicha alohida hisoblab chiqiladi.

Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga soliq stavkalari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan belgilanadi, ularni soliq to'lovchilarga Moliya vazirligi, Davlat soliq qo'mitasi va uning quyi organlari tomonidan belgilangan tartibda bildiriladi. Soliq stavkalari har yili keyingi moliya yili uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidentining makroiqtisodiy ko'rsatkichlar prognozi va davlat byudjeti parametrlari to'g'risidaga qarori asosida qayta ko'rib chiqilishi mumkin

Quyidagi jadval ma'lumotlarida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining 2018 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to'g'risida"gi 2017 yil 29 dekabrda PQ-3454-sonli qaroriga asosan 2018 yilda va "O'zbekiston Respublikasining 2019 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to'g'risida"gi 2018 yil 26 dekabrda PQ-4086i qaroriga asosan 2019 yilda va Soliq kodeksiga asosan 2020 yilda Jismoniy shaxslar mol-mulk solig'i stavkalari keltirilgan

Jismoniy shaxslar mol-mulk solig'I STAVKALARI

t/r	Soliq solinadigan ob'yektlarning nomi	Soliq stavkasi, mol-mulkning kadastr qiymatiga nisbatan %da	
		2018y-2019 y	2020 y
1	Uy- joylar, kvartiralar, dala hovli imoratlari (bundan umumiy maydoni 200 kv.m dan oshiq bo'lganlari mustasno), boshqa imoratlar, binolar va inshootlar	0,2	0,2
2	Shaharlarda joylashgan uy-joylar va kvartiralar, umumiy maydoni::		
	200 kv.m dan va 500 kv.m ga qadar bo'lgan	0,25	0,25
	500 kv.m dan ortiq bo'lgan	0,35	0,35
3	Boshqa aholi punktlarida joylashgan, umumiy maydoni 200 kv.m dan ortiq bo'lgan uy-joylar va kvartiralar, dala hovli imoratlari	0,25	0,25
4	Tadbirkorlik faoliyati uchun yoxud yuridik shaxsga yoki yakka tartibdagi tadbirkorga ijaraga berishda foydalaniladigan soliq solish ob'yektlari, shuningdek tadbirkorlik faoliyati va (yoki) daromad olish uchun mo'ljallangan yashash uchun mo'ljallanmagan ko'chmas mulk ob'yektlari	2	2
5	Mol-mulk kadastr qiymati bo'lmaganda mol-mulkning shartli qiymati: Toshkent va Nukus shaharlarida hamda viloyat markazlarida boshqa shaharlar va qishloq joylarda	210 000,0 ming so'm 90 000,0 ming so'm	210 000,0 ming so'm 90 000,0 ming so'm

Soliq stavkasini qo'llashning o'ziga xos xususiyatlari

Jismoniy shaxslar soliq solish ob'ektlaridan tadbirkorlik faoliyati uchun foydalanganda yohud bu ob'ektlar yuridik shaxsga yoki yakka tartibdagi tadbirkorga ijaraga berilganda, shuningdek jismoniy shaxslarning mulkida bo'lgan yashash uchun mo'ljallanmagan binolar bo'yicha jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq yuridik shaxslar uchun belgilangan stavka bo'yicha to'lanadi hamda ko'rsatilgan imtiyozlar ularga nisbatan tatbiq etilmaydi.

Jismoniy shaxs yoki oilaviy korxona turar joydan unda istiqomat qilish bilan bir vaqtda tovarlar ishlab chiqarish (ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish) uchun

foydalangan taqdirda, mol-mulk soli'gi jismoniy shaxslar uchun belgilangan stavka bo'yicha to'lanadi

Soliq imtiyozlari

Quyidagilarning mulkida bo'lgan mol-mulk soliq solishdan ozod etiladi:

1) «O'zbekiston Qahramoni», Sovet Ittifoqi Qahramoni, Mehnat Qahramoni unvonlariga sazovor bo'lgan, uchala darajadagi SHuhrat ordeni bilan taqdirlangan fuqarolarning

2) urush nogironlari va qatnashchilari, shuningdek doirasi qonun hujjatlari bilan belgilanadigan ularga tenglashtirilgan shaxslar.

3) sobiq SSSRni, O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumini himoya qilish yoki harbiy xizmatning yoxud ichki ishlar organlaridagi xizmatning boshqa majburiyatlarini bajarish chog'ida yaralanganligi, kontuziya bo'lganligi yoki mayib bo'lganligi oqibatida yoxud frontda bo'lish bilan bog'liq kasallik tufayli halok bo'lgan harbiy xizmatchilarning hamda ichki ishlar organlari xodimlarining ota-onalari va beva xotinlari (beva erlari).

4) energiya resurslarining amaldagi tarmoqlaridan to'liq uzib qo'yilgan turar joylarda qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanuvchi shaxslar qayta tiklanadigan energiya manbalari o'rnatilgan oydan e'tiboran uch yil muddatga

Quyidagi jismoniy shaxslarning mulkida bo'lgan mol-mulk oltmish kvadrat metr doirasida soliq solishdan ozod qilinadi:

1) o'n nafar va undan ortiq bolalari bor ota-onalaridan birining. Mazkur imtiyoz fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organining bolalar borligini tasdiqlovchi ma'lumotnomasi asosida beriladi;

2) pensionerlarning. Mazkur imtiyoz pensiya guvohnomasi asosida beriladi;

3) I va II guruh nogironligi bo'lgan shaxslarning. Mazkur imtiyoz pensiya guvohnomasi yoki tibbiy-mehnat ekspert komissiyasining ma'lumotnomasi asosida beriladi;

Soliqni hisoblab chiqarish va to'lash tartibi

Kalendar yil soliq davridir.

Soliqni hisoblab chiqarish soliq to'lovchining yashash joyidan qat'i nazar, soliq solish ob'yekti joylashgan yerdagi soliq organlari tomonidan ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazishni amalga oshiruvchi organning ma'lumotlari asosida amalga oshiriladi.

Soliq summasi mol-mulkning 1 yanvardagi holatiga ko'ra bo'lgan kadastr qiymatidan va belgilangan soliq stavkasidan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi.

Bir necha mulkdorlarining umumiy ulushli mulki bo'lgan imoratlar, binolar va inshootlar uchun soliq har bir mulkdor tomonidan ularning ushbu imoratlar, binolar va inshootlardagi ulushiga mutanosib ravishda to'lanadi.

Kalendar yil mobaynida imtiyozlarga bo'lgan huquq vujudga kelgan (tugagan) taqdirda, soliqni qayta hisob-kitob qilish ushbu huquq vujudga kelgan (tugagan) oydan e'tiboran amalga oshiriladi.

Soliqni to'lash to'g'risidagi to'lov xabarnomasi soliq organlari tomonidan soliq to'lovchilarga imzo qo'ydirilgan holda yoki to'lov xabarnomasi olinganligini va olingan sanani tasdiqlovchi boshqa usulda har yili 1 martdan kechiktirmay topshiriladi.

Soliq davri uchun soliqni to'lash teng ulushlarda 15 aprelga va 15 oktyabrga qadar amalga oshiriladi.

7.3.Jismoniy shaxslardan undiriladigan yer solig'i, ob'yekti va stavkasi.

Soliq to'lovchilar

Mulk huquqi, egalik qilish, foydalanish yoki ijara huquqlari asosida yer uchastkalariga ega bo'lgan jismoniy shaxslar, shuningdek yuridik shaxs tashkil etgan yoki etmagan holdagi dehqon xo'jaliklari jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'ini soliq to'lovchilari deb e'tirof etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan ijaraga berilgan yer uchastkalari uchun to'lanadigan ijara haqi yer solig'iga tenglashtiriladi. Yer uchastkalarini ijaraga olgan jismoniy shaxslarga yer solig'ini to'lovchilar uchun belgilangan imtiyozlar, soliqni hisoblab chiqarish, soliq hisob-kitoblarni taqdim etish va soliqni to'lash tartibi tatbiq etiladi.

Soliq solish ob'yekti

Quyidagi yer uchastkalari jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'ining soliq solish ob'yektidir:

1) dehqon xo'jaligini yuritish uchun meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilishga berilgan yer uchastkalari;

2) yakka tartibda uy-joy qurilishi uchun meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilishga berilgan yer uchastkalari;

3) jamoa bog'dorchiligi, uzumchiligi va polizchiligini yuritish uchun berilgan, shuningdek yakka tartibdagi garajlar egallagan yer uchastkalari;

4) xizmat yuzasidan berilgan chek yerlar;

5) meros bo'yicha, hadya qilinishi yoki sotib olinishi natijasida uy-joy va imoratlar bilan birgalikda mulk huquqi, egalik qilish va foydalanish huquqi ham o'tgan yer uchastkalari;

6) qonun hujjatlarida belgilangan tartibda mulk qilib sotib olingan yer uchastkalari;

7) tadbirkorlik faoliyatini yuritish uchun foydalanishga yoki ijaraga berilgan yer uchastkalari.

Ko'p kvartirali uylar egallagan yer uchastkalari soliq solish ob'ekti bo'lmaydi, bundan ushbu modda birinchi qismining 7-bandida ko'rsatilganlar va ko'p kvartirali uylarda joylashgan yashash uchun mo'ljallanmagan ko'chmas mulk ob'ektlari mustasno.

Soliq bazasi

Ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazishni amalga oshiruvchi organning ma'lumotlari bo'yicha yer uchastkalarining maydoni soliq bazasidir.

Jamoa bog'dorchiligi, uzumchiligi va polizchiligini yuritish uchun fuqarolarga berilgan, shuningdek yakka tartibdagi garajlar egallagan yer uchastkalari bo'yicha soliq bazasi ushbu yer uchastkalarini bergan tashkilotlar boshqaruv organlarining ma'lumotlari bo'yicha aniqlanadi.

Xizmat yuzasidan berilgan chek yer maydonlari bo'yicha soliq bazasi o'z xodimlariga yer uchastkalarini byergan korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning ma'lumotlari bo'yicha aniqlanadi.

Yer solig'i stavkalari va soliqdan imtiyozlar

Soliq imtiyozlari

Soliqdan quyidagilar ozod qilinadi:

1) «O'zbekiston Qahramoni», Sovet Ittifoqi Qahramoni, Mehnat Qahramoni unvonlariga sazovor bo'lgan, uchala darajadagi Shuhrat ordeni bilan taqdirlangan fuqarolar;

2) urush nogironlari va qatnashchilari, shuningdek doirasi qonun hujjatlari bilan belgilanadigan ularga tenglashtirilgan shaxslari;

3) I va II guruh nogironligi bo'lgan shaxslar;

4) yolg'iz pensionerlar. Yolg'iz yoki voyaga etmagan bolalari bilan yoxud nogiron bolasi bilan birga alohida uyda yashovchi pensionyerlar yolg'iz pensionyerlar deb tushuniladi;

5) boquvchisini yo'qotgan ko'p bolali oilalar. Ota-onasidan biri yoki ota-onasi vafot etgan hamda oilada o'n olti yoshga to'lmagan beshta va undan ortiq bolalari bo'lgan oilalar soliq solish maqsadida boquvchisini yo'qotgan ko'p bolali oilalardir. Mazkur imtiyoz O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Byudjetdan tashqari pensiya jamg'armasi tuman (shahar) bo'limining ma'lumotnomasi asosida beriladi;

6) Chernobil AESdagi avariya oqibatlarini tugatishda ishtirok etganlik uchun imtiyozlar oladigan fuqarolar;

7) energiya resurslarining amaldagi tarmoqlaridan to'liq uzib qo'yilgan turar joylarda qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanuvchi shaxslar – qayta tiklanadigan energiya manbalari o'rnatilgan oydan e'tiboran uch yil muddatga. Mazkur imtiyoz energiya resurslarining amaldagi tarmoqlaridan to'liq uzib qo'yilgan

holda qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish to'g'risida energiya ta'minoti tashkilotlari tomonidan berilgan ma'lumotnoma asosida beriladi.

Soliq stavkalari

Soliq stavkalari 1 kv.m uchun mutlaq miqdorlarda belgilanadi. Soliq stavkalarining aniq miqdori O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to'g'risidagi Qonuni bilan belgilanadi.

Hududlarning va faoliyat amalga oshiriladigan joyning xususiyatlarini hisobga olgan holda Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlari belgilangan soliq stavkalariga 0,7 dan 1,3 gacha bo'lgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar belgilash huquqiga ega.

Tadbirkorlik faoliyatida foydalaniladigan yer uchastkalari uchun yoxud uylar, dala hovli imoratlari, yakka tartibdagi garajlar va boshqa imoratlar, inshootlar yuridik shaxsga yoki yakka tartibdagi tadbirkorga ijaraga berilganda, shuningdek jismoniy shaxslarning mulkida bo'lgan, yashash uchun mo'ljallanmagan ko'chmas mulk ob'ektlari egallagan yer uchastkalari uchun soliq jismoniy shaxslardan yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'ini to'lash uchun belgilangan soliq stavkalari bo'yicha undiriladi hamda ushbu Kodeksning 436-moddasida ko'rsatilgan imtiyozlar ularga nisbatan tatbiq etilmaydi.

Bo'sh turgan binolar, foydalanilmayotgan ishlab chiqarish maydonlari, yashash uchun mo'ljallanmagan inshootlar, shuningdek normativ muddatida qurilishi tugallanmagan ob'yektlar joylashgan yer uchastkalariga nisbatan qonun hujjatlarida oshirilgan soliq stavkalarini belgilash yo'li bilan yuridik shaxslar uchun nazarda tutilgan ta'sir choralari qo'llanilishi mumkin.

Jismoniy shaxs yoki oilaviy korxona yer uchastkasidan unda joylashgan uyda istiqomat qilish bilan bir vaqtda tovarlar ishlab chiqarish (xizmatlar ko'rsatish) uchun foydalangan taqdirda, soliq jismoniy shaxslar uchun belgilangan soliq stavkasi bo'yicha to'lanadi.

Yakka tartibda uy-joy qurish va turar joyni obodonlashtirish uchun berilgan yer uchastkalarining tomorqa qismiga qishloq xo'jaligi ekinlarini ekish yoki uni obodonlashtirish amalga oshirilmagan taqdirda soliq uch baravar miqdorda to'lanadi.

Yer uchastkalaridan hujjatlarsiz yoxud yer uchastkasiga bo'lgan huquqni tasdiqlovchi hujjatlarda ko'rsatilganidan kattaroq hajmda foydalanilganda, soliq stavkasi belgilangan soliq stavkalarining uch baravari miqdorida belgilanadi.

Soliq davri. Kalendar yil soliq davridir.

Soliqni hisoblab chiqarish tartibi.

Soliqni hisoblab chiqarish, soliq to'lovchining yashash joyidan qat'i nazar, yer uchastkasi joylashgan yerdagi soliq organlari tomonidan ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organning ma'lumotlari asosida amalga oshiriladi.

Soliq organlari har yili 1 martdan kechiktirmay soliq summasi va uni to'lash muddatlari ko'rsatilgan to'lov xabarnomasini jismoniy shaxslarga imzo qo'ydirib yoki to'lov xabarnomasi olinganligi faktini va olingan sanani tasdiqlovchi boshqa usulda topshiradi.

Yil mobaynida yer uchastkasi maydoni o'zgarganda va imtiyozlarga bo'lgan huquq yuzaga kelganda (tugatilganda) soliq organlari mazkur o'zgarishlardan keyin bir oy ichida soliqni qayta hisob-kitob qilishi hamda soliq to'lovchiga soliq summasi va uni to'lash muddatlari ko'rsatilgan yangi yoki qo'shimcha to'lov xabarnomasini taqdim etishi kerak.

Soliq to'lash tartibi

Yil davomida ajratilgan yer uchastkalari uchun soliq yer uchastkasi ajratilgan oydan keyingi oydan e'tiboran jismoniy shaxslar tomonidan to'lanadi.

Yer uchastkasi maydoni kamaytirilgan taqdirda, soliqni to'lash yer uchastkasi kamaytirilgan oydan e'tiboran tugatiladi (kamaytiriladi).

Soliq bo'yicha imtiyozlar belgilangan taqdirda, bu soliq imtiyozga bo'lgan huquq yuzaga kelgan oydan e'tiboran to'lanmaydi. Soliq bo'yicha imtiyozlarga bo'lgan huquq tugatilgan taqdirda, bu soliq mazkur huquq tugatilgan oydan keyingi oydan e'tiboran to'lanish boshlaydi.

Soliq davri uchun soliqni to'lash jismoniy shaxslar tomonidan 15 aprel va 15 oktyabrga qadar teng ulushlarda amalga oshiriladi.

7.4.Mahalliy soliqlar va yig'imlar.

Oldingi tahrirdagi Soliq kodeksining 23-moddasiga ko'ra ayrim turdagi tovarlar bilan chakana savdo qilish va ayrim turdagi xizmatlarni ko'rsatish huquqi uchun yig'im mahalliy soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar tarkibiga kiradi va u mahalliy byudjet daromadlaridan biri hisoblanardi.

Yig'im joriy qilingan tovarlar savdosini va xizmatlar ko'rsatishni belgilangan tartibda amalga oshirayotgan yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar, agar qonun hujjatlarida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, tovarlarning ayrim turlari bilan chakana savdo qilish va ayrim turdagi xizmatlar ko'rsatish huquqi uchun yig'im to'lovchilardir.

Ushbu yig'im ayrim turdagi tovarlar bilan chakana savdoni amalga oshirish va ayrim turdagi xizmatlarni ko'rsatish huquqini olish uchun to'lanadi. Ayrim turdagi tovarlar bilan chakana savdo qilish va ayrim turdagi xizmatlarni ko'rsatish huquqi ruxsat guvohnomasi bilan tasdiqlanadi. Ruxsat guvohnomasi joylardagi mahalliy hokimiyat organlari tomonidan qonunchilikda belgilangan tartibda beriladi. Ayrim tovar turlarining va xizmatlarning ro'yxati O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan belgilanadi.

Soliq solish ob'yekti

Tovarlar va xizmatlarning qonun hujjatlarida belgilanadigan ro'yxati tovarlarning ayrim turlari bilan chakana savdo qilish va ayrim turdagi xizmatlar ko'rsatish uchun yig'im ob'ektidir.

Yig'imni hisoblab chiqarish va to'lash tartibi

Tovarlarning ayrim turlari bilan chakana savdo qilish va ayrim turdagi xizmatlar ko'rsatish huquqi uchun yig'im yig'im stavkalarining qonun hujjatlarida belgilangan oylik miqdori doirasida hisoblab chiqariladi.

Tovarlarning ayrim turlari bilan chakana savdo qilish va ayrim turdagi xizmatlar ko'rsatish huquqi uchun yig'imning aniq stavkasi mahalliy davlat hokimiyatining vakillik organlari tomonidan belgilanadi va qonun hujjatlarida belgilangan eng yuqori stavkalardan ortiq bo'lishi mumkin emas.

Tovarlarning ayrim turlari bilan chakana savdo qilish va ayrim turdagi xizmatlar ko'rsatish huquqi uchun yig'im har oyda, hisobot oyidan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmasdan to'lanadi.

Tovarlarning ayrim turlari bilan chakana savdo qilish va ayrim turdagi xizmatlar ko'rsatish huquqi uchun yig'im bo'yicha hisob-kitob faoliyat amalga oshirilayotgan joydagi davlat soliq xizmati organlariga:

yil davomida tegishli ruxsat guvohnomasini (mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organining qarorini) olgan soliq to'lovchilar tomonidan - ruxsat guvohnomasi (mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organining qarori) berilgan kundan e'tiboran o'n kundan kechiktirmasdan;

faoliyat yuritayotgan soliq to'lovchilar tomonidan - har yili hisobot yilining 15 yanvarigacha taqdim etiladi.

Yig'imlar o'rnatilgan eng kam ish haqiga karrali miqdorda (nisbatan) belgilanadi.

Transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq

Transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq- O'zbekiston Respublikasining 24.12.2018 yildagi O'RQ-508-son Qonuniga muvofiq bekor qilindi.

Transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq to'lovchilari- oxirgi iste'molchilarga benzin, dizel yoqilg'isi va gazni (chakana sotadigan) avtomobillarga yoqilg'i quyish shoxobchalari orqali realizatsiya qilishni amalga oshiruvchi yuridik shaxslar edi.

Transport vositalari uchun benzin, dizel yoqilg'isi va gazni chakana sotish soliq solish ob'ekti hisoblanardi. Benzin, dizel yoqilg'isi va gazning natura holidagi realizatsiya qilingan va o'z ehtiyojlari uchun foydalanilgan hajmi soliq solinadigan baza edi.

Jismoniy shaxslarga sotilgan o'zi ishlab chiqargan hamda Chetdan xarid qilingan benzin, dizel yonilg'isi va gazning natural hajmi soliq solish baza hisoblanardi.

Benzin, dizel yog'ilg'isi va gazni sotish deganda ularni jismoniy shaxslarga amalda berish tushuniladi.

**Mahalliy soliqlar va yig'imlar cheklangan soliq
STAVKASI 2018 yil uchun**

t/r	Soliqlar va yig'imlar turlari	Chegaralangan stavkalar			
		Toshkent shahri	Nukus sh. va viloyatlardagi markaziy shaharlar	Boshqa shaharlar	Boshqa aholi punktlari
1	Alohida mahsulotlar bo'yicha chakana savdo qilish huquqi uchun yig'im (yig'imlar o'rnatilgan eng kam ish haqiga karrali miqdorda belgilanadi)				
	Alkagol mahsulotlari bilan, jumladan umumiy ovqatlanish korxonalari tomonidan alkagol mahsulotlarini sotish	6,0	5,0	4,0	3,0
	Qimmatbaho toshlar va metallardan tayyorlangan mahsulotlar uchun	4,0	3,5	3,0	2,0
2	Transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq				
	Benzin	232,5 so'm 1 litriga/308 850 so'm 1 tonnasiga			
	Dizel yoqilg'isi	232,5 so'm 1 litriga/282 500 so'm 1 tonnasiga			
	Suyultirilgan gaz	230 so'm 1 litriga/436 300 so'm 1 tonnasiga			
	Siqilgan gaz	305 so'm 1 kub metriga			
3	Avtotransport vositalarini vaqtincha saqlash bo'yicha pulli xizmatlarni ko'rsatish huquqi uchun yig'im	8,0			

Yig'im stavkasi yil boshiga – 2018 yil 1 yanvar holatiga belgilangan eng kam ish haqi miqdoridan (172 240 so'm) kelib chiqib aniqlandi va yil davomida eng kam ish haqi miqdori o'zgargan taqdirda ham qayta ko'rib chiqilmaydi.

Quyidagi jadval ma'lumotlarida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining 2018 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to'g'risida"gi 2017 yil 29 dekabrda PQ-3454-sonli qaroriga asosan 2018 yilda va "O'zbekiston Respublikasining 2019 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to'g'risida"gi 2018 yil 26 dekabrda PQ-4086-sonli qaroriga asosan 2019 yilda ayrim turdagi tovarlar bilan chakana savdo qilish huquqi uchun yig'im stavkalari keltirilgan.

**Ayrim turdagi tovarlar bilan chakana savdo qilish huquqi uchun yig'im
STAVKALARI keltirilgan (so'mda)**

t/r	Ayrim turdagi tovarlar bilan chakana savdo qilish huquqi uchun yig'im	Toshkent shahri		Nukus sh. va viloyat markazlari bo'lgan shaharlar		Boshqa shaharlar		boshqa aholi punktlari	
		2018 yil	2019 yil	2018 yil	2019 yil	2018 yil	2019 yil	2018 yil	2019 yil
1	alkogolli		1 033 440		861 200				

	mahsulotlar, shu jumladan, umumiy ovqatlanish korxonalari tomonidan alkogolli mahsulotlarning realizatsiya qilinishi	1 216 400		1 013 700		810 900	688 960	608 200	516 720
2	qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlardan yasalgan buyumlar	810 900	688 960	709 600	602 840	608 200	516 720	405 500	344 480

Mahalliy yigimlarning chegaralangan stavkalari 2020 yilda O'zbekiston Respublikasining 2019 yil 9 dekabrda Davlat byudjeti to'g'risidagi O'RQ -589 sonli Qonuniga asosan belgilandi.

13-jadval

Mahalliy yigimlarning chegaralangan stavkalari 2020 yil uchun

t/r	Yig'imlarning turlari	Bir oyga chegaralangan stavkalar (so'mda)			
		Toshkent shahri	Nukus sh. va viloyat markazlari	Boshqa shaharlar	boshqa aholi punktlari
1	alkogolli mahsulotlar, shu jumladan, umumiy ovqatlanish korxonalari tomonidan alkogolli mahsulotlarni sotish	1200 000	1000 000	800 000	600 000

Mahalliy yig'imni o'z vaqtida to'lanishi, qonun hujjatlariga rioya qilinishi uchun javobgarlik yig'imni to'lovchilar zimmasiga yuklanadi.

Davlat soliq xizmati organlari esa o'zlariga berilgan vakolot doirasida qonun hujjatlariga muvofiq yig'imni to'lovchilarning byudjet oldidagi majburiyatlarini bajarilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi.

Obodonlashtirish va infratuzilmani rivojlantirish solig'i - O'zbekiston Respublikasining 29.12.2017 y. O'RQ-454-son Qonuniga muvofiq bekor qilindi.

O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan va tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi yuridik shaxslar –O'zbekiston Respublikasi rezidentlari obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'ini to'lovchisi hisoblanardilar. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i to'langanidan keyin korxonalar tasarrufida qoladigan foyda (2-son "Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot" shaklining 240 satri – 250 satri) obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish uchun soliqni hisoblab chiqarish chog'ida soliq solish ob'ekti va bazasi hisoblanardi. 2013 yildan 2017 yilgacha obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i sof foydaning 8 foizi miqdorida saqlanib qolindi. Ammo 2018 yildan boshlab O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining 2018 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to'g'risida"gi 2017 yil 29 dekabrda PQ-3454-sonli qaroriga asosan bu foiz yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i hisoblanadi o'tkazildi.

Nazorat savollari:

1. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining mohiyatini tushuntirib bering?
2. Qanday shaxslarni jismoniy shaxslar deb atashadi?
3. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining to'lovchilari kimlar?
4. Jismoniy shaxslarning jami yillik daromadlariga qaysi daromad turlari kiradi?
5. Jismoniy shaxslardan undiriladigan mol-mulk solig'ining to'lovchilari kimlar?
6. Jismoniy shaxslarning qanday mol-mulklari soliq solish ob'ekti va bazasi hisoblanadi?
7. Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i stavkalari kimning qarori bilan belgilanadi?
8. Jismoniy shaxslardan undiriladigan yer solig'ining to'lovchilari kimlar?
9. Jismoniy shaxslarning qanday yerlari soliq solish ob'yekti bo'la oladi?
10. Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i stavkalari qanday belgilanadi?
11. Jismoniy shaxslar berilgan yerlardan foydalanmagan holatda qanday tartibda ulardan soliq undiriladi?
12. Jismoniy shaxslarga tadbirkorlik faoliyati uchun berilgan yer uchastkalaridan qanday tartibda soliq undiriladi?
13. Qanday toifadagi fuqarolar yer solig'idan ozod etiladi?
14. Ayrim turdagi tovarlar bilan chakana savdo qilish va ayrim turdagi xizmatlarni ko'rsatish huquqi uchun yig'im qanday yig'im.

8-MAVZU.YURIDIK SHAXSLARDAN OLINADIGAN SOLIQLAR

Reja:

8.1.Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ining iqtisodiy mohiyati, ob'yekti va stavkasi. Yuridik shaxslarning yillik jami daromadlari tarkibi.

8.2. O'zbekiston Respublikasi soliq tizimiga yer solig'ining joriy etilishi va uning iqtisodiy mohiyati. Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqlar va maxsus to'lovlarning ob'yekti, stavkasi.

8.3.Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va uning joriy etilish sabablari. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqning ob'yekti va stavkasi.

8.4.Mol-mulk solig'ining joriy etilishi va uning iqtisodiy mohiyati. Yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i ob'yekti, stavkasi

Tayanch iboralar: foyda solig'i, royalti, imtiyozli bonus, yer solig'i, yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqlar, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq.

8.1.Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ining iqtisodiy mohiyati, ob'yekti va stavkasi. Yuridik shaxslarning yillik jami daromadlari tarkibi.

1995 yil yanvar oyidan boshlab soliqlarning rag'batlantiruvchi rolini kuchaytirish maqsadida mamlakatimizda korxonalarning foydasidan olinadigan soliq joriy etildi. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i umumdavlat soliqlari tarkibiga kirib, u davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishda asosiy manbalardan biri hisoblanadi.

Soliq to'lovchilar tarkibi.

Quyidagilar foyda solig'ining soliq to'lovchilari (bundan buyon ushbu bo'limda soliq to'lovchilar deb yuritiladi) deb e'tirof etiladi:

- 1) O'zbekiston Respublikasining soliq rezidentlari bo'lgan yuridik shaxslar;
- 2) O'zbekiston Respublikasining norezidentlari bo'lgan yuridik shaxslar, shuningdek O'zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasalar orqali amalga oshiradigan, yuridik shaxs tashkil etmagan holdagi chet el tuzilmalari;
- 3) O'zbekiston Respublikasidagi manbalardan daromadlar oluvchi O'zbekiston Respublikasi norezidentlari bo'lgan yuridik shaxslar ;
- 4) soliq to'lovchilar konsolidatsiyalashgan guruhining mas'ul ishtirokchilari bo'lgan yuridik shaxslar;
- 5) soliq davrida tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olgan daromadlari bir milliard so'mdan ortiq bo'lgan yoki o'z ixtiyori bilan foyda solig'ini to'lashga o'tgan yakka tartibdagi tadbirkorlar;

6) oddiy shirkat shartnomasi (birgalikdagi faoliyat to'g'risidagi shartnoma) doirasida amalga oshiriladigan faoliyat bo'yicha oddiy shirkatning ishonchli shaxsi.

Soliqqa tortish maqsadida foydaga soliq to'lovchilarni rezidentlar va norezidentlarga ajratiladi.

O'zbekiston Respublikasining rezidenti deb, O'zbekistonda ta'sis etilgan yoki ro'yxatdan o'tgan hamda bosh korxonasi O'zbekistonda joylashib, O'zbekiston Respublikasidan tashqarida ro'yxatdan o'tgan yuridik shaxslar hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi rezidenti bo'lgan yuridik shaxslar O'zbekistonda va undan tashqaridagi faoliyatdan olgan daromadlaridan foyda solig'iga tortiladilar.

O'zbekiston Respublikasining norezidentlari esa, faqat O'zbekiston Respublikasida faoliyat ko'rsatishdan olgan daromadlari bo'yicha soliqqa tortiladilar.

Rezidentlar doimiy faoliyat ko'rsatuvchilar bo'lsa, norezidentlar faoliyati Respublikada vaqtinchalik xarakterga ega bo'ladi.

Yuridik shaxslar foyda solig'i to'lovchilari bo'lishi uchun qo'yidagi shartlarga javob berishi kerak:

✓ ruxsat etilgan faoliyatdan foyda olishi (qonunchilik bilan ta'qiqlangan faoliyatdan tashqari);

✓ o'zining mol-mulkiga ega bo'lishi;

✓ mustaqil tugallangan buxgalteriya balansiga ega bo'lishi;

✓ bankda hisob raqamiga ega bo'lishi;

✓ identifikatsion raqamga ega bo'lishi.

✓ mahalliy hokimiyat organlaridan ro'yxatdan o'tgan bo'lishi.

Umumiy tartib bo'yicha yuridik shaxslar qayd etilgan shartlarga javob bersagina foyda solig'i to'lovchilar bo'lib hisoblanadilar.

Soliq solish ob'yekti

Soliq to'lovchi tomonidan olingan foyda foyda solig'i bo'yicha soliq solish ob'yekti hisoblanadi.

Ushbu bo'lim maqsadida quyidagilar **foyda** deb e'tirof etiladi:

1) yuridik shaxs uchun – ushbu bo'limda nazarda tutilgan jami daromad va xarajatlar o'rtasidagi farq;

2) faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshiruvchi norezident uchun – 2020 yildagi yangi tahrirdagi Kodeksning 49-bobida belgilangan o'ziga xos xususiyatlar inobatga olingan holda, ushbu bo'limda nazarda tutilgan doimiy muassasaning faoliyati bilan bog'liq bo'lgan jami daromad (shu jumladan bunday doimiy muassasaning faoliyati bilan bog'liq bo'lgan, O'zbekiston Respublikasidan tashqaridagi manbalardan olingan daromadlar) va xarajatlar o'rtasidagi farq;

3) norezident uchun – ushbu Kodeksning 50-bobida belgilangan xususiyatlar inobatga olingan holda, O'zbekiston Respublikasidagi manbalardan olingan daromadlar;

4) yakka tartibdagi tadbirkor uchun – ushbu Kodeksning 51-bobida belgilangan o‘ziga xos xususiyatlar inobatga olingan holda, ushbu bo‘limda nazarda tutilgan jami daromad va xarajatlar o‘rtasidagi farq;

5) zimmasiga oddiy shirkat ishlarini yuritish yuklatilgan shaxs uchun – birgalikda ishlab chiqarilgan tovarni (ko‘rsatilgan xizmatni) realizatsiya qilishdan olingan daromad va birgalikda ishlab chiqarilib realizatsiya qilingan tovarga (xizmatga) to‘g‘ri keladigan birgalikdagi faoliyatga kiritilgan mablag‘lar summasi o‘rtasidagi farq.

Soliq bazasi

Ushbu Kodeksning 295-moddasiga muvofiq aniqlanadigan, soliq solinishi lozim bo‘lgan foyda summasi soliq bazasi hisoblanadi.

Soliq bazasini ushbu bo‘limda belgilangan tartibda va shartlarda aniqlashda soliq to‘lovchi daromadlarining va (yoki) xarajatlarining (zararlarining) ayrim turlari maxsus qoidalar bo‘yicha inobatga olinishi yoki inobatga olinmasligi mumkin.

Jami daromad yuridik shaxs tomonidan O‘zbekiston Respublikasidagi va uning hududidan tashqaridagi manbalardan hisobot (soliq) davri mobaynida olingan daromadlardan iboratdir.

Jami daromad qo‘shilgan qiymat solig‘ini va aksiz solig‘ini inobatga olmagan holda aniqlanadi.

Jami daromadga har qanday shaklda va (yoki) har qanday faoliyatdan olinishi lozim bo‘lgan quyidagi daromadlar kiradi:

- 1) tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan daromad;
- 2) kredit (qarz, mikrocredit va boshqa moliyaviy operatsiyalar) bo‘yicha mukofot tarzidagi daromad;
- 3) sug‘urta, qayta sug‘urta tashkilotining sug‘urta, qayta sug‘urta qilish shartnomalari bo‘yicha daromadi;
- 4) REPO operatsiyalari bo‘yicha daromad;
- 5) qimmatli qog‘ozlar va (yoki) muddatli bitimlarning moliyaviy vositalariga doir operatsiyalar bo‘yicha olingan daromad;
- 6) asosiy vositalarning va boshqa mol-mulkning ushbu Kodeksning 298-moddasiga muvofiq chiqib ketishidan olingan daromad;
- 7) moliyaviy ijara (lizing) shartnomasiga binoan mol-mulkni berish bo‘yicha pul mukofoti tarzidagi daromad;
- 8) mol-mulkni mulk ijarasiga (ijaraga) berishdan olingan daromad, bundan moliyaviy ijara (lizing) mustasno;
- 9) royalti;
- 10) ushbu Kodeksning 299-moddasiga muvofiq tekin olingan mol-mulk (olingan xizmatlar);
- 11) inventarizatsiya natijasida aniqlangan ortiqcha tovar-moddiy zaxiralarning va boshqa mol-mulkning qiymati tarzidagi daromad;

12) qonun hujjatlarida belgilangan tartibda majburiyatlarni hisobdan chiqarishdan olingan daromad;

13) ushbu Kodeksning 300-moddasiga muvofiq talab qilish huquqidan oʻzganing foydasiga voz kechish shartnomasi boʻyicha olingan daromad;

14) ilgari chegirib tashlangan xarajatlar yoki zararlarning oʻrnini qoplash tarzidagi daromad;

15) muvofiq xizmat koʻrsatuvchi xoʻjaliklardan olinadigan daromad;

16) ushbu Kodeksning 319-moddasiga muvofiq birgalikdagi faoliyatda ishtirok etishdan olingan daromad;

17) qarzdor tomonidan eʼtirof etilgan yoxud qarzdor tomonidan sudning qonuniy kuchga kirgan hujjati asosida shartnoma majburiyatlarini buzganlik uchun toʻlanishi lozim boʻlgan jarimalar, penyalari va boshqa sanksiyalar, shuningdek zararlarning (ziyonning) oʻrnini qoplash summolari;

18) ushbu Kodeksning 320-moddasiga muvofiq kursdagi ijobiy farq;

19) dividendlar va foizlar;

20) ishonchli boshqaruv muassisi tomonidan mol-mulkni ishonchli boshqarishdan olingan daromad;

21) shakllantirilish xarajatlari ushbu Kodeksning 44 va 45-boblarida belgilangan tartibda va shartlarda xarajatlar tarkibiga qabul qilingan, qayta tiklangan zaxiralar summolari;

22) aksiyador, ishtirokchi yuridik shaxs foydasiga oʻz ulushining (ulushi bir qismining) qiymatini olishdan voz kechgan taqdirda, mazkur yuridik shaxsning ustav fondi (ustav kapitali) kamayishi munosabati bilan olgan daromad;

23) korxonani mol-mulk majmui sifatida sotishdan olingan daromad;

24) ushbu Kodeksning VI boʻlimida belgilangan hollarda va tartibda narxlarga tuzatishlar kiritish tufayli olingan daromad;

25) ushbu Kodeksning VII boʻlimida belgilangan hollarda va tartibda nazorat qilinadigan chet el kompaniyasining foyda tarzidagi daromadi;

26) alohida hisobi mavjud boʻlmagan va (yoki) ulardan maqsadli foydalanilmagan maqsadli mablagʻlar tarzidagi daromad;

27) ushbu qismning 1–26-bandlarida koʻrsatilmagan boshqa daromadlar.

Quyidagilar daromad sifatida hisobga olinmaydi:

1) ustav fondiga (ustav kapitaliga) qoʻshilgan hissa tarzida olingan mablagʻlar;

2) aksiyalarni (ulushlarni) joylashtirish narxining ularning nominal qiymatidan (dastlabki miqdoridan) ortiqcha summasi;

3) ishtirokchilar tarkibidan chiqish (chiqib ketish) chogʻida ustav fondiga (ustav kapitaliga) qoʻshilgan hissa doirasida olingan yoki ishtirokchining ulushi miqdorini kamaytirish, shuningdek tugatilayotgan yuridik shaxsning mol-mulkini ishtirokchilar oʻrtasida taqsimlash chogʻida olingan mablagʻlar;

- 4) oddiy shirkat shartnomasi bo'yicha birgalikdagi faoliyatni amalga oshirish uchun birlashtiriladigan mablag'lar;
- 5) oddiy shirkat shartnomasi bo'yicha sherikning (ishtirokchining) shartnoma sheriklari (ishtirokchilari) umumiy mulkidagi ulushi qaytarilgan yoki bunday mol-mulk bo'lingan taqdirda, ushbu sherik (ishtirokchi tomonidan) qo'shilgan hissa miqdorida olingan mablag'lar;
- 6) realizatsiya qilinadigan tovarlar (xizmatlar) uchun oldindan to'lov (bo'nak) tarzida boshqa shaxslardan olingan mablag'lar;
- 7) qonun hujjatlariga muvofiq ushbu majburiyatlarning ta'minoti sifatida garov yoki zakalat tarzida olingan mablag'lar, ularga bo'lgan mulk huquqi boshqa shaxsga o'tgan paytga qadar;
- 8) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoki O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari asosida, shuningdek O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalariga muvofiq tekinga olingan mol-mulk va xizmatlar;
- 9) ushbu Kodeksning 48-moddasida nazarda tutilgan talablar bajarilishi sharti bilan olingan grantlar, insonparvarlik yordami va maqsadli tushumlar;
- 10) sug'urta shartnomalari bo'yicha sug'urta to'voni (sug'urta summasi) tarzida olingan mablag'lar;
- 11) vositachiga yoki boshqa ishonchli vakilga vositachilik, topshiriq shartnomasi yoki vositachilik xizmatlari ko'rsatishga doir boshqa shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarishi munosabati bilan, shuningdek vositachi yoki boshqa ishonchli vakil tomonidan komitent yoxud boshqa ishonch bildiruvchi uchun amalga oshirilgan xarajatlarning o'rnini qoplash hisobidan kelib tushgan mol-mulk (pul mukofoti bundan mustasno). Bunday xarajatlar, agar tuzilgan shartnomalar shartlarida bu xarajatlarning o'rnini qoplash nazarda tutilgan bo'lsa, vositachidan yoki ishonchli vakildan chegirib tashlanmaydi;
- 12) moliyaviy ijara (lizing) ob'ektning qiymati o'rnini ijaraga beruvchi (lizing beruvchi) tomonidan olingan ijara (lizing) to'lovining qismi tarzida qoplash;
- 13) mol-mulk ijarasiga doir shartnoma bo'yicha olingan mol-mulk, bundan moliyaviy ijara (lizing) mustasno;
- 14) telekommunikatsiya tarmoqlaridagi tezkor-qidiruv tadbirlari tizimining tekin olingan texnik vositalari, shuningdek ulardan foydalanish va ularga xizmat ko'rsatish bo'yicha xizmatlar;
- 15) investor va davlat mulkini boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organi o'rtasida tuzilgan shartnomaga binoan investitsiya majburiyatlari sifatida kiritiladigan mol-mulk;
- 16) kredit yoki qarz shartnomalari bo'yicha mablag'lar yoki boshqa mol-mulk (mablag' jalb qilishni rasmiylashtirish usulidan qat'i nazar, boshqa shunday mablag'lar yoki boshqa mol-mulk, shu jumladan qarz qimmatli qog'ozlar),

shuningdek bunday jalb qilingan mablag'larni to'lash hisobidan mablag'lar yoki boshqa mol-mulk;

17) konsessiya bitimi bo'yicha qonun hujjatlariga muvofiq olingan mol-mulk;

18) davlat muassasalari tomonidan barcha darajalardagi ijro etuvchi hokimiyat organlarining qaroriga ko'ra olingan mol-mulk;

19) O'zbekiston Respublikasining davlat obligatsiyalari va davlatning boshqa qimmatli qog'ozlari bo'yicha olingan daromadlar, shuningdek O'zbekiston Respublikasi tomonidan va O'zbekiston Respublikasi yuridik shaxslari tomonidan chiqarilgan xalqaro obligatsiyalar bo'yicha daromadlar;

20) soliq to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq hisobdan chiqarilgan penyalarning va jarimalarning summasi.

O'zbekiston Respublikasidagi to'lov manbaida soliq solinadigan dividendlar va foizlar jami daromaddan chegirib tashlanadi.

Soliq stavkalari.

Quyidagi jadval ma'lumotlarida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining 2018 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to'g'risida"gi 2017 yil 29 dekabrda PQ-3454-sonli qaroriga asosan 2018 yilda va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining 2019 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to'g'risida"gi 2018 yil 26 dekabrda PQ-4086-sonli qaroriga asosan 2019 yilda yuridik shaxslarning foydasiga soliq stavkalari keltirilgan.

14-jadval

Yuridik shaxslar foydasiga solinadigan soliq STAVKALARI

t/r	To'lovchilar	Soliq solinadigan bazaga nisbatan % da soliq stavkalari	
		2018 y	2019 y
1	Yuridik shaxslar (2-3 bandlardagidan tashqari)	14	12
2	Tijorat banklari	22	20
3	Sement (klinker), polietilen granulalari ishlab chiqarishni amalga oshiruvchilar	14	20
4	Qo'shimcha foyda solig'i	50	

5	Mobil aloqa xizmatlarini ko'rsatuvchi yuridik shaxslar (uyali aloqa kompaniyalari) uchun rentabellik darajasidan kelib chiqib foyda solig'i stavkalari -rentabellik darajasi 20 foizgacha -rentabellik darajasi 20 foizdan yuqori bo'lgan foyda summasiga	14 50	20
6	Auksionlar o'tkazishdan, gastrol'-konsert faoliyati bilan shug'ullanishga litsenziyasi bo'lgan yuridik va jismoniy shaxslarni (shuningdek, norezidentlarni) jalb etish yo'li bilan ommaviy tomosha tadbirlarini tashkil etishdan daromad oluvchi yuridik shaxslar	35	

15-jadval

Soliq kodeksining 337-moddasiga asosan 2020 yil uchun foyda solig'i stavkalari

№	Soliq to'lovchilar	Soliq stavkalari, foizlarda
1	Foyda solig'i to'lovchilar, bundan 2–13-bandlarda ko'rsatilganlar mustasno	15
2	Banklar	20
3	Quyidagi soliq to'lovchilar: sement (klinker) ishlab chiqarishni amalga oshiruvchi; polietilen granulalar ishlab chiqarishni amalga oshiruvchi; faoliyatining asosiy turi mobil aloqa xizmatlarini ko'rsatishdan iborat bo'lgan	20
4	O'zi ishlab chiqargan o'z qishloq xo'jaligi mahsulotini realizatsiya qilishdan olingan foyda bo'yicha ushbu Kodeksning 57-moddasida nazarda tutilgan mezonlarga javob beruvchi qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari va baliq xo'jaligi korxonalari	0
5	Ijtimoiy sohada faoliyatni amalga oshiruvchi soliq to'lovchilar	0
6	Qo'shimcha manbalardan daromadlar oluvchi byudjet tashkilotlari	0
7	Tovarlarni (ishlarni) eksportga realizatsiya qilishdan olingan foyda	0
8	Bozor va savdo komplekslarida xizmat ko'rsatishdan olingan foyda	20
9	Tovarlarning (xizmatlarning) elektron savdosini amalga oshiruvchi elektron tijorat sub'ektlarining milliy reestriga kiritilgan soliq to'lovchilar	7,5
10	Yagona ishtirokchilari nogironligi bo'lgan shaxslarning jamoat birlashmalari bo'lgan va umumiy xodimlar sonida nogironligi bo'lgan shaxslar kamida 50 foizni tashkil etadigan va nogironligi bo'lgan shaxslarning mehnatiga haq to'lash jamg'armasi mehnatga haq to'lash umumiy fondining kamida 50 foizini tashkil etadigan soliq to'lovchilar	0
11	O'zbekiston Respublikasi Xalq banki tomonidan fuqarolarning shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlaridagi mablag'lardan foydalanishdan olinadigan daromadlar	0
12	Dividendlar tarzidagi daromadlar	5
13	Aylanmasi 1 mlrd.so'mdan oshgan yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun	Soddalashtirilgan tartibdagi soliq bazasi jami daromadning 25 foizi

Ushbu modda birinchi qismining 2-bandida ko'rsatilgan soliq to'lovchilar faoliyatning barcha turlari bo'yicha belgilangan soliq stavkasini qo'llaydi.

Ushbu modda birinchi qismining 3-bandida ko'rsatilgan soliq to'lovchilar, agar o'zi ishlab chiqargan qishloq xo'jaligi mahsulotini realizatsiya qilishdan olingan daromadlari jami daromadning 90 foizdan ko'prog'ini tashkil etsa, faoliyatning barcha turlari bo'yicha 0 foiz miqdorida soliq stavkasini qo'llashga haqlidir.

Ijtimoiy sohada faoliyatni amalga oshiruvchi soliq to'lovchi ushbu Kodeksning 59-moddasida belgilangan mezonlarga rioya etmagan taqdirda, mazkur shartlarga rioya etmaganlik ro'y bergan soliq davrining boshlanishidan e'tiboran ushbu modda birinchi qismining 12-bandida belgilangan soliq stavkasini ilgari o'tgan soliq davrlari uchun aniqlashtirilgan soliq hisobotini taqdim etgan holda qo'llaydi.

Ushbu modda birinchi qismining 8-bandida ko'rsatilgan soliq to'lovchilar, agar ko'rsatilgan faoliyat turlarini amalga oshirishdan olingan daromadlar joriy hisobot (soliq) davri yakunlari bo'yicha jami daromadning kamida 90 foizini tashkil etsa, 7,5 foiz miqdoridagi soliq stavkasini qo'llashga haqli.

Qo'shimcha manbalardan daromad oluvchi byudjet tashkilotlari, basharti bo'shatilayotgan mablag'lardan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda byudjet tashkilotlarining moddiy-texnika va ijtimoiy bazasini mustahkamlash, o'z xodimlarini moddiy rag'batlantirish uchun maqsadli tarzda foydalansa, 2023 yilning 1 yanvariga qadar 0 foiz miqdoridagi soliq stavkasini qo'llaydi.

O'zida ishlovchilarning umumiy o'rtacha yillik sonining 3 foizidan ko'prog'i nogironligi bo'lgan shaxslarni tashkil etadigan yuridik shaxslar uchun soliq stavkasi ushbu moddada belgilangan normadan ortiqcha ishga joylashtirilgan nogironlarning har bir foiziga soliq stavkasining bir foizi hisobidan kamaytiriladi.

Ushbu modda birinchi qismining 6-bandida nazarda tutilgan 0 darajali foiz miqdoridagi soliq stavkasi soliq to'lovchilar tomonidan, agar tovarlarni (xizmatlarni) eksport qilishdan olinadigan daromadlar jami daromadning kamida 15 foizini tashkil etsa, qo'llaniladi.

Tovarlar eksport qilinganda, shu jumladan tovar vositachi (ishonchli vakil) orqali realizatsiya qilinganda, 0 darajali foiz miqdoridagi soliq stavkasi soliq to'lovchilar tomonidan, ushbu Kodeksning 261-moddasida nazarda tutilgan tovarlarning eksportini tasdiqlovchi hujjatlar mavjud bo'lganda, qo'llaniladi.

Tovarlar eksport qilinganda, 0 darajali foiz miqdoridagi soliq stavkasi soliq to'lovchilar tomonidan, tovarlarni chet el valyutasida eksport qilish yuzasidan daromadlar tovarlar (xizmatlar) eksportga chiqarilgan kundan e'tiboran bir yuz sakson kalendar kuni ichida kelib tushmagan taqdirda, qo'llanilmaydi.

Ushbu moddaning sakkizinchi qismi qoidalarini quyidagilarga nisbatan tatbiq etilmaydi:

1) ro'yxati O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan tasdiqlanadigan xom ashyo tovarlar eksportiga;

2) xalqaro tashishlar xizmatlariga, bundan avtotransportda tashishlar mustasno;

3) tovarlarni quvurlar orqali va gaz quvurlari orqali tashish bo'yicha xizmatlarga.

Foydali qazilmalarni qazib olish sohasida faoliyatni amalga oshirayotgan ayrim soliq to'lovchilar uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan oshirilgan soliq stavkalari belgilanishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi rezidentlariga dividendlar va foizlar tarzida to'lanadigan daromadlarga 5 foizli stavka bo'yicha soliq solinadi.

O'zbekiston Respublikasi norezidentining doimiy muassasa bilan bog'liq bo'lmagan va to'lov manbaida soliq solinadigan daromadlariga quyidagi **stavkalar bo'yicha soliq solinadi:**

1) dividendlar va foizlarga - 10 foiz;

2) sug'urta qilish, birgalikda sug'urta qilish va qayta sug'urta qilish shartnomalari bo'yicha sug'urta mukofotlariga - 10 foiz;

3) xalqaro aloqa uchun telekommunikatsiyalar, xalqaro tashishlarga - 6 foiz;

4) Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish uchun jalb etilgan kreditlar bo'yicha, O'zbekiston Respublikasi banklari va lizing beruvchilari tomonidan chet el moliya institutlariga to'lanadigan daromadlar - 0

5) O'zbekiston Respublikasining rezidentlari bo'lgan banklarning vakillik hisobvaraqlarini ochish va yuritish hamda ular yuzasidan hisob-kitoblarni amalga oshirish, shuningdek xalqaro to'lov kartochkalari vositasida hisob-kitoblarni amalga oshirish bilan bog'liq xizmatlar ko'rsatishdan olinadigan daromadlar - 0

6) 1-5-bandlarida ko'rsatilgan daromatlardan tashqari belgilangan daromadlar - 20 foiz

Soliq kodeksiga ko'ra 2019 yilda Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ini to'lashdan quyidagi yuridik shaxslar ozod etilgan edi:

4) ichki ishlar organlari huzuridagi qo'riqlash bo'linmalari.

2019 yilda Yuridik shaxslarning quyidagi foydasi Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ini to'lashdan ozod qilingan edi:

1) protez-ortopediya buyumlari, nogironlar uchun inventarlar ishlab chiqarishdan, shuningdek nogironlarga ortopedik protezlash xizmati ko'rsatishdan, nogironlar uchun mo'ljallangan protez-ortopediya buyumlari va inventarlarni ta'mirlash hamda ularga xizmat ko'rsatishdan olingan foydasi;

2) shahar yo'lovchilar transportida (taksidan, shu jumladan yo'nalishli taksidan tashqari) yo'lovchilarni tashish bo'yicha xizmatlar ko'rsatishdan olingan foydasi;

3) moddiy madaniy meros ob'ektlarini ta'mirlash hamda qayta tiklash ishlarini amalga oshirishdan olingan foydasi;

5) Xalq banki tomonidan fuqarolarning shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlaridagi mablag'lardan foydalanishdan olingan foydasi.

6) fond birjasida emissiyaviy qimmatli qog'ozlarni realizatsiya qilishdan olingan foydasi,

Ishlovchilari umumiy sonining 3 foizidan ko'prog'ini nogironlar tashkil etgan yuridik shaxslar uchun yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i summasi ushbu qismda belgilangan normadan ortiq ishga joylashtirilgan nogironlarning har bir foiziga yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ining summasi bir foiz kamaytiriladigan hisob-kitob asosida kamaytiriladi.

2020 yilda esa 2020 yil uchun berilgan foyda solig'I stavkalarida 0 stavkalarining joriy qilinganligi ayrim yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'idan ozod qilinganligini bildiradi.

Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i bo'yicha 2019 yil 1 yanvardan kiritilgan yana bir o'zgarish- bu 2020 yilda ham saqlanib qolindi: - bu mahsulot (ish, xizmat) tannarxi oshib ketishini oldini olish maqsadida Soliq kodeksida belgilangan asosiy vositalarga eskirish hisoblashning eng yuqori normalari qayta ko'rib chiqilib, foydalanish muddatiga bog'liq holda ayrim asosiy vositalar guruhlarining amortizatsiya normalari kamaytirildi.

Jumladan, yillik amortizatsiya normalari:

1) Binolar, imoratlar (1-guruh 1-kichik guruh) uchun 5 foizdan 3 foizga kamaytirildi.

2) Harakatlanuvchan transport (5-guruh 1-3 kichik guruhlari: temir yo'l, dengiz va havo) vositalari uchun 8 foizdan 4 foizga kamaytirildi.

Notijorat tashkilotlarining soliq bazasini aniqlashning o'ziga xos xususiyatlari

Ushbu Kodeksning 58-moddasida ko'rsatilgan shartlarga rioya etilgan taqdirda notijorat tashkilotining quyidagi daromadlariga soliq solinmaydi:

1) notijorat tashkilotlarining ta'minoti va ushbu Kodeksning 48-moddasida ko'rsatilgan ustav faoliyatini amalga oshirishi uchun maqsadli tushumlar;

2) kursdagi ijobiy farq summasining kursdagi salbiy farq summasidan ortiq qismi;

3) aholining diniy maqsadda foydalanishi uchun mo'ljallangan tovarlarni realizatsiya qilishdan olingan daromad.

Notijorat tashkilotlarining ushbu moddaning birinchi qismida ko'rsatilmagan daromadlariga umumiy belgilangan tartibda soliq solinadi.

Yakka tartibdagi tadbirkorlarning daromadlariga soliq solishning o'ziga xos xususiyatlari

Soliq davrida yakka tartibdagi tadbirkorlar, agar mazkur Kodeksning ushbu moddasida va 360-moddasining sakkizinchi qismida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, yuridik shaxslar uchun nazarda tutilgan tartibda soliq solinadigan daromadlarning va chegiriladigan xarajatlarning hisobini yuritishi shart.

Savdo faoliyatini amalga oshiruvchi yakka tartibdagi tadbirkorlar daromadlarni va tovar operatsiyalarini hisobga olish registrilarida soliq solinadigan daromadlarning hamda amalga oshirilgan tovar operatsiyalarining hisobini yuritishi shart.

Quyidagilar soliq solinadigan daromadlarni va tovar operatsiyalarini hisobga olish registrilaridir:

- 1) chakana savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi yakka tartibdagi tadbirkorning soliq solinadigan daromadlarini va tovar operatsiyalarini hisobga olish kitobi;
- 2) tovar cheklari kitobi.

Soliq solinadigan daromadlarni va tovar operatsiyalarini hisobga olish registrilarining shakli O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi tomonidan tasdiqlanadi.

Soliq solinadigan daromadlarni va tovar operatsiyalarini hisobga olish registrilari yakka tartibdagi tadbirkorning arizasi asosida yakka tartibdagi tadbirkor soliq hisobida turgan joydagi soliq organlari tomonidan ro'yxatdan o'tkaziladi.

Soliq solinadigan daromadlarni va tovar operatsiyalarini hisobga olish registrilari yakka tartibdagi tadbirkorda oxirgi yozuv kiritilgan paytdan e'tiboran besh yil mobaynida saqlanadi hamda ularga raqamlar qo'yilgan, ip o'tkazib bog'langan va tegishli soliq organining muhri bilan tasdiqlangan bo'lishi kerak.

Soliq solish ob'yekti va soliq bazasi ushbu moddada nazarda tutilgan o'ziga xos xususiyatlar hisobga olingan holda, mazkur Kodeksning 295 va 296-moddalarida nazarda tutilgan tartibda aniqlanadi.

Jami daromad yakka tartibdagi tadbirkor tomonidan tadbirkorlik faoliyati doirasida olingan daromatlardan iborat bo'ladi.

Jismoniy shaxs o'zining tadbirkorlik faoliyati bilan bog'liq bitimlarni tuzishda, agar bu bitimlarni tuzish vaziyatining o'zidan aniq kelib chiqmasa, u yakka tartibdagi tadbirkor sifatida faoliyat yuritayotganligini ko'rsatishi kerak.

Yakka tartibdagi tadbirkorning jami daromadidan soliq bazasini aniqlashda, agar ushbu moddaning beshinchi qismida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, mazkur Kodeksning 44-bobiga muvofiq chegirib tashlanmaydigan xarajatlardan tashqari soliq solinadigan daromadning olinishi bilan bog'liq barcha xarajatlar chegirib tashlanadi.

Amortizatsiya qilinadigan aktivlar bo'yicha amortizatsiya ajratmalari aktivdan tadbirkorlik faoliyatida foydalanilgan taqdirda va tadbirkorlik faoliyati bilan xarajatlarning aloqasi aniq asoslangan bo'lsa, jami daromaddan chegirib tashlanadi.

Yakka tartibdagi tadbirkor soliq bazasini hisoblab chiqarishning soddalashtirilgan tartibini tanlashga haqli.

Soddalashtirilgan tartibdagi soliq bazasi jami daromadning 25 foizi miqdorida belgilanadi.

Yakka tartibdagi tadbirkor soliq bazasini hisoblab chiqarishning soddalashtirilgan tartibini tanlaganda soliqni hisoblab chiqarish maqsadida xarajatlar hisobini yuritish majburiyatlaridan ozod qilinadi, bundan ushbu Kodeks 359-moddasining ikkinchi qismida ko'rsatilgan yakka tartibdagi tadbirkorlar mustasno.

Yakka tartibdagi tadbirkorlar soliq bazasini hisoblab chiqarishning soddalashtirilgan tartibini qo'llash uchun soliq hisobida turgan joydagi soliq organiga O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi tomonidan belgilangan shakldagi bildirishnomani quyidagi muddatlarda taqdim etadi:

1) yangidan ro'yxatdan o'tkazilganlar – tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish boshlanguniga qadar;

2) foyda solig'ini to'lashga o'tganlar, shu jumladan ixtiyoriy ravishda o'tganlar – bir vaqtning o'zida foyda solig'ini to'lashga o'tish to'g'risidagi bildirishnomani soliq hisobida turgan joydagi soliq organiga yuborganda;

3) qolganlari – joriy yilning 25 yanvaridan kechiktirmay.

Yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan soliq bazasini hisoblab chiqarishning soddalashtirilgan tartibini qo'llash quyidagi muddatlarda boshlanadi:

1) ushbu modda to'qqizinchi qismining 1-bandida ko'rsatilganlar uchun – tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish boshlangan paytdan;

2) ushbu modda to'qqizinchi qismining 2-bandida ko'rsatilganlar uchun – yakka tartibdagi tadbirkor foyda solig'ini to'lashga o'tish to'g'risidagi bildirishnomani va soliq bazasini soddalashtirilgan tartibda hisoblab chiqarish haqidagi arizani soliq organiga taqdim etgan oydan keyingi oyning birinchi sanasidan boshlab;

3) ushbu modda to'qqizinchi qismining 3-bandida ko'rsatilganlar uchun – joriy yilning 1 yanvaridan boshlab.

Soliq bazasini hisoblab chiqarishning soddalashtirilgan tartibidan ixtiyoriy ravishda voz kechish va soliq bazasini hisoblab chiqarishning ushbu moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan umumiy tartibiga o'tish kelgusi soliq davri boshlanganidan e'tiboran amalga oshiriladi.

YATTLar uchun Soliq solishda hisobga olinmaydigan daromadlar

Soliq solishda quyidagilar hisobga olinmaydi:

1) yakka tartibdagi tadbirkorning unga mulk huquqi asosida, shuningdek mol-mulkka egalik qilish va (yoki) undan foydalanishga yo'l qo'yuvchi boshqa ashyoviy huquq tufayli tegishli bo'lgan ko'chmas mulkni sotishdan olingan daromadlar jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i solinishi lozim bo'lgan daromatlari;

2) jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini hamda yakka tartibdagi tadbirkor foyda solig'ini to'lashga o'tguniga qadar aylanmadan soliqni to'lash davrida tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olinadigan daromadlar.

Foyda solig'ini hisoblab chiqarish va soliq hisobotini taqdim etish tartibi

Hisobot (soliq) davrining yakunlari bo'yicha soliq summasi soliq to'lovchi tomonidan mustaqil ravishda aniqlanadi.

Hisobot davri yakunlari bo'yicha soliq summasi soliq davrining boshidan oshib boruvchi yakun bilan, agar ushbu moddada boshqacha qoida belgilanmagan bo'lsa, soliq bazasining soliq stavkasiga muvofiq bo'lgan foizlardagi ulushi sifatida hisoblab chiqariladi.

Soliq hisoboti quyidagi muddatlarda taqdim etiladi:

1) hisobot davri yakunlari bo'yicha – hisobot davridan keyingi oyning yigirmanchi kunidan kechiktirmay;

2) soliq davri yakunlari bo'yicha – soliq davri o'tgandan keyingi yilning 1 martidan kechiktirmay.

Byudjet tashkilotlari va nodavlat notijorat tashkilotlari tomonidan soliq bo'yicha soliq hisoboti soliq davri yakunlariga ko'ra taqdim etiladi.

Soliq davri.

Kalendar yil soliq davridir.

8.2. O'zbekiston Respublikasi soliq tizimiga yer solig'ining joriy etilishi va uning iqtisodiy mohiyati. Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqlar va maxsus to'lovlarning ob'yekti, stavkasi.

1990 yilda O'zbekistonda "Yer to'g'risida" qonun qabul qilindi va ushbu qonunga ko'ra yerga egalik qilish va yerdan foydalanishning pullik bo'lishi belgilandi hamda yer uchun haq yillik yer solig'i sifatida undiriladigan bo'ldi.

1991 yilda "Korxonalar, birlashmalar va tashkilotlardan olinadigan soliqlar to'g'risida", 1993 yilda "Yer solig'i to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Qonuni qabul qilinib, unda yer solig'ini undirishda soliqqa tortish ob'yekti, sub'yektlari, soliq bo'yicha imtiyozlar, soliqni hisoblash va byudjetga to'lash tartiblari ko'rsatib berildi. 1997 yilda "Soliq kodeksi"ning qabul qilinishi hamda 1998 yildan uning kuchga kiritilishi bilan yer solig'ining to'laqonli huquqiy asoslari yaratildi.

Yer solig'i O'zbekiston soliq tizimida mahalliy soliqlar va yig'imlar tarkibiga kiradi hamda mahalliy byudjetlarning barqaror daromad manbai hisoblanadi.

Yer uchastkalaridan foydalanganlik uchun byudjetga to'lovlar yer solig'i yoki yer uchun ijara haqi tariqasida amalga oshiriladi

Ushbu soliqni joriy etilishidan maqsad – yerdan oqilona foydalanishni rag'batlantirish, tuproq unumdorligini oshirish, sifati turlicha bo'lgan yerlarda xo'jalik yuritishning ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlarini tenglashtirish, aholi

yashaydigan joylarda infrastruktura rivojlanishini ta'minlash hamda yerni talon-taroj qilinishiga yo'l qo'ymaslik hisoblanadi.

Yer fondi hajmida qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari yer maydonlarining o'sishi fermer xo'jaliklari sonining yildan-yilga ko'payib borayotganligi va o'rmon xo'jaliklari ixtiyoridagi yer maydonlarining bir qismining ular tasarrufiga o'tkazilishi hamda zaxira yerlarning o'zlashtirilishi bilan izohlanadi.

Yer solig'ini to'lovchilar.

Mulk huquqi, egalik qilish, foydalanish yoki ijara huquqlari asosida yer uchastkalariga ega bo'lgan yuridik shaxslar, shu jumladan O'zbekiston Respublikasining norezidentlari yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'ini to'lovchilar deb e'tirof etiladi.

Ko'chmas mulk ijaraga berilgan taqdirda, ijaraga beruvchi soliq to'lovchi deb e'tirof etiladi. Bunda moliyaviy ijara (lizing) shartnomasiga muvofiq moliyaviy ijaraga (lizing) berilgan (olingan) ko'chmas mulk ob'ektlari bo'yicha ijaraga oluvchi (lizing oluvchi) soliq to'lovchi deb e'tirof etiladi.

Yer uchastkasidan bir nechta yuridik shaxs birgalikda foydalangan taqdirda, har bir yuridik shaxs yer uchastkasining foydalanilayotgan maydonidagi o'z ulushi uchun soliq to'lovchi deb e'tirof etiladi.

Yer solig'i ob'yekti, bazasi va soliq stavkalari.

Soliq solish ob'yekti

Mulk huquqi, egalik qilish, foydalanish yoki ijara huquqlari asosida yuridik shaxslarda bo'lgan yer uchastkalari yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'ining soliq solish ob'ektidir.

Quyidagi yer uchastkalari soliq solish ob'yekti sifatida hisoblanmaydi:

- 1) notijorat tashkilotlari tomonidan notijorat faoliyati doirasida foydalaniladigan yerlar;
- 2) aholi punktlarining, bog'dorchilik, uzumchilik yoki polizchilik shirkatlarining umumiy foydalanishdagi erlari (maydonlar, ko'chalar, tor ko'chalar, yo'llar, shaxobcha yo'llar, sug'orish tarmoqlari, kollektorlar, sohil bo'yi yerlari va boshqa shu kabi umumiy foydalanishdagi yerlar);
- 3) umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llari egallagan yerlar;
- 4) aholining madaniy-maishiy ehtiyojlarini qondirish va dam olishi uchun foydalaniladigan yerlar (daraxtzorlar, istirohat bog'lari, sayilgohlar, xiyobonlar, dam olish uylari, bolalar sog'lomlashtirish oromgohlari, aholining ommaviy dam olishi va turizmini tashkil etish uchun belgilangan joylar, shuningdek ariq tarmoqlari egallagan yerlar);
- 5) davlat qo'riqxonalarining, kompleks (landshaft) buyurtma qo'riqxonalarining, tabiat bog'larining, davlat tabiat yodgorliklarining, buyurtma qo'riqxonalarining (bundan ovchilik xo'jaliklarida tashkil etiladigan buyurtma qo'riqxonalar mustasno), tabiiy pitomniklarning, davlat biosfera rezervatlarining, milliy bog'larning yerlari;

6) sog'lomlashtirish ahamiyatiga molik yerlar – tegishli muassasalar va tashkilotlarga doimiy foydalanishga berilgan, profilaktika hamda davolash ishlarini tashkil etish uchun qulay tabiiy shifobaxsh omillarga ega bo'lgan yer uchastkalari;

7) rekreatsiya ahamiyatiga molik yerlar – aholining ommaviy dam olishi va turizmini tashkil etish uchun tegishli muassasalar hamda tashkilotlarga berilgan yer uchastkalari;

8) tarixiy-madaniy ahamiyatga molik yerlar – tegishli muassasalar va tashkilotlarga doimiy foydalanishga berilgan moddiy madaniy meros ob'yektlari, xotira bog'lari egallagan yer uchastkalari;

9) gidrometeorologiya va gidrogeologiya stansiyalari hamda postlari egallagan yerlar;

10) yuridik shaxs balansida bo'lgan va fuqaro muhofazasi hamda safarbarlik ahamiyatiga molik alohida joylashgan ob'ektlar egallagan yerlar;

11) kommunal-maishiy ahamiyatga molik yerlar (dafn etish joylari, maishiy chiqindilarni yig'ish, qaytadan ortish va saralash joylari, shuningdek chiqindilarni zararsizlantirish hamda utilizatsiya qilish joylari);

12) ko'p kvartirali uylar egallagan yerlar, bundan yashash uchun mo'ljallanmagan ko'chmas mulk ob'ektlari egallagan yer uchastkalari mustasno;

13) suv fondi;

14) zaxiralar.

Soliq bazasi

Quyidagilar soliq bazasidir:

qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yerlar bo'yicha – ushbu Kodeksning 428-moddasi ikkinchi qismiga muvofiq soliq solinmaydigan yer uchastkalari maydonlari chegirib tashlangan holda, qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yer uchastkasining umumiy maydoni, ;

qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar bo'yicha – ushbu Kodeksning 428-moddasi ikkinchi qismiga muvofiq soliq solinmaydigan er uchastkalari chegirib tashlangan holda, yer uchastkalarining qonun hujjatlariga muvofiq aniqlangan normativ qiymati, meva-sabzavotchilik qishloq xo'jaligi korxonalari uchun meva-sabzavotchilik mahsulotlari egallagan yerlar uchun esa – yer uchastkasining umumiy maydoni.

Soliq imtiyozlari

Qayta tiklanadigan manbalardan energiya ishlab chiqaruvchilar qayta tiklanadigan energiya manbalari (nominal quvvati 0,1 MVt va ko'proq) uskunalari egallagan yer uchastkalari bo'yicha ular ishga tushirilgan paytdan e'tiboran o'n yil muddatga soliqdan ozod etiladi.

Soliq solinmaydigan yer uchastkalari jumlasiga quyidagi yerlar kiradi:

1)madaniyat, ta'lim, sog'liqni saqlash va aholini ijtimoiy muhofaza qilish ob'yektlari egallagan yerlar;

2)sport va jismoniy tarbiya-sog'lomlashtirish majmualari, onalar va bolalarning dam olish hamda sog'lomlashtirish joylari, dam olish uylari hamda o'quv-mashq bazalari egallagan yerlar;

3)shahar elektr transporti yo'llari va metropoliten liniyalari, shu jumladan jamoat transporti bekatlari va metropoliten stansiyalari hamda ularning inshootlari egallagan yerlar;

4)aholi punktlarining suv ta'minoti va kanalizatsiya inshootlari egallagan yerlar;

5)magistral issiqlik trassalari, shu jumladan nasos (ko'paytiruvchi, kamaytiruvchi, aralashtiruvchi, drenaj) stansiyalari, issiq suv ta'minotining issiqlikni hisobga olish va nazorat qilish asboblari, isitkichlari, sirkulyasiya nasoslari hamda shunga o'xshash inshootlar egallagan yerlar;

6)ihota o'rmon daraxtzorlari egallagan yerlar;

7)tomchilatib sug'orish qo'llaniladigan yerlar – tomchilatib sug'orish tizimi joriy etilgan oyning boshidan e'tiboran besh yil muddatga;

8)qishloq xo'jaligi maqsadlari uchun yangi o'zlashtirilayotgan yerlar – vakolatli organ tomonidan tasdiqlangan loyihaga muvofiq, ularni o'zlashtirish ishlari bajariladigan davrda va ular o'zlashtirilgan vaqtdan e'tiboran besh yil mobaynida;

9)melioratsiya ishlari amalga oshirilayotgan mavjud sug'oriladigan yerlar – vakolatli organ tomonidan tasdiqlangan loyihaga muvofiq, ishlar boshlanganidan e'tiboran besh yil muddatga;

10)yangi barpo etilayotgan bog'lar, tokzorlar va tutzorlar egallagan yerlar, daraxtlarning qator oralaridan qishloq xo'jaligi ekinlarini ekish uchun foydalanilishidan qat'i nazar, uch yil muddatga;

11)ilmiy tashkilotlarning, qishloq xo'jaligi va o'rmon xo'jaligi sohasidagi ilmiy-tadqiqot tashkilotlari hamda o'quv yurtlariga qarashli tajriba, eksperimental va o'quv-tajriba xo'jaliklarining bevosita ilmiy hamda o'quv maqsadlari uchun foydalaniladigan qishloq xo'jaligi ahamiyatiga molik bo'lgan yerlar va o'rmon fondining yerlari. Ushbu bandga muvofiq ilmiy tajribalar, eksperimental ishlar, yangi navlarning seleksiyasi o'tkazilishi uchun hamda mavzulari tasdiqlangan boshqa ilmiy va o'quv maqsadlari uchun foydalaniladigan ekinlar hamda daraxtzorlar egallagan er uchastkalari soliq to'lashdan ozod qilinadi.

Ushbu moddada belgilangan soliq imtiyozlari belgilangan maqsadda bevosita foydalanilmayotgan yer uchastkalariga nisbatan tatbiq etilmaydi.

Soliq stavkalari

Qishloq xo'jaligi uchun mo'ljallanmagan yerlar bo'yicha soliq stavkalari 1 gektar uchun mutlaq miqdorda belgilanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining 2019 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari

prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to'g'risida"gi 2018 yil 26 dekabrda PQ-4086-sonli qaroriga asosan 2019 yilda Yer solig'i stavkalari qarorning 16-ilovasiga muvofiq tasdiqlangan edi. 2020 yilda Soliq stavkalarining aniq miqdori O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to'g'risidagi Qonuni bilan belgilandi. 2020 yil uchun Yer solig'i stavkalari ilova qilinadi (Ilova 1).

Qishloq xo'jaligi uchun mo'ljallangan yerlar bo'yicha soliq stavkalari qishloq xo'jaligi ekinzorlarining normativ qiymatiga nisbatan 0,95 foiz miqdorda, meva-sabzavotchilik qishloq xo'jaligi korxonalari uchun meva-sabzavotchilik mahsulotlari egallagan yerlar uchun esa – 1 gektar uchun mutlaq miqdorda belgilanadi.

Quyidagilar egallagan yer uchastkalari uchun soliq stavkasiga 0,1 koeffitsient qo'llaniladi:

yagona ishtirokchilari nogironlarning jamoat birlashmalari bo'lgan va xodimlar umumiy sonining kamida 50 foizini nogironlar tashkil etadigan hamda nogironlarning mehnatiga haq to'lash fondi mehnatga haq to'lash umumiy fondining kamida 50 foizini tashkil etadigan yuridik shaxslar egallagan yerlar;

elektr uzatish liniyalari, ularning podstantsiyalari va inshootlari egallagan yerlar;

umumdavlat aloqa liniyalari (havo va kabelli aloqa liniyalari, tirgakli liniyalar va radiofikatsiyalar, yer osti kabelli liniyalari, ularni bildiruvchi signalli va harakatsiz belgilar, radiorele aloqa liniyalari, kabelli telefon kanalizatsiyalari, yer ustidagi va yer ostidagi xizmat ko'rsatilmaydigan kuchaytirgich punktlari, taqsimlagich shkaflar, yerga ulash konturi qutilari hamda boshqa aloqa inshootlari) egallagan yerlar;

umumiy foydalanishdagi temir yo'llar, shu jumladan tuproq ko'tarmasi, sun'iy inshootlar, liniya-yo'l binolari, temir yo'l aloqasi hamda elektr ta'minoti qurilmalari, inshootlar va yo'l qurilmalaridan iborat temir yo'l stansiyalari hamda saralash joylari, shuningdek belgilangan tartibda temir yo'l transporti korxonalari, muassasalari va tashkilotlariga doimiy yoki vaqtinchalik foydalanishga berilgan ihota daraxtzorlari egallagan yerlar;

magistral neft va gaz quvurlari, shu jumladan kompressor, nasos stansiyalari, yong'inga qarshi va avariya qarshi stansiyalar, quvurlarni katodli himoyalash stansiyalari ularni tarmoqqa ulash uzellari bilan, quvurlarni tozalash qurilmalari hamda shunga o'xshash inshootlar band etgan yerlar;

samolyotlarning uchish-qo'nish maydonlari, yerda boshqarish yo'lkalari va to'xtash joylari, fuqaro aviatsiyasi ayeroportlarining radionavigatsiya va elektr yoritish uskunalari egallagan yerlar;

O'zbekiston Respublikasining rivojlantirish Davlat dasturlariga kiritilgan ob'ektlar qurilishi uchun ajratilgan yerlar – qurilishning normativ muddati davrida;

konsyervatsiyaga qo'yilishi to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari qabul qilingan ob'ektlar egallagan yerlar – ularning konsyervatsiyasi davrida.

Bular yuridik shaxslarga belgilangan tartibda ajratilgan yer uchastkalariga tatbiq etiladi.

Soliq stavkalarini belgilashda tuproq boniteti (sifati) hisobga olinadi. Bonitetni aniqlashda tuproqning genetik kelib chiqishi, mexanik tarkibi, sho'rlanganlik darajasi, tuproq qatlamining suv o'tkazaolishi, zichligi kabi boshqa tabiiy xossalari hisobga olinadi. Tuproq boniteti 100 balli tizim bo'yicha aniqlanadi. 100 ball 10 ta klassga bo'linadi, ya'ni 1 klass yerlar nol balldan 10 ballgacha, 2 klass yerlar 11 balldan 20 ballgacha, 3 klass yerlar 21 balldan 30 ballgacha va h.k. 10 klass yerlar 91 balldan 100 ballgacha baholanadi. Bunda yerning ball boniteti qancha yuqori bo'lsa soliq stavkasi ham shuncha yuqori belgilanadi.

Yer uchastkasi mulkdorining, yer egasining, yerdan foydalanuvchining yoki ijarachining aybi bilan qishloq xo'jaligi yerlarining sifati yomonlashgan (bonitet bali pasaygan) taqdirda, soliq yuridik shaxslar tomonidan yerning sifati yomonlashguniga qadar mavjud bo'lgan bonitet balidan kelib chiqqan holda to'lanadi.

Qishloq xo'jaligi yerlarining sifati yaxshilangan taqdirda (bonitet bali oshganda), soliq yuridik shaxslar tomonidan tuproq bonitirovkasi o'tkazilgan yildan keyingi yilning boshidan yangi bonitet balidan kelib chiqqan holda, qishloq xo'jaligi yerlarining normativ qiymati bo'yicha, agrotexnik tadbirlar tugagan davrlarda qayta hisob-kitob qilinmasdan to'lanadi.

Shaharlar va shaharchalarning ma'muriy chegaralarida joylashgan qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar uchun soliq qishloq xo'jaligi yerlari uchun belgilangan soliq stavkalarining ikki baravari miqdorida to'lanadi.

Qurilishi tugallanmagan ob'ektlar egallagan yer uchastkalari uchun, agar qonun hujjatlarida boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, soliq ikki baravar soliq stavkalari bo'yicha to'lanadi.

Bo'sh turgan binolar, foydalanilmayotgan ishlab chiqarish maydonlari, yashash uchun mo'ljallanmagan inshootlar, shuningdek qurilishi tugallanmagan ob'ektlarga nisbatan qonun hujjatlarida oshirilgan soliq stavkalarini belgilash yo'li bilan ta'sir choralari qo'llanilishi mumkin hamda ushbu Kodeksning 428-moddasida ko'rsatilgan soliq imtiyozlari ularga nisbatan tatbiq etilmaydi.

Tugallanmagan qurilish ob'ektlari jumlasiga ushbu qurilish ob'ektiga doir loyiha-smeta hujjatlarida belgilangan normativ muddatda qurilishi tugallanmagan ob'ektlar, agar qurilishning normativ muddati belgilanmagan bo'lsa, ushbu ob'ektlarning qurilishiga vakolatli bo'lgan organning ruxsatnomasi olingan oydan e'tiboran yigirma to'rt oy ichida qurilishi tugallanmagan ob'ektlar kiradi.

Yer maydonlaridan hujjatlarsiz yoxud yer uchastkasiga bo'lgan huquqni tasdiqlovchi hujjatlarda ko'rsatilganidan kattaroq hajmda foydalanilganda soliq stavkasi belgilangan soliq stavkalarining to'rt baravari miqdorida belgilanadi.

Soliq davri. Kalendar yil soliq davridir.

Soliqni hisoblab chiqarish va soliq hisobotini taqdim etish tartibi

Soliq har bir soliq davrining 1 yanvariga bo'lgan holatga ko'ra hisoblab chiqariladi va soliq hisoboti yer uchastkasi joylashgan yerdagi soliq organiga quyidagi muddatlarga taqdim etiladi:

qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yerlar bo'yicha – joriy soliq davrining 10 yanvariga qadar;

qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar bo'yicha – joriy soliq davrining 1 mayiga qadar.

Soliq to'lovchilar soliqni aniqlangan soliq bazasidan va tegishli soliq stavkasidan kelib chiqqan holda mustaqil ravishda hisoblab chiqaradi.

Soliq bazasi (hisoblab chiqarilgan soliq summasi) soliq davri mobaynida o'zgarish bo'lganda yuridik shaxslar bir oylik muddat ichida soliq organiga aniqlashtirilgan soliq hisobotini taqdim etishi shart.

Soliq davri mobaynida qishloq xo'jaligi ekinzorlarining umumiy maydonida va tarkibida o'zgarishlar yuz bergan yuridik shaxslar qishloq xo'jaligi uchun mo'ljallangan yerlari bo'yicha aniqlashtirilgan soliq hisobotini joriy yilning 1 dekabriga qadar taqdim etadi.

Ushbu Kodeks 426-moddasining ikkinchi qismida ko'rsatilgan ob'ektlar joylashgan yer uchastkalariga ega bo'lgan yuridik shaxslar joriy soliq davrining 10 yanvariga qadar mazkur ob'ektlarning joylashgan yeri bo'yicha soliq organlariga soliq solish ob'ekti hisoblanmaydigan, yuridik shaxsda mavjud bo'lgan yer uchastkalari to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi tomonidan tasdiqlangan shakldagi ma'lumotnomani taqdim etadi.

Soliqni to'lash tartibi

Qishloq xo'jaligi uchun mo'ljallanmagan yerlar uchun soliqni to'lash quyidagicha amalga oshiriladi:

aylanmadan soliq to'lovchilar uchun – yillik soliq summasining to'rtidan bir qismi miqdorida, har chorak birinchi oyining 10-kunigacha;

aylanmadan soliq to'lovchi bo'lmagan soliq to'lovchilar uchun – yillik soliq summasining o'n ikkidan bir qismi miqdorida, har oyning 10-kunigacha.

Soliq davri davomida soliq to'lashning belgilangan muddatidan keyin majburiyatlar yuzaga kelganda, ushbu summani to'lash majburiyatlar yuzaga kelgan sanadan e'tiboran o'ttiz kundan kechiktirmay amalga oshiriladi.

Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar uchun soliqni to'lash quyidagicha amalga oshiriladi:

hisobot yilining 1 sentyabriga qadar – yillik soliq summasining 30 foizi;

hisobot yilining 1 dekabriga qadar – soliqning qolgan summasi.

Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqlar va maxsus to'lovlarning ob'yekti, stavkasi.

Tabiiy resurslardan samarali va oqilona foydalanishni ta'minlashga qaratilgan muhim vosita – bu davlat tomonidan tabiiy resurslardan foydalanish bilan bog'liq turli xil to'lovlardir.

Yer qa'ridan foydali qazilmalarni qazib oluvchi, mineral xom ashyodan va (yoki) texnogen mineral hosilalardan foydali komponentlarni ajratib oluvchi yer qa'ridan foydalanuvchilar yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqni soliq to'lovchilar deb e'tirof etiladi.

O'zbekiston Respublikasi hududida konlarni qidirishni, foydali qazilmalarni qazib olishni, minyeral xom ashyodan va (yoki) texnogen minyeral hosilalardan foydali komponentlarni ajratib olishni amalga oshiruvchi yuridik va jismoniy shaxslar soliq solish maqsadida yer qa'ridan foydalanuvchilar deb e'tirof etiladi.

Yer qa'ridan foydalanuvchilar quyidagi soliqlar va maxsus to'lovlarni to'laydilar:

- yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq;
- qo'shimcha foyda solig'i;
- bonus (imzoli va tijoratbop topilma bonuslar).

Jahon amaliyotida tabiiy resurslardan foydalanganlik uchun to'lovlar tizimini bonuslar, rentals, royalti va soliqlar tashkil etadi. Bonuslar – bir martalik to'lov bo'lib, davlat uchun soliqlar kabi unchalik muhim moliyaviy resurs bo'lmasada, davlat byudjeti daromadlarini oshirishning zarur elementlaridan biri hisoblanadi. Bonuslar xajmi har bir mamlakatning qonunchiligi bilan belgilanib, ular tabiiy resurslardan foydalanish bo'yicha kelishuvlar predmeti hisoblanadi.

O'zbekistonda ham xo'jalik yurituvchi sub'yektlar tabiiy resurslardan foydalanishi jarayonida bonuslar to'laydi. Respublikamiz qonunchiligiga muvofiq, bonuslar – bu bitim tuzilgan vaqtda yoki muayyan natijaga erishilgach bitim shartlariga muvofiq belgilangan bir martalik to'lovlar hisoblanadi.

O'zbekistonda yer qa'ridan foydalanuvchilar ikki xil bonusni to'laydilar. Bular imzoli bonus hamda tijoratbop topilma bonusi.

Rentals tabiiy resurslardan foydalanganlik uchun to'lovlarning ikkinchi ko'rinishi hisoblanib, davlat tomonidan tabiiy resurslardan foydalanish bo'yicha shartnoma tuzish vaqtida undiriladigan to'lov hisoblanadi. Rentals kelishuv davri davomida yoki qazib olish boshlanishidan avval undiriladi.

Royalti tabiiy resurslardan foydalanuvchining yalpi daromadidan foiz ko'rinishida undirilib, davlat tomonidan tabiiy resurslarning egasi sifatida ishlab chiqarilgan mahsulotning qat'iy ulushi o'zlashtiriladi. Respublikamiz qonunchiligiga muvofiq, royalti – bu mineral xom-ashyoni qazib olish hajmiga yoki ishlab chiqarilgan mahsulot qiymatiga nisbatan foiz hisobida bitim shartlariga muvofiq

belgilangan va investor tomonidan pul shaklida yoki qazib olingan mineral xom-ashyoning bir qismi tarzida to'lanadigan muntazam to'lovlardir.

Jaxon amaliyotida tabiiy resurslardan foydalanishni soliqqa tortish odatda foyda solig'i va tabiiy resurslardan foydalanganlik uchun maxsus soliqlar, ya'ni renta soliqlari sifatida undiriladi.

Respublikamiz qonunchiligiga ko'ra mavjud yer osti boyliklari umumdavlat mulki hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasining 1994 yil 23 sentyabrdagi "Yer osti boyliklari to'g'risida" gi Qonuniga muvofiq 1995 yildan boshlab yer osti boyliklaridan foydalanilganlik uchun soliq joriy etildi va yer osti boyliklaridan foydalanuvchilar ularning xajmidan kelib chiqqan holda maxsus soliq to'lay boshladilar.

Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqni joriy etilishidan asosiy maqsad – umumdavlat mulki hisoblangan yer osti boyliklaridan oqilona tarzda butun jamiyat a'zolarini va kelajak avlod manfaatlarini hisobga olgan holda foydalanish samaradorligini oshirish hisoblanadi.

Soliq solish ob'yekti

Foydali qazilmani qazib olish (ajratib olish) hajmi yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq solish ob'yektidir.

Qazib olingan (ajratib olingan) foydali qazilmaning hajmi foydali qazilmalarning haqiqiy yo'qotishlarini hisobga olgan holda aniqlanadi.

Foydali qazilmaning zaxirasi qaysi foydali qazilmaning miqdoriga kamaytiriladigan bo'lsa, o'sha foydali qazilmaning hisoblangan miqdori va foydali qazilmani qazib olishning (ajratib olishning) to'liq texnologik sikli yakunlangach aniqlangan, haqiqatda qazib olingan (ajratib olingan) foydali qazilma miqdori o'rtasidagi farq foydali qazilmaning haqiqiy yo'qotishlaridir.

Soliq solish ob'yekti foydali qazilmaning har bir turi bo'yicha alohida aniqlanadi.

Quyidagilar soliq solish ob'yektidir:

qazib olingan (ajratib olingan) foydali qazilmalar (shu jumladan birga qo'shib chiqadigan);

foydali qazilmalardan, mineral xom ashyodan, texnogen mineral hosilalardan ajratib olingan foydali komponentlar;

sanoat yo'sinida dastlabki qayta ishlovdan o'tkazilgan qazib olingan uglevodorodlar shu jumladan birga qo'shib chiqadigan foydali qazilmalar va foydali komponentlar;

uglevodorodlarni qayta ishlash jarayonida ajratib olingan, lekin oldingi qazib olinganda va qayta ishlanganda qayta ishlanadigan foydali qazilmalar tarkibida tayyor mahsulot sifatida soliq solinmagan foydali komponentlar;

ajratib olingan qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlar, shu jumladan texnogen mineral hosilalardan ajratib olingan qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlar.

Quyidagilar soliq solish ob'yekti bo'lmaydi:

qatlamdagi bosimni saqlab turish va (yoki) uglevodorodlarni yopiq texnologik jarayon doirasida ajratib olish uchun mahsuldor qatlamga qayta haydab kiritiladigan tabiiy gaz hajmi;

soliq to'lovchilarga berilgan yer uchastkalari doirasida qazib olingan (ajratib olingan) hamda o'zining xo'jalik va ro'zg'or ehtiyojlari uchun foydalanilgan keng tarqalgan foydali qazilmalar. Keng tarqalgan foydali qazilmalar ro'yxati qonun hujjatlari bilan belgilanadi;

qonun hujjatlarida belgilangan tartibda daryo o'zanlarini tozalash va qirg'oqlarni mustahkamlash ishlari natijasida qazib olingan (ajratib olingan) noruda foydali qazilmalar, bundan qayta ishlangan va realizatsiya qilingan foydali qazilmalar hajmi mustasno.

Tayyor mahsulotlar ro'yxati O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan belgilanadi. Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq stavkasi belgilangan va realizatsiya qilish yoki topshirish, shu jumladan bepul berish, shuningdek mahsulot ishlab chiqarish maqsadida o'z iste'moli va boshqa ehtiyojlari uchun mo'ljallangan foydali qazilma (foydali komponent) tayyor mahsulot deb e'tirof etiladi.

Soliq bazasi

Soliq bazasi yer qa'ridan foydalanuvchi tomonidan mustaqil ravishda har bir qazib olingan (ajratib olingan) foydali qazilmaga, shu jumladan asosiy foydali qazilmani qazib olishda birga chiqadigan foydali komponentlarga nisbatan aniqlanadi.

Soliq bazasi qazib olingan (ajratib olingan) foydali qazilmalar hajmining hisobot davri uchun o'rtacha olingan realizatsiya qilish bahosida hisoblab chiqilgan qiymati sifatida aniqlanadi.

Hisobot davri uchun o'rtacha olingan realizatsiya qilish bahosi har bir qazib olingan (ajratib olingan) foydali qazilma bo'yicha pulda ifodalangan realizatsiya qilish hajmlarini (qo'shilgan qiymat solig'i va aksiz solig'ini chegirgan holda) ularning naturada ifodalangan realizatsiya qilish hajmiga bo'lish orqali alohida aniqlanadi.

Hisobot davrida foydali qazilma realizatsiya qilinmagan taqdirda, soliq bazasi realizatsiya qilish amalga oshirilgan oxirgi hisobot davrida foydali qazilmani realizatsiya qilishning o'rtacha olingan narxidan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Foydali qazilma umuman realizatsiya qilinmagan taqdirda, soliq bazasi hisobot davrida mazkur foydali qazilmalarni qazib olishning (ajratib olishning) ishlab chiqarish tannarxini 20 foizga oshirgan holda aniqlanadi. Bunda, soliq to'lovchi realizatsiya qilish amalga oshirilgan o'sha hisobot davrida hisoblangan yer qa'ridan

foydalanganlik uchun soliq summasiga hisobot davrida shakllangan oʻrtacha olingan narxidan kelib chiqqan holda keyingi tuzatishni kiritishi shart.

Qazib olingan foydali qazilmaning bir qismi realizatsiya qilinib, qolgan qismidan oʻzining ishlab chiqarish yoki xoʻjalik ehtiyojlari uchun foydalanilgan hollarda, foydali qazilma boʻyicha soliq bazasi realizatsiya qilingan ushbu foydali qazilmaning oʻrtacha olingan realizatsiya qilish narxidan kelib chiqib aniqlanadi.

Foydali qazilmadan oʻzining ishlab chiqarish yoki xoʻjalik ehtiyojlari uchun foydalanilgan hollarda bunday foydali qazilmalar uchun soliq bazasi qazib olingan (ajratib olingan) foydali qazilmani ishlab chiqarish tannarxini 20 foizga oshirgan holda aniqlanadi.

Soliq stavkalari

Foydali qazilmalarni qazib olishda (ajratib olishda) 0 foizli stavka boʻyicha soliq solish foydali qazilmalarning normativ yoʻqotishlariga taalluqli qismi boʻyicha amalga oshiriladi. Foydali qazilmalarni qazib olishda (ajratib olishda) konlarda foydali qazilmalarni qazib olishning qabul qilingan sxemasi va texnologiyalari bilan texnologik bogʻliq holdagi, vakolatli organ tomonidan qonun hujjatlarda belgilangan tartibda tasdiqlanadigan normalar doirasidagi yoʻqotishlar normativ yoʻqotishlardir.

Yer qaʼridan foydalanganlik uchun soliq stavkalari Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan belgilanadi va soliq toʻlovchilarga Oʻzbekiston Respublikasi Moliya vazirligi hamda Davlat soliq qoʻmitasi va uning quyi organlari tomonidan belgilangan tartibda yetkaziladi.

Hozirgi vaqtda jami 53 turdagi foydali qazilmalarga nisbatan tabaqalashtirilgan tarzda soliq stavkalari oʻrnatilgan.

Quyidagi jadval maʼlumotlarida Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining “Oʻzbekiston Respublikasining 2018 yilgi asosiy makroiqtisodiy koʻrsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari toʻgʻrisida”gi 2017 yil 29 dekabrda PQ-3454-sonli qaroriga asosan 2018 yilda va “Oʻzbekiston Respublikasining 2019 yilgi asosiy makroiqtisodiy koʻrsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari toʻgʻrisida”gi 2018 yil 26 dekabrda PQ-4086-sonli qaroriga asosan 2019 yilda Yer qaʼridan foydalanganlik uchun soliq STAVKALARI keltirilgan

16-jadval

Yer qaʼridan foydalanganlik uchun soliq STAVKALARI

Soliq solinadigan obʼekt nomi	Soliq stavkasi, soliq solinadigan bazaga nisbatan %da	
	2018 yil	2019 yil
1. Asosiy va qoʻshimcha foydali qazilmalar kavlab olinishi uchun		
Energiya manbalari:		
Tabiiy gaz	30,0	30,0
Utilizatsiya qilingan tabiiy gaz	9,0*	9,0*

Yer ostidan kavlab olingan gaz	2,6	2,6
Nostabil gaz kondensati	20,0	20,0
Neft	20,0	20,0
Ko'mir	4,0	4,0
Rangli va noyob metallar:		
Tozalangan mis	8,1	15
Molibdenli sanoat mahsuloti	4,0	4,0
Konsentratlangan qo'rg'oshin	4,0	4,0
Metall rux	4,0	4,0
Volfram konsentrati	10,4	10,4
Uran	10,0**	10,0**
Asl metallar:		
Oltin	5,0	25,0
Kumush	8,0	25,0
Qimmatbaho, yarim qimmatbaho va zeb-ziynat uchun toshlar xom ashyosi	24,0	24,0
Qora metallar:		
Temir	4,0	4,0
Kon-kimyo xom ashyosi:		
Tosh tuz (ovqatga ishlatiladigan)	3,5	3,5
Kaliy tuzi	3,5	3,5
Natriy sulfati	3,5	3,5
Fosforitlar (grafitlarga)	5,0	5,0
Karbonat xom ashyosi (ohaktoshlar, dolomitlar)	3,5	3,5
Glaukonit	3,5	3,5
Mineral pigmentlar	4,8	4,8
Kon-ruda xom ashyosi:		
Plavik shpatli konsentrat	21,2	21,2
Tabiiy grafit	8,0	8,0
Ikkilamchi boyitilmagan kulrang kaolin	7,9***	7,9***
Kvars-dala shpati xom ashyosi	6,5	6,5
Shisha xom ashyosi	3,0	3,0
Bentonitli gil	4,8	4,8
Talk va talk toshi	4,0	4,0
Talkomagnezit	4,0	4,0
Mineral bo'yoqlar	5,7	5,7
Vollostanit	4,0	4,0
Asbest	4,0	4,0
Mineral tola ishlab chiqarish uchun basalt	4,0	4,0
Barit konsentrati	4,0	4,0
Metallurgiya uchun noruda xom ashyo:		
O'tga chidamli, qiyin eruvchan, qoliplash gili	4,0	4,0
Ohaktoshlar, dolomitlar	4,0	4,0
Kvars va kvarsitlar	6,5	6,5
Qoliplash qumlari	4,0	4,0
Vermikulit	4,0	4,0
Noruda qurilish materiallari:		
Sement xom ashyosi	5,0	10 %, biroq tonnasiga kamida 45000 so'm

Tabiiy bezaktoshdan bloklar	5,0	5,0
Marmar ushog'i	5,0	5,0
Gips toshi, ganch	5,0	5,0
Keramzit xom ashyosi	5,0	5,0
G'isht-cherepitsa xom ashyosi (qumoqsimon, lyossimon jinslar, lyosslar, zichlovchi sifatida qumlar va boshqalar)	5,0	5,0
Gips va angidrit	5,0	5,0
Arralanadigan, xarsangtosh va shag'al uchun toshlar	5,0	5,0
Qurilish qumlari	5,0	5,0
Tosh-shag'al aralashmasi, shag'al aralashmasi, mayda toshlar, shag'al	5,0	5,0
Qumtoşlar	5,0	5,0
Chig'anoq, ohaktosh	5,0	5,0
Slanetslar	5,0	5,0
Boshqa keng tarqalgan foydali qazilmalar (mergellar, argelitlar, amvritlar va boshqalar)	5,0	5,0
2. Texnogen mineral hosilalardan ajratib olingan foydali qazilmalar	Asosiy foydali qazilmani kavlab olganlik uchun stavkaning 30%i	Asosiy foydali qazilmani kavlab olganlik uchun stavkaning 30%i

*) Belgilangan stavka bo'yicha yer qaridan foydalanganlik uchun soliq O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi va moliya vazirligi tomonidan belgilangan tartibda utilizatsiya qilingan tabiiy gazni sotishni amalga oshiradigan korxonalar tomonidan to'lanadi

**) Uranni qazib olish uchun yer qaridan foydalanish solig'ini O'zbekiston respublikasi Moliya vazirligi tomonidan belgilangan tartibda "Navoiy tog' metallurgiya kombinati" davlat korxonasi tomonidan to'lanadi

***) Belgilangan stavkada yer qaridan foydalanganlik uchun soliq mahsulot sotish hajmi yuzasidan to'lanadi

17-jadval

2020 yil ushuncha Soliq kodeksiga asosan Yer qariidan foydalanganlik uchun soliq stavkalari quyidagi miqdorlarda belgilanadi:

Soliq solinadigan ob'yektning nomi	Soliq stavkalari, foizlarda
1. Asosiy va birga qo'shilib chiqadigan foydali qazilmalarni qazib olganlik uchun	
Energiya manbalari:	
Tabiiy gaz	30
Utilizatsiya qilingan tabiiy gaz, realizatsiya qilingan hajmi bo'yicha	9
Yer ostiga joylashtirilgan gaz	2,6
Gaz kondensati	20
Neft	20
Tosh ko'mir	4
Qo'ng'ir ko'mir	4
YOnuvchi slanslar	4

Rangli, nodir va radioaktiv metallar:	
Tozalangan mis	10
Molibdenli sanoat mahsuloti	10
Reniy	10
Konsentratlangan qo'rg'oshin	8
Metall rux	10
Volfram konsentrati	10,4
Uran	10
Selen	10
Tellur	10
Indiy	10
Vismut	10
Asl metallar:	
Oltin	10
Kumush	10
Palladiy	10
Platina	10
Osmiy	10
Nodir tosh xom ashyosi:	
Qimmatbaho, yarim qimmatbaho va zeb-ziynat uchun toshlar xom ashyosi	24
Fyeruza, listvenit, rodonit, zmeevik, marmar yo'l-yo'l aqiq, kaxolong, yashma, xalsedon, aqiq, gematit	24
Qora metallar:	
Temir	5
Titan-magnetitli rudalar	4
Marganets rudalari	4
Kon-kimyo xom ashyosi:	
Tosh tuz (ovqatga ishlatiladigan)	3,5, biroq 10000 so'm/kub.m dan kam bo'lmagan
Kaliy tuzi	3,5
Sulfat tuzi	3,5
Fosforitlar (donasimon)	5
Karbonat xom ashyosi (ohaktoshlar, dolomitlar)	3,5
Ohaktoshlar (soda uchun va Biox texnologiyasi bo'yicha sanoat chiqindilarini tozalash)	3,5
Mineral (loysimon, temirokisli, karbonatli) pigmentlar	5,5
Yod	4,8
Qishloq xo'jaligi ruda xom ashyosi (glaukonit, bentonitli gil, urug'simon va tabiiy foydalaniladigan hamda jelvakli fosforitlar)	3,5
Kon-ruda xom ashyosi:	
Yeruvchan shpat	21,2
Tabiiy grafit	8
Birlamchi kaolin (konsentrat), realizatsiya qilingan hajmi bo'yicha	7,9
Ikkilamchi kaolin, realizatsiya qilingan hajmiga doir	7,9

Dala shpati xom ashyosi (pegmatit, dala shpati, felzit, leykokratli granit, kvars-dala shpati xom- ashyosi)	6,5
Kvars qumlari (shisha)	3
Qumtosh (shisha)	5
Bentonitli loy (burg'ulangan yeritmalar)	4,8
Talk va talk toshi	4
Talkli magnezit	4
Vollastonit	4
Asbest	4
Mineral tola ishlab chiqarish uchun basalt	4
Barit konsentrati	4
O'tga chidamli, qiyin yeruvchan gillar	4
Ohaktoshlar, dolomitlar (shisha, metallurgiya uchun, o'tga chidamli), flyus ohaktosh	5, biroq 11500 so'm/kub.m dan kam bo'lmagan
Kvars va kvarsit (shisha, texnik kremniy, silikomargans, dinalar ishlab chiqarish uchun)	6,5
Qoliplash xom ashyosi (qumlar, loylar)	4
Vyermikulit	4
Mineral paxta uchun xom ashyo (dolomit, tog' jinslari)	5
Hayvonlar va qushlarni oziqlantirish uchun ohaktosh qobig'i	5
Syerpentinit (o'tga chidamli xom ashyo)	5
Qurilish materiallari:	
Sement ishlab chiqarishga mo'ljallangan ohaktoshdan tashqari sement xom ashyosi (myergeli, loylar, slanslar, lyossimon jinslar, qumoqsimon, loysimon chig'anoqlar, kaolin, vulqon jinslari, pelitli tuffitlar, bazaltlar, diabazlar, andezibazaltlar, gliejlar, temir tarkibli qo'shimchalar, magnetit – gematitli jinslar, kvars qumi va h.k.)	10
Sement ishlab chiqarishga mo'ljallangan ohaktosh	45 000 so'm/tonna*
Ohak ishlab chiqarishga mo'ljallangan ohaktosh	5
Tabiiy bezaktoshdan bloklar (ohaktosh, ohaktosh-chig'anliq, ravyertin simon ohaktoshlar, mramor, granit, granodiorit, granosienit, nefelinli sienit, gabbro, granosienitporfir, kvars porfirdagi ignimbritlar, liparito-datsitlar, vulqon tufi, vulqon jinslari, qumtosh)	5, biroq 20 000 so'm/kub.m dan kam bo'lmagan
Marmar ushog'i	5, biroq 17 000 so'm/kub.m dan kam bo'lmagan
Kyeramzit xom ashyosi (bentonit va loy jinslari)	5
G'isht-chyerepitsa xom ashyosi (qumoqsimon, lyossimon jinslar, lyosslar, zichlovchi sifatida qumlar va boshqalar)	5, biroq 7 000 so'm/kub.m dan kam bo'lmagan
Gips toshi, gips va angidrid, ganch	5, biroq 9 500 so'm/kub.m dan kam bo'lmagan

Arralanadigan, xarsangtosh va shag'al uchun toshlar	5, biroq 7 000 so'm/kub.m dan kam bo'lmagan
Sohilni himoya qilish ishlari uchun xom ashyo (ohaktoshlar, porfirtilar, granitlar)	5, biroq 10 000 so'm/kub.m d an kam bo'lmagan
Qurilish qumlari	5, biroq 8 500 so'm/kub.m dan kam bo'lmagan
Tosh-shag'al aralashmasi	5, biroq 7 500 so'm/kub.m da n kam bo'lmagan
Qumtooshlar	5
Ohaktosh-chig'anoq	5, biroq 12 500 so'm/kub.m dan kam bo'lmagan
Qurilish mayda toshlar (karbonat jinslari)	5, biroq 10 000 so'm/kub.m dan kam bo'lmagan
Qurilish mayda toshlar (granitlar, porfirtilar va slanets jinslari)	5, biroq 10 000 so'm/kub.m dan kam bo'lmagan
Farfor xom ashyosi (farfor toshi, loyli oq quyuqlashuvchi slanets)	5
To'g'on qurish uchun xom ashyo (tosh-shag'al matyeriallari, lyossimon jinslar, qum, bentonitli loy, ohaktoshlar)	5
Boshqa keng tarqalgan foydali qazilmalar (myergellar, argelitlar, amvritlar va boshqalar)	5
2. Texnogen mineral hosilalardan ajratib olingan foydali qazilmalar	Asosiy foydali qazilmani qazib olganlik uchun stavkaning 30 %i

* Sement ishlab chiqaruvchi zavodlar, shuningdek sement xom ashyosi – ohaktoshni realizatsiya qiladigan yer qa'ridan foydalanuvchilar belgilangan soliq stavkasi bo'yicha soliq to'laydi. Sement ishlab chiqarish uchun ko'mirdan foydalanuvchi zavodlar uchun soliq stavkasi 50 foizga kamaytiriladi.

Asl, rangli, noyob va radioaktiv metallarni qazib olishni amalga oshiruvchi alohida soliq to'lovchilar uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan oshirilgan soliq stavkalari belgilanishi mumkin.

Soliq davri. Kalendar yil soliq davri hisoblanadi. Quyidagilar hisobot davridir: yuridik shaxslar uchun – bir oy; jismoniy shaxslar uchun – kalendar yil.

Soliqni hisoblab chiqarish, soliq hisobotlarini taqdim etish va soliqni to'lash tartibi

Soliq bazasidan va belgilangan soliq stavkasidan kelib chiqqan holda soliq hisoblab chiqariladi.

Foydali qazilmalarning alohida turlari bo'yicha soliq summasi soliq bazasidan va belgilangan soliq stavkasidan, lekin belgilangan soliq summasidan kam bo'lmagan stavkasidan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Soliq hisoboti soliq hisobida turgan joydagi, noruda foydali qazilmalar bo'yicha esa – qazib olish amalga oshirilgan joydagi soliq organlariga quyidagi muddatlarda taqdim etiladi:

yuridik shaxslar tomonidan – ortib boruvchi yakun bilan har oyda, hisobot davridan keyingi oyning 20-sanasidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa – yillik moliyaviy hisobot taqdim etiladigan muddatda;

jismoniy shaxslar tomonidan – yilda bir marta, soliq davridan keyingi yilning 1 fevralidan kechiktirmay.

Soliqni to'lash quyidagicha amalga oshiriladi:

yuridik shaxslar tomonidan – har oyda keyingi oyning 20-sanasidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa – yillik moliyaviy hisobot taqdim etiladigan muddatdan kechiktirmay;

jismoniy shaxslar tomonidan – soliq hisobotini taqdim etish muddatidan kechiktirmay.

8.3.Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va uning joriy etilish sabablari. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqning ob'yekti va stavkasi.

O'zbekiston sharoitida suv qadrliligi hisoblanadi. Chunki, respublikamizda qishloq xo'jaligi asosan sug'oriladigan yerlardan iborat. Suv har qanday davlat uchun asosiy boylik hisoblanadi.

1998 yilga qadar suvdan foydalanayotgan korxonalar "suv uchun to'lov" to'lashar edi. Iste'molchilarning suvdan samarali, tejab foydalanish maqsadida respublikamiz soliq qonunchiligiga hamda O'zbekiston Respublikasining "Suv va suvdan foydalanish to'g'risida"gi qonuniga ko'ra 1998 yil 1-yanvardan boshlab suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq joriy etildi. Ushbu soliq umumdavlat soliqlari tarkibiga kirib, respublika byudjetining asosiy daromad manbalaridan biri hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 29 dekabrda 1024-sonli qaroriga asosan ushbu soliq tushumi mahalliy byudjetlarning Davlat byudjetidagi ulushini ko'paytirish maqsadida to'liq miqdorda mahalliy byudjetlar daromadiga o'tkazildi.

Soliq to'lovchilar

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to'lovchilar O'zbekiston Respublikasi hududida suvdan birlamchi foydalanishni yoki suvni iste'mol qilishni amalga oshiruvchi quyidagi shaxslardan iborat:

O'zbekiston Respublikasining yuridik shaxslari;

faoliyatini O'zbekiston Respublikasida doimiy muassasalari orqali amalga oshirayotgan O'zbekiston Respublikasining norezidentlari bo'lgan yuridik shaxslar; suvdan tadbirkorlik faoliyati uchun foydalanuvchi yakka tartibdagi tadbirkorlar; dehqon xo'jaliklari.

Aholi punktlarining suv ta'minoti uchun suv yetkazib berishni amalga oshiruvchi yuridik shaxslar faqat o'z ehtiyojlari uchun foydalanadigan suv uchun soliqni to'lovchilar deb e'tirof etiladi.

Quyidagilar suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to'lovchilar bo'lmaydi:

notijorat tashkilotlar. Notijorat tashkilotlar tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirgan taqdirda, ushbu bo'limda nazarda tutilgan tartibda tadbirkorlik faoliyatida foydalaniladigan suv hajmlari bo'yicha suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni to'lovchilar bo'ladi.

O'zbekistonda asosiy, davlat byudjeti daromadlarini ushbu manba bo'yicha ob-havo qiladigan, ya'ni ta'minlab beradigan soliq to'lovchilar bo'lib, Shirin GRES, Taxiotosh GRES, Toshkent GRES va boshqa shu kabi GESlar hisoblanishadi.

Soliq solish ob'yekti, bazasi va soliq stavkalari.

Soliq solish ob'yekti

Yer usti va yer osti manbalaridan olib foydalaniladigan suv resurslari suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq solish ob'ektidir.

Suv resurslarining yer usti manbalariga daryolar, ko'llar, suv omborlari, yer yuzasidagi boshqa havzalar va suv manbalari, turli xil kanal va hovuzlar kiradi.

Suv resurslarining yer osti manbalariga artezian quduqlar va skvajinalar, vertikal va gorizontaal drenaj tarmoqlari hamda boshqa inshootlar yordamida chiqazib olinadigan suvlar kiradi.

Quyidagilar soliq solish ob'yekti bo'lmaydi:

notijorat tashkilotlar tomonidan notijorat faoliyatni amalga oshirish doirasida foydalaniladigan suv resurslari;

sog'liqni saqlash muassasalari tomonidan davolash maqsadida foydalaniladigan yer osti minyeral suvlari, bundan savdo tarmog'ida realizatsiya qilish uchun foydalanilgan suv hajmi mustasno;

atrof-muhitga zararli ta'sir ko'rsatishining oldini olish maqsadida chiqarib olingan yer osti suvlari, bundan ishlab chiqarish va texnik ehtiyojlar uchun foydalanilgan suv hajmi mustasno;

shaxtadan suvlarni qochirish uchun, foydali qazilmalarni qazib olish paytida chiqarib olingan va qatlamdagi bosimni saqlab turish uchun yer qo'riga qayta quyiladigan yer osti suvlari, bundan ishlab chiqarish va texnik ehtiyojlar uchun foydalanilgan suv hajmi mustasno;

gidroelektrostansiyalar gidravlik turbinalarining harakati uchun foydalaniladigan suv resurslari;

issiqlik elektr stansiyalari va issiqlik elektr markazlari tomonidan qayta quyiladigan suv resurslari;

qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan sho'rlangan yerlarni yuvish uchun foydalaniladigan, suvdan foydalanish va suv iste'moli sohasidagi vakolatli organ tomonidan tasdiqlangan sho'rlarni yuvish normalari doirasidagi suv resurslari.

Soliq bazasi

Foydalanilgan suvning hajmi soliq bazasidir.

Soliq bazasini aniqlash tartibi

Suv resurslarining yer usti va yer osti manbalaridan olingan suv hajmi suvdan foydalanishning buxgaltyeriya (dastlabki) hisobi hujjatlarida aks ettirilgan suv o'lchagich asboblari ko'rsatkichlari asosida aniqlanadi.

Suvdan o'lchagich asboblarsiz foydalanilgan taqdirda, uning hajmi suv ob'ektlaridan suv olish limitlaridan, suvni iste'mol qilishning texnologik va sanitariya normalaridan, ekinlar hamda yashil daraxtzorlarni sug'orish normalaridan yoki ma'lumotlarning to'g'riligini ta'minlovchi boshqa usullardan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Soliq to'lovchilar yer usti va yer osti manbalaridan olib foydalanilgan suv resurslari hajmlarining alohida hisobini yuritadi. Suv resurslarining yer usti va yer osti manbalaridan suv keladigan vodoprovod tarmog'idagi suvdan foydalanilganda, soliq bazasi manbaning har bir turi bo'yicha alohida aniqlanadi. Suv yetkazib berishni amalga oshiruvchi yuridik shaxslar vodoprovod tarmog'iga suv resurslarining yer usti va yer osti manbalaridan kelib tushadigan suv hajmlarining nisbati to'g'risidagi ma'lumotlarni soliq organlariga joriy soliq davrining 15 yanvariga qadar taqdim etishi kerak. Soliq organlari uch kun ichida ushbu ma'lumotlarni soliq to'lovchilar e'tiboriga yetkazishi lozim.

Issiq suv hamda bug' hosil qilinishi bo'yicha soliq bazasi soliq to'lovchi tomonidan ishlab chiqarish va texnik ehtiyojlar uchun o'zi foydalangan suv resurslari hajmidan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Binolarning bir qismi, alohida inshootlar ijaraga berilganda soliq bazasi suv yetkazib berishni amalga oshiruvchi yuridik shaxs bilan shartnoma tuzgan ijaraga beruvchi tomonidan aniqlanadi.

Binolarning bir qismini, alohida inshootlarni ijaraga olgan va suv yetkazib berishni amalga oshiruvchi soliq to'lovchilar bilan shartnoma tuzgan yuridik shaxslar soliq bazasini mustaqil ravishda aniqlaydi.

Soliq to'lovchilar yuridik shaxslar bilan suv yetkazib berilishi yuzasidan solishtirib ko'rish jarayonida olingan suvning hajmini aniqlashtirishda suv hajmining farqini solishtirish amalga oshirilgan davrdagi hisob-kitoblarda aks ettiradi.

Yuridik shaxslarning hududida ta'mirlash-qurilish ishlarini va boshqa ishlarni bajaruvchi soliq to'lovchilar ushbu ishlarni bajarish jarayonida foydalaniladigan suv uchun soliq to'lamaydi. Ta'mirlash-qurilish ishlarini va boshqa ishlarni bajarayotganda foydalaniladigan suv hajmi uchun bu ishlar qaysi yuridik shaxslar uchun bajarilayotgan bo'lsa, o'sha yuridik shaxslar soliq to'laydi. Qurilish ishlari yangi qurilish maydonchasida bajarilgan taqdirda, qurilishda foydalaniladigan suv hajmi uchun qurilish tashkiloti soliq to'laydi.

Yuridik shaxslar qishloq xo'jaligi uchun mo'ljallangan yerlarga taalluqli qism bo'yicha soliq bazasini soliq davrida bir gektar sug'oriladigan yerlarni sug'orish uchun sarflanadigan suvning butun xo'jalik bo'yicha o'rtacha hajmidan kelib chiqqan holda aniqlaydi.

Dehqon xo'jaliklari uchun soliq bazasi soliq organlari tomonidan ushbu moddaning to'qqizinchi qismida nazarda tutilgan tartibga muvofiq aniqlanadi.

Soliq to'lovchi soliq to'lash nazarda tutilmagan faoliyat turlarini amalga oshirgan taqdirda, soliq bazasi soliq solinadigan va soliq solinmaydigan suv resurslari hajmining hisobini alohida yuritish asosida aniqlanadi. Alohida hisob yuritish imkoniyati bo'lmagan taqdirda, soliq bazasi qaysi faoliyat bo'yicha soliq to'lash sof tushumning umumiy hajmida nazarda tutilgan bo'lsa, o'sha faoliyatdan olinadigan sof tushumning solishtirma hajmidan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Alkogolli mahsulot va alkogolsiz ichimliklarni ishlab chiqarish va boshqa maqsadlar uchun foydalanilgan suvning hajmi ishlab chiqaruvchi yuridik shaxslar uchun soliq bazasi hisoblanadi. Alkogolli mahsulot va alkogolsiz ichimliklar ishlab chiqarish uchun foydalaniladigan suv hajmi deganda iste'mol idishidagi tayyor mahsulotga to'g'ri keladigan suvning hajmi tushuniladi.

Soliq stavkalari

Belgilangan limitlar doirasida yer usti va yer osti manbalaridan olinadigan suv resurslari uchun soliq stavkalari bir kub metr uchun mutlaq miqdorda belgilanadi. Soliq stavkalarining miqdori O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to'g'risidagi Qonuni bilan belgilanadi.

Suvdan foydalanish uchun belgilangan limitlardan ortiqcha suv olinganda, bunday ortiqcha qism bo'yicha soliq stavkalari belgilangan soliq stavkalarining besh baravari miqdorida belgilanadi.

Suv resurslaridan ruxsat beruvchi hujjatlarsiz foydalanilganda, shuningdek avtotransport vositalarini yuvishni amalga oshiruvchi korxonalar tomonidan yer usti manbalaridan olingan suvdan foydalanilganda soliq stavkasi belgilangan soliq stavkalarining besh baravari miqdorida belgilanadi.

Quyidagi jadval ma'lumotlarida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining 2018 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to'g'risida"gi 2017 yil 29 dekabrda PQ-3454-sonli qaroriga asosan 2018 yilda va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining

“O‘zbekiston Respublikasining 2019 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to‘g‘risida”gi 2018 yil 26 dekabrda PQ-4086-sonli qaroriga asosan 2019 yilda suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalari keltirilgan.

18-jadval

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq STAVKALARI

N	To'lovchilar	1 kub metr uchun stavka (so'm)			
		2018 yil		2019 yil	
		Yer usti suv resurslari manbalari	Yer osti suv resurslari manbalari	Yer usti suv resurslari manbalari	Yer osti suv resurslari manbalari
A	Iqtisodiyotning barcha tarmoqlari korxonalari (B-E-bandlarda ko'rsatilganlaridan tashqari), dehqon xo'jaliklari (yuridik va jismoniy shaxslar), shuningdek tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish jarayonida suv resurslaridan foydalanadigan jismoniy shaxslar	98,2	124,8	120	150
B	Sanoat korxonalari (V-E-bandlarda ko'rsatilganlardan tashqari)	300	360	360	430
V	Avtotransport vositalarini yuvishga ixtisoslashgan korxonalar	1 000	1 250	1 200	1 500
G	Elektr stansiyalari	28,4	42,2	30	50
D	Kommunal xizmat ko'rsatish korxonalari	53,8	69,7	60	80
E	Alkogolsiz ichimliklar ishlab chiqaruvchi korxonalar*:				
	- alkogolsiz ichimliklarni ishlab chiqarish uchun foydalaniladigan suv hajmi bo'yicha	15 870	15 870	19 040	19 040
	- boshqa maqsadlarda	98,2	124,8	120	150

*Bunda mazkur tashkilotlar suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni soliq solish tartibidan (umumbelgilangan yoki soddalashtirilgan soliq solish tartibi) qat'i nazar to'laydilar.

2020 yilda Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalarining miqdori O'zbekiston Respublikasining 2019 yil 9 dekabrda qabul qilingan 589-sonli Davlat byudjeti to'g'risidagi Qonuni bilan belgilandi.

19-jadval

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq STAVKALARI

N	To'lovchilar	1 kub metr uchun stavka (so'm)	
		2020 yil	
		Yer usti suv resurslari manbalari	Yer osti suv resurslari manbalari

1	Iqtisodiyotning barcha tarmoqlari korxonalari (2-6-bandlarda ko'rsatilganlaridan tashqari), dehqon xo'jaliklari (yuridik va jismoniy shaxslar), shuningdek tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish jarayonida suv resurslaridan foydalanadigan jismoniy shaxslar	140	170
2	Sanoat korxonalari (3-6-bandlarda ko'rsatilganlardan tashqari)	410	490
3	Avtotransport vositalarini yuvishga ixtisoslashgan korxonalar	1380	1730
4	Elektr stansiyalari	35	60
5	Kommunal xizmat ko'rsatish korxonalari	70	90
6	Pivo va vinodan tashqari alkogol mahsulot va alkogolsiz ichimliklar ishlab chiqaruvchi korxonalar:		
	- pivo va vinodan tashqari alkogol mahsulotlar va alkogolsiz ichimliklarni ishlab chiqarish uchun foydalaniladigan suv hajmi bo'yicha	21900	21900
	- boshqa maqsadlarda	410	490

Soliq davri. Kalendar yil soliq davri hisoblanadi.

Soliqni hisoblab chiqarish va soliq hisobotini taqdim etish tartibi

Soliq summasi soliq bazasidan va belgilangan soliq stavkalaridan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi.

Dehqon xo'jaliklari uchun soliq summasi soliq bazasidan va belgilangan soliq stavkalaridan kelib chiqqan holda soliq organlari tomonidan aniqlanadi.

Soliq hisoboti suvdan foydalanish yoki suvni iste'mol qilish joyidagi soliq organlariga quyidagilar tomonidan yilda bir marta taqdim etiladi:

O'zbekiston Respublikasi yuridik shaxslari tomonidan, bundan qishloq xo'jaligi korxonalari mustasno – yillik moliyaviy hisobot taqdim etiladigan muddatda;

qishloq xo'jaligi korxonalari tomonidan – joriy soliq davrining 15 dekabrigacha;

O'zbekiston Respublikasida faoliyatini doimiy muassasalar orqali amalga oshirayotgan O'zbekiston Respublikasining norezidentlari bo'lgan yuridik shaxslar, shuningdek yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan – soliq davridan keyingi yilning 20 yanvarigacha.

Soliq organlari soliq to'lash to'g'risidagi to'lov xabarnomasini dehqon xo'jaliklariga soliq davridan keyingi yilning 1 fevralidan kechiktirmay topshiradi.

Soliq to'lash tartibi

Soliq davri mobaynida soliq to'lovchilar soliq bo'yicha bo'nak to'lovlarni to'laydi, bundan qishloq xo'jaligi korxonalari, O'zbekiston Respublikasida faoliyatini doimiy muassasalar orqali amalga oshirayotgan O'zbekiston Respublikasining norezidentlari bo'lgan yuridik shaxslar, shuningdek dehqon xo'jaliklari mustasno.

Bo'nak to'lovlar miqdorini hisoblab chiqarish uchun soliq to'lovchilar joriy soliq davrining 20 yanvarigacha, yangi tashkil etilganlari esa davlat ro'yxatidan o'tkazilgan kundan e'tiboran o'ttiz kundan kechiktirmay, suvdan foydalanish yoki suvni iste'mol qilish joyidagi soliq organlariga mo'ljallanayotgan soliq bazasidan (foydalaniladigan suv hajmidan) va belgilangan soliq stavkalaridan kelib chiqqan holda hisoblangan joriy soliq davri uchun soliq summasi to'g'risidagi ma'lumotnomani taqdim etadi. Soliq bo'yicha majburiyatlari soliq davri ichida yuzaga kelgan soliq to'lovchilar soliq summasi to'g'risidagi ma'lumotnomani soliq majburiyati yuzaga kelgan sanadan e'tiboran o'ttiz kundan kechiktirmay taqdim etadi.

Ushbu moddaning ikkinchi qismiga muvofiq hisoblab chiqarilgan bo'nak to'lovlar:

soliq davrida soliq summasi bazaviy hisoblash miqdorining ikki yuz baravaridan ko'proqni tashkil etadigan yuridik shaxslar tomonidan (bundan aylanmadan olinadigan soliqni to'lovchilar mustasno) – har oyning 20 sanasidan kechiktirmay yillik soliq summasining o'n ikkidan bir qismi miqdorida;

soliq davrida soliq summasi bazaviy hisoblash miqdorining ikki yuz baravaridan kamroqni tashkil etadigan, aylanmadan olinadigan soliqni to'lovchilar bo'lmagan yuridik shaxslar, shuningdek aylanmadan olinadigan soliqni to'lovchilar va yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan – har chorak uchinchi oyining 20 sanasidan kechiktirmay yillik soliq summasining to'rtidan bir qismi miqdorida to'lanadi.

Soliq davri davomida mo'ljallanayotgan soliq bazasi o'zgarganda, soliq to'lovchi soliq summasi to'g'risida aniqlashtirilgan ma'lumotnoma taqdim etishga haqli. Bunda soliq davrining qolgan qismi uchun bo'nak to'lovlarga soliqning o'zgargan summasiga teng ulushlarda tuzatish kiritiladi.

Soliq davri uchun bo'nak to'lovlar hisobga olingan holda soliqni to'lash soliq to'lovchilar tomonidan, bundan dehqon xo'jaliklari mustasno, suvdan foydalanish yoki suv iste'moli joyida, soliq hisoboti taqdim etiladigan muddatdan kechiktirmay amalga oshiriladi.

Soliq davri uchun bo'nak to'lovlar summasi soliq hisobotida ko'rsatilgan byudjetga to'lanishi lozim bo'lgan soliq summasiga nisbatan 10 foizdan ortiq miqdorga kamaytirilgan taqdirda, soliq organi bo'nak to'lovlarni soliqning haqiqiy summasidan kelib chiqib, penya hisoblagan holda qaytadan hisob-kitob qiladi.

Dehqon xo'jaliklari tomonidan soliqni to'lash yilda bir marta, soliq davridan keyingi yilning 1 mayigacha amalga oshiriladi.

8.4.Mol-mulk solig'ining joriy etilishi va uning iqtisodiy mohiyati. Yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i ob'yekti, stavkasi

O'zbekistonda korxonalar faoliyatini soliqqa tortish yo'lidagi muhim qadamlardan biri korxonalarning mol-mulkiga solinadigan soliqning joriy qilinishi bo'ldi. Mol-mulk solig'i dastlab, O'zbekiston Respublikasining 1991 yil 15 fevralda qabul qilingan "Korxonalar, birlashmalar va tashkilotlardan olinadigan soliqlar to'g'risida" gi Qonuniga asosan joriy etildi va shu bilan birga korxonalarning ishlab chiqarish fondlariga to'lov hamda transport vositalariga solinadigan soliq bekor qilindi.

Hozirgi vaqtda ushbu soliqning huquqiy asosi bo'lib, O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi, "Davlat soliq xizmati to'g'risida" gi qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlari hamda boshqa soliq qonunchiligi bilan bog'liq bo'lgan me'yoriy hujjatlar hisoblanadi.

O'zbekiston soliq tizimida yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i to'g'ri soliqlar tarkibiga kiradi va mohiyatiga ko'ra bu soliq asosiy fondlar shaklidagi resurslarga nisbatan belgilangan soliq hisoblanadi. Mazkur soliq bo'yicha tushumlar summasi to'liq mahalliy byudjetlarga tushadi va u byudjetning barqaror daromad manbalaridan biri hisoblanadi.

Mamlakat soliq tizimida mol-mulk solig'ini joriy qilishdan ko'zlangan maqsad birinchidan, korxonalar o'zlarining xo'jalik faoliyatini yuritishda ortiqcha va foydalanilmayotgan mol-mulkini sotishga qiziqishini uyg'otish bo'lsa, ikkinchidan, korxonalar balansidagi mol-mulkdan samarali foydalanishni rag'batlantirishdan iborat. Chunki, korxonalarning ma'naviy va jismoniy tomondan eskirgan asosiy vositalarini yangi, ilg'or texnologiya-uskunalar bilan yangilashi ishlab chiqarilayotgan tovarlarning bahosini arzonlashtiradi va raqobatbardosh tovarlar ishlab chiqarishga imkon beradi.

Xo'jalik yurituvchi sub'yektlarning balansidagi barcha mulklardan soliq to'lashga majbur qilish uni ortiqcha bino, inshootlar, mashina va uskunalaridan qutilishiga undaydi. Bu esa, o'z navbatida, ishlab chiqarish vositalari bozorini shakllantirishga, mahsulot tannarxini pasaytirishga hamda raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish imkoniyatini yaratardi.

1992 yildan 2012 yilgacha Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni hisoblashda korxonalar asosiy fondlaridagi binolar, inshootlar, mashinalar, jihozlar, asbob-uskunalar qiymati asos bo'lgan edi.

Hozirda yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqning soliq to'lovchilari deb quyidagilar e'tirof etiladi:

1) O'zbekiston Respublikasi hududida soliq solish ob'yekti hisoblanuvchi mol-mulkka ega bo'lgan O'zbekiston Respublikasi yuridik shaxslari;

2) O'zbekiston Respublikasi hududida ko'chmas mulkka ega bo'lgan O'zbekiston Respublikasining norezidentlari bo'lgan yuridik shaxslar.

Agar ko'chmas mulk mulkdorining joylashgan yerini aniqlashning imkoni bo'lmasa, ushbu mulkka egalik qiluvchi va (yoki) undan foydalanuvchi shaxs soliq to'lovchi hisoblanadi.

Agar yuridik shaxs ko'chmas mulkni moliyaviy ijaraga (lizing) olgan bo'lsa, u ham soliq to'lovchi deb e'tirof etiladi.

Soliq solish ob'yekti

Ko'chmas mulk yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq solish ob'yekti hisoblanadi.

Ko'chmas mulk jumlasiga quyidagilar kiradi:

1) ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organlarda ro'yxatdan o'tkazilishi lozim bo'lgan binolar va inshootlar;

2) qurilishi tugallanmagan ob'yektlar. Qurilishi tugallanmagan ob'yektlarga qurilish ob'yektiga doir loyiha-smeta hujjatlarida belgilangan normativ muddatda qurilishi tugallanmagan ob'yektlar, agar qurilishning normativ muddati belgilanmagan bo'lsa, ushbu ob'yektning qurilishiga vakolatli bo'lgan organning ruxsatnomasi olingan oydan e'tiboran yigirma to'rt oy ichida qurilishi tugallanmagan ob'yektlar kiradi;

3) temir yo'llar, magistral quvurlar, aloqa va elektr uzatish liniyalari, shuningdek mazkur ob'yektlarning ajralmas texnologik qismi bo'lgan inshootlar;

4) qurilish tashkilotlari yoki imoratlarni quruvchilar balansida keyinchalik sotish uchun ko'rsatilgan turar joy ko'chmas mulk ob'yektlari, ko'chmas mulk ob'yekti foydalanishga topshirilgandan keyin olti oy o'tgach.

Quyidagi ko'chmas mulk ob'yektlari soliq solish ob'yekti hisoblanmaydi:

1) notijorat tashkilotlari tomonidan notijorat faoliyatini amalga oshirish doirasida foydalaniladigan ob'yektlar;

2) turar joy-kommunal xo'jaligining va belgilangan maqsadi bo'yicha foydalaniladigan boshqa umumfuqaroviy ahamiyatga molik shahar xo'jaligi ob'yektlari;

3) umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llari;

4) sug'orish va kollektor-drenaj tarmoqlari;

5) soliq to'lovchining balansida bo'lgan hamda tadbirkorlik faoliyatida foydalanilmayotgan, fuqaro muhofazasi va safarbarlik ahamiyatiga molik ob'yektlar;

6) tabiatni muhofaza qilish va sanitariya-tozalash maqsadlari, yong'in xavfsizligi uchun foydalaniladigan ob'yektlar;

7) yer uchastkalari.

Soliq bazasi

Quyidagilar soliq bazasidir:

1) ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organlarda ro'yxatdan o'tkazilishi lozim bo'lgan binolar va inshootlar hamda temir yo'llar, magistral quvurlar, aloqa va elektr uzatish liniyalari, shuningdek mazkur ob'ektlarning ajralmas texnologik qismi bo'lgan inshootlar bo'yicha – o'rtacha yillik qoldiq qiymati.

Ko'chmas mulkning qoldiq qiymati ushbu mol-mulkning boshlang'ich (tiklanish) qiymati bilan soliq to'lovchining hisob siyosatida belgilangan usullardan foydalanilgan holda hisoblab chiqilgan amortizatsiya miqdori o'rtasidagi farq sifatida aniqlanadi.

Bunda to'liq amortizatsiya qilingan bino bo'yicha uning uch yilda kamida bir marta aniqlanadigan qayta baholangan (bozor) qiymati soliq bazasidir;

2) qurilishi tugallanmagan ob'yektlar bo'yicha – tugallanmagan qurilishning o'rtacha yillik qiymati;

3) qurilish tashkilotlari yoki imoratlarni quruvchilar balansida keyinchalik sotish uchun ko'rsatilgan turar joy ko'chmas mulk ob'ektlari bo'yicha – mazkur ob'ektlarning o'rtacha yillik qiymati (realizatsiya qilinmagan qismi bo'yicha).

O'zbekiston Respublikasi norezidentlarining ko'chmas mulk ob'ektlariga nisbatan soliq bazasi ushbu mol-mulkning o'rtacha yillik qiymatidir.

Soliq solish ob'ektlarining o'rtacha yillik qoldiq qiymati (o'rtacha yillik qiymat) soliq davridagi har bir oyning oxirgi kunidagi holatga ko'ra soliq solish ob'ektlarining qoldiq qiymatlarini (o'rtacha yillik qiymatlarini) qo'shishdan olingan summaning o'n ikkidan bir qismi sifatida ortib boruvchi yakun bilan aniqlanadi.

O'zbekiston Respublikasi norezidentlarining ko'chmas mulk ob'ektlari bo'yicha soliq bazasi mazkur ob'ektlarga bo'lgan mulk huquqini tasdiqlovchi hujjatlarda ko'rsatilgan qiymat asosida aniqlanadi.

Soliq bazasi har bir soliq solish ob'ekti bo'yicha alohida aniqlanadi.

Soliq to'lovchi tomonidan soliqni to'lash nazarda tutilmagan faoliyat turlari amalga oshirilgan taqdirda, soliq bazasi soliq solinadigan va soliq solinmaydigan mol-mulk hisobini alohida-alohida yuritish asosida aniqlanadi. Alohida-alohida hisob yuritishning imkoni bo'lmasa, soliq bazasi soliq to'lanishi nazarda tutilgan faoliyatdan olinadigan sof tushumning jami sof tushum hajmidagi ulushiga qarab aniqlanadi.

Soliq stavkalari

Quyidagi jadval ma'lumotlarida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining 2018 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to'g'risida"gi 2017 yil 29 dekabrda PQ-3454-sonli qaroriga asosan 2018 yilda va "O'zbekiston Respublikasining 2019 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari

to'g'risida"gi 2018 yil 26 dekabrda PQ-4086-sonli qaroriga asosan 2019 yilda hamda Soliq kodeksiga asosan 2020 yilda yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i stavkalari keltirilgan

20-jadval

Yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i STAVKALARI

T/r	To'lovchilar	Soliq solinadigan bazaga nisbatan %larda soliq stavkasi		
		2018 yil	2019 yil	2020 yil
1.	Yuridik shaxslar	5,0	2,0	2,0

Qurilishi normativ muddatda tugallanmagan ob'yektlarga nisbatan soliq stavkasi 4 foiz miqdorida belgilanadi.

Soliq stavkasi quyidagilarga nisbatan 0,2 foiz miqdorida belgilanadi:

1) umumiy foydalanishdagi temir yo'llar, magistral quvurlar, aloqa va elektr uzatish liniyalari, shuningdek mazkur ob'yektlarning ajralmas texnologik qismi bo'lgan inshootlar;

2) konservatsiya qilinishi to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori qabul qilingan ko'chmas mulk va tugallanmagan qurilish ob'yektlari.

Soliq imtiyozlari

Soliq hisoblab chiqarilayotganda soliq bazasi quyidagilarning o'rtacha yillik qoldiq qiymatiga (o'rtacha yillik qiymatiga) kamaytiriladi:

1) madaniyat va san'at, ta'lim, sog'liqni saqlash, jismoniy tarbiya va sport, ijtimoiy ta'minot ob'ektlarining;

2) qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish va saqlash uchun, shuningdek ipak qurti yetishtirish uchun foydalaniladigan qishloq xo'jaligi korxonalari balansida bo'lgan mol-mulkning.

Quyidagilar soliqdan ozod qilinadi:

1) yagona ishtirokchilari nogironligi bo'lgan shaxslarning jamoat birlashmalari bo'lgan va xodimlarining umumiy sonida nogironligi bo'lgan shaxslar kamida 50 foizni tashkil etadigan hamda nogironligi bo'lgan shaxslarning mehnatiga haq to'lash fondi mehnatga haq to'lash umumiy fondining kamida 50 foizini tashkil etadigan yuridik shaxslar;

2) qayta tiklanuvchi energiya manbalari qurilmalarini (nominal quvvati 0,1 MVt va undan ortiq bo'lgan) o'rnatganlik uchun qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan energiya ishlab chiqaruvchilar, ular foydalanishga joriy etilgan paytdan e'tiboran o'n yil muddatga.

Soliq davri. Kalendar yil soliq davridir.

Soliqni hisoblab chiqarish, soliq hisobotini taqdim etish va soliqni to'lash tartibi.

Soliq to'lovchilar soliqni aniqlangan soliq bazasidan va tegishli soliq stavkasidan kelib chiqqan holda mustaqil ravishda hisoblab chiqaradi.

Soliq hisoboti soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi soliq organiga yilda bir marta, yillik moliyaviy hisobot topshiriladigan muddatda taqdim etiladi, O'zbekiston Respublikasi norezidentlari bo'lgan yuridik shaxslar tomonidan esa soliq hisoboti davridan keyingi yilning 15 fevraliga qadar bo'lgan muddatda taqdim etiladi.

Soliq davri mobaynida soliq to'lovchilar (bundan O'zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasalar orqali amalga oshirmaydigan O'zbekiston Respublikasi norezidentlari bo'lgan yuridik shaxslar mustasno) soliq bo'yicha bo'nak to'lovlarni to'laydi.

Bo'nak to'lovlar miqdorini hisoblab chiqarish uchun soliq to'lovchilar joriy soliq davrining 10 yanvarigacha, yangi tashkil qilinganlari esa, davlat ro'yxatidan o'tkazilgan sanadan e'tiboran o'ttiz kundan kechiktirmay soliq organlariga mo'ljallanayotgan soliq bazasidan (tegishli yil uchun mol-mulkning o'rtacha yillik qoldiq qiymatidan (o'rtacha yillik qiymatidan) va tegishli soliq stavkasidan kelib chiqqan holda hisoblangan joriy soliq davri uchun soliq summasi to'g'risidagi ma'lumotnomani taqdim etadi.

Hisoblab chiqarilgan bo'nak to'lovlar quyidagicha to'lanadi:

aylanmadan soliq to'lovchilar tomonidan – yillik soliq summasining to'rttdan bir qismi miqdorida yilning har choragi uchinchi oyining 10-kunidan kechiktirmay;

aylanmadan soliq to'lovchilar hisoblanmaydigan soliq to'lovchilar tomonidan – yillik soliq summasining o'n ikkidan bir qismi miqdorida har oyning 10-kunidan kechiktirmay.

Soliq davri uchun to'lanishi lozim bo'lgan soliq summasi, bo'nak to'lovlar hisobga olingan holda, soliq hisobotini taqdim etish muddatidan kechiktirmay byudjetga o'tkaziladi.

O'zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasalar orqali amalga oshirmaydigan O'zbekiston Respublikasining norezidentlari tomonidan soliq har yili bir marta soliq hisoboti davridan keyingi yilning 15 fevralidan kechiktirmay to'lanadi.

Nazorat savollari:

1. Foyda solig'i O'zbekistonda qachon joriy qilingan?
2. Foyda solig'ining to'lovchilari kimlar, soliq ob'ekti va soliqqa tortish bazasi qanday aniqlanadi ?
3. Yer solig'ining huquqiy asoslari O'zbekistonda qachon shakllangan
4. Yer solig'ini undirish ob'ekti va tartibini tushuntiring.
5. Yer qa'ridan foydalanganda soliqqa tortishning zarurligi nimada?

6. Yer qa'ridan foydalanganda soliqqa tortish ob'ekti va bazasi qanday aniqlanadi?
7. Qanday toifadagi fuqarolar yer solig'idan ozod etiladi?
8. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni joriy etishdan ko'zda tutilgan maqsad nima?
9. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni to'lovchilari kimlar?
- Mol-mulk solig'i qachon joriy etilgan va uni joriy etishdan ko'zlangan maqsad nima?
- Mol-mulk solig'ini to'lovchilari kimlar?
- Soliqqa tortishning alohida tartibi o'rnatilgan korxonalar asosiy faoliyatidan tashqari boshqa faoliyat bilan shug'ullanganlarida mol-mulk solig'ini to'lashadimi?
- Mol-mulk solig'ining ob'yekti va bazasi qanday aniqlanadi?
- Mol-mulk solig'i stavkalari qanday belgilangan?

9-MAVZU.QO'SHILGAN QIYMAT SOLIG'I VA AKSIZ SOLIG'I. DAVLAT MAQSADLI JAMG'ARMALARGA AJRATMALAR.

Reja:

- 9.1. Qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchilari tarkibi. Qo'shilgan qiymat solig'ining soliq solish ob'yekti va stavkalari
- 9.2. Aksiz solig'i va uning soliq tizimida tutgan o'rni, soliqqa tortish ob'yekti va stavkasi.
- 9.3.Davlat maqsadli jamg'armalarga ajratmalar, soliq ob'yekti va soliq stavkasi.
- 9.4. Maxsus soliq rejimlari

Tayanch iboralar: Qo'shilgan qiymat solig'i, aksiz solig'i,nol darajali stavka, advalor stavka, ijtimoiy soliq, aksiz marka.

9.1. Qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchilari tarkibi. Qo'shilgan qiymat solig'ining soliq solish ob'yekti va stavkalari.

Hozirgi vaqtda O'zbekiston va xalqaro soliq amaliyotida bilvosita soliqlarning asosiy turlaridan biri – qo'shilgan qiymat solig'i hisoblanadi.

Qo'shilgan qiymat solig'i – har bir ishlab chiqarish bosqichida va realizatsiya jarayonida undiriladigan ko'p qirrali bilvosita soliqdir.

Qo'shilgan qiymat o'zining iqtisodiy mohiyatiga ko'ra, sotilgan mahsulotlar, bajarilgan ishlar va ko'rsatilgan xizmatlarning qiymati bilan ishlab chiqarish jarayonida iste'mol qilingan tovarlar, xom-ashyolar va xizmatlarning qiymati o'rtasidagi farqdan iboratdir.

Qo'shilgan qiymat solig'ini davlat byudjetining daromad qismiga jalb qilish g'oyasi dastlab XX asrning boshlarida yuzaga keldi. Bu taklifni birinchi marta Germaniya byudjet amaliyotida joriy etishni 1919 yilda Vilgelm fon Simens ilgari surdi.

Qo'shilgan qiymat solig'ini amaliyotga joriy etish va undirish mexanizmi birinchi marta fransuz moliyachisi M.Lore tomonidan ishlab chiqildi. Ammo qo'shilgan qiymat solig'i M.Lorening taklifidan so'ng o'tgan 10 yildan ortiq vaqt mobaynida tajriba uchun taklif etilgan shaklda qo'llanildi. Fransiyada qo'shilgan qiymat solig'i haqiqatda 1968 yildan boshlab joriy etildi

XX asrning 70-yillarida qo'shilgan qiymat solig'i G'arbiy Evropaning qator mamlakatlarining soliq amaliyotida joriy qilindi. Buning asosiy sababi va huquqiy asosi bo'lib, Evropa iqtisodiy hamjamiyati tomonidan hamjamiyatga a'zo mamlakatlarda qo'shilgan qiymat solig'ini undirishni tartibga solishning huquqiy me'yorlarini umumlashtirish to'g'risidagi maxsus Direktivaning qabul qilinishi hisoblanadi. Mazkur Direktiva 1977 yilda qabul qilindi va unda bilvosita soliqlarning asosiy turi sifatida qo'shilgan qiymat solig'i e'tirof etildi.

Qo'shilgan qiymat solig'iga xos bo'lgan muhim xususiyatlardan biri shundaki, soliqqa tortishning ob'yekti bo'lib, nafaqat ichki bozordagi tovaroborot, balki mamlakat korxonalarining tashqi bozorlaridagi tovaroboroti ham hisoblanadi.

Iqtisodiy adabiyotlarda, ko'pchilik hollarda, qo'shilgan qiymat solig'ini «Evropacha» soliq deb ham atashadi. Buning asosiy sabablari shundaki, birinchidan, qo'shilgan qiymat solig'i dunyoda birinchi marta Evropa davlati bo'lgan Fransiyada joriy etildi; ikkinchidan, 1977 yilda qabul qilingan Direktivaga asosan qo'shilgan qiymat solig'i bir vaqtning o'zida Evropaning bir necha davlatlarida joriy etildi; uchinchidan, qo'shilgan qiymat solig'i G'arbiy Evropadagi integratsion jarayonlarni shakllantirish va rivojlantirishda muhim rol o'ynadi.

O'zbekiston soliq tizimida qo'shilgan qiymat solig'i 1992 yildan buyon amal qilmoqda. Ushbu soliq oborotdan olinadigan soliq va sotuvdan olinadigan soliqlar o'rniga aksiz solig'i bilan birgalikda kiritilgan. O'zbekiston Respublikasi davlat byudjetining daromad manbai sifatida qo'shilgan qiymat solig'i hozirga qadar o'zining muhim o'rnini va amaliy ahamiyatini saqlab kelyapti.

Soliq to'lovchilar tarkibi, soliq ob'yekti va soliq stavkalari

Soliq to'lovchilar

O'zbekiston Respublikasida tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi va (yoki) tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qiluvchi quyidagilar qo'shilgan qiymat solig'ini to'lovchilar deb e'tirof etiladi:

- 1) O'zbekiston Respublikasining yuridik shaxslari;

2) tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan daromadi soliq davrida bir milliard soʻmdan oshgan yoxud ixtiyoriy ravishda qoʻshilgan qiymat soligʻini toʻlashga oʻtgan yakka tartibdagi tadbirkorlar;

3) Oʻzbekiston Respublikasi hududida tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qiluvchi chet el yuridik shaxslari, agar tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilish joyi deb Oʻzbekiston Respublikasi eʼtirof etilsa;

4) faoliyatni Oʻzbekiston Respublikasida doimiy muassasalar orqali amalga oshiruvchi chet el yuridik shaxslari;

5) oddiy shirkat shartnomasi (birgalikdagi faoliyat toʻgʻrisidagi shartnoma) doirasida amalga oshiriladigan faoliyat boʻyicha – oddiy shirkatning ishlarini yuritish vazifasi zimmasiga yuklatilgan ishonchli shaxs – oddiy shirkatning ishtirokchisi;

6) Oʻzbekiston Respublikasining bojxona chegarasi orqali tovarlarni olib oʻtuvchi shaxslar. Mazkur shaxslar bojxona toʻgʻrisidagi qonun hujjatlariga muvofiq qoʻshilgan qiymat soligʻini toʻlovchilar deb eʼtirof etiladi

Quyidagilar soliq toʻlovchilar deb hisoblanmaydi:

1) davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari – oʻz zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarish doirasida;

2) aylanmadan olinadigan soliqni toʻlovchi shaxslar.

Soliq solish obʼyekti

Quyidagilar soliq solish obʼyektidir:

1) realizatsiya qilish joyi Oʻzbekiston Respublikasi boʻlgan tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilish boʻyicha aylanma;

2) Oʻzbekiston Respublikasi hududiga tovarlarni olib kirish(tovarlar importi).

Faoliyatni Oʻzbekiston Respublikasida doimiy muassasa orqali amalga oshiruvchi chet el yuridik shaxslari tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilish boʻyicha aylanmani bunday doimiy muassasaning faoliyatidan kelib chiqqan holda belgilaydi.

Quyidagilar soliq solish obʼyekti hisoblanmaydi:

1) yakka tartibdagi tadbirkor tomonidan oʻz tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish bilan bogʻliq boʻlmagan shaxsiy (oilaviy) mol-mulkni realizatsiya qilish;

2) yuridik shaxs qayta tashkil etilayotganda uning mol-mulkini huquqiy vorisga (huquqiy vorislarga) oʻtkazish;

3) ishonchli boshqaruvning muassisi tomonidan mol-mulkni ishonchli boshqaruvchiga berish va ishonchli boshqaruv shartnomasining amal qilish muddati tugagan taqdirda, ishonchli boshqaruvchining oʻzi ishonchli boshqaruvga berilgan mol-mulkni qaytarishi;

4) milliy valyuta yoki chet el valyutasi muomalasi bilan bogʻliq operatsiyalarni amalga oshirish.

Tovarlarni (ish va xizmatlarni) realizatsiya qilish aylanma deganda – yuklab jo‘natilgan tovarlar (ish va xizmatlar) qiymati tushuniladi, ya‘ni yuklab jo‘natilgan tovarlar (ish va xizmatlar) uchun mablag‘i kelib tushishi davridan qat‘iy nazar korxona qo‘shilgan qiymat solig‘i bo‘yicha byudjet oldida hisob-kitoblarni amalga oshirishi shart.

Soliq solinadigan import deganda esa – O‘zbekiston Respublikasining bojxona hududiga olib kirilayotgan tovarlar hisoblanadi (qo‘shilgan qiymat solig‘idan ozod etilgan import tovarlardan tashqari).

Tovarlarni realizatsiya qilish bo‘yicha aylanma quyidagilardan iborat:

1) tovarga bo‘lgan mulk huquqini pullik asosda, shu jumladan tovarning qarz shartnomasi bo‘yicha o‘tkazish;

2) tovarni bepul berish;

3) mol-mulkni moliyaviy ijaraga (lizingga) berish;

4) tovarni bo‘lib-bo‘lib to‘lash shartlari asosida berish.

Tovarni realizatsiya qilishdan farq qiluvchi har qanday faoliyat, shu jumladan quyidagilar xizmatlarni realizatsiya qilish bo‘yicha aylanma deb e‘tirof etiladi:

1) pullik asosda xizmatlar ko‘rsatish;

2) bepul xizmatlar ko‘rsatish, shu jumladan mol-mulkni soliq to‘lovchining bepul foydalanishi uchun berish.

Ushbu bo‘limni qo‘llash maqsadida quyidagilar ham tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilish bo‘yicha aylanmadir:

1) yuridik shaxsning ustav fondiga (ustav kapitaliga) hissa sifatida tovarlarni berish (xizmatlar ko‘rsatish);

2) oddiy shirkat shartnomasi (birgalikdagi faoliyat to‘g‘risidagi shartnoma) ishtirokchilari o‘rtasida shunday shartnoma doirasida tovarlarni berish (xizmatlar ko‘rsatish);

3) quyidagilarga tovarlarni berish (xizmatlar ko‘rsatish):

emitent bo‘lgan yuridik shaxs tomonidan aksiyadordan ushbu emitent chiqargan aksiyalarni qaytarib sotib olishda, aksiyadorga;

yuridik shaxs tugatilganda, aksiyadorga yoki ishtirokchiga;

4) jismoniy shaxslarga mehnatga haq to‘lash yoki dividendlar to‘lash hisobiga tovarlarni berish (xizmatlar ko‘rsatish);

5) soliq to‘lovchi tomonidan o‘ziga tegishli mol-mulkni (xizmatlarni), agar bunday mol-mulk (xizmatlar) bo‘yicha soliq summasi to‘liq yoki qisman hisobga o‘tkazilgan bo‘lsa, boshqaruv organi a‘zolariga, xodimlarga, ularning oila a‘zolariga yoxud boshqa shaxslarga soliq to‘lovchining tadbirkorlik faoliyati bilan bog‘liq bo‘lmagan shaxsiy maqsadlarda foydalanish uchun berish (xizmatlar ko‘rsatish);

7) tovarlarni va boshqa mol-mulkni qaytarish sharti bilan qayta ishlashga berish, agar tovarlar va (yoki) mol-mulk qayta ishlash mahsuli shaklida shartnomada belgilangan muddatda qaytarilmagan bo'lsa;

8) erkin bojxona hududining bojxona tartib-taomiliga soliq to'lamasdan joylashtirilgan tovarni yo'qotish, boshqa holatlarda soliqni to'lash zarur bo'lgan taqdirda;

9) qaytarilishi lozim bo'lgan, ko'p marta muomalada bo'ladigan idishlarning sotuvchi tomonidan berilishi, agar idish bunday idishdagi mahsulotni yetkazib berishga doir shartnomada belgilangan muddatda qaytarilmasa.

Tovarlarni (xizmatlarni) olish huquqini beruvchi vaucherlarni realizatsiya qilish yoki bepul berish mazkur tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilish bo'yicha aylanma deb e'tirof etiladi.

Soliq bazasi

Tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishda soliq bazasi soliq to'lovchi tomonidan ushbu bobga muvofiq o'zi ishlab chiqargan yoki olgan tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishning o'ziga xos xususiyatlariga qarab aniqlanadi.

Tovarlarni O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirishda soliq bazasi soliq to'lovchi tomonidan ushbu bobga va bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq aniqlanadi.

Soliq bazasini aniqlash chog'ida tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan tushum soliq to'lovchining ushbu tovarlarga (xizmatlarga) pulda va (yoki) natura shakllaridagi to'lov, shu jumladan qimmatli qog'ozlar bilan haq to'lash sifatida olingan barcha daromadlaridan kelib chiqqan holda hisobga olinadi.

Soliq bazasini aniqlash chog'ida soliq to'lovchining chet el valyutasida ifodalangan tushumi (xarajatlari) ushbu Kodeksning 242-moddasida belgilangan tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilish bo'yicha aylanma amalga oshirilgan sanada O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan kurs bo'yicha milliy valyutada qayta hisoblab chiqiladi

Soliq stavkalari

Qo'shilgan qiymat solig'i uchun 2000 yildan 2019 yil oktyabrgacha Soliq Kodeksiga ko'ra respublikamizda 20 foizli va "0" foizli stavka qo'llanilib kelindi. Umuman olganda "0" stavka deganda korxona ishlab chiqarayotgan tovarlarning (bajarilgan ish, xizmatlarning) qiymatiga qo'shilgan qiymat solig'i qo'llanilmaydi, ya'ni "nol" ga teng degani. 2019 yil oktyabrdan hozirgacha 15 foizli va "0" foizli stavka qo'llanilib kelinmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining 2018 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to'g'risida"gi 2017 yil 29 dekabrda PQ-3454-sonli qaroriga asosan 2018 yilda Qo'shilgan qiymat solig'i stavkasi 20 foiz miqdorida saqlanib qolindi. 2019 yilda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining 2019 yilgi

asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to'g'risida"gi 2018 yil 26 dekabrda PQ-4086-sonli qaroriga asosan Q'shilgan qiymat solig'ini hisoblab chiqarish va to'lashning umumbelgilangan(20 %) va soddalashtirilgan tartibiga o'tgan soliq to'lovchilar uchun qo'shilgan qiymat solig'ining farqlangan stavkalari miqdorlari belgilandi. 2020 yilda Soliq kodeksiga asosan umumbelgilangan 15 % qo'shilgan qiymat solig'i stavkasi belgilandi.

21-jadval

Q'shilgan qiymat solig'i stavkalari

№	Soliq turi	2018 yil %da	2019 yil%da	2020 yil%da
1.	Qo'shilgan qiymat solig'I umumbelgilangan tartibga	20	20	15
	soddalashtirilgan tartibiga o'tgan soliq to'lovchilar uchun			
A	Iqtisodiyotning barcha tarmoqlaridagi yuridik shaxslar, (B-E) bandlarda nazarda tutilganlar bundan mustasno		7	
B	Qurilish tashkilotlari		8	
V	CHakana, ulgurji, shuningdek ulgurji-chakana savdoni amalga oshiradigan savdo korxonalari		6	
G	Umumiy ovqatlanish, mehmonxona xo'jaligi korxonalari		10	
D	Kasbiy xizmatlar ko'rsatadigan yuridik shaxslar (auditorlik xizmatlari, soliq maslahati xizmatlari, konsalting xizmatlari, brokerlik xizmatlari va boshqalar)		15	
E	Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini, realizatsiya qiladigan yuridik shaxslar o'zining ishlab chiqarish mahsulotlari bundan mustasno		4	

Nol darajali stavka bo'yicha soliq solinadigan aylanma

Nol darajali stavka bo'yicha soliq solish quyidagilar realizatsiya qilinganda amalga oshiriladi:

1) O'zbekiston Respublikasi hududidan eksport bojxona tartib-taomiliga olib chiqilgan tovarlar;

2) ilgari O'zbekiston Respublikasi bojxona hududida qayta ishlash bojxona tartib-taomiliga joylashtirilgan, O'zbekiston Respublikasi hududidan olib chiqilgan tovarlar va (yoki) O'zbekiston Respublikasi hududidan bojxona hududida qayta ishlash bojxona tartib-taomiliga joylashtirilgan tovarlarni qayta ishlash natijasida olingan (hosil bo'lgan) tovarlar (qayta ishlash mahsulotlari, chiqindilar va (yoki) qoldiqlar);

3) O'zbekiston Respublikasi hududidan olib chiqilgan g'amlab qo'yilgan narsalar. Ushbu modda maqsadida havo kemalaridan risoladagidek foydalanilishini ta'minlash uchun zarur bo'lgan yoqilg'i va yonilg'i-moylash materiallari g'amlab qo'yilgan narsalar deb e'tirof etiladi;

4) chet eldan keltirilgan tovarlarni tashish chog'ida bojxona tranziti bojxona tartib-taomiliga joylashtirilgan tovarlarni bevosita O'zbekiston Respublikasi hududiga yetib kelish joyidagi bojxona organidan O'zbekiston Respublikasi hududidan chiqib ketish joyidagi bojxona organigacha tashish yoxud transportda tashish bilan bevosita bog'liq bo'lgan xizmatlar;

5) xalqaro tashishlar bilan bevosita bog'liq bo'lgan xizmatlar.

Nol stavka bo'yicha soliq solish quyidagilarni realizatsiya qilish chog'ida amalga oshiriladi:

1) tovarlarni xalqaro tashish bo'yicha xizmatlarni;

2) chet eldan keltirilgan tovarlarni tashish chog'ida bojxona tranziti bojxona tartib-taomiliga joylashtirilgan tovarlarni O'zbekiston Respublikasi hududiga etib kelish joyidagi bojxona organidan to O'zbekiston Respublikasi hududidan chiqib ketish joyidagi bojxona organigacha tashish yoki transportda tashish bilan bevosita bog'liq bo'lgan xizmatlarni;

3) tashishlar yagona xalqaro tashish hujjatlari asosida rasmiylashtirilgan taqdirda, basharti yo'lovchilarni, pochmani va bagajni jo'natish punkti yoki belgilangan punkti O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida joylashgan bo'lsa, yo'lovchilarni, pochmani va bagajni tashish bo'yicha xizmatlarni;

4) O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqariga eksport qilinadigan tovarlarni tashish yoki transportda tashish;

5) havo kemalariga bevosita O'zbekiston Respublikasi aeroportlarida va O'zbekiston Respublikasining havo hududida ko'rsatiladigan xizmatlarni, shu jumladan aeronavigatsiya xizmatini.

Ayrim hollarda nol darajali stavkaning qo'llanilishi

Tovarlar (xizmatlarni) realizatsiya qilish aylanmasi to'langan soliqni qoplash (qaytarish) yo'li bilan nol darajali stavkasi bo'yicha tortiladi, agar ushbu tovarlar (xizmatlar) quyidagicha olinsa:

1) chet el diplomatik vakolatxonalarining va ularga tenglashtirilgan vakolatxonalarning rasmiy foydalanishi uchun, shuningdek ushbu vakolatxonalar diplomatik va ma'muriy-texnik xodimlarining (shu jumladan ular bilan birga yashaydigan oila a'zolarining) shaxsiy foydalanishi uchun;

2) Mahsulot taqsimotiga oid bitim doirasida tovarlarni (xizmatlarni) sotib olayotgan soliq to'lovchilar tomonidan, agar bitimda nol darajali stavka qo'llanilishi nazarda tutilgan bo'lsa.

3) Suv ta'minoti, kanalizatsiya, sanitariya jihatdan tozalash, issiqlik ta'minoti bo'yicha aholiga ko'rsatiladigan xizmatlarni realizatsiya qilishga doir aylanmaga, shu jumladan bunday xizmatlarni uy-joy mulkdorlari shirkatlari tomonidan aholi nomidan, shuningdek idoraviy uy-joy fondi uylarida yashayotgan aholi uchun O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining va O'zbekiston Respublikasi Milliy

gvardiyasining bo'linmalari tomonidan olishga, nol darajali stavka bo'yicha soliq solinadi.

4) Nol darajali stavka qimmatbaho metallarni ishlab chiqaruvchilar tomonidan qimmatbaho metallarni olish bo'yicha vakolatli organga realizatsiya qilinadigan bunday metallarga nisbatan qo'llaniladi.

Soliq imtiyozlari.Qo'shilgan qiymat solig'idan boshqa soliq turlariga nisbatan ko'proq imtiyozlar ko'zda tutilgan bo'lib, ular soliq kodeksida to'rt guruhga bo'lib berilgan. Ular:

1) soliqdan ozod etiladigan tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilish bo'yicha aylanma;

2) soliqdan ozod qilinadigan moliyaviy xizmatlar;

3) soliqdan ozod etiladigan sug'urta xizmatlari ;

4) Soliqdan ozod etiladigan tovarlarni O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish yoki soliqdan ozod etiladigan import.

Soliq solishdan ozod etiladigan tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilish bo'yicha aylanma.

Quyidagilarni realizatsiya qilish bo'yicha aylanma soliq solishdan ozod etiladi:

1) maktabgacha ta'lim muassasalarida (tashkilotlarida) bolalarga qarash bo'yicha xizmatlarni;

2) bemorlar va keksalarni parvarish qilish bo'yicha xizmatlarni;

3) dafn etish byurolari va qabristonlarning marosim xizmatlarini, diniy ashyolarni, diniy tashkilotlar hamda birlashmalar tomonidan udumlarni va marosimlarni o'tkazishga doir xizmatlarni;

4) protez-ortopediya buyumlarini, nogironligi bo'lgan shaxslar uchun inventarni, shu jumladan ushbu buyumlar va inventarni ishlab chiqaruvchilar tomonidan realizatsiya qilish, shuningdek nogironlarga ortopedik protezlash, nogironlar uchun mo'ljallangan protez-ortopediya buyumlari va inventarni ta'mirlash hamda ularga xizmat ko'rsatish bo'yicha xizmatlarni;

5) davolash muassasalari huzuridagi davolash-ishlab chiqarish ustaxonalarining mahsulotlarini ushbu muassasalar tomonidan realizatsiya qilish;

6) ishlovchilari umumiy sonining kamida 50 foizi nogironligi bo'lgan shaxslardan iborat bo'lgan hamda nogironligi bo'lgan shaxslar mehnatiga haq to'lash fondi umumiy mehnatga haq to'lash fondining kamida 50 foizini tashkil etadigan, yagona ishtirokchisi nogironligi bo'lgan shaxslarning jamoat birlashmalari hisoblangan yuridik shaxslar tomonidan realizatsiya qilinadigan tovarlar va xizmatlarni;

7) pochta markalarini (kolleksiya qilinadiganlaridan tashqari), markali otkritkalarni, konvertlarni;

8) pensiyalar va nafaqalar to'lashga doir xizmatlarni;

- 9) byudjet mablagʻlari hisobidan bajariladigan ilmiy-tadqiqot va innovatsiya ishlarini;
- 10) oʻqitish (taʼlim) sohasidagi xizmatlarni, shu jumladan test sinovlari va imtihonlar oʻtkazishni tashkil etish xizmatlarini;
- taʼlim muassasalari (tashkilotlari), shuningdek kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni amalga oshiradigan tashkilotlar tomonidan koʻrsatiladigan qoʻshimcha taʼlim berish boʻyicha xizmatlarni;
- maktabgacha taʼlim va tarbiya dasturlari doirasida taʼlim va tarbiyalash faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda bolalarga qarash va ularni parvarishlash boʻyicha xizmatlarni, toʻgaraklarda, seksiyalarda (shu jumladan sport seksiyalarida) va studiyalarda voyaga etmagan bolalar bilan mashgʻulotlar oʻtkazish boʻyicha xizmatlarni;
- 11) tibbiyot muassasalari tomonidan koʻrsatiladigan tibbiy xizmatlarni (bundan kosmetologik xizmatlar mustasno);
- 12) veterinariya xizmatlarini;
- 13) dori vositalarini, veterinariya dori vositalarini, tibbiyot va veterinariya uchun moʻljallangan buyumlarni;
- 14) sanatoriy-kurort, sogʻlomlashtirish xizmatlarini, shuningdek jismoniy tarbiya va sport tashkilotlarining xizmatlarini;
- b) jismoniy tarbiya va sport tashkilotlarining xizmatlari;
- 15) yoʻlovchilarni yagona tariflar boʻyicha tashish xizmatlarini koʻrsatish;
- 16) uy-joy fondini saqlash va taʼmirlash yuzasidan aholiga koʻrsatilayotgan xizmatlar. Uy-joy fondini saqlash va taʼmirlash yuzasidan koʻrsatiladigan xizmatlar jumlasiga lift xoʻjaliklari, yer resurslari va davlat kadastr, uy-joy fondidan foydalanish, uni saqlash va taʼmirlash boshqarmalari hamda boʻlimlarining bevosita aholi tomonidan haq toʻlanadigan xizmatlari, shu jumladan ushbu xizmatlarga uy-joy mulkdorlari shirkatlari orqali haq toʻlash kiradi;
- 17) tovarlarni (xizmatlarni), agar tovarlarni berish (xizmatlar koʻrsatish) Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining yoki Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori asosida bepul amalga oshirilsa;
- 18) qimmatbaho metallardan ishlangan bank va oʻlchovli quymalarini, qimmatbaho metallardan ishlangan quyma (investitsiya) tangalarni, zargarlik buyumlarini;
- 19) bojsiz savdo bojxona tartib-taomiliga joylashtirilgan tovarlarni;
- 20) yuridik va jismoniy shaxslarga muayyan huquqlar berilganda fuqarolarning oʻzini oʻzi boshqarish organlari va vakolatli organlar, tashkilotlar tomonidan koʻrsatiladigan xizmatlarni,
- 21) byudjet mablagʻlari hisobidan bajariladigan yer-kadastr, yer tuzish, tuproqqa oid va geobotanika ishlarini;

22) byudjet mablagʻlari hisobidan har yillik mineral xom ashyo bazasini rivojlantirish va qayta tiklash davlat dasturlari doirasida koʻrsatiladigan geologiya xizmatlari;

23) xalqaro moliyaviy institutlarning qarzlar va hukumat tashkilotlarining xalqaro qarzlar hisobidan olinadigan tovarlarni (xizmatlarni), agar qarz shartnomasida ularni soliqdan ozod etish nazarda tutilgan boʻlsa;

24) Oʻzbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasining qoʻriqlash boʻlinmalari xizmatlarini;

25) telekommunikatsiya tarmoqlarida operativ-qidiruv tadbirlari tizimining texnik vositalari, shuningdek mazkur vositalardan foydalanishga hamda ularga xizmat koʻrsatishga doir xizmatlar;

26) metsenatlik koʻmagi tarzida beriladigan (koʻrsatiladigan) tovarlarni (xizmatlarni);

27) ushbu Kodeksning 244-moddasida nazarda tutilgan moliyaviy xizmatlarni;

28) ushbu Kodeksning 245-moddasida nazarda tutilgan hayotni sugʻurta qilish xizmatlarini va boshqa sugʻurta xizmatlarini.

Ushbu moddada sanab oʻtilgan tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishga doir aylanma soliq toʻlovchilarda bunday faoliyatni amalga oshirish uchun tegishli litsenziyalar va boshqa ruxsat etuvchi hujjatlar mavjud boʻlgan taqdirda, agar uning amalga oshirilishini litsenziyalash lozim boʻlsa yoki ruxsat etuvchi hujjatlar talab etsa, qonun hujjatlariga muvofiq soliq solishdan ozod etiladi.

Moliyaviy xizmatlarning quyidagi turlari qoʻshilgan qiymat soligʻidan ozod etilgan:

1) bank operatsiyalari, xususan:

yuridik va jismoniy shaxslarning pul mablagʻlarini omonatlarga jalb etish;

yuridik va jismoniy shaxslarning jalb etilgan pul mablagʻlarini banklar nomidan hamda ularning hisobidan joylashtirish;

yuridik va jismoniy shaxslarning, shu jumladan vakil banklarning topshirigʻiga koʻra ularning bank hisobvaraqlari boʻyicha hisob-kitoblarni amalga oshirish;

yuridik va jismoniy shaxslarga kassa xizmatlarini bank kassalari yoki maxsus asbob-uskunalar (bankomat, avtomatik depozit mashinalar va hokazo) orqali koʻrsatish;

chet el valyutasining naqd puldagi va naqd pulsiz oldi-sotdisi (shu jumladan chet el valyutasining oldi-sotdi operatsiyalariga doir vositachilik xizmatlari koʻrsatish);

bank kafolatlarini bajarish (bank kafolatini berish va bekor qilish, bunday kafolat shartlarini tasdiqlash va oʻzgartirish, bank kafolati boʻyicha toʻlov, bunday kafolatga doir hujjatlarni rasmiylashtirish va tekshirish);

majburiyatlarning pul shaklida bajarilishini nazarda tutuvchi uchinchi shaxslar uchun kafillik berish;

akkreditivlarni ochish va ularga xizmat ko'rsatish;

to'lov tizimlari, dasturlaridan va uskunalardan foydalangan holda hisob-kitoblarni (to'lovlarni) amalga oshirish;

2) hisob-kitoblar ishtirokchilari o'rtasida axborot va texnologik hamkorlikni amalga oshiriladigan operatsiyalar;

3) yuridik shaxslarning ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) ulushlarini realizatsiya qilish;

4) forfeyting va faktoring operatsiyalari;

5) zayomlarni pul shaklida berishga doir shartnomalardan va (yoki) kredit shartnomalaridan kelib chiqadigan majburiyatlar yuzasidan kreditorning huquqlaridan (talablaridan) boshqa shaxs foydasiga voz kechish (ularni boshqalarga berish, olish) bo'yicha operatsiyalar;

7) kreditlarni, zayomlarni pul shaklida va qimmatli qog'ozlar bilan berish, shu jumladan ular bo'yicha foizlar bilan birga berish, shuningdek REPO operatsiyalari, shu jumladan REPO operatsiyalari bo'yicha qimmatli qog'ozlar berilganligi uchun to'lanishi lozim bo'lgan pul summalari;

8) mol-mulkni moliyaviy ijaraga (lizingga) berishga doir xizmatlarning ushbu xizmatlar bo'yicha foizli daromadlar olishga taalluqli qismi bo'yicha;

9) qimmatli qog'ozlar (aksiyalar, obligatsiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlar) bilan bog'liq operatsiyalar;

10) tranzaksiyalarni bir vaqtning o'zida to'lov ishtirokchilari o'rtasida vositachilik haqlarini taqsimlagan holda amalga oshirish bilan bog'liq to'lov tizimlarining moliya xizmatlari.

Qo'shilgan qiymat solig'idan ozod etilgan sug'urta xizmatlari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

Sug'urta qilish, birgalikda sug'urta qilish va qayta sug'urta qilish xizmatlari bo'yicha sug'urta bozorining professional ishtirokchilari tomonidan amalga oshiriladigan sug'urta qilish bo'yicha xizmatlar bu xizmatlar natijasida:

1) sug'urta bozorining professional ishtirokchisi quyidagilarni olsa, qo'shilgan qiymat solig'idan ozod qilinadi:

sug'urta qilish, birgalikda sug'urta qilish va qayta sug'urta qilish shartnomalari bo'yicha sug'urta mukofotlari;

qayta sug'urta qilishga topshirilgan shartnomalar bo'yicha vositachilik haqi va tantemalar;

sug'urta agenti, sug'urta va qayta sug'urta brokeri, syurveyer hamda sug'urta bozorining boshqa professional ishtirokchilarining xizmatlari uchun vositachilik haqi;

sug'urta bozorining professional ishtirokchilari (aktuariylar, ajasterlar, syurveyerlar, assistans xizmatlari va shu singarilar) ko'rsatgan xizmatlardan olinadigan daromadlar;

qonun hujjatlariga muvofiq sug'urtalovchiga o'tgan, sug'urta qildiruvchining (naf oluvchining) yetkazilgan zarar uchun javobgar shaxslardan talab qilish huquqini realizatsiya qilishdan olinadigan mablag'lar;

qayta sug'urta qilish shartnomalari muddatidan ilgari tugatilgan taqdirda, ular bo'yicha sug'urta mukofotlarining qaytarib berilgan qismi summalari;

bevosita sug'urta faoliyatini amalga oshirishdan olinadigan boshqa daromadlar;

2) sug'urta qildiruvchi (naf oluvchi) quyidagilarni olsa, qo'shilgan qiymat solig'idan ozod qilinadi:

sug'urta to'lovi (sug'urta to'lovi);

preventiv tadbirlar o'tkazish uchun beriladigan mablag'lar;

sug'urta qilish shartnomasi zararsiz amal qilishi uchun sug'urtalovchi to'laydigan mablag'lar;

sug'urta qilish shartnomasiga muvofiq boshqa mablag'lar.

Soliq solishdan ozod etiladigan tovarlarni O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish ya'ni tovarlarni import qilishda quyidagi hollarda qo'shilgan qiymat solig'idan ozod etiladi:

1) jismoniy shaxslar tomonidan tovarlarni bojsiz olib kirishning bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlarida tasdiqlangan normalari doirasida olib kirilayotgan tovarlar;

2) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan tartibda insonparvarlik yordami sifatida olib kirilayotgan tovarlar;

3) davlat, hukumat, xalqaro tashkilotlar yo'nalishlari bo'yicha xayriya yordami maqsadlarida, shu jumladan texnik yordam ko'rsatish uchun olib kiriladigan tovarlar;

4) chet el diplomatik vakolatxonalari va ularga tenglashtirilgan vakolatxonalar rasmiy foydalanishi uchun, shuningdek ushbu vakolatxonalarning diplomatik va ma'muriy-texnik xodimlari, shu jumladan ularning o'zlari bilan birga yashayotgan oila a'zolari shaxsiy foydalanishi uchun mo'ljallangan tovarlar;

5) qonun hujjatlariga muvofiq alohida qimmatga ega madaniy meros ob'ektlari jamoasiga kiritilgan, davlat madaniyat muassasalari tomonidan olingan yoki ular tomonidan sovg'aga olingan madaniy qimmatliklar;

6) o'xshashi O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqarilmaydigan, tasdiqlangan ro'yxat bo'yicha O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kiriladigan texnologik asbob-uskunalar;

7) xalqaro kitob almashinuvi bo'yicha davlat kutubxonalari va muzeylari tomonidan olinadigan bosma nashrlarning barcha turlari, shuningdek xalqaro notijorat almashinuvini amalga oshirish maqsadida ixtisoslashtirilgan davlat tashkilotlari tomonidan olib kiriladigan kinematografiya asarlari;

8) milliy valyuta va chet el valyutasi, qonuniy to'lov vositalari bo'lgan banknotlar (bundan kolleksiyalash uchun mo'ljallanganlari mustasno), shuningdek qimmatli qog'ozlar;

9) xalqaro moliya institutlarining qarzlar va hukumat tashkilotlarining xalqaro qarzlar hisobidan olib kiriladigan tovarlar, agar qarzga doir bitimda bu tovarlar olib kirilayotganda soliqlardan ozod etilishi nazarda tutilgan bo'lsa;

10) vakolatli davlat organining yozma shakldagi tasdig'i mavjud bo'lgan taqdirda, telekommunikatsiyalar operatorlari va tezkor-qidiruv tadbirlari tizimining texnik vositalarini sertifikatlashtirish bo'yicha maxsus organ tomonidan olinadigan tezkor-qidiruv tadbirlari tizimining texnik vositalari;

11) dori vositalari, veterinariya dori vositalari, tibbiyot va veterinariya uchun mo'ljallangan buyumlar, shuningdek dori vositalarini, veterinariya dori vositalarini, tibbiyot va veterinariya uchun mo'ljallangan buyumlarni ishlab chiqarish uchun qonun hujjatlarida belgilanadigan ro'yxat bo'yicha olib kiriladigan xom ashyo. Mazkur norma O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadigan ro'yxat bo'yicha O'zbekiston Respublikasida ham ishlab chiqariladigan, olib kiriladigan tayyor dori vositalariga, veterinariya dori vositalariga, tibbiyot va veterinariya uchun mo'ljallangan buyumlarga nisbatan tatbiq etilmaydi.

Soliq davri. Bir oy soliq davridir.

9.2. Aksiz solig'i va uning soliq tizimida tutgan o'rni, soliqqa tortish ob'yekti va stavkasi.

O'zbekistonda aksiz solig'i 1992 yilda qo'shilgan qiymat solig'i bilan birgalikda oborot solig'i va sotuvdan olinadigan soliqlar o'rniga joriy qilingan. Aksiz solig'i individual xarakterga ega bo'lib, faqat aksiz osti tovarlarga va ayrim xizmatlarga nisbatan qo'llaniladi. Aksiz solig'i Davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishda salmoqli o'rin egallaydi.

Soliq to'lovchilar

Aksiz solig'ini to'lovchilar deb quyidagi shaxslar e'tirof etiladi:

1) O'zbekiston Respublikasi hududida aksiz solig'i solinadigan tovarlarni (aksiz to'lanadigan tovarlarni) ishlab chiqaruvchilar;

2) tabiiy gazni iste'molchilarga realizatsiya qilishni amalga oshiruvchilar;

3) benzin, dizel yoqilg'isini yakuniy iste'molchilarga realizatsiya qilishni, shu jumladan avtomobillarga yoqilg'i quyish shoxobchalari orqali, shuningdek gazni avtomobillarga yoqilg'i quyish shoxobchalari orqali realizatsiya qilishni amalga oshiruvchilar. Ushbu bo'limni qo'llash maqsadida yakuniy iste'molchilar deganda o'z ehtiyojlari uchun benzin, dizel yoqilg'isi hamda gaz oluvchi yuridik va jismoniy shaxslar tushuniladi;

4) oddiy shirkat ishtirokchisi bo'lgan, oddiy shirkat shartnomasi doirasida amalga oshiriladigan aksiz to'lanadigan tovarni ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lgan faoliyat bo'yicha oddiy shirkat ishlarini yuritish vazifasi zimmasiga yuklatilgan ishonchli shaxs;

5) O‘zbekiston Respublikasining bojxona hududi orqali aksiz to‘lanadigan tovarlarni olib o‘tuvchilar. Bojxona to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga muvofiq mazkur shaxslar soliq to‘lovchilar deb e‘tirof etiladi.

Quyidagilar ham soliq to‘lovchilar deb e‘tirof etiladi:

1) telekommunikatsiya mobil aloqa xizmatlarini (aksiz to‘lanadigan xizmatlarni) ko‘rsatadigan O‘zbekiston Respublikasi yuridik shaxslari;

2) O‘zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshiradigan, aksiz solig‘i solinadigan tovarlarni ishlab chiqaruvchi yoki shunday tovarlarni olib kirishni amalga oshiruvchi chet el yuridik shaxslari.

Soliq solish ob‘yekti

Aksiz solig‘i solinadigan ob‘yektlar quyidagilardan iborat:

1) aksiz to‘lanadigan tovarlarni realizatsiya qilish, shu jumladan aksiz to‘lanadigan tovarlarni boshqa tovarlarga (xizmatlarga) ayirboshlash uchun berish:

tovarga bo‘lgan mulk huquqini berish;

garov bilan ta‘minlangan majburiyat bajarilmagan taqdirda, garovga qo‘yilgan aksiz to‘lanadigan tovarlarni garovga qo‘yuvchi tomonidan berish;

aksiz to‘lanadigan tovarlarni bepul berish;

aksiz to‘lanadigan tovarlarni (xizmatlarni) jismoniy shaxslarning mehnatiga haq to‘lash yoki dividendlar to‘lash hisobidan berish;

2) aksiz to‘lanadigan tovarlarni yuridik shaxsning ustav fondiga (ustav kapitaliga) hissa sifatida yoxud oddiy shirkat shartnomasi (birgalikdagi faoliyat to‘g‘risidagi shartnoma) bo‘yicha sherikning (ishtirokchining) hissasi sifatida berish;

3) aksiz to‘lanadigan tovarlarni qaytarib sotib olinganda ishtirokchiga berish;

aksiyalar qaytarib sotib olingan taqdirda aksiyadorga berish; yuridik shaxsni tugatishda aksiyadorga yoki ishtirokchiga berish;

4) aksiz to‘lanadigan tovarlarni qaytarish sharti bilan qayta ishlash uchun topshirish, shuningdek qaytarish sharti bilan berilgan xom ashyo va materiallarni qayta ishlash mahsuli bo‘lgan, shuningdek aksiz to‘lanadigan shunday xom ashyo va materiallarning mahsuli bo‘lgan, aksiz to‘lanadigan tovarlarni qaytarish sharti bilan berilgan xom ashyo va materiallarning mulkdoriga ishlab chiqaruvchi tomonidan topshirish;

5) aksiz to‘lanadigan tovarlardan o‘z ehtiyojlari uchun foydalanish;

6) aksiz to‘lanadigan tovarlarni O‘zbekiston Respublikasining bojxona hududiga olib kirish;

7) benzinni, dizel yoqilg‘isini va gazni yakuniy iste‘molchilarga realizatsiya qilish yoki ulardan o‘z ehtiyojlari uchun foydalanish;

8) aksiz to‘lanadigan xizmatlar ko‘rsatish;

9) O‘zbekiston Respublikasi hududida ishlab chiqarilgan va (yoki) O‘zbekiston Respublikasining bojxona hududiga import qilinadigan aksiz to‘lanadigan tovarlarning buzilishi, yo‘qotilishi, bundan favqulodda vaziyatlar natijasida yuzaga

kelgan hollar mustasno. Aybdor tomonidan tovarning qiymati sug'urta orqali to'langan yoki uning o'rni qoplangan taqdirda, aksiz solig'i sug'urta orqali to'lash (o'rni qoplash) ulushida to'lanadi.

Quyidagilar soliq solish ob'yekti hisoblanmaydi:

1) aksiz to'lanadigan tovarlarni eksportga (eksportning bojxona tartib-taomillarida) realizatsiya qilish, bundan aksiz to'lanadigan tovarlarning ayrim turlari mustasno;

2) bojxona hududida qayta ishlash bojxona tartib-taomiliga joylashtirilgan tovarlardan ishlab chiqarilgan, qayta ishlash mahsuli bo'lgan aksiz to'lanadigan tovarlarni keyinchalik O'zbekiston Respublikasining bojxona hududidan olib chiqib ketish sharti bilan berish;

3) ixtisoslashtirilgan gaz ta'minoti korxonalari orqali aholiga suyultirilgan gazni maishiy ehtiyojlar uchun realizatsiya qilish;

4) O'zbekiston Respublikasining bojxona hududiga quyidagi aksiz to'lanadigan tovarlarni:

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan tartibda insonparvarlik yordami sifatida olib kirish;

davlatlar, hukumatlar, xalqaro tashkilotlar orqali xayriya yordami maqsadida, shu jumladan texnik ko'mak ko'rsatish maqsadida olib kirish;

agar qarz shartnomasida ularni soliqdan ozod etish nazarda tutilgan bo'lsa, xalqaro moliya institutlarining qarzlari va hukumat tashkilotlarining xalqaro qarzlari hisobidan olib kirish;

5) aksiz to'lanadigan tovarlarni O'zbekiston Respublikasining bojxona hududiga soliq solinmaydigan tovarlarni olib kirish normalari doirasida jismoniy shaxslar tomonidan import qilish;

6) vakolatli davlat organining yozma shakldagi tasdig'i bo'lgan taqdirda, telekommunikatsiyalar operatorlari hamda tezkor-qidiruv tadbirlari tizimining texnik vositalarini sertifikatlashtirish bo'yicha maxsus organ tomonidan olinadigan tezkor-qidiruv tadbirlari tizimining texnik vositalari.

Soliq bazasi

Soliq bazasi belgilangan soliq stavkalariga qarab aksiz to'lanadigan tovarlarning (xizmatlarning) har bir turi bo'yicha alohida aniqlanadi.

Aksiz to'lanadigan tovarlarga (xizmatlarga) nisbatan soliq stavkalari mutlaq (qat'iy) summada belgilangan bo'lsa, soliq bazasi aksiz to'lanadigan tovarlarning (xizmatlarning) naturada ifodalangan hajmidan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Ishlab chiqarilayotgan aksiz to'lanadigan tovarlarga (xizmatlarga) soliq stavkalari foizlarda (advalor) belgilangan bo'lsa, soliq bazasi bo'lib realizatsiya qilingan aksiz to'lanadigan tovarlarning (xizmatlarning) qiymati, biroq ularning haqiqiy tannarxidan past bo'lmagan qiymati hisoblanadi.

Chetdan olib kirilayotgan aksiz to'lanadigan tovarlarga nisbatan foizlardagi (advalor) soliq stavkalari belgilangan bo'lsa, soliq bazasi bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq belgilanadigan bojxona qiymati asosida aniqlanadi.

Olib kirilayotgan aksiz to'lanadigan tovarlarga nisbatan qat'iy belgilangan soliq stavkalari belgilangan bo'lsa, soliq bazasi import qilingan aksiz to'lanadigan tovarlarning natura holdagi hajmidan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Benzinni, dizel yoqilg'isini va gazni yakuniy iste'molchilarga realizatsiya qilish chog'ida realizatsiya qilingan va (yoki) shaxsiy ehtiyojlar uchun foydalanilgan benzinning, dizel yoqilg'isi va gazning naturada ifodalangan hajmi soliq bazasi hisoblanadi.

Soliq stavkalari

Aksiz to'lanadigan tovarlarning (xizmatlarning) ro'yxati va ularga doir soliq stavkalari O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to'g'risidagi Qonuni bilan tasdiqlanadi. 2020 yilgacha Aksiz solig'i stavkalari va aksizosti tovarlar ro'yxati O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan belgilandi.

Soliq stavkalari tovarning yoki xizmatning qiymatiga nisbatan foizlarda (advalor), naturada ifodalangan o'lchov birligiga nisbatan mutlaq summada (qat'iy belgilangan), shuningdek advalor va qat'iy belgilangan soliq stavkalarini o'z ichiga olgan aralash stavkada belgilanadi.

Quyidagi jadval ma'lumotlarida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining 2018 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to'g'risida"gi 2017 yil 29 dekabrda PQ-3454-sonli qaroriga asosan 2018 yilda va "O'zbekiston Respublikasining 2019 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to'g'risida"gi 2018 yil 26 dekabrda PQ-4086-sonli qaroriga asosan 2019 yilda aksiz solig'i stavkalari keltirilgan.

22-jadval

O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqariladigan, aksiz solig'i solinadigan tovarlarga nisbatan aksiz solig'i STAVKALARI

Tovarlar nomi	Soliq stavkasi 2018 yil		Soliq stavkasi 2019 yil	
	aksiz solig'i va QQSni hisobga olmagan holda sotilgan tovarlar qiymatiga nisbatan foizlarda(%)	bir o'lchov birligiga so'mda	aksiz solig'i va QQSni hisobga olmagan holda sotilgan tovarlar qiymatiga nisbatan foizlarda(%)	bir o'lchov birligiga so'mda
1. Etil spirti (1 dal uchun)		7844		9800
2. Vino (1 dal tayyor mahsulot uchun):				
tabiiy ravishda achitilgan natural vinolar		6 994		7700

(etil spirti qo'shilmagan holda)				
boshqa vinolar		12000		13200
3. Konyak (1 dal tayyor mahsulot uchun)		73997		92500
4. Aroq va boshqa alkogolli mahsulotlar (1 dal tayyor mahsulot uchun)(1)		67571		84500
5. Pivo (1 dal tayyor mahsulot uchun)(1)		7699		9200
6. O'simlik (paxta) yog'i (1 tonna uchun)(1):				
oziq-ovqat yog'i (salomac ishlab chiqarish uchun ishlatiladigan yog' va "O'zbekiston" yog'idan tashqari)		459724		Bekor qilindi
texnik moy (kislota miqdori 0,3 mg KON/g dan yuqori, oziq-ovqat mahsulotlari tarkibiga qo'shishga yaroqsiz bo'lgan)		252887		Bekor qilindi
7. Filtrli, filtrsiz sigaretalar, papirosalar (1 ming dona uchun)(1)		84222		117900
8. Zargarlik buyumlari	25		25	
9. "Jeneral Motors O'zbekiston" AJ ishlab chiqargan avtomobillar	5		5	
10. Kumushdan ishlangan oshxona anjomlari	11		11	
11. Mobil aloqa xizmati	-		15	
12. Oxirgi iste'molchiga sotiladigan:				
benzin yoqilg'isi (1 litr uchun)		-		285
dizel yoqilg'isi (1 litr uchun)		-		285
suyultirilgan gaz (1 litr uchun)		-		285
siqilgan gaz (1 kub. metr uchun)		-		360
Neft mahsulotlari(1):				
Ai-80 benzini		321 430 so'm/tonna		
Ai-91, Ai-92, Ai-93 benzini		353 430 so'm/tonna		
Ai-95 benzini		408 890 so'm/tonna		
dizel yoqilg'isi		273 400 so'm/tonna		
dizel yoqilg'isi		273 400 so'm/tonna		
EKO dizel yoqilg'isi		284 250 so'm/tonna		
Aviakerosin		50 580 so'm/tonna		
13. Tabiiy gaz, shu jumladan, eksport	25		25	
14. Ishlab chiqaruvchi korxonalar tomonidan sotiladigan suyultirilgan gaz ("O'ztransgaz" AK mintaqalararo unitar korxonalari tomonidan aholiga sotiladigan gaz hajmi bundan mustasno), shu jumladan, eksport	26		26	

**O'zbekiston Respublikasining 2019 yil 9 dekabrda O'RQ-589-son Qonuniga asosan
O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqariladigan, aksiz solig'i solinadigan tovarlarga
nisbatan aksiz solig'i STAVKALARI 2020 yil uchun**

Tovarlar nomi	Soliq stavkasi		
	2020 yil 1 yanvardan	2020 yil 1 apreldan	2020 yil 1 oktyabrdan
1. Etil spirti (1 dal uchun)	10800 so'm	11700 so'm	12500 so'm
2. Vino (1 dal tayyor mahsulot uchun):			
tabiiy ravishda achitilgan natural vinolar (etil spirti qo'shilmagan holda)	7700 so'm	8300 so'm	
boshqa vinolar	14500 so'm	15700 so'm	16800 so'm
3. Konyak (1 dal tayyor mahsulot uchun)	102000 so'm	109100 so'm	116400 so'm
4. Aroq va boshqa alkogolli mahsulotlar (1 dal tayyor mahsulot uchun)	98000 so'm	107800 so'm	116400 so'm
Hajmiy ulushda spirt 40 foizdan ko'p bo'lgan aroq va boshqa alkogolli mahsulotlarga	162700 so'm	179000 so'm	192300 so'm
5. Pivo (1 dal tayyor mahsulot uchun)	10600 so'm	11700 so'm	
6. Filtrli, filtrsiz sigaretalar, papirosalar	141500 so'm/1000dona+9%*	152800 so'm/1000dona+9%*	163500 so'm/ 1000dona+9%*
7. Zargarlik buyumlari	25 %		
8. Kumushdan ishlangan oshxona anjomlari	11 %		
9. Mobil aloqa xizmati	20 %		
10. Neft mahsulotlari:			
Ai-80 benzini	200 000 so'm/tonna		
Ai-91, Ai-92, Ai-93, Ai-95 benzini	250 000 so'm/tonna		
dizel yoqilg'isi	200 000 so'm/tonna		
EKO dizel yoqilg'isi	180 000 so'm/tonna		
Aviakerosin	180 000 so'm/tonna		
dizel yoki karbyurator (injektor) dvigatellari uchun motor moyi	250 000 so'm/tonna		
11. Tabiiy gaz, shu jumladan, eksport	20 %		
12. Ishlab chiqaruvchi korxonalar tomonidan sotiladigan suyultirilgan gaz ("Hududgazta'minot" AJ orqali aholiga sotiladigan gaz hajmi bundan mustasno), shu jumladan, eksport	30 %		
13. Yakuniy iste'molchiga sotiladigan:			
benzin	1 litr uchun 285 so'm/1 tonna uchun 378480 so'm	1 litr uchun 350 so'm/1 tonna uchun 465 530 so'm	
dizel yoqilg'isi	1 litr uchun 285 so'm/1	1 litr uchun 350 so'm/1 tonna uchun	

	tonna uchun 346275 so'm	425918 so'm
suyultirilgan gaz	1 litr uchun 285 so'm/1 tonna uchun 540645 so'm	1 litr uchun 350 so'm/1 tonna uchun 664 993 so'm
siqilgan gaz	1 kub. metr uchun 435 so'm	1 kub. metr uchun 500 so'm

* Aksiz solig'ining qat'iy belgilangan stavkasi naturada ifodasidagi aksiz to'lanadigan tovarlar hajmiga nisbatan qo'llaniladi, Aksiz solig'ining advalor stavkasi ishlab chiqaruvchining aksiz solig'i va qo'shilgan qiymat solig'i qo'shilmagan holda tovarlar qiymatiga nisbatan qo'llaniladi.

O'zbekiston Respublikasi hududida ishlab chiqariladigan, shuningdek uning bojxona hududiga import qilinadigan tamaki mahsulotlari va alkogolli ichimliklar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda aksiz markalari bilan tamg'alanishi shart.

Tamaki mahsulotlari va alkogolli ichimliklar ishlab chiqarilishi, import qilinishi, saqlanishi, tashilishi va sotilishi ustidan davlat nazoratini o'rnatish, shuningdek aksiz solig'i to'liq undirilishi, ko'rsatilgan tovarlarni yashirincha ishlab chiqarish yoki O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kelishning oldini olish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1996 yil 14 avgustdagi 285-son "O'zbekiston Respublikasi hududida tamaki mahsulotlari va alkogolli ichimliklarga aksiz markalarini joriy etish tartibi to'g'risida"gi qaroriga muvofiq 1996 yil 1 oktyabrdan boshlab O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqariladigan va uning hududiga olib kelinadigan tamaki mahsulotlari va alkogolli ichimliklarni, pivodan tashqari, majburiy tarzda belgilangan namunadagi aksiz markalari bilan markalash joriy etildi va ularni aksiz markalarini yopishtirmasdan O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kelish, tashish (xalqaro tranzitdan tashqari), saqlash va sotish ta'qiqlandi.

Respublika hududida ishlab chiqariladigan va import qilinadigan pivo O'zbekiston Respublikasining aksiz markalari bilan markalanmaydi.

Respublikaga ko'rgazmalar o'tkazish uchun olib kelingan aksiz tovarlari, ular ko'rgazmalar yakunlanganidan keyin O'zbekiston Respublikasi hududida sotilgan taqdirda, O'zbekiston Respublikasi aksiz markalari bilan majburiy tarzda markalanishi kerak va ular bo'yicha umumiy belgilangan tartibda aksiz solig'i to'lanadi.

Soliq davri. Bir oy soliq davridir.

Soliq hisobotini taqdim etish tartibi

Soliq hisoboti, agar ushbu moddaning ikkinchi qismida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, soliq bo'yicha hisobda turilgan joydagi soliq organlariga har oyda, soliq davridan keyingi oyning o'ninchi kunidan kechiktirmay taqdim etiladi.

Benzin, dizel yoqilg'isi va gaz avtomobillarga yoqilg'i quyish shoxobchalari orqali realizatsiya qilingan taqdirda, soliq hisoboti avtomobillarga yoqilg'i quyish shoxobchalari joylashgan erdagi soliq organlariga har oyda, soliq davridan keyingi oyning o'ninchi kunidan kechiktirmay taqdim etiladi.

Soliq to'lash tartibi

Soliqni to'lash soliq hisobotini taqdim etish muddatidan kechiktirmay amalga oshiriladi.

Import qilinadigan tovarlar bo'yicha soliqni to'lash bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda amalga oshiriladi. Aksiz markalari bilan tamg'alanishi lozim bo'lgan olib kiriladigan aksiz to'lanadigan tovarlar bo'yicha soliq aksiz markalari olinguniga qadar to'lanadi.

9.3.Davlat maqsadli jamg'armalarga ajratmalar, soliq ob'yekti va soliq stavkasi.

Davlat maqsadli jamg'armalariga majburiy to'lovlar quyidagilar:

1.Yagona ijtimoiy to'lov;

(byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga fuqarolarning sug'urta badallari- bu to'lov O'zbekiston Respublikasining 2018 yil 24 dekabrda O'RQ-508-sonli Qonuniga asosan chiqarilgan;)

(Respublika yo'l jamg'armasiga yig'imlar - bu to'lov O'zbekiston Respublikasining 2018 yil 24 dekabrda O'RQ-508-sonli Qonuniga asosan chiqarilgan;)

(Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalar - bu to'lov O'zbekiston Respublikasining 2018 yil 24 dekabrda O'RQ-508-sonli Qonuniga asosan chiqarilgan;)

(Umumta'lim maktablari, kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar va tibbiyot muassasalarini rekonstruktsiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash jamg'armasiga majburiy ajratmalar - bu to'lov O'zbekiston Respublikasining 2018 yil 24 dekabrda O'RQ-508-sonli Qonuniga asosan chiqarilgan;)

2. Avtotransport yig'imlari (Respublika yo'l jamg'armasiga yig'imlar o'rniga);

9.1.Yagona ijtimoiy to'lovni to'lovchilari, to'lov ob'yekti, bazasi hamda to'lovdan chegirmalar.

Yagona ijtimoiy to'lov O'zbekistonda 2004 yilda joriy qilindi. **2020 yildan boshlab bu to'lov – Ijtimoiy soliq deb o'zgartirildi.**

Soliq to'lovchilar

Ijtimoiy soliqni soliq to'lovchilari deb quyidagilar e'tirof etiladi:

O'zbekiston Respublikasining yuridik shaxslari;

O'zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshiruvchi O'zbekiston Respublikasi norezidentlari bo'lgan yuridik shaxslar, chet el yuridik shaxslarining vakolatxonalar va filiallari;

ushbu Kodeksning 408 va 409-moddalarida nazarda tutilgan tartibga muvofiq ijtimoiy soliq to'laydigan jismoniy shaxslarning ayrim toifalari- ya'ni yakka tartibdagi tadbirkorlar.

Soliq solish ob'yekti

Ish beruvchining xodimlar mehnatiga haq to'lashga doir xarajatlari ijtimoiy soliqning soliq **solish ob'yekti**dir.

O'zbekiston Respublikasi hududida ishlash uchun chet ellik xodimlar bilan ta'minlash yuzasidan xizmatlar ko'rsatishga doir shartnomalar bo'yicha O'zbekiston Respublikasi norezidenti bo'lgan yuridik shaxsga to'lanadigan chet ellik xodimlarning daromadlari ham soliq solish ob'yekti

Jismoniy shaxslarning ayrim toifalari uchun ular tomonidan tadbirkorlik faoliyatini va (yoki) yakka tartibdagi mehnat faoliyatini amalga oshirish soliq solish ob'yekti

Quyidagilar soliq solish ob'yekti hisoblanmaydi (imtiyozlar):

ish beruvchining xodimga mehnatda mayib bo'lganligi yoki sog'ligiga boshqacha shikast yetganligi bilan bog'liq zararining o'rnini qoplash tarzidagi miqdorlardan ortiqcha xarajatlari;

paxta yig'im-terimi bo'yicha mavsumiy qishloq xo'jaligi ishlariga jalb qilingan jismoniy shaxslarning bu ishlarni bajarganligi uchun mehnat haqi to'lashga doir xarajatlar.

Soliq bazasi

Soliqni hisoblab chiqarish uchun soliq bazasi Mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlarga muvofiq to'lanadigan xarajatlar summasi sifatida aniqlanadi.

O'zbekiston Respublikasining diplomatik vakolatxonalar va konsullik muassasalari xodimlari, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi tomonidan xalqaro hukumatlararo tashkilotlarga kvota qilingan lavozimlarga xizmat safariga yuborilgan shaxslar uchun soliqni hisoblab chiqarish maqsadida soliq bazasi ularning O'zbekiston Respublikasida byudjet tashkilotlari xodimlari uchun ish haqi miqdorining oshishi inobatga olingan holda qayta hisoblab chiqariladigan, ular O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqariga ishga yuborilguniga qadar oxirgi ish joyida mehnatga haq to'lash tarzida olgan daromadlaridan kelib chiqib aniqlanadi.

Yangi tahrirdagi Kodeks 403-moddasining ikkinchi qismida ko'rsatilgan daromadlar bo'yicha soliqni hisoblab chiqarish uchun soliq bazasi chet ellik xodimlarga to'lanadigan daromadlar summasi sifatida, biroq O'zbekiston Respublikasi hududida ishlash uchun chet ellik xodimlar bilan ta'minlash yuzasidan

xizmatlar ko'rsatishga doir shartnoma bo'yicha xarajatlar umumiy summasining 90 foizidan kam bo'lmagan summada belgilanadi.

Soliq stavkalari.

2019 yilgacha Yagona ijtimoiy to'lov stavkalari

Yuridik shaxslarning mehnatga haq to'lash fondidan yagona ijtimoiy to'lov (25%) davlat maqsadli jamg'armalari hamda Kasaba uyushmalari federatsiyasi Kengashi o'rtasida belgilangan tartibga muvofiq quyidagi miqdorlarda taqsimlanadi:

- byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga - 24,8 %;
- davlat bandlikka ko'maklashish fondiga - 0,1 %;
- kasaba uyushmalari federatsiyasi Kengashiga - 0,1 %.

Mikrofirmalar, kichik korxonalar hamda fermer xo'jaliklari uchun yagona ijtimoiy to'lov (15%) summasi quyidagi miqdorlarda taqsimlanadi:

- byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga - 14,8 %;
- davlat bandlikka ko'maklashish fondiga - 0,1 %;
- kasaba uyushmalari federatsiyasi Kengashiga - 0,1 %.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining 2018 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to'g'risida"gi 2017 yil 29 dekabrda PQ-3454-sonli qaroriga asosan 2018 yilda Mikrofirmalar, kichik korxonalar hamda fermer xo'jaliklari uchun yagona ijtimoiy to'lov stavkasi soliq solish bazasiga nisbatan 2017 yil darajasida - 15 foiz miqdorida, boshqa to'lovchilar uchun ham yagona ijtimoiy to'lov stavkasi 2017 yil darajasida 25 foiz miqdorida saqlanib qolindi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining 2019 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to'g'risida"gi 2018 yil 26 dekabrda PQ-4086-sonli qaroriga asosan 2019 yilda yagona ijtimoiy to'lov stavkasi quyidagi jadvalda berildi.

24-jadval

2019 yilda yagona ijtimoiy to'lov stavkalari

T/r	To'lovchilar	Soliq solinadigan bazaga nisbatan soliq stavkalari, foizda	
		2018 yil	2019 yil
1.	Yagona ijtimoiy to'lov		
A.	Byudjet tashkilotlari va davlat korxonalari, ustav fondida (ustav kapitalida) davlat ulushi 50 foiz va undan ko'proq bo'lgan yuridik shaxslar; qaysi yuridik shaxs ustav fondining (ustav kapitalining) 50 foizi va undan ko'proq qismi davlat ulushi 50 foiz va undan ko'proq bo'lgan yuridik shaxsga tegishli bo'lsa, o'sha yuridik shaxslar hamda ularning tarkibiy tuzilmalari	25	25
B.	A-bandda nazarda tutilmagan boshqa to'lovchilar	15	12
2.	Fuqarolarning byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga sug'urta badali (fuqarolarning ish haqidan)	8	Bekor qilindi

**O'zbekiston Respublikasining 2019 yil 9 dekabrda O'RQ-589-son
Qonuniga asosan 2020 yilda ijtimoiy soliq stavkasi Soliq Kodeksiga asosan
quyidagi miqdorlarda belgilanadi:**

№	Soliq to'lovchilar	Soliq stavkalari, Foizlarda
1.	Soliq to'lovchilar, bundan 2–4-bandlarda nazarda tutilganlar mustasno	12
2.	Byudjet tashkilotlari	25
3.	«SOS – O'zbekiston Bolalar mahallalari» uyushmalari	7
4.	Ixtisoslashtirilgan sexlar, uchastkalar va korxonalarda ishlovchi nogironligi bo'lgan shaxslar mehnatidan foydalanuvchi soliq to'lovchilar	4,7

Soliq to'lovchilarning ayrim toifalari uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan pasaytirilgan soliq stavkalari belgilanishi mumkin

2020 yil 1 yanvardan boshlab ijtimoiy soliq tushumlari quyidagicha taqsimlanadi:

a) Byudjet tashkilotlari bo'yicha:

byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga - 99,2 %;

- bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasiga - 0,4 %;

- O'zbekiston kasaba uyushmalari federatsiyasi kengashiga - 0,4 %.

b) boshqa to'lovchilar bo'yicha:

byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga - 98,4 %;

bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasiga - 0,8 %;

O'zbekiston kasaba uyushmalari federatsiyasi kengashiga - 0,8 %.

Soliq davri. Hisobot davri. Kalendar yil soliq davridir. Yil oyi hisobot davridir.

Ijtimoiy soliqni hisoblab chiqarish hamda to'lash tartibi

Soliq soliq bazasidan va belgilangan soliq stavkalaridan kelib chiqqan holda har oyda hisoblab chiqariladi.

Soliq ish beruvchining va ayrim toifadagi jismoniy shaxslarning mablag'lari hisobidan to'lanadi.

O'zbekiston Respublikasining diplomatik vakolatxonalari va konsullik muassasalari xodimlari bo'yicha, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi tomonidan xalqaro hukumatlararo tashkilotlarga kvota qilingan lavozimlarga xizmat safariga yuborilgan shaxslar bo'yicha soliqni to'lash majburiyati O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligining zimmasiga yuklatiladi.

Soliq hisoboti soliq hisobida turilgan joydagi soliq organlariga soliq to'lovchi tomonidan ortib boruvchi yakun bilan har oyda hisobot davridan keyingi oyning 15 kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa yillik moliyaviy hisobot topshiriladigan muddatda taqdim etiladi. O'zbekiston Respublikasida faoliyatni

doimiy muassasa orqali amalga oshirayotgan O'zbekiston Respublikasining norezidentlari bo'lgan yuridik shaxslar tomonidan yil yakunlari bo'yicha soliqning hisoboti hisobot yilidan keyingi yilning 25 martiga qadar taqdim etiladi.

Soliqni to'lash har oyda, soliq hisobotini taqdim etish muddatlaridan kechiktirmay amalga oshiriladi.

Ayrim toifadagi jismoniy shaxslar uchun ijtimoiy soliqni hisoblab chiqarish va to'lashning o'ziga xos xususiyatlari

Soliq soliq to'lovchining kalendar oyda ishlagan kunlari sonidan qat'i nazar:

1) yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan – oyiga bazaviy hisoblash miqdorining bir baravaridan kam bo'lmagan miqdorda;

2) yakka tartibdagi tadbirkor bilan mehnat munosabatlarida bo'lgan jismoniy shaxslar tomonidan (bundan buyon matnda yakka tartibdagi tadbirkorning xodimlari deb yuritiladi) – oyiga bazaviy hisoblash miqdorining 50 foizi miqdorida;

3) faoliyatni yuridik shaxs tashkil etmagan holda, oilaviy tadbirkorlik shaklida amalga oshiruvchi oila a'zolari tomonidan:

yakka tartibdagi tadbirkor sifatida ro'yxatdan o'tgan oila a'zosi tomonidan – oyiga bazaviy hisoblash miqdorining bir baravaridan kam bo'lmagan miqdorda;

oilaning boshqa a'zolari tomonidan (bundan o'n sakkiz yoshga to'lmaganlar mustasno) – oyiga bazaviy hisoblash miqdorining 50 foizi miqdorida;

4) «Hunarmand» uyushmasining hunarmandchilik faoliyati sub'yektlari bo'lgan, qishloq tumanlarida ro'yxatdan o'tgan va faoliyatini amalga oshirayotgan a'zolari tomonidan o'z faoliyatining dastlabki ikki yilida – oyiga bazaviy hisoblash miqdorining 50 foizi miqdorida;

5) «Usta-shogird» maktablari o'quvchilari tomonidan ular yigirma besh yoshga to'lguniga qadar ishlagan davrida – yiliga bazaviy hisoblash miqdorining 2,5 baravaridan kam bo'lmagan miqdorda majburiy tartibda to'lanadi. Belgilangan miqdordagi soliqning to'lanishi mehnat stajini hisoblab chiqarishda bir yil deb hisobga olinadi.

Yuridik shaxs tashkil etgan holda va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo'jaliklarining a'zolari, shuningdek maydoni to'rt sotixdan kam bo'lmagan dehqon xo'jaligida, tomorqa yer uchastkasida band bo'lgan yoki ushbu maydonda qoramol yoxud ellik boshdan kam bo'lmagan xonaki parranda parvarishlayotgan jismoniy shaxslar yiliga bazaviy hisoblash miqdorining kamida bir baravari miqdorida soliq to'laydi. Bunda dehqon xo'jaligi rahbari soliqni majburiy tartibda to'laydi, boshqa a'zolari va ko'rsatilgan jismoniy shaxslar esa ixtiyoriy asosda to'laydi. Belgilangan miqdordagi soliqning to'lanishi dehqon xo'jaligi a'zosining va jismoniy shaxsning mehnat stajini hisoblab chiqarishda bir yil deb hisobga olinadi.

Yoshga doir pensiya va nafaqa oluvchi hunarmandchilik faoliyati sub'yektlari bo'lgan «Hunarmand» uyushmasining a'zolari soliq to'lashdan ozod etiladi, yoshga doir pensiya olish huquqiga ega bo'lgan qolgan shaxslar, shuningdek I va II guruh

nogironligi bo'lgan shaxslar uchun esa soliq miqdori uning belgilangan eng kam miqdorining kamida 50 foizini tashkil etishi kerak. Soliqni to'lash quyidagicha amalga oshiriladi:

ushbu moddaning birinchi qismida ko'rsatilgan shaxslar tomonidan –har oyda, tadbirkorlik faoliyati amalga oshirilgan oyning o'n beshinchi kunidan kechiktirmay; tomonidan – hisobot yilining 1 oktyabrigacha amalga oshiriladi. Bunda soliqning miqdori yuridik shaxs tashkil etgan holda va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo'jaliklarining a'zolari to'lov kuniga belgilangan bazaviy hisoblash miqdoridan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi.

Yangi ro'yxatdan o'tgan yakka tartibdagi tadbirkorlar va yuridik shaxs tashkil etmagan holda oilaviy tadbirkorlik shaklidagi faoliyatni amalga oshiruvchi oila a'zolari tomonidan soliqni to'lash ular yakka tartibdagi tadbirkor sifatida davlat ro'yxatidan o'tkazilgan oydan keyingi oydan e'tiboran amalga oshiriladi.

9.2. Avtotransport yig'implari

Avtotransport yig'implarining turlari

Avtotransport yig'implari jumlasiga quyidagilar kiradi:

avtotransport vositalarini sotib olganlik va (yoki) O'zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kirganlik uchun yig'im;

chet davlatlar avtotransport vositalarining O'zbekiston Respublikasi hududiga kirganligi va uning hududi orqali tranziti uchun yig'im.

Soliq to'lovchilari

Avtotransport vositalarini sotib oluvchi va (yoki) O'zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kirishni amalga oshiruvchi O'zbekiston Respublikasi rezidentlari hamda norezidentlari avtotransport vositalarini sotib olganlik va (yoki) O'zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kirganlik uchun yig'imni **soliq to'lovchilari** deb e'tirof etiladi.

Chet davlatlar avtotransport vositalarining egalari yoki ulardan foydalanuvchilar ushbu vositalarning O'zbekiston Respublikasi hududiga kirganligi va uning hududi orqali tranziti yig'imi soliq to'lovchilari deb e'tirof etiladi.

Avtotransport vositalarini ishlab chiqaruvchilar mamlakatning o'zida ishlab chiqarilgan yangi avtotransport vositalarini sotib olganlik uchun yig'imni soliq to'lovchilari deb e'tirof etiladi.

Soliq solish ob'yekti

Quyidagilar yig'implar solish ob'yektidir:

avtotransport vositalarini sotib olish va (yoki) O'zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kirish;

chet davlatlar avtotransport vositalarining O'zbekiston Respublikasi hududiga kirishi va uning hududi orqali tranziti.

Soliq bazasi

Soliq bazasi quyidagilardir:

sotib olingan va (yoki) O'zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kiriladigan avtotransport vositalari dvigatelining ot kuchidagi quvvati yoki avtotransport vositalarining qiymati;

O'zbekiston Respublikasi hududiga kirganida yoki uning hududi orqali tranzitida – chet davlatlarning avtotransport vositalari.

Soliq imtiyozlari

Avtotransport vositalarini sotib olish va (yoki) O'zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kirish uchun yig'imni to'lashdan quyidagilar ozod qilinadi:

1) ishlab chiqaruvchi zavod tomonidan qo'l bilan boshqarishga moslashtirilgan yengil avtomobilni va (yoki) motoaravachani sotib oluvchi barcha guruhlardagi nogironligi bo'lgan shaxslar;

2) yaqin qarindoshlaridan hadya shartnomasi yoki meros asosida avtomobillar va motoaravachalar oluvchi fuqarolar;

3) faoliyatining asosiy turi yo'lovchilar tashish bo'lgan, qonun hujjatlariga muvofiq yo'lovchilar tashish uchun belgilangan namunadagi litsenziyaga ega bo'lgan avtomobil transporti korxonalari – yo'lovchilar tashishni amalga oshiruvchi transport vositalari bo'yicha (yengil avtomobillar va yo'nalishli taksilardan tashqari);

4) yuridik shaxslar – qirq tonnadan ortiq yuk ko'taradigan, sotib olingan kon avtosamosvallari bo'yicha;

5) homiylik (beg'araz) yordami sifatida avtomobillarni olgan (sotib olgan) bolalar uylari, ixtisoslashtirilgan maktab-intyernatlar, nogiron bolalar uchun markazlar, qariyalar va kichik yoshdagi nogironlar uchun internat-uylar, shuningdek byudjet hisobidan moliyalashtiriladigan tibbiyot muassasalari;

6) yuridik shaxslar – avtotransport vositalarini bitta tizim (davlat va xo'jalik boshqaruvi organi) ichida balansdan balansga bepul o'tkazish chog'ida;

7) qayta tashkil etish natijasida avtotransport vositasini olgan huquqiy voris;

8) avtotransport vositalarini ushbu moddaning 3 va 4-bandlarida ko'rsatilgan yuridik shaxslarga lizingga berish uchun oluvchi lizing beruvchilar.

Soliq stavkalari

Avtotransport yigimlari stavkalari 2020 yilda O'zbekiston Respublikasining 2019 yil 9 dekabrda Davlat byudjeti to'g'risidagi O'RQ -589 sonli Qonuniga asosan belgilandi.

26-jadval

Avtotransport yigimlari stavkalari 2020 yil uchun

№	Yig'imler va to'lovlar turlari	Yig'imler stavkalari
I	Xorijiy davlatlar avtotransport vositalarining O'zbekiston Respublikasi hududiga kirishi va hududida transit harakatlanishi uchun yig'imler	AQSH dollarida

1.	O'zbekiston Respublikasi hududiga chet el davlatlaridan avtotransport vositalari kirganligi uchun yig'im, bitta avtotashuvchini kirganligi uchun dtavkalari (2-5-bandlarda ko'rsatilgan mamlakatlar bundan mustasno)	400		
2.	Tojikiston Respublikasi yuk avtomashinalarini O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish va tranzit harakatlanganligi uchun yig'im:			
	10 tonnagacha	100		
	10 tonnagadan 20 tonnagacha	150		
	20 tonnadan yuqori	200		
3.	Qozog'iston Respublikasi yuk avtomashinalarini O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish va tranzit harakatlanganligi uchun yig'im:	300		
4.	Qirg'iziston Respublikasi yuk avtomashinalarini O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish va tranzit harakatlanganligi uchun yig'im:	300		
5.	Turkmaniston Respublikasi yuk avtomashinalarini O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish va tranzit harakatlanganligi uchun yig'im:			
	10 tonnagacha	50		
	10 tonnadan 20 tonnagacha	100		
	20 tonnadan ko'p	150		
II	Avtotransport vositalarini sotib olinganligi va (yoki) O'zbekiston Respublikasi hududiga vaqtincha olib kirilganligi uchun O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi organlarida ro'yxatdan o'tkazish chogi'da avtotransport vositalarining egalari(foydalanuvchilari)tomonidan to'lanadigan yig'im			
1	Yangi (foydalanishda bo'lmagan) avtotransport vositalari bo'yicha, bundan O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqarilgan avtomobillar mustasno	xarid qilish narxining 3 foizi		
2	Foydalanilgan avtotransport vositalari bo'yicha	ekspluatatsiya muddatidan kelib chiqib har bir ot kuchiga bazaviy hisoblash miqdori foizi hisobida		
		3yilga cha	3 yildan 7 yilga cha	7 yildan yuqori
	yengil avtomobillar	11	9	6
	mototsikllar (mopedlar) va yordamchi dvigatel o'rnatilgan velosipedlar, kajavali va kajavasiz	10	7	5
	boshqa motorli transport vositalari	16	13	9

Yig'implarni to'lash tartibi

Avtotransport vositalarini sotib olganlik va (yoki) O'zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kirganlik uchun yig'im ular O'zbekiston Respublikasi

Ichki ishlar vazirligi organlarida davlat ro'yxatidan o'tkazilayotganda, qayta ro'yxatdan o'tkazilayotganda quyidagi hollarda undiriladi:

1) avtotransport vositalari oldi-sotdi, almashtirish, hadya, bepul berish shartnomasi asosida, shuningdek qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa bitimlar asosida mulk qilib olinganda;

2) avtotransport vositalari yuridik shaxsning ustav fondiga (ustav kapitaliga) yoki dividendlar sifatida qonun hujjatlarida belgilangan tartibda olinganda;

3) avtotransport vositalari lizingga berish uchun sotib olinganda. Yig'im taraflarning yozma kelishuviga ko'ra lizing beruvchidan yoki lizing oluvchidan undiriladi. Lizing beruvchi O'zbekiston Respublikasining norezidenti bo'lgan taqdirda, yig'im lizing oluvchidan undiriladi. Lizing shartnomasining muddati tugaganidan so'ng mazkur lizing (ikkilamchi lizing) shartnomasi predmeti bo'lgan avtotransport vositasi qayta ro'yxatdan o'tkazilayotganida takroran yig'im undirilmaydi;

4) avtotransport vositalari O'zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kirilganda.

Mamlakatning o'zida ishlab chiqarilgan avtotransport vositalari sotib olinganda, yig'im qonun hujjatlarida belgilangan tartibda avtotransport vositalarini ishlab chiqaruvchilar tomonidan to'lanadi.

Chet davlatlar avtotransport vositalarining O'zbekiston Respublikasi hududiga kirganligi va uning hududi orqali tranziti uchun yig'im chet davlatning avtotransport vositasi O'zbekiston Respublikasi hududiga kirayotganida undiriladi.

27-jadval

Davlat maqsadli jamg'armalarga majburiy to'lovlar stavkalari.

t/r	Soliq va yig'implar turlari	2018 yil	2019 yil
1	Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalar	1,5	Bekor qilindi
2	Respublika yo'l jamg'armasiga yig'implar	1,4	Bekor qilindi
3	Umumta'lim maktablari, kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar va tibbiyot muassasalarini rekonstruktsiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash jamg'armasiga majburiy ajratmalar	0,3	Bekor qilindi
4	Avtotransport yig'implari		
	avtotransport vositalari, 8 ta o'rindiqqacha bo'lgan yengil avtomobillar uchun	330 000 so'm	480 000 so'm
	mikroavtobus, avtobus va yuk avtomobillari uchun	645 000 so'm	940 000 so'm

Respublika yo'l jamg'armasiga yig'implar, Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalar, Umumta'lim maktablari, kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar va tibbiyot muassasalarini rekonstruktsiya qilish, mukammal

ta'mirlash va jihozlash jamg'armasiga majburiy ajratmalar – jami 3,2 % yuridik shaxlarning yalpi tushumidan, tovar aylanmasidan to'lanishi belgilangan edi.

9.4.Maxsus soliq rejimlari

Maxsus soliq rejimlariga 1) maxsus iqtisodiy zonalar ishtirokchilariga va ayrim toifadagi soliq to'lovchilarga soliq solishning alohida tartibi va 2) mahsulot taqsimotiga oid bitimlar ishtirokchilariga soliq solishning alohida tartibi kiradi.

Maxsus iqtisodiy zonalarining ishtirokchilariga soliq solishning o'ziga xos xususiyatlari

Maxsus iqtisodiy zonalarining ishtirokchilariga kiritilgan investitsiyalar hajmiga qarab, mol-mulk solig'idan, yer solig'idan va suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqlardan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan belgilangan muddatga ozod qilish tarzida soliq imtiyozlari beriladi.

Ushbu moddaning birinchi qismida ko'rsatilgan soliq imtiyozlari faqat investor (investorlar) va Maxsus iqtisodiy zona direksiyasi o'rtasida tuzilgan Maxsus iqtisodiy zona hududiga investitsiya kiritish to'g'risidagi bitimda nazarda tutilgan maxsus iqtisodiy zona ishtirokchisining faoliyati turlariga nisbatan tatbiq etiladi.

Maxsus iqtisodiy zonalarining ishtirokchilari qo'shilgan qiymat solig'i va boshqa soliqlar bo'yicha imtiyozlardan ushbu Kodeksga muvofiq foydalaniladilar.

Maxsus iqtisodiy zonalar ishtirokchilari tomonidan soliq imtiyozlarini qo'llash tartibi

Yuqorida nazarda tutilgan soliq imtiyozlarining amal qilish muddati maxsus iqtisodiy zona ishtirokchisining guvohnomasi olingan kundan e'tiboran hisoblab chiqariladi.

Maxsus iqtisodiy zonaning ishtirokchisi maqomidan mahrum etilganda tadbirkorlik sub'yekti maxsus iqtisodiy zona ishtirokchilariga beriladigan soliq imtiyozlari va boshqa pferensiyalardan maxsus iqtisodiy zona ishtirokchisi maqomidan mahrum etilgan oyning birinchi kunidan e'tiboran foydalanishga haqli emas.

Agar maxsus iqtisodiy zona ishtirokchisi investitsiyalar hajmini soliq imtiyozlarining uzoqroq amal qilish muddatini nazarda tutadigan miqdorgacha oshirsa, u investitsiyalarning haqiqiy hajmiga muvofiq soliq imtiyozlarining amal qilish muddatini uzaytirishga haqli. Bunda, agar investitsiyalar hajmining oshishi imtiyozlarning avvalgi amal qilish muddati tugaganidan keyin amalga oshirilsa, soliq imtiyozlari imtiyozlarning uzoqroq amal qilish muddatiga bo'lgan huquq yuzaga kelgan oydan keyingi oyning birinchi kunidan e'tiboran qo'llaniladi.

Mahsulot taqsimotiga oid bitim doirasida amalga oshiriladigan faoliyatga soliq solishning o'ziga xos xususiyatlari

Mahsulot taqsimotiga oid bitim shartnoma bo'lib, bu shartnomaga muvofiq O'zbekiston Respublikasi haq olish asosida hamda muayyan muddatga chet ellik

investorga bitimda ko'rsatilgan yer qa'ri uchastkasida konlarni aniqlash, qidirish va foydali qazilmalarni kavlab olish uchun mutlaq huquqlar beradi.

Mahsulot taqsimotiga oid bitimda quyidagilar nazarda tutiladi:

hisob yuritish va hisobot berish tartibi;

soliq solish va boshqa to'lovlarni to'lash shartlari;

chet ellik investorning ulushini olib chiqish tartibi.

Mahsulot taqsimotiga oid bitim doirasida amalga oshiriladigan faoliyatga soliq solishning o'ziga xos xususiyatlari

Chet ellik investor, bundan mahsulot taqsimotiga oid bitimlar to'g'risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollar mustasno, mahsulot taqsimotiga oid bitimning amal qilish muddati mobaynida ushbu Kodeksning 17-moddasida nazarda tutilgan soliqlarni to'laydi.

Ushbu moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan soliqlar, agar mahsulot taqsimotiga oid bitimda boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasining rezidentlari uchun belgilangan stavkalar bo'yicha undiriladi.

Chet ellik investorga soliq solish quyidagi o'ziga xos xususiyatlar inobatga olingan holda amalga oshiriladi:

1) foyda solig'i mahsulot taqsimotiga oid bitim bo'yicha ishlarni bajarish chog'ida olingan daromad bo'yicha va faoliyatning boshqa turlari bo'yicha olingan daromad bo'yicha alohida-alohida to'lanadi Bitim shartlariga binoan chet ellik investorga tegishli bo'lgan, chegirmalar qilinmagan holda foydaga qolgan mahsulotning qiymati mahsulot taqsimotiga oid bitim bo'yicha ishlarni bajarish chog'ida olingan daromadlar bo'yicha foyda solig'i solish ob'yektidir;

2) mineral xom ashyoni kavlab olish hajmiga yoki ishlab chiqarilgan mahsulot qiymatiga nisbatan foizli nisbatda mahsulot taqsimotiga oid bitim shartlariga muvofiq belgilanadigan va pul shaklida yoki kavlab olingan mineral xom ashyoning bir qismi tarzida to'lanadigan yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq.

Agar yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmagan yuridik shaxslar birlashmasi investor sifatida ish yuritayotgan bo'lsa, bunday birlashmaning ishtirokchilaridan biri yoki mahsulot taqsimotiga oid bitim bo'yicha ishlarni bajaruvchi operator soliq majburiyatlarini bajaruvchi bo'ladi. Bunda litsenziya olgan investor bir oylik muddatda soliq organini mazkur birlashmadan soliq majburiyatini bajaruvchi bo'lib ish yuritadigan ishtirokchi to'g'risida xabardor etishi shart.

Nazorat savollari:

1. Qo'shilgan qiymat qanday tarkib topadi?
2. Qo'shilgan qiymat solig'i ilk bor qaysi davlatda kim tomonidan joriy etilgan?
3. Qo'shilgan qiymat solig'ining davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishdagi ahamiyati qanday?

4. Qo'shilgan qiymat solig'ini qanday shaxslar to'laydi?
5. Qo'shilgan qiymat solig'i ob'yekti qanday aniqlanadi?
6. Qo'shilgan qiymat solig'i stavkalari va ularni qo'llash tartibi qanday?
7. Aksiz solig'i qachon joriy etildi?
8. Aksiz solig'i to'lovchilar qanday guruhlanadi?
9. Aksiz osti tovarlarini aniqlash mezonlari qanday?
10. Aksiz solig'i ob'yekti nimalardan iborat?
11. Aksiz solig'ining bazasi qanday aniqlanadi?
12. Aksiz solig'ini to'lashdan kimlar ozod etilgan?
13. Aksiz solig'i stavkalari va aksizosti tovarlar ro'yxati kim tomonidan belgilanadi?
14. Yagona ijtimoiy to'lov yoki hozirda ijtimoiy soliq to'lovchilari bo'lib kimlar hisoblanishadi?
15. Avtotransport yig'mlari to'lovchilari bo'lib kimlar hisoblanishadi?
16. Mahsulot taqsimotiga oid bitimlar ishtirokchilariga soliq solishning alohida tartibini ayting
17. Maxsus iqtisodiy zonalar ishtirokchilariga va ayrim toifadagi soliq to'lovchilarga soliq solishning alohida tartibi qanday.

GLOSSARIY



Aylanma kassa mablag'i me'yori - moliya yilida respublika byudjeti Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti va mahalliy byudjetlar hisobvaraqlarida turishi mumkin bo'lgan pul mablag'larining qonun hujjatlari bilan belgilanadigan eng kam miqdori.

Aniqlanmagan tushum - kelib tushgan summani mazkur byudjetning daromadlariga o'tkazish uchun etarli asos bo'lmagan yoki kelib tushgan summani byudjet tasnifining qaysi bo'linmasiga o'tkazishning imkoniyati bo'lmagan summa.

Agent-boshqa bir shaxs nomidan, uning topshirig'iga binoan, bitimlarga oid hujjatlarga uning nomidan imzo qo'yishga haqqi bo'lmagan holda ma'lim bir ishlarni bajaruvchi, jismoniy yoki xukukiy shaxs.

Aktiv-buxgalteriya balansining bir qismi bo'lib, korxonaning ma'lum bir sanadagi pulda ifodalangan mablag'i, ularning tarkibi va joylashishi.

Aksiyalar-aksiyadorlik jamiyati tomonidan chiqariladigan va egasiga aksiyadorlik jamiyatining foydasidan ma'lum bir daromad (divident)ni olish huquqini bkruvchi qimmatbaho qog'ozlar.

Boj - O'zbekiston Respublikasining bojxona chegarasidan tovarlar olib o'tilayotganda bojxona organlari tomonidan undiriladigan to'lov. O'zbekiston Respublikasida import boji, eksport boji, mavsumiy va alohida (maxsus, antidemping, kompensatsiya) boj qo'llaniladi. Alohida bojlarning qo'llanilish tartibi qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

Boj tarifi - bojxona chegarasidan olib o'tiladigan, O'zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy faoliyatining Tovar nomenklaturasi printsiplari va qoidalariga muvofiq holda bir tizimga solingan tovarlarga nisbatan qo'llaniladigan boj stavkalarining to'plamidir.

Byudjet dotatsiyasi - o'z daromadlari va byudjetni tartibga soluvchi boshqa mablag'lar etishmagan taqdirda quyi byudjetning xarajatlari bilan daromadlari o'rtasidagi farqni qoplash uchun yuqori byudjetdan quyi byudjetga qaytarmaslik sharti bilan ajratiladigan pul mablag'lari.

Byudjet jarayoni - davlat byudjetini tuzish, ko'rib chiqish, qabul qilish va ijro etish, uning ijrosini nazorat qilish, ijrosi haqidagi hisobotni tayyorlash va tasdiqlash, shuningdek davlat byudjeti tuzilmasiga kiruvchi byudjetlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning qonun hujjatlari bilan tartibga solingan jarayoni.

Byudjet profitsiti - muayyan davrda byudjet daromadlarining byudjet xarajatlaridan ortiq bo'lgan summasi.

Byudjet ssudasi - yuqori byudjetdan quyi byudjetga yoxud respublika byudjetidan rezident-yuridik shaxsga yoki chet el davlatiga qaytarish sharti bilan ajratiladigan mablag'.

Byudjet subvensiyasi - qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda muayyan maqsadlarga sarflash sharti bilan yuqori byudjetdan quyi byudjetga qaytarmaslik sharti bilan ajratiladigan pul mablag'lari.

Byudjet taqchilligi - muayyan davrda byudjet xarajatlarining byudjet daromadlaridan ortiq bo'lgan summasi.

Byudjet tashkiloti - zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarish bilan bog'liq bo'lgan o'z faoliyatini amalga oshirishi uchun davlat byudjetidan mablag' ajratish nazarda tutilgan va bu mablag' moliyalashtirishning asosiy manbai hisoblanadigan vazirlik, davlat qo'mitasi, idora, davlat tashkiloti.

Byudjet transferti - byudjetdan yuridik yoki jismoniy shaxsga bevosita yoxud vakolatli organ orqali ajratiladigan qaytarilmaydigan pul mablag'lari.

Bank depozitlari-kredit hisobiga yoki bankka (boshqa valyuta) ekvivalent miqdordagi to'lov to'langanligi asosida, bankdan ma'lum bir miqdordagi pulni olish huquqini beruvchi qo'yilmalar.

Barter bitimi-to'g'ridan-to'g'ri, pul ishtirokisiz, tovarni tovarga ayiriboshlash. Ichki bozorda va xalqaro savdoda (valyutasiz ayiriboshlash) amalga oshirilishi mumkin.

Bitim-savdo to'lovlari, kredit operasialari va h.k. bo'yicha shartnoma.

Buyurtmalar portfeli – korxonada ma'lum bir sanaga mavjud va bajarilishi kerak bo'lgan buyurtmalar yig'indisi.

Grant - davlatlar, davlatlarning hukumatlari, xalqaro va chet el hukumatga qarashli tashkilotlar tomonidan, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Hukumati belgilaydigan ro'yxatga kiritilgan xalqaro va chet el nohukumat tashkilotlari tomonidan O'zbekiston Respublikasiga, O'zbekiston Respublikasi Hukumatiga, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga, yuridik va jismoniy shaxslarga beg'araz asosda beriladigan mol-mulk, shuningdek chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar tomonidan O'zbekiston Respublikasiga hamda O'zbekiston Respublikasi Hukumatiga beg'araz asosda beriladigan mol-mulk.

Davlat qarzi - davlat tomonidan ichki mablag'ni va xorijdan mablag' jalb qilish natijasida vujudga kelgan O'zbekiston Respublikasi majburiyatlarining yig'indisi.

Davlat maqsadli fondlari - davlat byudjeti tarkibida jamlantiriladigan fondlar bo'lib, ularning har biri uchun mablag'lar manbalari, har bir manbadan mablag' tushishi normalari va shartlari, shuningdek shu mablag'lardan foydalanilishi mumkin bo'lgan maqsadlar qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

Davlat sektori - davlat boshqaruv sektorini va davlatga qarashli xo'jalik yurituvchi sub'yektlar, ya'ni davlat tashkilotlari va korporatsiyalarini o'z ichiga oladi.

Davlat soliq xizmati organlari - O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar davlat soliq boshqarmalari, shuningdek tumanlar, shaharlar va shahardagi tumanlar davlat soliq inspeksiyalari.

Davlat subsidiyalari - xo'jalik yurituvchi sub'yektning operatsiya faoliyatiga taalluqli muayyan sharoitlarda xo'jalik yurituvchi sub'yektga resurslarni berish tarzida hukumat tomonidan beriladigan yordam.

Davlat byudjeti – davlat daromadlari va sarflarining moliyaviy rejasi.

Daromad solig'i – fuqarolarni bir yil davomidagi yalpi daromadidan olinadigan majburiy to'lov (soliq).

Deflyatsiya – inflyatsiya davrida muomaladagi qog'oz pulni kamaytirish. Davlat tomonidan muomaladagi pul miqdorini kamaytirishga qaratilgan moliya va pul - kredit tadbirlarini qo'llash orqali amalga oshiriladi.

Diversifikatsiya – (lotinchadan diversus- har xil va facere-qilmoq, bajarmoq) – ishlab chiqarishning samaradorligini oshirish, mahsulot va xizmatlarni sotish bozorlarini kengaytirish maqsadida tarmoq va korxonalar faoliyat sohaslarini kengaytirish, mahsulot va xizmatlar assortimentlarini ko'paytirish.

Diversifikatsiya strategiyasi – korxona faoliyatini mavjud mahsulotlar va bozorlar turini kengaytirish orqali rivojlanish strategiyasidir. Diversifikatsiya strategiyasi korxonalarining ishlab chiqarish va tijorat faoliyatini rivojlantirishning eng etakchi zamonaviy tendentsiyalardan biri hisoblanib, u orqali korxonalarni bozor sharoitida vujudga keladigan turli qaltisliklarga bo'lgan raqobatbardoshligini oshiradi. Diversifikatsiya strategiyasi – korxonalarda yangi mahsulotlar liniyalarini ishga tushirish, qo'shma korxonalar tuzish, boshqa korxonalarni sotib olish va boshqa turli uslublarda amalga oshirishi mumkin.

Dividend – aksionerlik jamiyati sof foydasidan aksiya egalari to'lanadigan qismi bo'lib, u aksionerlarga naqd pul yoki aksiyalar bilan to'lanadi

Diskont stavkasi - vaqtning har xil paytiga taalluqli bo'lgan pul summalarini bir vaqtga (paytga) keltirishda foydalanadigan stavka.

Diskontlash - kelajakda aniq bir vaqtda olinishi kutilayotgan pul mablag'larining joriy ekvivalentini aniqlash.

Deval'vatsiya - bu milliy valyuta kursining chet el valyuta kursiga nisbatan rasman qonuniy asosda pasaytirilishi.

Debit-huquqiy yoki jismoniy shaxs bilan xo'jalik munosabatlarida olinishi yoki to'lanishi kerak bo'lgan pul miqdori. Aktivda debit inobatga olinmayotgan pul miqdorlarining o'sishini; passivda-kamayishini bildiradi.

Devalvasiya-xalqaro valyuta birliklariga, boshqa mamlakatlarning valyutalariga nisbatan milliy yoki xalqaro pul birligi kursining pasayishi.

Depozit-kredit muassasasiga saqlash uchun mo'ljallab qo'yilgan pul mablag'lari yoki qimmatbaho qog'ozlar.

Divident-sof foydaning (barcha kreditorlar bilan hisoblashib va soliqlarni to'lab bo'lgandan keyin) divid egalari o'rtasida, ularning ulushlariga qarab taqsimlanadigan qismi.

Diler-qimmatbaho qog'oz, tovar va valyutalarini oldi-sotdi savdo bitimlarida vositachi hisoblangan shaxs yoki firma.

Ijara - ijaraga beruvchi ijarachiga buning uchun haq to'lash sharti bilan kelishilgan muddat davomida aktivdan foylanish huquqi berilgan kelishuv.

Ijara (lizing) ob'yektlari - iste'mol qilinmaydigan har qanday buyumlar (ashyolar), shu jumladan korxonalar, mulkiy komplekslar, alohida binolar, inshootlar, uskunalar, transport vositalari hamda boshqa ko'char va ko'chmas mulk (muomaladan chiqarilgan yoki muomalada bo'lishi cheklangan boshqa mol-mulklar bundan mustasno).

Ijara munosabatlarining sub'yektlari- ijaraga beruvchi va ijarachidir.

Iqtisodiy sub'yekt – nazorat qiluvchi sub'yekt va bir yoki bir nechta nazorat qilinadigan sub'yektlarni o'z ichiga oluvchi sub'yektlar guruhi. Davlat sektori uchun buxgalteriya hisobi xalqaro standartlarida «iqtisodiy sub'yekt» termini moliyaviy hisobotda nazorat qiluvchi sub'yekt va nazorat qilinadigan sub'yektlarni o'z ichiga oluvchi sub'yektlar guruhini belgilash uchun qo'llaniladi.

Investitsiya faoliyati - pul ekvivalentlariga kiritilmagan uzoq muddatli aktivlar va boshqa investitsiya ob'yektlarini sotib olish va sotish.

Insonparvarlik yordami - aholining ijtimoiy jihatdan nochor guruhlariga tibbiy va ijtimoiy yordam ko'rsatish, ijtimoiy soha muassasalarini qo'llab-quvvatlash, tabiiy ofatlar, falokatlar va halokatlar, epidemiyalar, epizootiyalar va boshqa favqulodda vaziyatlarning oldini olish hamda ularni bartaraf etish uchun aniq maqsadli beg'araz ko'maklashish.

Imtiyozli aksiyalar-dividentlar qayd etilgan aksiyalar; ular oddiy aksiyalarga nisbatan dividientlarni talab etishda afzallikka egalari; oddiy aksiya egalari, imtiyozli aksiya egalari dividientlarini to'la olmaganlaricha, dividient ola olmaydilar.

Inventarizasiya- birlashma, korxona, tashkilot, muassasa balansida hisobda turgan boyliklarni borligini, saqlanganligini, to'g'ri saqlanishini, vositalarni olish huquqi va majburiyatlarini, ombor xo'jalik faoliyatini, hisobga qo'yishni realliligini davriy tekshirish.

Investitsiya-sarmoyani, biror-bir xukukiy mustaqil korxonaga uzoq muddatga yo qo'shimcha foyda olish maqsadida, yo egalik qilish maqsadida, bu sohada o'z operasiyalarini tashkil qilishga qaraganda bunday mablag' kiritish qulay va foydali bo'lganligi uchun, kiritish.

Innovatsiya- 1. Texnika va texnologiyalar avlodini yangilashni ta'minlovchi, iqtisodiga kiritilgan mablag'.

2. Ilmiy-texnika rivojlanishining yutug'i hisoblangan yangi texnika, texnologiya. Ixtirochilikni rivojlantirish, ilk va yirik kashfiyotlarning qilinishi innovasiyaning sezilarli omili hisoblanadi.

Infratuzilma - yo'l, aloqa, transport, ta'lim, sog'liqni saqlash hosil bo'lishini ta'minlovchi ishlab chiqarish va noishlab chiqarish sohalar majmuasi.

Ipoteka – qo'zg'almas mulk garovi; bu garov mulkni kreditorga topshirilmagan holda amalga oshiriladi.

Qisqa muddatli (joriy) investitsiyalar - muomala muddati 12 oydan oshmaydigan oson realizatsiya qilinadigan investitsiyalar.

Qadoqlash varaqasi- bitta tovar joyiga (yashik, kip, rulon va h.k.ga) qadoqlangan tovarlarning barcha tur, sort assortimenti sanab o'tilgan tovar hujjati.

Kredit tashkilotlari - tegishli litsenziyaga ega bo'lgan banklar, kredit uyushmalari, mikrokredit tashkilotlari, lombardlar va boshqa kredit tashkilotlari.

Ko'chmas mulkka investitsiya - investitsiya qiluvchi sub'yektning yoki investitsiya qiluvchi sub'yekt guruhiga kiruvchi boshqa sub'yektning ishlab chiqarish faoliyati davomida foydalanilmaydigan er uchastkalariga yoki imoratlarga investitsiyalar.

Kafillik-kafillik beruvchini boshqa shaxs (qarzdor) kreditori oldida bu qarzdorlik majburiyatlarni bajarishga to'la yoki qisman javob berishi kafolatlari.

Kvotalash – tovar ishlab chiqarish, eksport va importni chegaralash; bu davlat va holqaro organlar tomonidan, ma'lum bir muddatga, ayrim tovarlarga miqdoriy yoki narx cheklanishlari ko'rinishida kiritiladi.

Konsalting – maxsus korxonalarining, ishlab chiqaruvchilar, sotuvchilar va haridorlarni korxona, firma, tashkilotlarning iqtisodiy, shu jumladan tashqi iqtisodiy sohadagi, faoliyatlari bo'yicha savollar bo'yicha maslahatlar berish faoliyati.

Kontrafaksiya-firmalarni boshqalarning tovar belgilaridan foydalanishi.

Korxonaning tashkiliy-huquqiy shakllari – davlat korxonasi, yakka (oilaviy) xususiy korxona, to'la hamkorlik, aralash hamkorlik, aksiyadorlik jamiyati, cheklangan mas'uliyatli hamkorlik;

Lizing (moliyaviy ijara) - ijara munosabatlarining alohida turi bo'lib, unda bir taraf (lizing beruvchi) ikkinchi tarafning (lizingga oluvchining) topshirig'iga binoan uchinchi tarafdan (sotuvchidan) lizing shartnomasida shartlashilgan mol-mulkni (lizing ob'yektini) mulk qilib sotib oladi va uni shu shartnomada belgilangan shartlarda haq evaziga egalik qilish va foydalanish uchun lizingga oluvchiga o'n ikki oydan ortiq muddatga beradi. Bunda lizing shartnomasi quyidagi shartlardan biriga javob berishi kerak:

Lizing-maxsus lizing kompaniyasi vositachiligida asosiy fondlarga maxsus shakldagi kapital qo'yilmalarini moliyalashtirish. U uchinchi shaxs uchun ma'lum bir tovarga mulkchilik egaligini olib beradi va bu shaxsga uni qisqa, o'rtacha hamda uzoq muddatli davrga ijaraga beradi.

Litsenziya-hukumat tomonidan vakolatli davlat xokimiyat organlari tomonidan, tovarlarning maxsus ro'yxati bo'yicha, tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish uchun beriladigan ruxsatnoma.

Logotip-firmaning (yoki ushbu firma tovarlari guruhining) to'la yoki qisqartirilgan nomini, maxsus ishlab chiqilgan, original yozuvi.

Mahalliy byudjet - davlat byudjetining tegishli viloyat, tuman, shahar pul mablag'lari fondsini tashkil etuvchi bir qismi bo'lib, unda daromadlar manbalari va ulardan tushumlar miqdori, shuningdek moliya yili mobaynida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag'lar sarfi yo'nalishlari va miqdori nazarda tutiladi.

Moliya yili - birinchi yanvardan o'ttiz birinchi dekabr kuni oxirigacha bo'lgan vaqtni o'z ichiga oluvchi davr.

Moliyaviy aktiv – pul mablag'lari, boshqa sub'yektdan pul mablag'larini yoki boshqa moliyaviy aktivni olishiga shartnoma huquqi, boshqa sub'yekt bilan eng qulay shartlarga moliyaviy instrumentlarni ayirboshlashga shartnoma huquqi, yoki boshqa sub'yekt tomonidan imkoniyat qiymatli qog'ozlar.

Moliyaviy investitsiyalar - xo'jalik yurituvchi sub'yekt tasarrufidagi daromad olishga (foiz, royalti, dividend va ijara haqi shaklida) mo'ljallangan, investitsiya qilingan sarmoya qiymatining ortishi yoki investitsiya qiluvchi kompaniya boshqa naf olish uchun foydalanadigan aktivlar.

Mol-mulk - egalik qilish, foydalanish, tasarruf etish predmetlari bo'la oladigan moddiy ob'yektlar, shu jumladan pul mablag'lari va qimmatli qog'ozlar hamda nomoddiy ob'yektlar.

Mutlaq huquq - bu faqatgina huquq egasi tomonidan yoki uning roziligi bilan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda uchinchi shaxsga berilishi mumkin bo'lgan mulkiy huquq.

Marketing-qarorlari bozor munosabatlari uchun mo'ljallangan holda qabul qilinadigan korxona strategiyasining shakli. Korxona rahbarligi mijozlarning ehtiyojlarini qondirish orqali korxona o'z maqsadiga erishishi shaklida tashkil qilinadi.

Nomoddiy aktivlar - korxona tomonidan ulardan ishlab chiqarish, ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish yoki tovarlarni sotish jarayonida foydalanish maqsadida yoxud ma'muriy va boshqa funksiyalarni amalga oshirish uchun uzoq muddat mobaynida tutib turiladigan, moddiy-ashyoviy mazmunga ega bo'lmagan mol-mulk ob'yektlari.

Normativ-huquqiy hujjatlar - O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasining qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari, vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarining hujjatlari hamda Mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarorlari.

Nou-Xau-tijorat qimmatiga ega bo'lgan, ishlab chiqarish va kasbiy faoliyatda qo'llaniladigan texnik, tijorat, boshqaruv, moliyaviy tavsifdagi, patent bilan himoyalangan, texnik bilim hamda amaliy tajribalar.

Operativ ijara - moliyaviy ijara shartnomasi bo'lmagan mulkiy ijara (ijaraga berish) shartnomasi asosida mol-mulkni vaqtincha egalik qilish va foydalanishga berish.

Operatsion ijara – moliyaviy ijaradan tashqari boshqa har qanday ijara.

Oddiy aksiyalar-bu aksiyalarning egalari aksiyadorlik jamiyatining mulkdori hisoblanadi, kompaniya olgan foydaga qarab dividend olishga huquqiga ega bo'ladi; hal qiluvchi ovoz huquqi bilan aksiyadorlik jamiyatining majlislarida qatnasha oladi; kompaniyaning rahbarlik lavozimlariga saylana oladi; korporatsiya tarqatilib yubrilgan taqdirda mulkning bir qismiga ega bo'ladi.

Oferent – ofertani yo'naltiruvchi (jismoniy yoki xukukiy) shaxs.

Pul ekvivalentlari - ma'lum pul mablag'iga tez va oson almashtiriladigan hamda qiymatidagi o'zgarishlar tufayli biroz xatari bo'lgan qisqa muddatli, yuqori likvidli investitsiyalar (moliyaviy qo'yilmalar).

Pul mablag'lari - kassadagi naqd pul va talab qilib olinadigan depozitlar, shuningdek bankning depozit, valyuta va boshqa hisobvaraqlaridagi mablag'lar.

Pul mablag'lari barpo etuvchi aktivlar – tijorat foydasini yaratish uchun ixtiyorida bo'lgan aktivlar.

Preferensiya – iqtisodiyotni maqsadga muvofiq rivojlantirish va tartibga solishda ayrim soha va tarmoqlar, korxona va ishlab chiqarish turlariga nisbatan beriluvchi imtiyoz, afzallik va ustuvorliklar.

Pul - kredit siyosati – davlat tomonidan iqtisodiy o'sishni ta'minlash maqsadida pul muomalasini tashkil etish va barqarorligini ta'minlash uchun amalga oshiriladigan barcha chora-tadbirlar majmui.

Penya– moliyaviy intizomni buzuvchilarga nisbatan qo'llanadigan, pulundirish ko'rinishidagi, jazo shakli.

Polis – sug'urta tuzilganligini tasdiqlovchi sug'urta organining hujjati. Polis sug'urta qiluvchiga shartnoma tuzilganidan keyin sug'urta organi tomonidan beriladi.

Prezentatsiya-korxona, tashkilot, assosiasiyalari, konsorsium, ularning tovar hamda xizmatlarini taqdim etish bo'yicha reklama tavsifidagi bayonnomali tadbir.

Realizatsiya qilish - sotish, ayirboshlash, beg'araz berish maqsadida tovarlarni jo'natish (topshirish), ishlarni bajarish va xizmatlar ko'rsatish, shuningdek garovga qo'yilgan tovarlarga bo'lgan mulk huquqini garovga qo'yuvchi tomonidan garovga oluvchiga topshirish.

Respublika byudjeti - davlat byudjetining umumdavlat tusidagi tadbirlarni moliyalashtirishda foydalaniladigan qismi bo'lib, unda daromadlar manbalari va ulardan tushumlar miqdori, shuningdek moliya yili mobaynida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag'lar sarfi yo'nalishlari va miqdori nazarda tutiladi.

Royalti - quyidagilar uchun har qanday turdagi to'lovlar: fan, adabiyot va san'at asarlaridan, shu jumladan elektron-hisoblash mashinalari uchun dasturlar, audiovizual asarlardan hamda turdosh huquqlar ob'yektlaridan, jumladan ijrolar va fonogrammalardan foydalanganlik yoxud ulardan foydalanish huquqini berganlik uchun. sanoat mulki ob'yektiga, savdo markasiga, dizayn yoki modelga, rejaga, maxfiy formula yoki jarayonga bo'lgan huquqni tasdiqlovchi patentdan (guvohnomadan) yoxud sanoat, tijorat yoki ilmiy tajribaga taalluqli axborotdan (nou-xaudan) foydalanganlik uchun.

Rezident (O'zbekiston Respublikasi rezidenti)- O'zbekistonda ta'xis etilgan yoki ro'yxatdan o'tgan hamda bosh korxonasi O'zbekistonda joylashib, O'zbekiston Respublikasidan tashqarida ro'yxatdan o'tgan yuridik shaxs.

Raqobat-bozorda o'z mahsulotini sotish, haridorlarning turli ehtiyojlarining esho' yahshi imkoniyatlarini ta'minlash maqsadidagi, korxonalar o'rasidagi o'zaro aloqa, o'zaro tasir va kurashning iqtisodiy jarayoni.

Rekvizitlar-amaldagi qoida va qonunlar bilan ko'zda tutilgan hujjat yoki bitib tarkibidagi majburiy formal elementlar yig'indisi. Rekvizitsiz hujjatlar operatsiyani amalga oshirish uchun asos bo'la olmaydi.

Soliq tizimi - bir xil mohiyatga ega va o'zaro munosabatda bog'liq bo'lib, markazlashgan pul fondini tashkil etadigan soliq va yig'imlar turlarining yig'indisi.

Soliqlar – davlat byudjeti yoki mahalliy byudjetlarga jismoniy yoki yuridik shaxslar tomonidan tovar va xizmatlarni ishlab chiqarganlari uchun yoki ishlab chiqarish omillaridan foydalanganliklari uchun majburiy to'lovlar.**Soliqlar** - soliq kodeksida belgilangan, muayyan miqdorlarda undiriladigan, muntazam, qaytarib berilmaydigan va beg'araz xususiyatga ega bo'lgan, byudjetga yo'naltiriladigan majburiy pul to'lovlari.

Soliq yukini yengillashtirish – soliqlarning foiz stavkalari kamaytirish va imtiyozlar yaratish.

Soliqlarni unifikatsiya qilish – soliq mexanizmini soddalashtirish maqsadida iqtisodiy mohiyati, soliqqa tortish ob'yekti o'xshash bo'lgan soliq turlarini bir xillashtirish.

Soliq yuki – mablag'larni boshqa foydalanish mumkin bo'lgan yo'nalishlardan olib, soliqlarni to'lash uchun yo'naltirish orqali vujudga keladigan iqtisodiy cheklovlar darajasi bo'lib, odatda soliq to'lovchining muayyan davrda byudjetga to'langan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning yig'indisi sifatida namoyon bo'ladi. Mamlakat miqyosida soliq yuki darajasini soliqlarning yalpi ichki mahsulotdagi salmog'i orqali ifodalanadi.

Soliq qarzi - soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha qarz summasi, shu jumladan soliq kodeksida belgilangan muddatida to'lanmagan moliyaviy sanksiyalar.

Soliq solishning soddalashtirilgan tartibi - soliq solishning ayrim toifadagi soliq to'lovchilar uchun belgilanadigan hamda ayrim turdagi soliqlarni hisoblab chiqarish va to'lashning, shuningdek ular yuzasidan soliq hisobotini taqdim etishning maxsus qoidalari qo'llanilishini nazarda tutuvchi alohida tartibi.

Soliq to'lovchilar - soliq kodeksiga muvofiq zimmasiga soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash majburiyati yuklatilgan jismoniy shaxslar, yuridik shaxslar va ularning alohida bo'linmalari.

Solik agenti — yuridik va jismoniy shaxslardan soliqni ushlab qolib, davlat byudjetiga o'tkazib beruvchi yuridik shaxslar.

Solik sub'yekti— soliq to'lash majburiyati yuklangan yuridik va jismoniy shaxslar yoki soliqqa oid munosabatlarni tashkil etuvchi tomonlarning o'zaro majmuasi bo'lib, unda bir tomondan soliq to'lovchilar, boshqa tomondan soliqni undirish vakolati yuklangan soliq xizmati organlari qatnashadi.

Solik solish ob'yekti— soliq to'lovchining soliq hisoblanadigan va soliq solish uchun asos bo'lib xizmat qiladigan daromadi, oboroti va mol-mulki tushuniladi. Soliq solish ob'yektiga foyda yoki daromad, muayyan tovarlar qiymati, er maydoni, jismoniy va yuridik shaxslarning mulklari, tabiiy resurslardan foydalanish miqdori va boshqalar kiradi.

Soliq solish birligi — bu ob'yektning o'lchov birligi, masalan, daromad yoki mol-mulk solig'ida ob'yektning o'lchov birligi sifatida uning so'mdagi bahosi ifodalansa, er solig'ida o'lchov birligi bo'lib kv.m yoki gektar hisoblanadi.

Soliqni hisoblab chiqarish tartibi. Soliqni hisoblab chiqarish tartibi soliq davri uchun soliq solinadigan bazadan, stavkadan, shuningdek soliq imtiyozlaridan kelib chiqib, soliq summasini hisoblash qoidalarini belgilaydi.

Sof aktiv – sub'yektning aktivda barcha majburiyatlar ayirib tashlangan keyin qolgan qoldiq qism, ya'ni, sof aktiv teng aktiv minus majburiyatlar.

Savdo markasi (rusumi)-savdo korxonalari o'zlari realizasiya qilayotgan buyumlarda joylashtirish huquqiga ega bo'lgan, ularning buyurtmasiga binoan tayyorlangan, original rasmiylashtirilgan farqlovchi belgi; grafik tasvir, raqam, harf, so'zlarning o'ziga xos birikmasi, original qadoqlash.

Saldo-ma'lum bir vaqt oralig'ida kirim va chiqimlar o'rtasidagi farq.

Segment-o'zlarining o'ziga xos ehtiyojlari bilan mijozlar guruhi. Bitta tovar yoki xizmat, ehtiyojga qarab, mijozlarning turli guruhlar tomonidan turlicha baholanadi. Bu guruhlarini aniqlash kerak va ularning o'ziga xos ehtiyojlarini tushunish kerak.

Sertifikat-O'zbekiston Respublikasi Davlat standartidan yoki uning hududiy organlaridan (standartlashtirish va metrologiya markazlaridan), chet eldan keltirilayotgan belgilangan guruhdagi tovarlar uchun ularning milliy standartlarga mosligiga guvohlik berish uchun, olinadi.

Subijara-ijaraga olingan mulkning bir qismini 3-shaxs yoki shaxslar guruhiga ijaraga berish. Bu holda ijaraga beruvchi ikkilamchi ijaraga beruvchi sifatida nomoyon bo'ladi.

Supermarket- o'z-o'ziga xizmat ko'rsatishga mo'ljallangan, kundalik ehtiyoj (ko'pincha oziq-ovqat mahsulotlari) mollari savdosiga ixtisoslashgan, yirik do'kon. Bu do'konlar avvallari "Universam" deb nomlanar edi.

Sug'urta-ma'lum bir voqealar (sug'urta vaziyatlari)da jismoniy va xukukiy shaxslarning mulkiy manfaatlarini pulli fondlar hisobiga himoyalash bo'yicha iqtisodiy munosabatlar tizimi.

Tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan tushum - realizatsiya qilingan tovarlar (ishlar, xizmatlar) uchun olingan (olinishi lozim bo'lgan) mablag'lar summasi, shu jumladan realizatsiya qilingan tovarlar (ishlar, xizmatlar) uchun haq to'lash yoki qarzni uzish hisobiga tushadigan mol-mulk qiymati.

Tovarlarni eksport qilish - O'zbekiston Respublikasining bojxona hududidan tovarlarni, agar qonun hujjatlarida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, qayta olib kirish majburiyatisiz olib chiqish.

Tovar-moddiy zaxiralar - keyinchalik sotish maqsadida normal faoliyat yuritish jarayonida tutib turiladigan va ishlab chiqarish jarayonida mavjud bo'lgan, shuningdek mahsulot ishlab chiqarish, ishlarni bajarish yoki xizmatlar ko'rsatish jarayonida yoxud ma'muriy va ijtimoiy-madaniy vazifalarni amalga oshirish uchun foydalaniladigan moddiy aktivlar;

Tranzit schyotlar - bu hisobot davrida foydalaniladigan, lekin yopiladigan moliyaviy natijalar to'g'risidagi xisobotda aks ettiriladigan hisobot davri oxiriga qoldiqqa ega bo'lmaydigan daromadlar va xarajatlarning vaqtinchalik schyotlaridir.

Transfertlar – almashtirish bo'lmagan operatsiyalardan (soliqlardan tashqari) kelgusi iqtodiy naflar yoki servis imkoniyatning kelib tushishi.

To'lov manbai - soliq to'lovchiga to'lovlarni amalga oshiruvchi yuridik shaxs.

To'g'ri soliqlarni to'g'ridan-to'g'ri soliq to'lovchilarning o'zi to'laydi, ya'ni soliqning huquqiy va haqiqiy to'lovchisi ham bitta shaxs bo'ladi.

Tannarx-mahsulot ishlab chiqarish va uni sotish xarajatlarining pul ko'rinishida ifodalangan yig'indisi.

Tashrif qog'ozi – qattiq qog'ozdan tayyorlangan, ishbilarmonlik sohasida qo'llaniladigan qog'oz; unda egasi haqida, ayrim hollarda u vakil bo'lgan firma haqidagi ma'lumotlar keltiriladi; u muzokaralarda tezda muloqotga kirishib ketish imkonini beradi; hamkoringizni ismi, familiyasi, mansabini to'g'ri talaffuz qilish imkoniyatini beradi.

Tashkiliy tuzilma – maqsadga samarali erishishni ta'minlash uchun shunday tashkil qilingan boshqaruv va funksional soha bosqichlarining mantiqiy nisbati.

Tender-bozorda jihoz sotib olish yoki kompleks ob'ektlar qurish uchun bajaruvchilarni jalb etish, boshqa ishlarni bajarish (maslahat, qurilish, texnologik, kompleks xizmat ko'rsatish) maqsadida buyurtmalar joylashtirishning tanlov shakli. Tanlov shartlari avvaldan e'lon qilinadi.

Tijorat siri – ishlab chiqarish, texnologik, savdo, moliya va boshqa xo'jalik operatsiyalari hamda ular bo'yicha barcha hujjatlashtirishlarni sir saqlashga, qonun tomonidan himoya qilinadigan, korxona huquqi.

Tovar belgisi va xizmat ko'rsatish belgilari- turli ishlab chiqaruvchilar va sotuvchilarning bir turli tovar hamda xizmatlarini farqlantiruvchi simvollar va shartli belgilar.

Tovar belgisi-tovarga berilgan, belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgan belgilash; u rasm, ma'lum bir harflar birikmasi, sonlardan iborat.

Tovarlarning shitrixli kodi-maxsus ishlab chiqilgan xalqaro standartlash tizimi yordamida, mahsulot ishlab chiqarishning barcha ko'rsatkichlari haqida ma'lumotlarni kodlash usuli. Bu katta hajmdagi informasion – tavsifli hujjatlashtirish ishlaridan qutilish imkonini beradi. Kodli axborot shifrini o'qish maxsus elektron hisoblash qurilmalari yordamida amalga oshiriladi.

To'lovni kechiktirish – qarzдорlikni uzishning o'ziga xos usuli bo'lib, bunda qarzдорlikning to'liq miqdorda to'lanishi, shartnomada ko'zda tutilganidan ko'ra, kechroq muddatga suriladi.

Umidsiz qarz - sud qaroriga binoan majburiyatlarning tugatilishi, qarzдорning bankrotligi, tugatilishi yoki vafot etishi oqibatida yoxud da'vo qilish muddati o'tishi oqibatida uzish mumkin bo'lmagan qarz.

Unifikatsiya – turli xildagi mahsulotlar, detallar, uzellar va boshqa qo'llaniladigan materiallar va texnologik jarayonlarni ratsional jihatdan bir xilligini ta'minlash.

Ulgurji savdo – tovar (xizmat)larni qayda sotish yoki kasbiy foydalanish maqsadida ko'p sonli miqdorda sotib olish faoliyati. U ishlab chiqaruvchilarga o'z tovarlarini, joylarda iste'molchilar bilan kam muloqotda, sotish imkonini beradi.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi g'aznachiligi - o'zining hududiy bo'linmalari bilan birgalikda davlat byudjetining g'azna ijrosini amalga oshiradigan maxsus vakolatli moliya organi. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining G'aznachiligi tizimiga bevosita unga

bo'ysunadigan Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri g'aznachilik boshqarmalari hamda tumanlar (shaharlar) g'aznachilik bo'limlari kiradi.

O'zbekiston Respublikasi soliq to'lovchilarining yagona reestri - soliq to'lovchilarga oid davlat ma'lumotlar bazasi tizimi.

O'zbekiston Respublikasidan tashqaridagi faoliyat - O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga ko'ra yuridik shaxs hisoblangan xo'jalik yurituvchi sub'yekt tomonidan O'zbekiston Respublikasidan tashqarida mustaqil balansga ajratilmagan tarkibiy bo'linmalar orqali amalga oshiriladigan faoliyat;

Favqulodda daromad (zarar) - xo'jalik yurituvchi sub'yektning odatdagi faoliyatidan aniq farq qiladigan, ya'ni tez-tez yoki muntazam sodir bo'lmaydigan voqealar yoki bitimlar natijasida yuz bergan daromadlar yoki xarajatlar.

Favqulodda holatlar - taraflarning xohish-irodasi va harakatlariga bog'liq bo'lmagan, tabiat hodisalari (zilzila, ko'chkilar, bo'ron, qurg'oqchilik va boshqalar), boshqa tabiiy ofatlar yoki ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatlar (urush holati, qamal holati, davlat manfaatlarini ko'zlab importni hamda eksportni taqiqlash va boshqalar) keltirib chiqargan muayyan sharoitlardagi favqulodda, oldini olib bo'lmaydigan va kutilmagan holatlar bo'lib, qabul qilingan majburiyatlar shular tufayli bajarila olmaydi.

Foizlar - har qanday turdagi qarz talablaridan olingan daromad, shu jumladan obligatsiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlar, shuningdek depozit qo'yilmalar va boshqa qarz majburiyatlaridan olingan daromad.

Funksional valyuta - sub'yekt faoliyat ko'rsatayotgan boshlang'ich iqtisodiy muhitning valyutasi.

Firmaning likvidligi-firmaning o'z qarz majburiyatlarini muddatida to'lay olish qobiliyati. Bu qarz hamda likvit mablag'lar miqdoriga bog'liq.

Fors-major-shartnomani bajarmaganlik uchun mulkiy javobgarlikdan ozod qiluvchi, avvaldan ko'zda tutilmagan va bartaraf etib bo'lmaydigan favqulodda vaziyatlar.

Fors-major vaziyatlari- shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarishga halaqt beruvchi, ko'zda tutish va bartaraf etishning iloji bo'lmagan vaziyatlar.

Franchayzing-savdo markasidan qo'llanish, biznesni boshqarish huquqini, shu huquqlar egasi (franchayzer) tomonidan foydalanuvchi (franchayzi)ga berilishi.

Fyuchers bitimlari-tovar yoki fond birjasidagi tezkor bitim turi. U tovar yoki aksiya uchun, bitim tuzilgandan ma'lum bir vaqt o'tgandan keyin, bitimdagi baholar bo'yicha to'lovlarni amalga oshirishni ko'zda tutadi.

Fyuchers operatsiyalari- tezkor muddatli bitimlarni xarid qilish - sotish bo'yicha, sotib olingan kundagi baho bilan kontrakt tuzilgandagi baho o'rtasidagi farqdan daromad olish maqsadidagi, chayqovchilik bitimlari.

Xarajatlar - sof aktivlarini kamayishiga olib keluvchi aktivlarning ketishi yoki sarflanishi yoki majburiyatlarning paydo bo'lishi ko'rinishida hisobot davrida iqtisodiy naflarning yoki servis imkoniyatning qisqarishi.

Xarajatlarni to'lashga ruxsatnoma - bu byudjet mablag'lari oluvchi tomonidan Moliya vazirligi g'aznachiligiga yoki uning xududiy bo'linmalariga taqdim etilgan belgilangan tartibda tasdiqlangan unga berilishi ko'zda tutilgan byudjet mablag'lari miqdorini qayd qiluvchi hujjat.

Xo'jalik operatsiyalari (ruscha - «xozyaystvennie operatsii», inglizcha «business transactions») - bu sub'yektning moliyaviy holatiga ta'sir etuvchi iqtisodiy xodisalardir

Xolding-turli kompaniyalarning aksiya nazorat paketlarini, ularning faoliyati ustidan nazorat o'rnatish hamda foyda ko'rish maqsadida, sotib olish ko'rinishidagi tadbirkorlik turi. Xolding yirik

sarmoyalarni talab etadi, shuning uchun, odatda, bir necha jismoniy yoki xukukiy shaxslar mablag'larini birlashtirish asosida amalga oshiriladi.

Huquqiy manzil-xukukiy shaxs reestriga rasmiy kiritilgan va qayd etilgan manzil.

Hisobot sanasi – moliyaviy hisobot tegishli bo'lgan hisobot davrining oxirgi kuni sanasi.

Hujjat bilan tasdiqlangan xarajatlar - operatsiya sanasini, summasini, xususiyatini aniqlash va uning ishtirokchilarini identifikatsiya qilish imkonini beradigan hujjatlar bilan tasdiqlangan xarajatlar.

Hisob-faktura-to'lanishi kerak bo'lgan tovarlar guruhining bahosini ko'rsatuvchi hujjat.

Huquqiy egalik-fuqarolik-huquqiy munosabatlarda dastlabki huquq va majburiyatlar egasining o'rnini egallovchi (xukukiy) shaxs.

Huquqiy qobiliyat-shaxs (fuqaro, tashkilot)ning mulkiy va mulkiy bo'lmagan huquq hamda burchlariga ega bo'lish qobiliyati.

Shartli aktiv – agar kelajakda bitta yoki aniq bo'lmagan, sub'yekt nazoratida to'la bo'lmagan faqat xodisalar sodir bo'lishligi yoki sodir bo'lmashligi asosida avvalgi xodisalar va uni bo'lishligi tasdiqlanishi bilan yuzaga kelishi mumkin bo'lgan aktiv.

Shartli majburiyat – agar kelajakda bitta yoki aniq bo'lmagan, sub'yekt nazoratida to'la bo'lmagan faqat xodisalar sodir bo'lishligi yoki sodir bo'lmashligi asosida avvalgi xodisalar va uni bo'lishligi tasdiqlanishi bilan yuzaga kelishi mumkin bo'lgan majburiyat.

Egri soliqlar ning huquqiy to'lovchilari mahsulotni ortuvchilar, ish, xizmatni bajaruvchilar hamda xizmat ko'rsatuvchilardir. Lekin soliq yukining haqiqatan ham byudjetga to'lovchilari tovar (ish, xizmat)ni iste'mol qiluvchilardir, ya'ni haqiqiy soliq to'lovchilari bu erda yashiringan. Bu soliqlar tovar (ish, xizmat) qiymati ustiga ustama ravishda qo'yiladi.

elektron raqamli imzo - elektron hujjatdagi mazkur elektron hujjat axborotini elektron raqamli imzoning yopiq kalitidan foydalangan holda maxsus o'zgartirish natijasida hosil qilingan hamda elektron raqamli imzoning ochiq kaliti yordamida elektron hujjatdagi axborotda xatolik yo'qligini aniqlash va elektron raqamli imzo yopiq kalitining egasini identifikatsiya qilish imkoniyatini beradigan imzo.

Elektron raqamli imzoning yopiq kaliti - elektron raqamli imzo vositalaridan foydalangan holda xosil qilingan, faqat imzo qo'yuvchi shaxsning o'ziga ma'lum bo'lgan va elektron hujjatda elektron raqamli imzoni yaratish uchun mo'ljallangan belgilar ketma-ketligi.

Elektron raqamli imzoning ochiq kaliti - elektron raqamli imzo vositalaridan foydalangan holda hosil qilingan, elektron raqamli imzoning yopiq kalitiga mos keluvchi, axborot tizimining har qanday foydalanuvchisi foydalana oladigan va elektron hujjatdagi elektron raqamli imzoning haqiqiylikini tasdiqlash uchun mo'ljallangan belgilar ketma-ketligi.

Elektron raqamli imzoning haqiqiylikini tasdiqlash - elektron raqamli imzoning elektron raqamli imzo yopiq kalitining egasiga tegishlilik va elektron hujjatdagi axborotda xatolik yo'qligi tekshirilgandagi ijobiy natija.

Elektron to'lov - texnika vositalaridan, axborot texnologiyalaridan va axborot tizimlari xizmatlaridan foydalangan holda elektron to'lov hujjatlari vositasida naqd pulsiz hisob-kitoblarni amalga oshirishdir.

Elektron hujjat - elektron shaklda qayd etilgan, elektron raqamli imzo bilan tasdiqlangan va elektron hujjatning uni identifikatsiya qilish imkoniyatini beradigan boshqa rekvizitlariga ega bo'lgan axborotdir. Elektron hujjat qog'oz hujjatga tenglashtiriladi va u bilan bir xil yuridik kuchga ega bo'ladi. Elektron hujjatning qog'oz nusxasi bo'lishi mumkin.

Elektron hujjat aylanishi - elektron hujjatlarni axborot tizimi orqali jo'natish va qabul qilib olish jarayonlari yig'indisidan iborat bo'ladi.

Elektron hujjat aylanishining ishtirokchilari - elektron hujjatni jo‘natuvchi va elektron hujjatni qabul qilib oluvchilardir.

Elektron hujjatning majburiy rekvizitlari - elektron raqamli imzo, elektron hujjatni jo‘natuvchi yuridik shaxsning nomi yoki elektron hujjatni jo‘natuvchi jismoniy shaxsning familiyasi, ismi, otasining ismi, elektron hujjatni jo‘natuvchining pochta va elektron manzili, hujjat yaratilgan sana.

Erkin iqtisodiy zona - mintaqani jadal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish uchun mamlakat va chet el kapitalini, istiqbolli texnologiya va boshqaruv tajribasini jalb etish maqsadida tuziladigan, aniq belgilangan ma‘muriy chegaralari va alohida huquqiy tartiboti bo‘lgan maxsus ajratilgan hududdir.

Embargo- biror bir mamlakat bilan savdo munosabatlarini taqiqlash.

Chekinish bahosi – qarzдор to‘lashi bilan o‘z majburiyatlarni bajarishdan ozod qilinadigan pul miqdori yoki mulkiy boylik.

Yuridik shaxs –o‘zining ixtiyorida, qaramog‘ida, foydalanishida mulkka ega bo‘lgan, o‘zining majburiyatlariga shu mulk bilan javob beradigan, buxgalteriya balansiga hamda bankda hisob raqamiga ega bo‘lgan shaxs.

Yuridik majburiyat - bu tuzilgan xo‘jalik shartnomasi (kontrakt) va tegishli davlat organining qarori natijasida yuridik shaxsning ikkinchi taraf oldida paydo bo‘lgan mazkur yuridik shaxsning majburiyati. *Yuridik majburiyat* – shartnomadan yoki qonunchilikdan yoki qonunning boshqa harakatidan kelib chiqadigan majburiyat.

Yutuq - lotereyalar, o‘yinlar, tanlovlar, musobaqalar (olimpiadalar), festivallar va shu kabi boshqa tadbirlarda olingan, natura holidagi yoki pulda ifodalangan to‘lovlar, sovrinlar va boshqa daromadlar.

Yagona g‘azna hisobvarag‘i – bu davlat byudjeti pul mablag‘lari jamlanadigan va mamlakat davlat organlarining davlat byudjeti ijrosi bo‘yicha operatsiyalari qayd qilinadigan Moliya vazirligi G‘aznachiligining hisobvarag‘idir.

Yakuniy byudjet – byudjet davriga to‘g‘ri keladigan qonunchilik organi tomonidan tasdiqlangan yoki shunga o‘xshash organning harakatidan kelib chiqadigan o‘zgarishlarni hisobga olinib barcha rezervlar, o‘tadigan summalar, transfertlar, ajratmalar, qo‘shimcha mablag‘lar va boshqalar bo‘yicha o‘zgartirish kiritilgan boshlang‘ich byudjet.

Yagona soliq to‘lovi – kichik biznes sub‘yektlarini qo‘llab-quvvatlash maqsadida turli solik va yig‘imlar o‘rniga soddalashtirilgan tartibda to‘lanuvchi soliq turi.

Yarmarka-ma‘lum bir davr davomida bir joyda amal qiluvchi tovar namunalari ko‘rgazmasi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi. — T.: O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami, 2018, 2020.
2. «Tadbirkorlik to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonuni. T.;O'zbekiston, 1991.
3. «Kichik va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni rag'batlantirish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonuni. T.;O'zbekiston,1995.
4. 2020 yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to'g'risidagi q'onuni O'RQ-589-sonli 2019 yil 9 dekabr.
5. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida. - T.:2017 yil 7 fevral', PF-4947-sonli Farmoni.
6. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida. - T.:2018 yil 22 yanvar', PF-5308-sonli Farmoni.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi" to'g'risidagi Farmoni. – 2018 yil 29 iyun.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining 2019 hamda 2020 yillardagi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to'g'risida"gi 2018 yil 24 dekabrda PQ-4086-sonli qarori.
9. O'zbekiston Respublikasining «2020 yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to'g'risida»gi q'onuni ijrosini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida PQ-4555-qarori, 2019 yil 30 dekabr
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi.Xalq so'zi, T. 2018 yil 28 dekabr'
11. Mirziyoev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. - T.: "O'zbekiston" NMIU, 2017. – 488 b.
12. Schanz Deborah, Schanz Sebastian. Business Taxation and Financial Decisions. 2011.
13. Alimardonov va boshqalar. Yuridik shaxslarni soliqqa tortish.Darslik. T.: Cho'lpon nomidagi NMIU .2013-296 b.
14. Gadoyev E., Kuziyeva N.Jismoniy shaxslarni soliqqa tortish. Darslik T.: "O'zbekiston" , 2012.-336 b.
15. Vaxobov A., Jo'rayev A., Soliqlar va soliqqa tortish.Darslik — T.: Sharq,2009.-448 b.
16. Jo'rayev A., Toshmatov SH., Abduraxmonov O. Soliqlar va soliqqa tortish. O'quv qo'llanma . T.: "Norma", 184 b.2015.
17. Qosimova M.S., Samadov A.N. Kichik biznes va tadbirkorlik. – T.: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi, 2005.
18. Захарин В.Р. Налоги и налогообложение: - 2 изд. - М.: ИД ФОРУМ: ИНФРАМ, 2013-320с.
19. Черник Д.Г. Налоги: Практика налогообложения: - М.: ФиС:ИНФРА-М, 2014- 368с.

20. Kichik biznes va tadbirkorlik: prof.N.X.Jumayevning umumiy tahriri ostida. O‘zbekiston Respublikasi oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi. -T.:ADiB NASHRIYOTI, 2011.

21. .Boltaboyev M., Qosimova M.S.va boshqalar. Kichik biznes va tadbirkorlik. – T.: “Adib nashriyoti” , 2011.279 bet

22. Abdullayev A, Sotvoldiyev A. va boshqalar. Kichik biznes va tadbirkorlik: tashkil etish, rejalashtirish, boshqarish – T.: “Fan va texnologiya”, 2005.

Internet saytlari

www.stat.uz

[www.nalog.ru.](http://www.nalog.ru)

[www.solik.uz.](http://www.solik.uz)

[www.norma.uz.](http://www.norma.uz)

https://www.norma.uz/books_newspapers/

www.ziyonet.uz

[www.Lex.uz.](http://www.Lex.uz)

www.gov.uz

ILOVALAR

O'zbekiston Respublikasining
2019 yil 9 dekabrda O'RQ-589-son Qonuniga asosan
9-ilova

Jismoniy va yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i stavkalari

1-jadval

t\r	Shahar viloyat	Yuridik shaxslardan undiriladigan yer solig'i stavkalari, 1 ga uchun, so'mda	Yakka tartibda uy-joy qurishga beriladigan yerlar uchun fuqarolardan undiriladigan yer solig'ining bazaviy stavklari, 1kv.m., uchun so'mda
1.	Angren	23977101	219,3
2.	Andijon	28741121	258,8
3.	Asaka	17223806	153,6
4.	Bekobod	17192365	153,6
5.	Beruniy	18291499	166,8
6.	Buxoro	23244127	213,0
7.	Guliston	18113745	166,8
8.	Denov	18176438	166,8
9.	Jizzax	23244127	213,0
10.	Zarafshon	16456361	146,4
11.	Kattaqo'rg'on	17223806	153,6
12.	Kogon	16459361	146,4
13.	Kosonsoy	17223806	153,6
14.	Marg'ilon	16459361	146,4
15.	Navoiy	23244127	213,0
16.	Namangan	28741121	258,8
17.	Nukus	22783377	213,0
18.	Nurafshon	14326971	128,0
19.	Oqtosh	17223806	153,6
20.	Olmalik	23977101	219,3
21.	Ohangaron	17192365	153,6
22.	Pitnak	16459361	146,4
23.	Samarqand	28741121	258,8
24.	Sirdaryo	15820533	146,4
25.	Taxiatosh	18291499	172,6
26.	Termiz	20459076	192,7

tʻr	Shahar viloyat	Yuridik shaxslardan undiriladigan yer soligʻi stavkalari, 1 ga uchun, soʻmda	Yakka tartibda uy-joy qurishga beriladigan yerlar uchun fuqarolardan undiriladigan yer soligʻining bazaviy stavklari, 1kv.m., uchun soʻmda
27	Toshkent		
	1 hudud	181022147	1037,9
	2 hudud	144817718	881,0
	3 hudud	108613288	724,0
	4 hudud	72408859	567,2
	5 hudud	36204430	410,3
28	Toʻrtkoʻl	15820533	144,7
29	Urganch	23244127	213,0
30	Urgut	17223806	153,6
31	Uchquduk	16459361	146,4
32	Uchqoʻrgʻon	17223806	153,6
33	Fargʻona	23244127	213,0
34	Xiva	16459361	146,4
35	Xonobod	17223806	153,6
36	Xoʻjayli	19212855	166,8
37	Chimboy	16459361	153,6
38	Chirchiq	23977101	219,3
39	Chortoq	17223806	153,6
40	Chust	17223806	153,6
41	Shaxrisabz	16459361	153,3
42	Shaxrixon	17223806	153,6
43	Shirin	15820533	146,4
44	Yangier	15820533	146,4
45	Yangiyoʻl	17192365	153,6
46	Yangiobod	17192365	153,6
47	Gʻijduvon	16459361	146,4
48	Qarshi	23244127	213,0
49	Qorasuv	17223806	153,6
50	Quva	16459361	146,4
51	Quvasoy	16459361	146,4
52	Qoʻqon	23244127	213,0
53	Qoʻngʻirot	16459361	153,6
54	Haqqulobod	17223806	153,6

t/r	Shahar, viloyat	Yuridik shaxslardan undiriladigan yer solig'i stavkalari, 1 ga uchun, so'mda	Yakka tartibda uy-joy qurishga beriladigan yerlar uchun fuqarolardan undiriladigan yer solig'ining bazaviy stavklari , 1kv.m. uchun, so'mda
Boshqa kichik shaharlar			
1	Qoraqalpog'iston Respublikasi:		
	Shimoliy hudud	12962337	119,9
	Markaziy hudud	14396369	138,5
	Janubiy hudud	15998633	140,1
2	Andijon viloyati	17223806	153,6
3	Buxoro viloyati	16459361	146,4
4	Jizzax viloyati	16459361	146,4
5	Qashqadaryo viloyati	16459361	153,3
6	Navoiy viloyati	16459361	146,4
7	Namangan viloyati	17223806	153,6
8	Samarqand viloyati	17223806	153,6
9	Surxondaryo viloyati	18176438	166,8
10	Sirdaryo viloyati	1582533	146,4
11	Toshkent viloyati	17192365	153,6
12	Farg'ona viloyati	16459361	146,4
13	Xorazm viloyati	16459361	146,4
Tuman markazlari hisoblangan posyolkalar aholi punktlari			
1	Qoraqalpog'iston Respublikasi:		
	Shimoliy hudud	10915296	99,2
	Markaziy hudud	12124537	116,4
	Janubiy hudud	13475331	119,1
2	Andijon viloyati	14700314	133,4
3	Buxoro viloyati	13936047	125,7
4	Jizzax viloyati	13936047	125,7
5	Qashqadaryo viloyati	13936047	125,7
6	Navoiy viloyati	13936047	125,7
7	Namangan viloyati	14700314	133,4
8	Samarqand viloyati	14700314	133,4
9	Surxondaryo viloyati	15653149	143,6
10	Sirdaryo viloyati	13297308	122,2
11	Toshkent viloyati	14668965	133,4
12	Farg'ona viloyati	13936047	125,7
13	Xorazm viloyati	13936047	125,7

Qishloq joylarida joylashgan yer uchastkalaridan foydalanganlik uchun yuridik shaxslardan undiriladigan yer solig'i stavkalari

t/r	Respublika, viloyat	1 ga yer uchun yer solig'i stavkalari, so'mda				
		Yuridik shaxslarga ajratilgan yerlar uchun, zonalar bo'yicha			Konlar va karyerlar band qilgan yerlar uchun, zonalar bo'yicha	
		Sug'oriladigan		Lalmi kor-yaylov	Sug'oriladigan	Lalmi kor-yaylov
		aholi punktlarida	aholi punktlaridan tashqarida			
1	Qoraqalpog'iston Respublikasi					
	Shimoliy hudud	8176434	7591397	37655	2144278	72759
	Markaziy hudud	9082271	8440061	458695	2385234	114553
	Janubiy hudud	10091373	9380246	54663	2637127	137599
2	Andijon viloyati	10320788	9598416	516207	2947294	149254
3	Buxoro viloyati	9976618	9369072	504642	2637418	137649
4	Jizzax viloyati	9288551	8783966	470306	1926539	91748
5	Qashqadaryo viloyati	9288551	8783966	470306	1857649	91748
6	Navoiy viloyati	9632677	9116490	481548	2293504	114566
7	Namangan viloyati	9472022	9059204	458695	2798141	137649
8	Shimoliy hudud	8176434	7591397	37655	2144278	72759
9	Markaziy hudud	9082271	8440061	458695	2385234	114553
10	Janubiy hudud	10091373	9380246	54663	2637127	137599
11	Andijon viloyati	10320788	9598416	516207	2947294	149254
12	Buxoro viloyati	9976618	9369072	504642	2637418	137649
13	Jizzax viloyati	9288551	8783966	470306	1926539	91748

3-jadval

Qishloq joylarida joylashgan yer uchastkalaridan foydalanganlik uchun aholidan undiriladigan yer solig'i stavkalari

t/r	Respublika, viloyat	0,01 ga yer uchun yer solig'i stavkasi, so'mda			
		dehqon xo'jaligini yuritish uchun ajratilgan yerlar			Jamoabog'dorchiligi va polizchiligi bilan shugullanish uchun ajratilgan yerlar
		Sug'oriladigan		lalmi yerlar	
		aholi punktlarida	aholi punktlaridan tashgarida		
1	Qoraqalpog'iston Respublikasi				
	Shimoliy hudud	4792,1	2402,4	479,3	2534,3
	Markaziy hudud	7674,1	3839,2	777,2	-
	Janubiy hudud	8525,2	4261,6	855,6	3135,2
2	Andijon viloyati	9009,9	4501,4	893,6	3492,1
3	Buxoro viloyati	8513,5	4254,4	789,5	3119,7
4	Jizzax viloyati	7979,2	3990,8	573,4	2242,0
5	Qashqadaryo viloyati	7979,2	3990,8	565,9	2196,5
6	Navoiy viloyati	8282,3	4139,3	683,8	2717,2
7	Namangan viloyati	8625,9	4314,1	855,6	3309,8
8	Samarqand viloyati	9098,3	4550,0	1054,6	4114,9
9	Surxondaryo viloyati	9809,5	4906,6	1378,5	5358,0
10	Sirdaryo viloyati	8045,2	4023,6	595,2	2300,7
11	Toshkent viloyati	9076,5	4538,9	1047,4	4088,3
12	Farg'ona viloyati	8487,7	4244,3	782,0	3064,3
13	Xorazm viloyati	8525,2	4261,6	806,6	3135,2

9-ilovaga izoh

- 2va 3-jadvallarda keltirilgan stavkalarga yer uchastkasining joylagan joyidan kelib chiqib koeffisientlar qo'llaniladi: Toshkent shahridan 20 km radius masofada - 1,30, Qoraqalpog'iston Respublikasi poytaxti va viloyat markazlaridan 15 km radius masofada - 1,20, tumanlar markazidan 10 km radius masofada - 1,15 va boshqa shaharlardan 5 km radius masofada - 1,10.
- Dehqon xo'jaliklaridan undiriladigan yer solig'i hisoblanganda 3-jadvalda keltirilgan stavkalarga yerning hosildorligi bilan bog'liq ravishda koeffisientlar qo'llaniladi: tuproq boniteti 40 ballgacha bo'lganda -0,75, 41 dan 70 ballgacha -1,0 va 70 balldan yuqori bo'lganda -1,25.

O'zbekiston Respublikasining
2019 yil 9 dekabrda O'RQ-589-son Qonuniga asosan
10-ilova

1-jadval

Meva-sabzavotchilik mahsulotlari (sabzavotlar, poliz ekinlari, mevalar, tokzorlar) bilan band qilingan yerlar uchun meva-sabzavotchilik gishloq xo'jaligi korxonalaridan undiriladigan yer solig'i bazaviy stavkalari

t/r	Respublika, viloyat	1-toifali 1 ga yer uchun soliqning bazaviy stavkalari, so'mda	
		Sug'oriladigan yerlarda	Sug'orilmaydigan yerlarda
1	Qoraqalpog'iston Respublikasi:	40251,8	865,0
2	Andijon viloyati	61089,8	8953,4
3	Buxoro viloyati	52953,4	8688,5
4	Jizzax viloyati	44612,6	8688,5
5	Qashqadaryo viloyati	45600,7	9124,6
6	Navoiy viloyati	42918,0	8688,5
7	Namangan viloyati	62947,3	9124,6
8	Samarqand viloyati	64360,4	9745,6
9	Surxondaryo viloyati	68652,2	8625,0
10	Sirdaryo viloyati	38355,7	9292,9
11	Toshkent viloyati	64484,6	11371,2
12	Farg'ona viloyati	56767,7	8953,4
13	Xorazm viloyati	48915,5	8625,0

2-jadval

Meva-sabzavotchilik mahsulotlari (sabzavotlar, poliz ekinlari, mevalar, tokzorlar) bilan band qilingan yerlar uchun meva-sabzavotchilik gishloq xo'jaligi korxonalaridan undiriladigan yer solig'i bazaviy stavkalari

Yerning toifalari	Ball-bonitet	Koeffitsientlar
I	0-10	(bazaviy stavka)
II	11-20	1,50
III	21-30	2,25
IV	31-40	3,29
V	41-50	4,67
VI	51-60	6,78
VII	61-70	9,00
VIII	71-80	11,68
IX	81-90	14,36
X	91-100	17,50
	Baholanmagan yerlar	4,67

